ISNN 3030-3907

2025/8
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2025/8 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Izzatov Diyor Hikmatillo o‘g‘li
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI*:*
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Renessans ta'lim universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Ayollar sportida sambo gender yondashuvlar va rivojlanish istiqbollari *Saidova Mahbuba Ayubovna* *Haydarova Maftunabonu Hayot qizi*	9
2	Turizm geografiyasining nazariy asoslari *Nematova Xurshida Xayitovna*	17
3	Bolalarda hazm qilish tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari va jarohatlanish semiotikasi: mikrobiom tahlili asosida tizimli tahlil *Boltayeva Shirin Baxtiyorovna*	23
4	Benzaldegid va uning para-r-almashgan hosilalarini3-xlor-3-metilbutin-1 bilan etinillash asosida Aromatik atsetilen spirtlari sintezi *Ziyadullayev Mirjalol Egamberdi o‘g‘li* *Nurmanov Suvonqul Erhanovich* *Otamuxamedova Go‘zal Qamariddinovna*	29
5	Приоритетные направления совершенствования механизма регулирования земельных отношений в узбекистане *Абдуназаров Ойбек Абдумуталибович*	41
6	Sambo sportida raqibga qarshi strategik kurash: texnik-taktik yondashuvlar tahlili *Saidova Mahbuba Ayubovna* *Haydarova Maftunabonu Hayot qizi*	52
7	Bolalarda energiya va moddalar almashinuvi: mini-invaziv va noinvaziv tekshiruv metodlari asosida baholash *Boltayeva Shirin Baxtiyorovna*	60
8	Biologik faol kompleks birikmalarning tuzilishi, tasnifi va tibbiyotdagi ahamiyati *K.T.Sovetov*	67
9	Properties and wear characteristics of materials fused onto component surfaces *Khaydarov U. Y* *Abdulkhayev Kh. G* *Kosimov K. Z*	74
10	Влияние комплексной кардиореабилитации на клинико-гемодинамические показатели у пациентов с ибс после чкв *Мирзаев Мирзо Кахорович*	81
11	Kompleks birikmalarning biologik tizimlardagi roli *K.T.Sovetov*	88
12	Динамика параметров сердечной ремоделирования у больных с ибс после акш *Мирзаев Мирзо Кахорович*	94
13	Loviya donini dukkaklaridan ajratib tozalash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan takomillashtirilgan qurilmaning ish rejimlarini maqbullashtirish *Pardayev Obid Raximboboevich* *Irisboyev Farxod Boymirzayevich*	102
14	Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy tamoyillari va unga ta’sir qiluvchi omillar *Ismatilloyeva Gulasal Rahmat qizi* *G‘aybullayev Saidjon Abdusalimovich*	110
15	No‘xat urug‘ini dukkaklaridan ajratib fraksiyalarga bo‘ladigan qurilmaning ish rejimlarini maqbullashtirish *Pardayev Obid Raximboboevich* *Islomov Muxammad Husniddin o‘g‘li*	117
16	Sovutish tizimlari uchun yangi yuqori samarali korroziya ingibitorlari sintezi va ularni turli metallarga nisbatan samaradorligini tadqiq qilish *Majidov Ismoil Saydulla o‘g‘li* *Karimov Ma’sud Ubaydullo o‘g‘li*	125

ISSN 3030-3907

17	Study of the interaction of potassium chloride with ammonium sulfate solution *Diyorbek Absattorov*	131
18	Dxsh asosidagi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlig *Yo'ldashev Qodirjon* *Qodirov Xusanboy Soxibjon o'g'li*	140
19	Radioaktiv elementlarning immun tizimiga salbiy ta'sirini baholash *Murtazayeva N.K*	149
20	Data augmentation va transfer learning strategiyalarining miya o'simtalarini tashxislashdagi qo'llanilishi va sun'iy intellekt modelarining samaradorligiga ta'siri *Doshchanova Malika Yuldashovna* *Abdiraximov Amriddin Abdiraximovich*	154
21	Termik ishlashni po'lat tuzilishiga va mexanik xossalariga ta'sirini tadqiq etish. *Arabbayeva Firyuza Uchkunovna*	160
22	Oxion inversio ox.2653 plmi markali invertorli metallografik mikroskopda cho'yanlarni mikrostrukturalarining tahlilini tadqiq etish *Arabbayeva Firyuza Uchkunovna*	166
23	Критериии нформационного обеспечение проектирования госпитальной одежды для больных кожными болезнями *Абдурахманов Абдурашид Атаханович* *Араббаева Фирюза Учкуновна*	173
24	Paxta tozalash mashinalari takomillashtirilgan tasmali uzatmasi nazariy hisobi tahlili *R.D.Baxtiyorova*	180
25	Применение биохимических маркеров костного коллагена в диагностике *Ким Оксана Владиславовна*	188
26	Tozalash agregati mexanizmlari dinamik tahlili *S.O.Hamdullayeva*	198
27	Muhandislik grafikasi uchun 3d modellashtirish dasturlari: tanlash va qo'llashning yangi strategiyalari *Berdiyev Usmon Tolib o'g'li*	203
28	Arrali silindrning xom-ashyo valigining o'zaro ta'sir jarayonini tahlili *Imomqulov Shuhratjon Boqijonovich* *Ne'matov Ilyosbek Ravshan o'g'li*	208
29	Tarkibida aromatik birikmalar saqlagan mahalliy xom ashyolardan foydalangan holda, sintetik dizel yoqilg'isining moylovchanlik xususiyatini yaxshilovchi tarkibida aromatik birikmalar saqlagan qo'shimchalar sintezi *Ochilov Abduaziz* *F.N.Nurqulov*	217
30	Konsept tipologiyasi va uning o'qitishdagi ahamiyati *Ulugmuratova Sohiba Azamatovna*	221
31	Technological progress in the field of synthetic liquid fuels: a path toward cleaner energy *Yulduz Tukhtaeva*	228
32	Oziq-ovqat bo'yoqlari eritmalarining spektraskopiyasi *Niyazxonova Bashorat Eshmamatovna* *Hakimova Madina Hamid qizi*	234
33	Fanlararo integratsiya orqali tibbiyot talabalari diagnostik kompetentsiyalarini shakllantirish metodikasi *Xalimova Salomat Asrorovna*	240
34	Уравнение распространения аэрозолей, загрязняющих веществ или пыли в атмосфере с учётом турбулентной диффузии и скорости оседания *Махмудов Рустам Зайнидин ўғли* *Махмудов Зайнидин Махамадиевич*	247
35	Применение автомобильных генераторов в малых ветроэнергетических установках Для сельских районов узбекистана *Усмонов Ботир Шукуриллаевич* *Муинов Улугбек Бахтиерович*	258

ISSN 3030-3907

36	Реакция каталитической гидратации ацетилена *Каржавов Абдихаким Рахмонович*	269
37	Bugungi kunda sanoat korxonalaridan chiqayotgan oqova suvlarni tozalash holati *Sultonov Akmal Obidovich* *Nazirov Sanjar O‘razali o‘g‘li*	282
38	The role of folk oral art in the spiritual and moral education and speech development of preschool children *Eshquvvatova Hilola*	290
39	Зеленые финансы и исламская экономика: возможности для глобального роста *Абдуллаев Акобир Афзалжонович*	305
40	Ionlantiruvchi nurlar ta’sirida mitoxondrialarda sodir bo‘ladigan biokimyoviy o‘zgarishlar va mitoxondrial disfunksiya kelib chiqishi *Keldiyorova Sh.X.*	312
41	Multi-siklon va elektrofiltr tizimlarining integratsiyalashuvi orqali sanoat changsizlantirish samaradorligini optimallashtirish Botirjon Abdullajonov Sabohat Ergashxo‘jayeva Ahror Tursunov	317
42	Zichlashtiruvchi mashina valetsi va grunt orasidagi o‘zaro ta‘sir jarayonining fizik modelda o‘tkazishning tadqiqi va mohiyati *Komilov Samandar Iskandarovich*	327
43	Poliakrilamid asosida modifikatsiyalangan penomateriallar olish va ularning strukturaviy-hamda termik xossalarini tahlil qilish *I.M.Xamrakulov* *J.B.Fayziyev* *F.N.Nurqulov*	337
44	Zig‘ir moyi tarkibidagi yog‘ kislotalarning xromatografik tahlili va ularning ozuqaviy qiymatiga ta’siri *Komila Bebitova*	344
45	Результаты усовершенствовании конструкции пластинчатого теплообменника *Юсупова Надира Кайпбаевна* *Сарсенбаев Нурлан Тенелбаевич*	350
46	O‘simlik moylari tarkibidagi yog‘ kislotalarini o‘rganishning fizik-kimyoviy asoslari *Komila Bebitova*	357
47	Bug‘ qizdirgich texnologik parametrlarini boshqarish tizimini neyrotarmoq texnologiyalari asosida tadqiq etish *Sodiqova Feruzaxon Botirxon qizi* *Yakubova Noilaxon Sobirjonovna,*	364
48	Co_2 konversiyasi uchun tio_2 asosida fotokatalitik xossali moddalar olinishi va ularni xossalarini o‘rganish. *A.A.Samiyev* *A.M.Nasimov* *O.N.Ruzimuradov*	375
49	Development and synthesis of tio_2 nanotube-based nanocomposite materials *A.A.Samiyev* *A.M.Nasimov* *O.N.Ruzimurodov.* *S.F.Fozilov*	382
50	Fosfogips va borogips chiqindilaridan samarali foydalanishning qurilish sanoatidagi imkoniyatlari. *X.A.Mamatov* *M.A.Murodilova*	390

ISSN 3030-3907

51	Teaching english by esp with the help of using different educative platforms and tools *Khujanazarova Gulbahor Gofurjonovna*	397
52	Маҳаллий корхоналарда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини такомиллаштириш *Мадумаров Фаррухбек Толибжонович*	403
53	Ikkilamchi chiqindilarni modifikatsiyalangan qurilish gipsni texnologik xususiyatlari tahlili *Akmalov M.G.* *S.N. Norov*	408
54	Uzum danagini maydalash uchun samarali maydalagichning konstruktiv va texnologik hisobi *Sharipov N.Z.* *Qo'ldosheva F.S.* *Ibragimov R.R.*	414
55	Эффективное использование тепла и холода в системах теплоснабжения *Ш.П.Мансурова*	421
56	Современные подходы и анализы при синдроме маллори-вейсса. *Саттаров О.Т.* *Ашуралиев Ш.Х.*	429
57	Analysis of water- and fat-soluble vitamins in ferula tadshikorum resin *D.B.Barakayeva* *N.I. Mukarramov*	442

ISSN 3030-3907

AYOLLAR SPORTIDA SAMBO GENDER YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Saidova Mahbuba Ayubovna
Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy madaniyat kafedra o‘qituvchisi
Email: mahubasaidova@gmail.com
Haydarova Maftunabonu Hayot qizi
Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi
Email: maftunahaydarova673@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollar sporti doirasida sambo kurashining ahamiyati, gender tenglik tamoyillari asosida shakllanayotgan sport muhiti, shuningdek, O‘zbekistonda ayol sambochilarni tayyorlashning muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sambo sporti orqali ayollarning jismoniy faolligi, ijtimoiy rolini kuchaytirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va sportdagi iqtidorini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yoritiladi. Gender yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashgan zamonaviy metodlar, murabbiylik strategiyalari va davlat dasturlarining roli ham ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sambo, ayollar sporti, gender tenglik, sport ta’limi, ijtimoiy integratsiya, metodika, murabbiylik, O‘zbekiston

Annotation: This article explores the significance of sambo wrestling in women’s sports within the framework of gender equality and modern athletic development. It analyzes the challenges and prospects of training female sambo athletes in Uzbekistan, focusing on their physical activity, empowerment, confidence building, and realization of athletic potential. The study also examines the integration of gender-sensitive approaches into coaching strategies, educational programs, and national policy initiatives aimed at fostering inclusive sports environments.

Keywords: sambo, women's sports, gender equality, sports education, social integration, methodology, coaching, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение самбо в женском спорте с позиции гендерного равенства и современных тенденций спортивного развития. Анализируются проблемы и перспективы подготовки женщин-спортсменок по самбо в Узбекистане, их физическая активность, социализация, укрепление уверенности и реализация спортивного потенциала. Особое внимание уделяется методам тренерской работы, образовательным подходам и государственным программам, направленным на формирование инклюзивной спортивной среды с учетом гендерной специфики.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: самбо, женский спорт, гендерное равенство, спортивное образование, социальная интеграция, методика, тренерство, Узбекистан

Kirish

Bugungi globallashuv va ijtimoiy modernizatsiya jarayonida sport sohasi nafaqat jismoniy sog‘lomlashtirish va salomatlikni mustahkamlash vositasi, balki keng ma’nodagi ijtimoiy transformatsiya, ijtimoiy tenglikni shakllantirish hamda gender asosidagi ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etishning samarali mexanizmi sifatida qaralmoqda. Zamonaviy sport nazariyasida sportning ijtimoiy institut sifatidagi roli doirasida gender yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ayollar sportiga oid masalalar sport sotsiologiyasi, pedagogikasi va psixologiyasi doirasida kompleks yondashuv asosida tahlil etilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, sambo sport turi -nafaqat kurashning klassik ko‘rinishi, balki yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik, koordinatsiya, tezkor qaror qabul qilish, ijtimoiy-psixologik chidamlilikni talab etuvchi murakkab sport turi hisoblanadi. Sambo ayniqsa, gender jihatdan noan’anaviy deb qaraladigan kurash turlaridan biri bo‘lsa-da, bugungi kunda ayollar ishtirokida ham faol rivojlanib bormoqda. Bu jarayon sportdagi gender normativlarini qayta ko‘rib chiqish va ayollar uchun teng imkoniyatlarni yaratishda muhim bosqich sanaladi. Mazkur maqolada ayollar sportida sambo kurashining gender xususiyatlari, O‘zbekistonda ayol sportchilarning tayyorgarlik holati, mavjud tizimli muammolar va ularning pedagogik-psixologik echimlari keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, davlat sport siyosatida gender tenglik tamoyillarining implementatsiyasi, sport ta’lim tizimida ayollar ishtirokini rag‘batlantirishga qaratilgan strategiyalar, murabbiylik faoliyatining gender sezgirligi kabi masalalar tahliliy yondashuv asosida o‘rganiladi.

Ushbu masalaning dolzarbligi, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-fevraldagi PQ-4996-son qarori ("Sportni ommalashtirish va yoshlar ishtirokini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida") bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda sport sohasida gender muvozanatini ta’minlash bo‘yicha alohida topshiriqlar belgilangani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar - Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi (IOC) hamda Xalqaro Sambo Federatsiyasi (FIAS) tomonidan gender tenglikni rag‘batlantirishga doir global tashabbuslar ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlamoqda.

Ilmiy yangilik sifatida maqolada ayollar uchun mo‘ljallangan sambo mashg‘ulotlarini genderga yo‘naltirilgan metodik yondashuv asosida tashkil etish, psixofiziologik imkoniyatlarni inobatga olgan holda individual murabbiylik strategiyalarini ishlab chiqish taklif etiladi. Bundan tashqari, sport ta’limi va

ISSN 3030-3907

akademik dasturlarni gender sezgir kontent bilan boyitish, ayol murabbiylar salohiyatini oshirish, sportni ijtimoiy integratsiya vositasiga aylantirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar nazariy va empirik asoslarda ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili: So‘nggi yillarda sport sohasida gender tenglik masalasi global miqyosda dolzarb mavzulardan biriga aylangan bo‘lib, bu borada ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, rus olimi L.P. Matveev sport pedagogikasining nazariy asoslari va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ishlab chiqqan holda, ayol sportchilarning jismoniy va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan trening tizimlarining zarurligini ta’kidlagan [1]. V.I. Lyax va S.N. Bubnov esa gender psixologiyasi va sport mashg‘ulotlarining ijtimoiy-psixologik omillariga oid tadqiqotlarida ayol sportchilarning motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va o‘ziga ishonchini shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilganlar [2].

Mahalliy mualliflar orasida R.D. Xalmuxamedov, F.A. Kerimov va S.C. Tajibaevning ilmiy ishlari O‘zbekistonda sport ta’limi tizimini gender yondashuv nuqtai nazaridan rivojlantirish, ayol sportchilarni tayyorlashdagi metodik kamchiliklarni bartaraf etish, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan didaktik strategiyalar ishlab chiqish bilan alohida ahamiyat kasb etadi [3; 4]. Ularning tadqiqotlarida gender differensialiga asoslangan sport yuklamalari, jismoniy rivojlanish bosqichlarida yuzaga keladigan fiziologik tafovutlar ham nazariy asoslangan.

Bundan tashqari, xalqaro miqyosda gender tenglik tamoyillarini joriy etishga qaratilgan tashabbuslar qatorida Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi (IOC) va Xalqaro Sambo Federatsiyasi (FIAS) faoliyati alohida e’tiborga loyiqdir. IOC tomonidan ishlab chiqilgan "Gender Equality and Inclusion Framework" (2021) hujjatida barcha sport turlarida, jumladan kurash va jangovar yo‘nalishlarda ham ayollar ishtirokini rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, resurs taqsimoti, tahliliy ko‘rsatkichlar va indikatorlar belgilangan [5]. FIAS esa 2022-yildan boshlab "Sambo for Women" dasturini ishga tushirgan bo‘lib, unda ayol sportchilarga mo‘ljallangan trening modullari, xalqaro seminarlar, murabbiylar uchun genderga sezgir metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda [6].

Gender yondashuvlar va sport ijtimoiy muhitining integratsiyasi sportchilarning o‘z-o‘zini anglash, psixologik tayyorgarligi, shaxsiy rejalashtirish hamda ijtimoiy ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aynan ayollar sportida gender tenglikni ta’minlash uchun multidistsiplinar, psixopedagogik, sport fiziologiyasi va sotsiologiyasini o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuv muhim ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

Shuningdek, sport sohasida genderga oid ilmiy izlanishlar samarasini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interaktiv o‘qitish usullari, masofaviy trening dasturlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va monitoring tizimlarini o‘rnatish zarurligi ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlanmoqda [7; 8]. Bu esa sambo sportida ayollar ishtirokini kengaytirish va ularning salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun zarur ilmiy-metodik asosni shakllantiradi.Gender yondashuvlar va ijtimoiy sport muhiti - sportchilarning o‘zini anglash, teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi uchun muhim faktordir. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aynan ayollar sportida gender tenglikni ta’minlash uchun integratsiyalashgan yondashuv zarur.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada qo‘llanilgan tadqiqot metodlari umumiy ilmiy va empirik asosga tayangan bo‘lib, gender asosidagi yondashuvni sport-pedagogik faoliyatga integratsiyalashga qaratilgan. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy metodologik yondashuvlar qo‘llanildi.

Nazariy-tahliliy metod - mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari, ilg‘or pedagogik tajribalar asosida genderga oid konsepsiyalar, sport mashg‘ulotlarining psixopedagogik asoslari, ayollar sportining rivojlanish omillari tahlil qilindi.

Empirik kuzatuv va suhbat metodi - Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlaridagi sport maktablarida faoliyat olib borayotgan 15 nafar murabbiy va 60 nafardan ortiq ayol sportchi bilan suhbatlar o‘tkazildi, amaliy mashg‘ulotlar jarayonida kuzatuvlar tashkil etildi.

Statistik tahlil - o‘rganilgan obyektlar (sport maktablari, murabbiylar, sportchilar) faoliyati natijalari tahlil qilinib, muammolar foiz ko‘rsatkichlar asosida grafik tarzda ifodalandi.

Ilmiy-metodik yondashuvda quyidagi tamoyillar asosiy deb belgilandi:
Gender asosida segmentatsiyalash - sportchilarning yosh, jismoniy va psixologik xususiyatlariga ko‘ra mashg‘ulot jarayonini moslashtirish. Bu yondashuv o‘quv yuklamasini individualizatsiya qilishga imkon yaratdi.


Individual yondashuv - ayol sportchilarning ehtiyojlari, ruhiy-emotsional holati, ijtimoiy-ma’naviy muhitini inobatga olgan holda trenerlar tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan metodik strategiyalar ishlab chiqildi.

Ta’lim va sport integratsiyasi - oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga sambo fanining genderga yo‘naltirilgan trening modullarini kiritish orqali ayol sportchilar uchun teng imkoniyatli o‘quv muhiti shakllantirishga qaratildi.

Tadqiqotning eksperimental qismi davomida ayollar ishtirokidagi sambo mashg‘ulotlarining davomiyligi, sharoitlari, murabbiylik uslubi va psixologik qo‘llab-quvvatlash holati chuqur tahlil qilindi. Kuzatuvlar asosida gender sezgir

ISSN 3030-3907

murabbiylar tomonidan olib borilgan mashg‘ulotlar sportchilarning o‘ziga ishonchini, faol ijtimoiy integratsiyasini va musobaqadagi natijalarini ijobiy o‘zgartirayotganini ko‘rsatdi.



Ayollar sportida sambo bilan shug‘ullanishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar

Tahlillarga ko‘ra, eng dolzarb muammo -gender stereotiplari bo‘lib, jamiyatda ayollar kurash sport turlariga yaroqsiz degan noto‘g‘ri ijtimoiy qarashlar sportchilarning motivatsiyasini pasaytiradi. Bundan tashqari, murabbiylar etishmovchiligi va mavjudlarining gender sezgirlikka ega emasligi ham sportchilarning individual rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Muhokama va natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda ayollar sportida, xususan, sambo kurashi bo‘yicha jiddiy tizimli va psixologik muammolar mavjud. Quyidagi jadvalda aniqlangan asosiy muammolar va ularning kuzatilish darajasi foiz ko‘rinishida taqdim etilgan.

Tadqiqot davomida gender sezgir yondashuvga ega bo‘lgan murabbiylar (5 nafar) tomonidan olib borilgan mashg‘ulotlar ijobiy natija bergani aniqlandi. Ularning sportchilarida musobaqaviy natijalar o‘rtacha 14% ga yuqorilagan, sportga bo‘lgan munosabat va ishtirok faolligi esa 27% ga oshgan. Bu esa zamonaviy, genderga asoslangan murabbiylik yondashuvining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ayollar sporti, ayniqsa, sambo kurashi yo‘nalishida hali ham bir qator tizimli va psixologik to‘siqlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati gender stereotiplari, metodik etishmovchiliklar, infrastrukturaviy muammolar va murabbiylar

ISSN 3030-3907

malakasiga borib taqaladi. Shu sababli, quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

Genderga yo‘naltirilgan metodik trening dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Ayol sportchilarning fiziologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan, individual yondashuvga asoslangan mashg‘ulotlar tizimi zamonaviy sport pedagogikasida ustuvor yo‘nalish bo‘lib, sambo sporti uchun ham maxsus modullar ishlab chiqilishi lozim. Oliy ta’lim muassasalarida sport va pedagogika sohalarida gender asosidagi maxsus fanlar joriy etilishi lozim. Pedagogika institutlari va jismoniy madaniyat oliygohlarida “Sportda gender psixologiyasi”, “Ayollar sportida metodika” kabi amaliy mashg‘ulotli maxsus kurslar orqali yangi avlod murabbiylarining gender sezgirlik salohiyatini oshirish mumkin. Davlat sport siyosatida ayol sportchilarga doir qo‘llab-quvvatlash dasturlarining amaliy ko‘lami kengaytirilishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4996-sonli qarori ijrosi doirasida ayollar sportini rivojlantirishga qaratilgan grantlar, stipendiyalar, sport infratuzilmasi va motivatsion dasturlar bo‘yicha alohida gender komponentlari ishlab chiqilishi zarur.

Murabbiy ayollarning kasbiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan qayta tayyorlov va malaka oshirish dasturlarini joriy etish lozim. Hozirgi vaqtda sport maktablarida faoliyat yuritayotgan ayol murabbiylarning salmog‘i past bo‘lib, bu sportchilarning psixologik moslashuvi va ijtimoiy o‘zlashtiruvi jarayonida muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, murabbiy ayollar uchun maxsus tayyorlov kurslari tashkil etilishi lozim. Ayollar uchun sambo musobaqalarining soni va ommaviyligi oshirilishi gender tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Musobaqalar orqali sportchilarning ishtirok motivatsiyasi, jamiyatdagi ijobiy ijtimoiy obrazini shakllantirish, sportda ayollar rolini kengaytirish mumkin. Bundan tashqari, ommaviy musobaqalar sportning mintaqaviy darajadagi ijtimoiy qabul qilinishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, sportda gender tenglikni ta’minlash, ayollar ishtirokini kengaytirish va sambo sporti orqali ularning jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun integratsiyalashgan, tizimli yondashuv zarur. Bu yondashuv davlat siyosati, ta’lim tizimi, sport infratuzilmasi va jamiyatning madaniy munosabati doirasida muvofiqlashtirilishi lozim.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-tahliliy va empirik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, bugungi kunda ayollar sportida, xususan, sambo kurashi yo‘nalishida mavjud imkoniyatlar va mavjud muammolar o‘rtasida muayyan tafovut mavjud. Sport tizimida genderga asoslangan tenglik tamoyillarining to‘laqonli joriy etilmasligi

ISSN 3030-3907

ayollar ishtirokini cheklab kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston sharoitida sport mashg‘ulotlarida ayollar uchun etarli infratuzilma, malakali murabbiylar, psixologik qo‘llab-quvvatlov tizimlarining mavjud emasligi ularning sport faoliyatida to‘liq ishtirok etishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Tadqiqot jarayonida Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida joylashgan sport maktablarida o‘tkazilgan amaliy kuzatuvlar, suhbatlar va statistik tahlillar orqali shunday xulosaga kelindiki: agar murabbiylik faoliyatiga genderga sezgir, shaxsga yo‘naltirilgan va pedagogik innovatsiyalarga asoslangan metodlar integratsiya qilinsa, ayol sportchilarning sportga bo‘lgan motivatsiyasi, o‘ziga ishonchi, musobaqalardagi natijalari va jamoa bilan ijtimoiylashuv ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, psixologik to‘siqlarni bartaraf etish, oila va jamiyatda ayollarning sport bilan shug‘ullanishga bo‘lgan munosabatini ijobiylashtirishga xizmat qiluvchi uslublar o‘z samarasini bermoqda.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport pedagogikasi yo‘nalishlarida genderga oid maxsus fanlar joriy etilishi, o‘quv rejalari va trening modullarining gender sezgir kontent bilan boyitilishi kelajak avlod murabbiylarining kasbiy kompetentligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Sport maktablari, ixtisoslashtirilgan akademiyalar va federatsiyalarda ayol murabbiylarning sonini oshirish, ularni qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlariga keng jalb qilish zarurati ham amaliy ehtiyoj sifatida ko‘rilmoqda. Davlat sport siyosati doirasida ayollar sportiga oid strategik hujjatlar, jumladan, Prezident qarorlari va hukumat qarorlarida gender tenglik tamoyillarini nafaqat deklarativ shaklda, balki aniq amaliy ko‘rsatkichlar, indikatorlar va moliyaviy mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etish lozim. Shu ma’noda, “Ayollar sporti uchun milliy strategiya” konsepsiyasini ishlab chiqish va uni barcha sport turlari, shu jumladan sambo kurashi yo‘nalishiga ham tatbiq etish dolzarbdir. Umuman olganda, mazkur maqola sambo sporti misolida ayol sportchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash, ularning sportdagi rolini kuchaytirish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda genderga asoslangan kompleks yondashuvlarning nazariy va amaliy asoslarini belgilashga qaratilgan. Ushbu ilmiy natijalar ayollar sporti sohasida innovatsion, inklyuziv va gender tenglikni ta’minlovchi yangi strategiyalarni ishlab chiqish uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - М.: Физкультура и спорт, 2005.
2. Халмухамедов Р.Д. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. - Т.: «Ўқитувчи», 2012.

ISSN 3030-3907

3. Lyakh V.I., Zdanevich L.A. Gender aspects in the training of athletes. - Journal of Physical Education, 2017.
4. Bobokulov U.R., Karimova Z.A. O‘zbekistonda ayollar sportini rivojlantirish istiqbollari. - “Ilmiy izlanishlar” jurnali, 2022.
5. ITSF - International Sambo Federation official reports, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-fevraldagi PQ-4996-son qarori - “Sportni ommalashtirish va yoshlar ishtirokini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

ISSN 3030-3907

TURIZM GEOGRAFIYASINING NAZARIY ASOSLARI

Nematova Xurshida Xayitovna
Buxoro Davlat Universiteti geografiya ixtisosligi 1-bosqich magistranti
E-mail: nematovaxurshida81@gmail.com

Annotatsiya: Turizm jahon iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, dunyo mamlakatlari milliy iqtisodiyotida yuqori daromad keltiradigan istiqbolli soha hisoblanadi. Turizmning barqaror taraqqiyot jarayoni jahon iqtisodiyotiga bevosita ta’sir etmoqda,chunki bu soha vaqt va zamon o‘zgarishi bilan yanada rivojlanib, tarmoqlanib bormoqda.Turizm geografiyasining nazariy asoslarini o‘rganish turizm industriyasi bilan bog‘liq tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar:Turizm, turist, turoperator,turistik agentliklar,ichki turizm,xalqaro turizm, ziyorat turizmi

Аннотация: Туризм является одной из ведущих отраслей мировой экономики и перспективной сферой, приносящей высокий доход в национальную экономику стран мира. Процесс устойчивого развития туризма оказывает прямое влияние на мировую экономику, поскольку эта сфера с течением времени и изменением эпох продолжает развиваться и диверсифицироваться. Изучение теоретических основ географии туризма имеет важное значение в исследованиях, связанных с туристической индустрией.

Ключевые слова: туризм, турист, туроператор, туристические агентства, внутренний туризм, международный туризм, паломнический туризм.

Annotation: Tourism is one of the leading sectors of the global economy and a promising field that generates high income for the national economies of countries around the world. The process of sustainable tourism development has a direct impact on the global economy, as this sector continues to grow and diversify over time and with the changing era. Studying the theoretical foundations of tourism geography plays an important role in research related to the tourism industry.

Keywords: tourism, tourist, tour operator, tourist agencies, local tourism, international tourism, pilgrimage tourism**.**

Kirish

Bizga ma’lumki turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo‘lib, nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ‘ib etishda ham samarali omil bo‘lib xizmat qiladi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo‘lib,uning taraqqiyoti turli omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining

ISSN 3030-3907

taxminan 5%ini tashkil etadi, rivojlangan mamlakatlarda deyarli 10% aholi turizm sohasi bilan band. Turizmning barqaror taraqqiyot jarayoni jahon iqtisodiyotiga bevosita ta'sir etmoqda. Ma'lum bir hududda turizm industriyasi bilan bog'liq izlanishlar olib borishda avvalo turizmning nazariy asoslari,tarixiy taraqqiyot jarayoni,rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, turizm tashkilotlari orqali turizm ma'lum bir marshrutlar bo'yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, ziyorat turizmi,gastronomik turizm,b…) bo'lib ,vaqt va zamon bilan hamnafas o'zgarib, taraqqiy etib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Turizm haqida so'z ketganda avvalo bu so'zning ma'nosini bilib olishimiz kerak bo'ladi. Turizm – fransuzcha tour – sayr, sayohat , sayyohlik - sayohat qilish , faol dam olish turlaridan biri demakdir. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda ma'lum muddatga faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi tushuniladi.

"Turizm" atamasi odamlarning odatiy yashash joyidan uzoqlashishi kabi ta'rif bilan yanada takomillashtirilgan. Ushbu ta'rifni o'rganish jarayonida bir qancha savollar yuzaga keladi.quyida ulardan ayrimlarini keltirib o'tmoqchiman:

- Bir necha kilometr masofani bosib o'tgan xaridorlarni ham sayyoh deb hisoblash kerakmi?
- Belgilovchi omilni maqsad belgilaydimi yoki masofa?
- Sayyohlar qatoriga kirishdan oldin odamlar qancha masofani bosib o'tishlari kerak?

Shubhasiz, har qanday ta'rif aniq bo'lishi kerak. Qo'shma shtatlarda 1973-yilda Milliy Resurslami Tekshirish Komissiyasi mahalliy sayyoh " Kamida 50 mil (bir yo'l) sayohat qilgan" bo'lishini aniqladi. Buni 11 yildan so'ng AQSHning aholini ro'yxatga olish byurosi tasdiqlab, turizmni kamida 100 milga sayohat sifatida aniqladi. Biroq, Kanada hukumati buni sayyohlar uyi chegaralaridan kamida 25 mil uzoqlikda yurish deb belgilaydi, Angliya turizm kengashi esa tashrif buyurish uchun uydan kamida 20 milya va 3 soatlik masofani taklif qildi. Dam olish va sayohatni tashkil qilish bo'yicha, shu sababdan hali hech qanday kelishuvga erishilmagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda tarixiy – madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o'rganilgan va turlicha ta'rif berilgan. Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg tarixiy-madaniy turizmni "kishilarning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajriba to'plash maqsadida odatiy yashash

ISSN 3030-3907

joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi" deya ta'riflaydi.

Rossiya mutaxassisi Y.V. Kolotova turizmni "Mamlakatning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olgan an'ana va urf-odatlar, xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati" deya ta'riflaydi.

Zamonaviy turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlabki uyushgan sayyohlik Tomas Kuk tomonidan 1841-yilda tashkil etilgan bo'lib,bu xalqaro emas,balki ichki (mahalliy) sayohat bo'lgan.Bu sayohatda 500ga yaqin kishi Leysterdan Lofboroga poyezdda sayohat qilganligi manbalarda keltirilgan. Shundan so'ng u 1845-yilda o'zining birinchi sayyohlik agentligini ochadi.

1942-yilda Shveysariyalik olimlar Walter Hunziker va Kurt Krapflar tomonidan yaratilgan "Grundrinss der Allgemeinen Fremdenverkehrslehre" (Umumiy turizm nazariyasi asoslari) ilmiy asari soha izlanuvchilari orasida mashhurdir. Ular turizmni "Turizm — bu doimiy yashash joyidan tashqarida bo'lgan shaxslarning safar va vaqtincha yashashi natijasida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalarning majmuidir. Bunda bu holat doimiy yashashni anglatmasligi va daromad keltiruvchi faoliyat bilan bog'liq bo'lmasligi lozim" deya ta'riflashgan.

Ushbu ta'rif turizmni migratsiyadan ajratib olishga yordam beradi, ammo sayohat ham, turar-joy ham turizm uchun zarur, shuning uchun kunduzgi sayohatlarni istisno qiladi. Bundan tashqari, ish haqi bilan bog'liq bo'lgan ish safari bundan mustasno.Bundan tashqari, ishbilarmonlik va dam olish turizmini farqlash juda ko'p hollarda juda qiyin, chunki ko'pchilik ish safarlarida dam olish faoliyati elementlari birlashtiriladi. Avvalroq, 1937-yilda Millatlar Ligasi "turist" ta'rifini quyidagicha keltirgan edi: "Turist — bu o'zining odatdagi yashash joyidan boshqa hududga kamida 24 soatga va ko'pi bilan bir yilgacha bo'lgan muddatga safar qiluvchi shaxsdir. U bu safarni dam olish, ishbilarmonlik yoki boshqa maqsadlarda amalga oshiradi, biroq tashrif buyurgan joyda hech qanday haq to'lanadigan (daromadli) faoliyat bilan shug'ullanmaydi."

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Mavzuga oid tarixiy faktlarni o'rganish orqali turizm sohasining ilk shakllanish ko'rinishlaridan tortib hozirgi zamonaviy tus olishigacha bo'lgan jarayonlar bilan bog'liq ayrim jihatlari e'tiborimizni tortadi.

Finikiyaliklar zamonaviy ma'noda eng qadimgi sayohatchilardan edi. Ular yaxshi dengizchilar va savdogarlar bo'lish barobarida turizm sohasining ilk ko'rinishlariga asos solishgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, "sharq"da ham erta sayohat asosan tijoratga asoslangan edi. Ko'hna Sharq va G'arbni bog'lagan Buyuk Ipak Yo'li xalqaro savdo munosabatlarida asosiy savdo yo'li sifatida

ISSN 3030-3907

etakchilik qilgan davrda (mil.av II asrdan milodiy XVI asrgacha)Yevrosiyo zaminida eng qadimgi sivilizatsiya manzillaridan bo‘lgan Hindiston va Xitoy singari mamlakatlarga nisbatan Yevropada qiziqishning ortishi ortida ham nafaqat tijorat, balki turizm industriyasi shakllana borganligi e’tiborga loyiqdir.

Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Ispaniya elchisi Ryu Gonzales de Klavixo rasmiy elchi bo‘lsada uning kuzatuvlari bugungi kun turizm tafakkuriga yaqin. Uning safarnomasi-nafaqat diplomatik hujjat, balki ilk sayyohlik qaydnomasi hisoblanadi.U Samarqandni “Jannat bog‘i kabi” deb ta’riflab, Temur davlatidagi madaniyatni butun Yevropaga tanitishga hissa qo‘shgan.

Zamonaviy turizm bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ba’zi atamalarni o‘rganish soha bilan bog‘liq tadqiqotlarda muhim hisoblanadi.

Turistik agentliklar – bu iste’molchilarga ya’ni turistga yoki mijozlarga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Turoperator – turistik paket ishlab chiquvchi, sifatli u turistik yo‘nalishlar ishlab chiqish va turlar komplektasiyasi bilan shug‘ullanadi, ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi, bu yo‘nalishlar bo‘yicha narxlarni belgilaydi, turlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki turistik agentliklar vositasida turistlarga sotiladi. Turoperatorlar turistlik xizmatlardan birini tanlash imkonini ta’minlab beradi va bir vaqtning o‘zida boshqa shaharlarga va joylarga xizmat ko‘rsatishga buyurtma berish vazifasini o‘z zimmasiga olib amalga oshiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Turizm industriyasining ta’rifi va shakllanish bosqichlari bilan bog‘liq turli tuman fikrlar mavjudligi haqida yuqorida keltirib o‘tildi. Ushbu sohaning taraqqiyot davrini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganish ham soha izlanuvchilari orasida keng tarqalgan.

1-jadval

Turizmning rivojlanish bosqichlari

	Rivojlanish bosqichlari	**Qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi**	**Muhim xususiyatlari**
1	Qadimgi davr	Mil.avv. IV mingyillik-mil.I asr	Qadimgi sayohatlar uyushtirilishi
2	O‘rta asrlar	V-XV asrlar	Asosan diniy ziyoratlar rivojlangan. Buyuk Ipak Yo‘li soha taraqqiyotida muhim sabab bo‘lgan.

ISSN 3030-3907

3	Buyuk geografik kashfiyotlar davri	XV-XVIII asrlar	Ilm-fan rivoji natijasida sayohatlar hududi kengayib ,yangi erlar ochildi.
4	Sanoat inqilobi davri	XVIII-XIX asrlar	Temiryo‘l,bug‘li kemalar ixtirosi sabab sayohat qilish osonlashdi.
5	Ommaviy turizm bosqichi	XX asr	Avtomobil,samolyot,poyezdlar keng tarqalishi turizm rivoji uchun asos bo‘ldi. Ommaviy xalqaro sayohatlar tashkil etildi. Turistik tashkilotlar tuzildi.
6	Zamonaviy turizm bosqichi	XXI asr	Raqamli turizm shakllandi. Turizmda yangi yo‘nalishlar (Ekoturizm,agroturizm,tibbiy turizm,gastronomik turizm kabi) shakllandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Fikrimizcha bu borada hali olib borilishi kerak bo‘lgan tadqiqotlarning ko‘lamini kengaytirish, xorijiy tajribani ham o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda zamonaviy qarashlar etakchi o‘ringa ega bo‘lib, ba’zi muammolar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan.

Turizmning nazariy asoslarini o‘rganish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa soha mutaxassislarini tayyorlashda samaralidir. Quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o‘tish o‘rinlidir:

1. Turizm nazariyasini o‘rganish orqali sohaga ilmiy yondashuv ta’minlanadi. Bu esa turizm faoliyatining samaradorligini oshirishga, turistik resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi.
2. Nazariy bilimlar turizm turlarini, uning taraqqiyot bosqichlarini, ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini tushunishga xizmat qiladi. Natijada amaliy qarorlar qabul qilishda muhim asos bo‘ladi.
3. Xalqaro va mahalliy turizmning qonuniyatlarini o‘rganish orqali O‘zbekiston kabi turistik salohiyati yuqori bo‘lgan dunyoning ko‘plab mamlakatlarida to‘g‘ri strategiyalar ishlab chiqish mumkin.
4. Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashda nazariy asoslar muhim rol o‘ynaydi. Chunki professional mutaxassis chuqur nazariy bilimga ham ega bo‘lishi kerak.

ISSN 3030-3907

5. Barqaror turizmni yo‘lga qo‘yish — ekologik, iqtisodiy va madaniy omillarni muvozanatli tarzda hisobga olishni talab qiladi. Bunga esa chuqur nazariy bilim orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qo‘yliqov, O. va Mirzayev, B. (2020).Turizm: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 320 bet.
2. Колотова Е.В. “Рекреационное ресурсоведение” Учебник пособие 1999 Москва (РМАТ) Стр. 15-20
3. Richards, G. (2007). “Cultural Tourism: Global and Local Perspectives”. London & New York: Routledge. (24–27-betlar).
4. Goeldner, C. R., Ritchie, J. R. B. “Tourism: Principles, Practices, Philosophies” 2009 (11-nashr). Hoboken (6–10; 110–115-betlar).
5. UNWTO. “International Recommendations for Tourism Statistics 2020: Concepts, Definitions, Classifications” 2021 Madrid: UNWTO Publishing. (18–22-betlar).
6. Jürgenson, I., Prokkola, E-K. Cultural tourism in heritage cities. “Annals of Tourism Research”, 2018 . (57–67 -betlar)
7. Зайнутдинова Д. К., Нематова Х. Х. Некоторые аспекты развития туризма в Бухарской области. «Экономика и социум», №1(128), 2025. www.iupr.ru. «Институт управления и социально-экономического развития», Россия, г. Саратов. Стр. 660-667.

ISSN 3030-3907

BOLALARDA HAZM QILISH TIZIMINING ANATOMO-FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA JAROHATLANISH SEMIOTIKASI: MIKROBIOM TAHLILI ASOSIDA TIZIMLI TAHLIL

Boltayeva Shirin Baxtiyorovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.

Buxoro, O‘zbekiston.

E-mail: boltayeva.shirin@bsmi.uz

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada bolalar hazm qilish tizimining anatomo-fiziologik xususiyatlari hamda uning shikastlanish (jarohatlanish) holatlarida namoyon bo‘ladigan klinik-semiotik belgilar mikrobiom tahlili asosida chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida turli yosh guruhlariga mansub bolalarning ichak mikrobiotasidagi tarkibiy o‘zgarishlar dinamikasi o‘rganilib, ushbu o‘zgarishlarning mavjud patologik holatlar bilan bo‘lgan bog‘liqligi tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, bolalar organizmida mikrobiom holati, xususan ichak mikroflorasi tarkibi, immunologik javob, yallig‘lanish jarayonlari va shikastlanish belgilarining shakllanishida muhim patogenetik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, mikrobiota disbalansi (disbioz) bilan birga kechuvchi klinik ko‘rinishlar – diareya, meteorizm, qorin og‘rig‘i, ishtaha buzilishi kabi simptomlar o‘zaro kuchli korrelyatsiyani namoyon etgani aniqlangan.

Shuningdek, yoshga xos fiziologik xususiyatlar – fermentativ tizim etilmaganligi, shilliq qavatning himoya funksiyasining pastligi va immun tizimning differensial rivojlanish bosqichlari – mikrobiomning tarkibiy va funksional holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, bolalarda hazm qilish tizimi shikastlanishlari diagnostikasi va davolashida mikrobiom tahlilining ahamiyatini oshiradi. Tadqiqot natijalari asosida mikrobiom tahlili pediatrik gastroenterologiyada erta diagnostika, kasallikning og‘irlik darajasini baholash va individual terapevtik yondashuvni shakllantirishda istiqbolli usul sifatida qo‘llanishi mumkinligi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: bolalar, hazm qilish tizimi, anatomiya, fiziologiya, jarohat, semiotika, mikrobiota, mikrobiom, metagenomika.

Аннотация: В данной научной статье на основе анализа микробиома проведен глубокий анализ анатомо-физиологических особенностей пищеварительной системы детей и клинико-семиотических признаков, проявляющихся при ее повреждении (травме). В рамках исследования была изучена динамика структурных изменений микробиоты кишечника у детей разных возрастных групп и проанализирована связь этих изменений с существующими патологическими состояниями. Полученные результаты показали, что состояние микробиома в организме детей, в частности, состав

ISSN 3030-3907

кишечной микрофлоры, проявляется как важный патогенетический фактор в формировании иммунологического ответа, воспалительных процессов и симптомов поражения. В особенности было обнаружено, что клинические проявления, сопровождающиеся дисбалансом микробиоты (дисбиозом), такие как диарея, метеоризм, боли в животе, нарушение аппетита, демонстрируют сильную взаимную корреляцию.

Кроме того, возрастные физиологические особенности - незрелость ферментативной системы, низкая защитная функция слизистой оболочки и стадии дифференциального развития иммунной системы - оказывают непосредственное влияние на структурное и функциональное состояние микробиома. Это, в свою очередь, повышает значимость анализа микробиома в диагностике и лечении поражений пищеварительной системы у детей. На основании результатов исследования доказано, что анализ микробиома может применяться в педиатрической гастроэнтерологии как перспективный метод ранней диагностики, оценки степени тяжести заболевания и формирования индивидуального терапевтического подхода.

Ключевые слова: дети, пищеварительная система, анатомия, физиология, травма, семиотика, микробиота, микробиом, метагеномика.

Данные Таблицы 6 показывают, что за период с 1991 по 2021 год наблюдается тенденция снижения плодородия почв на используемых в сельском хозяйстве землях страны. Это свидетельствует о необходимости принятия мер по повышению плодородия почвы и урожайности, а также поддержки внедрения новых технологий орошения.

Для эффективного решения вышеуказанных проблем, по мнению автора, целесообразно ввести дифференцированную систему налогообложения (2 балл - 20%; 5 балл - 40%; 8 балл - 60%) для сельскохозяйственных производителей, работающих на выделенных им земельных участках, с учетом уровня повышения плодородия почв (Таблица 7).

Таблица 7.

Механизм дифференцированного налогообложения

№	Плодородие почвы	Процент	Сниженная налоговая ставка
1.	При увеличении на 2 балла	5%	20%
2.	При увеличении на 5 баллов	10%	40%
3.	При увеличении на 8 баллов	15%	60%

В рамках эффективного использования земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве Республики Узбекистан предусмотрено сотрудничество

ISSN 3030-3907

с международными финансовыми институтами, а также внедрение механизма государственно-частного партнерства (ГЧП).

По мнению автора, приоритетные направления развития государственно-частного партнерства должны включать:

- во-первых, формирование новых механизмов финансирования за счет бюджетных средств и прямую поддержку государственно-частного партнерства (ГЧП) в проектах путем создания "бюджетной опоры";
- во-вторых, устранение законодательных барьеров и препятствий в процедурах разработки и реализации проектов ГЧП в сельскохозяйственном производстве путем совершенствования нормативно-правового обеспечения;
- в-третьих, оптимизация подходов к регулированию внутренних отраслевых механизмов, внедрение самофинансирования и регулирование тарифов в сельскохозяйственных секторах для устранения ограничений при реализации ГЧП;
- в-четвертых, пересмотр подходов к системе планирования на основе формирования долгосрочных стратегических государственных приоритетов, в том числе к инфраструктурному развитию аграрного сектора.

В рамках реализации государственно-частного партнерства между государством и предпринимателями требуется заключение инвестиционного договора или предоставление объектов на основе ГЧП для восстановления и реконструкции ирригационно-мелиоративных сетей, внедрения водосберегающих технологий и введения в эксплуатацию засухоустойчивых сельскохозяйственных культур.

Исследования показали, что за период с января по июль 2023 года в республике было реализовано 244 проекта ГЧП на общую сумму 2,96 млрд долларов США (Таблица 8).

Таблица 8.

Перечень проектов, реализованных в стране в рамках государственно-частного партнерства с января по июль 2023 года

	Отрасли	Количество
1.	Энергетика, здравоохранение, экология, транспорт	**по 6 в каждой**
2.	Культура, спорт	**по 3 в каждой**
3.	Коммунальные услуги	**198**
4.	Образование	**22**
5.	Водное хозяйство	**10**

ISSN 3030-3907

6.	Ремесленничество	**4**
7.	Экономика и сельское хозяйство	**по 1 в каждой**

По мнению автора, необходимо совершенствовать арендные отношения при использовании земель Государственного лесного фонда, а также осваивать неорошаемые и незалесенные участки лесного фонда, внедряя государственно-частное партнерство (ГЧП) на срок 5 лет для создания плантаций ореховых и плодовых садов (фисташка, миндаль, грецкий орех) и быстрорастущих деревьев (павловния, тополь и другие).

Кроме того, целесообразно предоставить предпринимателям значительные возможности, условия и льготы для освоения неорошаемых и незалесенных земельных участков лесного фонда в пустынных регионах с целью создания плантаций пустынных и пастбищных растений (саксаул, черкез, кандим, карабурак и другие) в течение 10 лет.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

По результатам исследования, через систему аренды незалесенных земельных участков лесного фонда на основе ГЧП было создано возможность передать в аренду 1 561 субъекту более 29 000 гектаров таких земель сроком до 49 лет. В результате арендаторами – юридическими и физическими лицами – было инвестировано более 275 млрд сумов и 7 млн долларов США, а также создано 4 300 новых рабочих мест.

В связи с этим, для дальнейшего развития отрасли необходимо поддерживать пользователей земель лесного фонда и внедрять новые формы государственно-частного партнерства, в частности:

а) применение нулевой ставки арендной платы для арендаторов лесного фонда при следующих условиях:

- на земельных участках лесного фонда, освоенных и засаженных новыми ореховыми садами (фисташка, миндаль, грецкий орех) и быстрорастущими деревьями (павловния, тополь) – на 5 лет;
- на пустынных, незалесенных и неорошаемых землях лесного фонда, освоенных для создания плантаций пустынных растений (саксаул, черкез, кандим, карабурак) – на 10 лет;
- на неорошаемых и незалесенных землях лесного фонда, освоенных для посадки сельскохозяйственных продовольственных культур (бобовые, масличные, зерновые, овощи, бахчевые) и лекарственных растений – соответственно на 1 год и 3 года;

б) выплата субсидии из средств Государственного фонда содействия занятости в размере 50% от средней заработной платы (но не более 2 БРВ в

ISSN 3030-3907

месяц) в течение 6 месяцев в случае трудоустройства безработных граждан, зарегистрированных в центрах занятости населения;

в) полное распространение механизмов возмещения затрат на строительство и реконструкцию объектов ирригации и мелиорации, а также внедрение водосберегающих технологий полива на арендаторов лесного фонда;

г) предоставление информации о зонах формирования подземных вод на арендованных участках лесного фонда со стороны Государственного комитета по геологии и минеральным ресурсам в срок, не превышающий 15 дней.

В целом, подводя итоги, можно сказать, что в условиях рыночной экономики решение некоторых проблем требует государственного вмешательства. Это также касается аграрного сектора. Аграрный сектор экономики занимает особое место в рыночных условиях и не может выдерживать межотраслевую конкуренцию без государственной поддержки. Считать, что сельское хозяйство, в том числе производители сельскохозяйственной продукции, достигнут стабильности только за счет самоуправления в рыночных условиях, не всегда верно. В целом, функции государства по координации экономики непосредственно относятся к сельскому хозяйству.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Совершенствование механизма регулирования земельных отношений в Узбекистане — ключевой фактор устойчивого развития аграрного сектора, рационального использования природных ресурсов и обеспечения продовольственной безопасности. Проведённый анализ показал, что действующие реформы уже заложили основу для формирования эффективной системы управления земельными ресурсами. Вместе с тем, для достижения устойчивых результатов необходима реализация следующих приоритетных направлений:

✓ развитие правовых институтов и обеспечение верховенства закона в сфере землепользования;

✓ цифровизация кадастровой и мониторинговой системы;

✓ внедрение рыночных механизмов распределения и аренды земли;

✓ повышение открытости и прозрачности в управлении земельными ресурсами;

✓ активное вовлечение местного населения и инвесторов в процесс принятия решений.

Реализация указанных мер позволит повысить эффективность использования земель, создать благоприятный инвестиционный климат и

ISSN 3030-3907

обеспечить социальную справедливость в распределении этого важнейшего ресурса.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».
2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы».
3. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5742 от 17 июня 2019 года «О мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве».
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № ПП-3680 от 26 апреля 2018 года «О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности фермерских, дехканских хозяйств и владельцев приусадебных участков».
5. Земельный кодекс Республики Узбекистан. – Ташкент: Минюст РУз, 2023.
6. Гражданский кодекс Республики Узбекистан (Часть вторая). – Ташкент: Минюст РУз, 2023.
7. Закон Республики Узбекистан «Об аренде» (в редакции 2022 г.). – Ташкент: Юридическая литература, 2022.
8. Рахимов Б.Р. Земельные отношения и устойчивое развитие сельского хозяйства. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2020.
9. Саидов А.Х. Правовое регулирование использования сельскохозяйственных земель в Узбекистане. – Ташкент: Sharq, 2019.
10. Каримова З.И. Экономическая оценка земельной ренты и регулирование арендных отношений. – Ташкент: Universitet, 2021.
11. Всемирный банк. Управление земельными ресурсами: международный опыт и рекомендации. – Вашингтон, 2020.

ISSN 3030-3907

SAMBO SPORTIDA RAQIBGA QARSHI STRATEGIK KURASH: TEXNIK-TAKTIK YONDASHUVLAR TAHLILI

Saidova Mahbuba Ayubovna
Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy madaniyat kafedra o‘qituvchisi
Email: mahubasaidova@gmail.com
Haydarova Maftunabonu Hayot qizi
Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi
Email: maftunahaydarova673@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sambo sportida raqibga qarshi strategik kurash jarayonida qo‘llaniladigan texnik-taktik yondashuvlar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sportchining texnik tayyorgarligi, taktika tanlashi, raqib harakatlarini oldindan taxminlash hamda moslashuvchan qarorlar qabul qilish qobiliyatining samaradorligi baholanadi. Maqolada zamonaviy trening metodlari, murabbiylik strategiyalari va musobaqa jarayonidagi real holatlar asosida raqibga qarshi kurashning mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sambo, texnika, taktika, strategik kurash, raqib tahlili, sport tayyorgarligi, qaror qabul qilish

Аннотация: В статье проводится теоретический и практический анализ технических и тактических подходов в стратегической борьбе против соперника в спортивном самбо. Оценивается эффективность технической подготовки спортсмена, выбора тактики, предвидения действий соперника и принятия адаптивных решений. Особое внимание уделяется современным методам тренировки, тренерским стратегиям и реалиям соревновательного процесса.

Ключевые слова: самбо, техника, тактика, стратегическая борьба, анализ соперника, спортивная подготовка, принятие решений

Annotation: This article presents a theoretical and practical analysis of technical and tactical approaches in strategic opposition during sambo wrestling. It evaluates the effectiveness of an athlete's technical preparation, tactical selection, opponent anticipation, and decision-making adaptability. The study highlights modern training methods, coaching strategies, and real competition scenarios in counteracting the opponent.

Keywords: sambo, technique, tactics, strategic combat, opponent analysis, athletic preparation, decision-making

Kirish

Bugungi kunda sport sohasida yuqori natijalarga erishish jarayoni murakkab, integratsiyalashgan yondashuvni talab qilmoqda. Bu jarayon nafaqat sportchining jismoniy salohiyati bilan, balki uning texnik va taktik tayyorgarligi, strategik

ISSN 3030-3907

fikrlashi, qaror qabul qilish qobiliyati va raqib harakatlarini tahlil qilish ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, kurashga asoslangan sport turlarida, jumladan, sambo sportida strategik ustunlikni qo‘lga kiritish uchun texnik takomillik va taktik moslashuvchanlikning uyg‘unligi zarur.

Sambo – jangovar sport sifatida sportchidan yuqori reflektorlik, muvozanatni saqlash, qisqa vaqt ichida optimal texnik echimni tanlash, raqibni tahlil qilish va psixologik barqarorlikni talab qiladi. Raqibga qarshi samarali strategiyani tanlashda sportchining nafaqat tayyorgarlik darajasi, balki musobaqa vaqtida sharoitga mos qarorlar qabul qilishi, texnik kombinatsiyalarni tezda o‘zgartira olish qobiliyati ham katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamonaviy sportda texnik va taktik tayyorgarlik faqatgina sport maydonida olib boriladigan mashg‘ulotlar bilan cheklanmaydi. Yuksak darajadagi tayyorgarlik tizimi quyidagilarni ham o‘z ichiga oladi: raqibning oldingi janglaridagi texnik xarakteristikasini videografik tahlil qilish, raqamli monitoring platformalaridan foydalanish, psixologik reaksiya va stressga chidamlilikni diagnostika qilish, sun’iy intellekt asosida raqib harakatlarini prognozlash. Bu texnologik vositalar strategik kurashni nafaqat amaliy, balki ilmiy yondashuv bilan boshqarishga imkon beradi.

Ushbu maqolada sambo sportida qo‘llaniladigan texnik-taktik yondashuvlar, ularning nazariy asoslari, amaliy mashg‘ulotlardagi qo‘llanish shakllari, murabbiylik strategiyalari va sportchi-raqib o‘zaro kurashining psixopedagogik jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Raqib harakatlarini oldindan ko‘ra bilish, uni segmentlarga bo‘lib tahlil qilish, individual texnika-taktika modellarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar beriladi.

Maqolaning dolzarbligi, birinchidan, O‘zbekistonda sambo sportining ommaviylashuvi va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etayotgan sportchilar sonining ortib borayotgani bilan, ikkinchidan esa — professional sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligiga oid tizimli, ilmiy asoslangan metodikalarning etishmasligi bilan bog‘liq. Mavjud uslubiy adabiyotlar ko‘proq umumiy mashg‘ulotlar va texnik harakatlar tasnifiga qaratilgan bo‘lib, strategik kurashning raqib tahliliga asoslangan nazariy mexanizmlari etarlicha yoritilmagan.

Shu sababli, mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy sport tayyorgarligida muhim bo‘lgan kompetensiyalar — analitik fikrlash, raqib faoliyatini prognozlash, holatga mos taktik modellashtirish — kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda yangi yondashuvlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat sportchilar, balki murabbiylar va sport pedagogikasi sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Adabiyotlar tahlili: Sambo sportining texnik va taktik asoslarini chuqur o‘rganish, ayniqsa raqibga qarshi strategik kurash yondashuvlarini ilmiy asoslash, hozirgi zamonaviy sport metodologiyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Texnika va taktika — bu nafaqat jismoniy harakatlar ketma-ketligi, balki sportchining psixologik tayyorgarligi, qaror qabul qilish qobiliyati va raqibning harakatlarini tahlil qila olish darajasi bilan bevosita bog‘liq murakkab jarayondir. Xalqaro miqyosdagi ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, strategik kurash muvaffaqiyatining asosi — bu har bir raqibga nisbatan individual yondashuv, ya’ni texnik-taktik modellashtirish asosida maqsadga yo‘naltirilgan strategik echimlarni ishlab chiqishdir. Jumladan, L.P. Matveev (2005) tomonidan ishlab chiqilgan sport mashg‘ulotlari nazariyasi, texnik harakatlarning avtomatlashuvi, fazoviy va vaqtli koordinatsiya, hamda reflektor mexanizmlarning rivojlanishi orqali sportchining musobaqadagi muvaffaqiyati ta’minlanishini asoslaydi [1].

V.I. Lyax va S.N. Bubnov (2010) sportchilarning psixomotor funksiyalari, raqibga moslashuv, qaror qabul qilish tezligi va refleks reaksiyalarini faollashtirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy metodlarni taklif etgan. Ularning tadqiqotlarida ayniqsa kurash sportlarida (shu jumladan, sambo) jang davomida holatga tez moslasha olish qobiliyati etakchi rol o‘ynashi ta’kidlanadi [2].

G.S. Tumanyan, A.P. Kudryavtsev, E.S. Shakhlina kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy ishlarda jangovar sport turlarining texnik-taktik tayyorgarlik tizimi, kombinatsion harakatlar, hujum va qarshi hujum algoritmlari, pozitsion kurash modellari tizimli asosda yoritilgan [3]. Xususan, sambo uchun zarur bo‘lgan texnika to‘plamlari — og‘dirish, uloqtirish, tutib turish, bloklash kabi elementlar raqib holatiga qarab taktik variantlar bilan birgalikda mashq qilinishi zarur.

Mahalliy mualliflar — R.D. Xalmuxamedov, F.A. Kerimov, S.C. Tajibaev, O.J. Dadabaev tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar O‘zbekistonda sambo sportini rivojlantirish, sportchilar tayyorgarligining bosqichma-bosqich tashkil etilishi, o‘quv-dasturiy materiallar va trenerlik faoliyati haqida qimmatli ilmiy fikrlarni beradi [4; 5]. Biroq bu manbalar ko‘proq umumiy pedagogik yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, raqibga qarshi strategik kurashga oid analitik, empirik tahlil etarli darajada ochilmagan.

Xalqaro sport tashkilotlari, jumladan, FIAS (International Sambo Federation) tomonidan tayyorlangan reglamentlar, musobaqa metodikalari va trenerlar uchun qo‘llanmalar jangovar holatlarda texnika va taktikani uyg‘unlashtirish, qaror qabul qilish algoritmlarining amaliy variantlarini taqdim etadi. Ularda “reaktiv” va “proaktiv” yondashuvlar farqlanishi, raqibning texnik harakatlarini oldindan aniqlash uchun videonaliz, taktik sxema va virtual modellashtirish metodlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar mavjud [6].

ISSN 3030-3907

Shuningdek, zamonaviy sport psixologiyasi sohasi mutaxassislari Gould va Maynard (2009) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sportchilarning musobaqa vaqtida qaror qabul qilish tezligini oshirish, emotsional barqarorlikni saqlab qolish va kognitiv yuklamani boshqarish texnikalarining samarasi ilmiy asosda tasdiqlangan [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sambo sportida strategik kurash texnik-taktik jihatdan ko‘p komponentli, murakkab tizim hisoblanadi. Bunda quyidagilarni chuqur o‘rganish muhim:

1. texnik avtomatlashtirish bosqichlari
2. musobaqa holatlariga mos taktik modellar
3. qaror qabul qilish algoritmlari

raqib harakatini tahlil qilishda sun’iy intellekt yoki videografik vositalardan foydalanish imkoniyatlari.

Ushbu adabiyotlar asosida aniqlanishicha, aynan O‘zbekiston sharoitida sportchining raqibga qarshi kurash strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar etarli emas. Shu sababli, mazkur maqolada ilgari surilayotgan texnik-taktik yondashuvlar va strategik kurash modeli ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanishi mumkin.

Sambo sportida raqibga qarshi strategik kurashni samarali tashkil qilish, sportchining texnik-taktik tayyorgarligini tizimli baholashni talab etadi. Tadqiqot davomida texnik usullar, jangovar kombinatsiyalar va taktik qaror qabul qilish mexanizmlari chuqur nazariy va amaliy tahlil etildi.


Ilmiy-metodik asos

Tadqiqotda sistemali, kompetentlikka asoslangan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar metodologik negiz sifatida tanlandi. Har bir sportchining individual psixofiziologik xususiyatlari va ularning jangovar sharoitda qaror qabul qilish qobiliyati alohida tahlil qilindi. Bunda asosiy diqqat markazi quyidagi tamoyillarga qaratildi:

1. **Moslashuvchan yondashuv:** Sportchining texnik repertuariga mos ravishda raqibga qarshi kurash taktikasi ishlab chiqildi.
2. **Kuzatuv asosida modellashtirish:** Real jangovar holatlar misolida texnik harakatlar va kontratak modellari qayta ishlab chiqildi.
3. **Strategik fikrlashni aniqlash:** Sportchilarning raqibga nisbatan qaysi strategiyani afzal ko‘rishi empirik kuzatuvlar asosida aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sportchilarning strategik yondashuvga bo‘lgan moyilligi quyidagicha taqsimlandi.

ISSN 3030-3907



Sambo sportchilarida texnik-taktik yondashuvlarning afzallik darajasi

Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik sportchilar an’anaviy **hujumkor yondashuv**ni tanlaydi, ammo **raqib harakatiga moslashuvchan strategiyalar** va **kontratak uslublari** hali etarli darajada o‘zlashtirilmagan. Bu holat o‘quv-trening jarayonlarida **samarali modellashtirish**, individual qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va **kontekstga asoslangan mashqlar**ni yo‘lga qo‘yish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Quyidagi jadvalda sambo sportida qo‘llanilayotgan asosiy strategik yondashuvlar bo‘yicha **natijadorlik, qo‘llanilish darajasi** va **treninglardagi amaliyot chastotasi** ko‘rsatkichlari taqqoslangan:

1-jadval.

Sambo sportida strategik yondashuvlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

№	Strategiya turi	O‘rtacha g‘alaba foizi (%)	Yuqori darajadagi sportchilarda qo‘llanilish (%)	Treninglarda mashq qilish chastotasi (%)
1	Hujumkor yondashuv	62%	70%	75%
2	Himoya strategiyasi	49%	58%	60%
3	Moslashuvchan taktika	57%	65%	55%
4	Qarshi harakat (kontratak)	45%	51%	48%

Yuqoridagi jadval tahlilidan ko‘rinadiki, **hujumkor yondashuv** hozirda eng ko‘p qo‘llaniladigan va treninglarda ustuvor mashq qilinadigan strategiya bo‘lsa-

ISSN 3030-3907

da, **moslashuvchan taktika** yuqori samaradorlikka ega bo‘lishiga qaramay, kamroq mashq qilinmoqda. Bu esa murabbiylar e’tiborini strategik muvozanatga qaratish lozimligini anglatadi.

Metodik jihatdan har bir sportchining individual psixofiziologik imkoniyatlariga mos keladigan strategik modelni tanlash va uni amaliy mashg‘ulotlarda takomillashtirish zarur. Ayniqsa, kontratak asosidagi qarshi harakatlar va moslashuvchan modelni chuqur o‘rganish, professional tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilgan kuzatuvlar va tahlillar sambo sportida sportchining muvaffaqiyati nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki u tanlagan texnik-taktik strategiyaga ham bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, raqibga qarshi kurashishda moslashuvchanlik, tezkor fikrlash, va to‘g‘ri qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

1. Ko‘pchilik sportchilar hujumkor yondashuvni afzal ko‘rmoqda (62% g‘alaba ko‘rsatkichi), bu strategiya mashqlarda eng ko‘p o‘rganilmoqda (75%).
2. Moslashuvchan taktika samarali bo‘lishiga qaramay (57% g‘alaba), mashqlarda kamroq qo‘llanilmoqda (55%).
3. Kontratak (qarshi harakat) strategiyasi kam qo‘llanadi (g‘alaba foizi 45%), bu esa bu yondashuvning etarli mashq qilinmayotganidan dalolat beradi.

Murabbiylar bilan suhbatlarda aniqlanishicha, strategiyani holatga qarab o‘zgartira oladigan sportchilar ko‘proq natija beradi. Biroq ko‘p mashg‘ulotlarda faqat an’anaviy texnikalar ustida ishlanmoqda, real jangdagi o‘zgaruvchan vaziyatlar etarlicha modellashtirilmayapti.

2-jadval

Asosiy strategiyalar tahlili keltirilgan

№	Strategiya turi	G‘alaba foizi	Yuqori sportchilar orasida qo‘llanish	Treningda mashq chastotasi
1	Hujumkor yondashuv	62%	70%	75%
2	Himoya strategiyasi	49%	58%	60%
3	Moslashuvchan taktika	57%	65%	55%
4	Qarshi harakat (kontratak)	45%	51%	48%

Sportchining strategiyasi jang natijasiga bevosita ta’sir qiladi. Murabbiylar o‘quv mashg‘ulotlariga moslashuvchan va kontratak yondashuvlarni ko‘proq kiritishi lozim. Har bir sportchiga individal yondashuv asosida strategik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish foydali bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Xulosa

Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sambo sportida sportchining musobaqadagi muvaffaqiyati asosan texnik-taktik yondashuvlar samaradorligiga bog‘liq. Ayniqsa, raqib harakatlarini tezkor tahlil qilish, jang davomida holatga qarab strategiyani o‘zgartira olish, moslashuvchanlik va kontratak uslublarni to‘g‘ri qo‘llash sportchining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirgi trening amaliyotlarida, afsuski, hujumkor yondashuvlar asosiy o‘rin egallamoqda. Bu esa jangovar sharoitda yuzaga keladigan murakkab holatlarga moslasha olish qobiliyatini etarlicha rivojlantirmaydi. Moslashuvchan va raqibga qarshi kontratak strategiyalarning mashqlarda kam qo‘llanishi sportchilarning funksional va taktik tayyorgarligida muayyan bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Bu holat murabbiylar tomonidan ko‘proq an’anaviy yondashuvlarga tayanilayotganini anglatadi.

Bunday vaziyatda murabbiylik faoliyatida strategik fikrlash, jang holatlarini tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi metodikalarni keng joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa, sportchining texnik darajasiga mos individual strategik modellar ishlab chiqish va ularni shaxsiy rejalashtirish asosida mashq qildirish trening samaradorligini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar asosida jang simulyatsiyalari va videoanaliz uslublaridan foydalanish raqib harakatlarini o‘rganishda qo‘shimcha afzallik beradi.

Murabbiylarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilashi, texnik va psixologik tayyorgarlikni integratsiyalashgan holda olib borishi hozirgi bosqichda muhim zarurat sifatida qaralishi lozim. Shu bilan birga, texnik-taktik tayyorgarlik va strategik kurashga doir ilmiy asoslangan metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish ham ushbu sohadagi bo‘shliqni to‘ldiradi.

Yuqoridagi xulosalar asosida aytish mumkinki, sambo sportida strategik yondashuvlarni ilmiy asosda rivojlantirish sportchilarni musobaqalarga yanada puxta tayyorlash, ularning taktik fikrlash darajasini oshirish va xalqaro darajadagi raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и её прикладные аспекты. – М.: Советский спорт, 2005. – 320 с.

2. Лях В.И., Бубнов С.Н. Теория и методика физической культуры: Учебник. – М.: Академия, 2010. – 400 с.

3. Туманян Г.С., Кудрявцев А.П. Техническая и тактическая подготовка в единоборствах. – СПб.: Изд-во ЛЭТИ, 2015. – 268 с.

ISSN 3030-3907

4. Халмухамедов Р.Д. Самбо: Техник ва тактик асослар. – Тошкент: O‘zDJTI, 2018. – 152 б.
5. Тожибаев С.С., Дадабоев О.Ж. O‘zbekiston sportchilarining tayyorgarlik tizimi. – Самарқанд: “Zarafshon”, 2020. – 176 б.
6. International Sambo Federation (FIAS). Coaching Manual. – Lausanne: FIAS Press, 2019. – 204 p.
7. Gould D., Maynard I. Psychological preparation for the Olympic Games. Journal of Sports Sciences, 2009, Vol. 27(13), pp. 1393–1408.

ISSN 3030-3907

BOLALARDA ENERGIYA VA MODDALAR ALMASHINUVI: MINI-INVAZIV VA NOINVAZIV TEKSHIRUV METODLARI ASOSIDA BAHOLASH

Boltayeva Shirin Baxtiyorovna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: boltayeva.shirin@bsmi.uz

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada bolalar organizmida energiya va moddalar almashinuvi (metabolik jarayonlar) holatini baholashda mini-invaziv hamda noinvaziv diagnostik metodlarning informativligi va samaradorligi har tomonlama o‘rganildi. Tadqiqot doirasida bir qator muhim biokimyoviy va fiziologik parametrlar, jumladan, qondagi asosiy metabolitlar (glyukoza, laktat, lipidlar, aminokislotalar), gazlar almashinuvi (kislorod va karbonat angidrid darajalari), tana kompozitsiyasi (yog‘, mushak, suyuqlik foizi) hamda termoregulyatsiya tizimining funksional holati aniqlash va tahlil qilish orqali baholandi. Ushbu diagnostik yondashuvlar, ayniqsa, bolalarda uchraydigan metabolik sindrom, ozuqaviy statusning buzilishi, somatik va neyroendokrin kasalliklar, shuningdek, gastrointestinal disfunktsiyalar kabi holatlarda erta tashxis qo‘yish va individual terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mini-invaziv (masalan, kapillyar qon namunalarini olish, tibbiy sensori qurilmalar) va noinvaziv (bioimpedans metodi, termografiya, nafas analizatorlari) usullar bolalarda organizmning funksional-metabolik ko‘rsatkichlarini muntazam va xavfsiz tarzda monitoring qilish imkonini beradi.

Olingan natijalar ushbu texnologiyalarning klinik pediatriyada, xususan, dismetabolik holatlar, irsiy fermentopatiyalar va rivojlanishdan ortda qolish sindromlari diagnostikasida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, mazkur usullar sog‘lom bolalarda ham metabolik jarayonlarni dinamik kuzatish orqali profilaktik tibbiyot amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mini-invaziv va noinvaziv diagnostik yondashuvlar bolalar organizmidagi metabolik jarayonlarning holatini kompleks baholashda yuqori sezuvchanlik va ishonchlilik bilan ajralib turadi hamda ularni keng klinik-amaliyotga tatbiq etish bolalar salomatligini saqlash va yaxshilashda dolzarb hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: bolalar metabolizmi, energiya almashinuvi, mini-invaziv tekshiruv, noinvaziv metod, metabolik monitoring, bolalar fiziologiyasi.

Аннотация: В данной научной статье всесторонне изучена информативность и эффективность миниинвазивных и неинвазивных методов диагностики при оценке состояния обмена энергии и веществ (метаболических процессов) в

ISSN 3030-3907

организме детей. В рамках исследования был оценен ряд важных биохимических и физиологических параметров, включая основные метаболиты крови (глюкоза, лактат, липиды, аминокислоты), газообмен (уровни кислорода и углекислого газа), состав тела (процент жира, мышц, жидкости), а также функциональное состояние системы терморегуляции. Эти диагностические подходы особенно важны для ранней диагностики и разработки индивидуальных терапевтических подходов при таких состояниях, как метаболический синдром, нарушения пищевого статуса, соматические и нейроэндокринные заболевания, а также желудочно-кишечные дисфункции у детей. Мини-инвазивные (например, сбор капиллярных образцов крови, медицинские сенсорные устройства) и неинвазивные (биоимпедансный метод, термография, дыхательные анализаторы) методы позволяют проводить регулярный и безопасный мониторинг функционально-метаболических показателей организма у детей.

Полученные результаты показали, что эти технологии расширяют возможности применения в клинической педиатрии, в частности, в диагностике дисметаболических состояний, наследственных ферментопатий и синдромов задержки развития. В то же время эти методы служат совершенствованию практики профилактической медицины путем динамического наблюдения за метаболическими процессами у здоровых детей.

Таким образом, миниинвазивные и неинвазивные диагностические подходы отличаются высокой чувствительностью и достоверностью при комплексной оценке состояния метаболических процессов в организме детей, а их широкое внедрение в клиническую практику является актуальным для сохранения и улучшения здоровья детей.

Ключевые слова: детский метаболизм, энергетический обмен, миниинвазивное обследование, неинвазивный метод, метаболический мониторинг, детская физиология.

Abstract: In this scientific article, the informativeness and effectiveness of minimally invasive and non-invasive diagnostic methods in assessing the state of energy and metabolism (metabolic processes) in the child's body were comprehensively studied. Within the framework of the study, a number of important biochemical and physiological parameters were assessed, including the determination and analysis of the main metabolites in the blood (glucose, lactate, lipids, amino acids), gas metabolism (oxygen and carbon dioxide levels), body composition (fat, muscle, fluid percentage), and the functional state of the thermoregulation system. These diagnostic approaches are especially important for

ISSN 3030-3907

the early diagnosis and development of individual therapeutic approaches in such conditions as metabolic syndrome, nutritional status disorders, somatic and neuroendocrine diseases, as well as gastrointestinal dysfunctions in children. Mini-invasive (for example, capillary blood sampling, medical sensing devices) and non-invasive (bioimpedance method, thermography, respiratory analyzers) methods allow for regular and safe monitoring of the body's functional and metabolic indicators in children.

The obtained results showed that these technologies expand the possibilities of application in clinical pediatrics, in particular, in the diagnosis of dysmetabolic conditions, hereditary enzymopathies, and developmental delay syndromes. At the same time, these methods serve to improve the practice of preventive medicine through dynamic observation of metabolic processes in healthy children.

In conclusion, minimally invasive and non-invasive diagnostic approaches are characterized by high sensitivity and reliability in a comprehensive assessment of the state of metabolic processes in the child's body, and their implementation in wide clinical practice is relevant for the preservation and improvement of children's health.

Keywords: pediatric metabolism, energy metabolism, minimally invasive examination, non-invasive method, metabolic monitoring, pediatric physiology.

Kirish

Bolalarda energiya va moddalar almashinuvi (metabolizm) jarayonlari organizmning fiziologik o‘sishi, rivojlanishi hamda immunologik javob shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu almashinuv jarayonlarining izchil va to‘laqonli kechishi bolalar salomatligini saqlashda va kasalliklarni erta aniqlashda muhim diagnostik mezon sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy pediatriyada metabolik faoliyatni aniqlash va monitoring qilishda an’anaviy invaziv metodlar (masalan, qon tahlillari, biopsiya) bilan bir qatorda kam shikastlovchi mini-invaziv hamda organizmga mutlaqo zarar etkazmaydigan noinvaziv usullar tobora keng qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada bolalarda metabolik holatni baholashda mini-invaziv va noinvaziv tekshiruv usullarining ilmiy asoslari, ularning afzallik tomonlari, amaliyotdagi qo‘llanilish sohasi va diagnostik aniqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, mikrobiom tahlili, nafas analizatorlari, teri orqali spektroskopik baholash kabi zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan usullarning energiya almashinuvi ko‘rsatkichlarini aniqlashdagi o‘rni va istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Maqola bolalar organizmida yuz beradigan metabolik o‘zgarishlarni erta aniqlash, individual profilaktika va davolash strategiyalarini ishlab chiqish nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mini-invaziv metodlar qatoriga kapillyar qon namunalarini olish orqali glyukoza, lipidlar, insulin va boshqa metabolik biomarkerlarni baholash kiradi. Ushbu usul past invazivlik darajasi bilan bolalarda klinik sharoitda qulay qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, teri ostiga joylashtiriladigan glukozani uzluksiz monitoring qilish tizimlari (Continuous Glucose Monitoring Systems – CGMS) yordamida glyukozaning sutkalik o‘zgarishlari haqidagi ma’lumotlar olinadi. Mikrosampling texnologiyasi esa minimal hajmdagi biologik namunalarni (odatda mikrolitr darajasida) olish imkonini beradi, bu esa ayniqsa yosh bemorlarda qulaylik va xavfsizlikni ta’minlaydi.

Noinvaziv metodlar esa bolaning tana tuzilmasi va metabolik holatini baholashda keng qo‘llaniladi. Bunday usullarga bioelektrik impedansiya tahlili (Bioelectrical Impedance Analysis – BIA) yordamida tana tarkibidagi yog‘, mushak, suyuqlik miqdorini aniqlash kiradi. Bundan tashqari, yaqin infraqizil spektroskopiya (Near Infrared Spectroscopy – NIRS) orqali to‘qimalarda kislorodlanish darajasi va metabolik holat aniqlanadi. Nafasdagi gazlarning tahlili (Exhaled Breath Analysis) esa, ayniqsa, karbon dioksid, azot oksidi va boshqa metabolik markerlarni baholashda dolzarb bo‘lib, u nafas orqali metabolik jarayonlar haqida bilvosita ma’lumot beradi. Teri orqali optik spektroskopiya esa metabolitlar va gemodinamik parametrlarni baholash imkonini beradi.

Ushbu usullarni baholash maqsadida o‘tkazilgan tadqiqotda 3 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan sog‘lom va metabolik sindrom belgilari kuzatilgan bolalar ishtirok etdi. Tadqiqotda taqqoslov yondashuvi asosida bioimpedansiya tahlili, termovizual tasvirlash (termovizor), uzluksiz glyukoza monitoringi sensorlari va nafas gazlari tahlili qo‘llanildi. Har bir metodning aniqligi, sezuvchanligi va klinik qo‘llash qulayligi baholandi. Olingan natijalar bolalarda metabolik disbalansni erta aniqlashda ushbu texnologiyalarning imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi.

NATIJALAR. Mini-invaziv glyukoza monitoringi texnologiyasi yordamida organizmdagi glyukozaning real vaqt rejimidagi kontsentratsiyasi doimiy ravishda kuzatildi. Ushbu usul organizmning metabolik holatini baholash, glyukoza almashinuvidagi o‘zgarishlarni erta bosqichlarda aniqlash va gipoglikemiya yoki giperglikemiya kabi metabolik disbalans holatlarini oldindan prognozlash imkonini berdi. Monitoring natijalari glisemik ko‘rsatkichlarning sirkadiyal ritmlar bilan bog‘liqligini hamda yashin tezligida rivojlanadigan metabolik sindrom holatlarini aniqlashda dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Noinvaziv bioimpedansiya analizi yordamida tana to‘qimalarining elektr qarshiligini o‘lchash asosida organizmning kompozitsion ko‘rsatkichlari, jumladan, umumiy tana yog‘i miqdori, mushak massasi, hujayraviy va hujayradan

ISSN 3030-3907

tashqari suyuqlik balansining nisbiy darajalari aniqlandi. Tadqiqot natijalari ushbu usul yuqori aniqlikka ega bo‘lgan diagnostik vosita sifatida metabolik buzilishlarni skrining qilishda samarali ekanligini tasdiqladi.

Termografiya – infraqizil nurlanish asosida ishlovchi vizualizatsiya texnologiyasi orqali tananing turli sohalaridagi issiqlik tarqalishi tahlil qilindi. Metabolik disfunksiya holatlarida termoregulyatsiya mexanizmlarining izdan chiqishi, periferik qon aylanishining buzilishi, lokal yallig‘lanish jarayonlari va to‘qimalardagi issiqlik almashinuvi nomutanosibligi aniqlandi. Termografik tasvirlar metabolik sindrom, semizlik, qandli diabet kabi patologik holatlarning erta aniqlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ekshaled breath (nafasdagi chiqindi gazlar) analizi orqali bemorlarning nafasida aniqlangan uchuvchi organik birikmalar, xususan, atseton kontsentratsiyasining oshishi metabolik disfunktsiyaning biomarkeri sifatida baholandi. Ushbu usul ayniqsa yog‘ kislotalarining ortiqcha oksidlanishi bilan bog‘liq metabolik buzilishlarni, jumladan, diabetik ketoatsidoz yoki ochlikka javoban yuzaga keladigan holatlarni aniqlashda sezgir va invaziv bo‘lmagan diagnostik vosita sifatida tavsiflandi.

MUHOKAMA. Metodologik yondashuv doirasida mini-invaziv va noinvaziv tekshiruv usullarining integratsiyasi pediatrik amaliyotda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Noinvaziv usullar o‘zining fiziologik holatga minimal aralashuvi, yuqori darajadagi xavfsizligi, bolalarda takroriy qo‘llash imkoniyati va bemor uchun psixologik jihatdan qulayligi bilan ajralib turadi. Ushbu usullar, ayniqsa, skrining, dastlabki tashxis va kuzatuv monitoringi uchun afzallik beradi.

Boshqa tomondan, mini-invaziv metodlar (masalan, mikroblarning metabolik faolligi yoki ma’lum biokimyoviy markerlarning dinamikasini aniqlovchi testlar) organizmdagi real vaqtli fiziologik va patologik jarayonlar haqida chuqurroq ma’lumot olish imkonini beradi. Ular aniqlik va sezuvchanlik nuqtai nazaridan yuqori diagnostik qiymatga ega bo‘lib, bolalardagi metabolik va funksional holatlarni baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, mini-invaziv va noinvaziv tekshiruv metodlarining kompleks qo‘llanilishi integrativ tibbiy yondashuvni shakllantiradi. Bu esa diagnostika jarayonining aniqligini, xavfsizligini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalar populyatsiyasida sog‘liqni baholashda individual va fiziologik xususiyatlarni inobatga olgan holda ushbu metodlarning kombinatsiyasi eng maqbul strategiya sifatida qaralmoqda.

XULOSA. Bolalar organizmida energiya va moddalar almashinuvi tizimining uzluksiz va muvozanatli faoliyati ularning sog‘lom o‘sishi va rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonlardagi har qanday

ISSN 3030-3907

buzilishlar turli metabolik sindromlar, endokrin kasalliklar va surunkali holatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, energiya va moddalar almashinuvi buzilishlarini erta bosqichda aniqlash va ularning rivojlanishini muntazam kuzatib borish katta klinik ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda tibbiyot amaliyotida mini-invaziv (masalan, kapillyar qon namunalarini olish, teri osti sensorlar) va noinvaziv (masalan, ultratovush, bioimpedans, nafas gazlari tahlili, mikrobiom holatini baholovchi testlar) diagnostika usullari keng joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar bolalarda og‘riqsiz va xavfsiz usullar yordamida aniqlik darajasi yuqori bo‘lgan diagnostika imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, zamonaviy biotexnologik vositalar yordamida real vaqt rejimida metabolik parametrlarni monitoring qilish imkoniyati metabolik kasalliklarni erta aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Mini-invaziv va noinvaziv metodlarning afzalliklari — ularning tezkorligi, takroran qo‘llash imkoniyati, klinik xavfsizligi va psixologik stress darajasining pastligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ushbu usullar bolalarda individual metabolik profilni shakllantirish, aniq tashxis qo‘yish va personalizatsiyalashgan davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Xulosa qilib aytganda, mini-invaziv va noinvaziv metodlarning bolalar amaliyotiga keng joriy etilishi energiya va moddalar almashinuvi bilan bog‘liq kasalliklarni erta aniqlash va ularning oldini olishda zamonaviy pediatriyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa bolalar salomatligini saqlash, umr davomiyligini uzaytirish va sog‘lom avlodni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Dewey K.G., Begum K. (2011). Long-term consequences of stunting in early life. Maternal & Child Nutrition, 7(S3), 5–18.
2. Fewtrell M.S. et al. (2017). Body composition assessment in infancy. American Journal of Clinical Nutrition, 105(1), 80–91.
3. Ruan Q., Yu Z. (2019). Mini-invasive glucose monitoring systems in pediatrics. Journal of Pediatric Endocrinology, 32(5), 445–452.
4. Grasemann C. et al. (2020). Use of bioelectrical impedance analysis in pediatric populations. Pediatric Obesity, 15(6), e12612.
5. Kuselman I., Barash M. (2022). Non-invasive methods for the assessment of pediatric metabolism. Clinical Biochemistry, 99, 1–10.
6. Harmsen H.J.M. et al. (2021). Gut microbiota and energy metabolism in children. Nature Reviews Endocrinology, 17(8), 479–493.
7. Nguyen T.T. et al. (2019). Breath biomarkers in metabolic disorders. Journal of Breath Research, 13(2), 026007.

ISSN 3030-3907

8. Ludwig D.S. (2018). The glycemic index in childhood nutrition. JAMA Pediatrics, 172(10), 893–899.
9. Goday A. et al. (2020). Continuous glucose monitoring in children: Advantages and limitations. Diabetes Technology & Therapeutics, 22(1), 24–31.
10. Foster B.J., Platt R.W. (2014). Pediatric applications of bioimpedance analysis. Nutrition in Clinical Practice, 29(4), 406–417.
11. Ferrannini E. (2019). Energy metabolism disorders in pediatric age. Current Opinion in Clinical Nutrition and Metabolic Care, 22(3), 157–163.
12. Malavolti M. et al. (2020). Body composition in children by DXA and BIA: a comparative study. European Journal of Clinical Nutrition, 74(1), 105–111.
13. Raju T.N.K., Buist A.S. (2015). Advances in non-invasive neonatal monitoring. Pediatrics, 135(2), e347–e358.
14. Vintzileos A.M. et al. (2021). Pediatric metabolic profiling using non-invasive imaging. Metabolomics, 17(4), 42.
15. Blake M.J. et al. (2018). Salivary biomarkers in pediatric diagnostics. Clinical Chemistry and Laboratory Medicine, 56(3), 404–412.
16. Tang J., Zhang X. (2023). Advances in wearable sensors for pediatric healthcare. Biosensors and Bioelectronics, 221, 114928.
17. Lee Y., Choi Y.J. (2022). Non-invasive assessment of energy metabolism using thermal imaging. Journal of Medical Systems, 46(1), 5.

ISSN 3030-3907

BIOLOGIK FAOL KOMPLEKS BIRIKMALARNING TUZILISHI, TASNIFI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

K.T.Sovetov

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Biologik kimyo kafedrasi dotsenti. Samarqand,O‘zbekiston

Anotatsiya: Ushbu maqolada biologik faol kompleks birikmalarning umumiy tuzilishi, ularning tasnifi, ligandlarning turi va tishliligi, shuningdek, kompleks hosil qiluvchi metall ionlarining koordinatsion xossalari bayon etilgan. Biologik faol komplekslar tirik organizmlardagi muhim biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etadi: nafas olish, fotosintez, fermentativ reaksiyalar va boshqa metabolik yo‘llarda. Ayniqsa, gemoglobin, xlorofil va siyanokobalamin kabi xelatli komplekslarning biologik ahamiyati yoritilgan. Komplekslarning dori vositasi sifatida qo‘llanilishi, jumladan platina, iridiy va oltin asosidagi birikmalarning saraton, sil va moxov kasalliklaridagi terapevtik roli tahlil qilingan.

Kalit so’zlar Biologik faol kompleks, koordinatsion birikma, ligand, xelat, in vitro, in vivo, flavonoid, karotinoid, gemoglobin, siyanokobalamin, tibbiy komplekslar, platina komplekslari.

Аннотация: В данной статье изложены общая структура биологически активных комплексных соединений, их классификация, типы и зубчатость лигандов, а также координационные свойства ионов металлов, образующих комплексы. Биологически активные комплексы участвуют в важных биохимических процессах в живых организмах: дыхание, фотосинтез, ферментативные реакции и другие метаболические пути. Особенно освещено биологическое значение хелатных комплексов, таких как гемоглобин, хлорофилл и цианокобаламин. Проанализировано применение комплексов в качестве лекарственных средств, в частности, терапевтическая роль соединений на основе платины, иридия и золота при лечении рака, туберкулёза и проказы.

Ключевые слова: Биологически активный комплекс, координационное соединение, лиганд, хелат, in vitro, in vivo, флавоноид, каротиноид, гемоглобин, цианокобаламин, медицинские комплексы, платиновые комплексы.

Abstract: This article describes the general structure of biologically active complex compounds, their classification, types and denticity of ligands, as well as the coordination properties of metal ions forming complexes. Biologically active complexes participate in vital biochemical processes in living organisms, such as respiration, photosynthesis, enzymatic reactions, and other metabolic pathways. Special attention is given to the biological significance of chelate complexes such


ISSN 3030-3907

as hemoglobin, chlorophyll, and cyanocobalamin. The use of complexes as pharmaceuticals is analyzed, particularly the therapeutic role of platinum-, iridium-, and gold- e tbased compounds in threatment of cancer, tuberculosis, and leprosy.
Keywords: Biologically active complex, coordination compound, ligand, chelate, in vitro, in vivo, flavonoid, carotenoid, hemoglobin, cyanocobalamin, medical complexes, platinum complexes.

Kirish

Kompleks birikmalar kristall panjara joylarida markaziy atom yoki ion va uni o‘rab turgan neytral molekula yoki ionlardan tashkil topgan murakkab zarrachalar (murakkab ionlar) mavjud bo’lgan birikmalar. Murakkab ionlar eritmaga o‘tganda yoki erishi bilan yo‘q qilinmaydi. Kompleks birikmalarning tuzilishi A.Vernerning (1893) koordinatsiya nazariyasiga ko’ra, kompleks birikmalar molekulalarini tashkil etuvchi zarrachalarning maxsus fazoda joylashishi bilan tavsiflanadi. Masalan: $K^+|CN^-$ $CN^-|$ $K^+|$ CN^- Fe^{2+} $CN^-|$ $K_4[Fe(CN)_6]$ K^+ $|CN^-CN^-$ K^+ K^+ $|CN^-$ $CN^-|$. Ligand ion (F-, Cl-, Br-, I-, S2-, CN-, NCS-, OH-, NH2-) yoki molekula (NH3, H2O, NO, CO) bo‘lib, bir juft elektron beradi. koordinatsion kompleks hosil qilishda metall atomi yoki ioni.

Ligandlarni tasniflashning asosiy usuli - ular metall markazga biriktirilgan yoki bog‘langan nuqtalar soni. Bu tishlilik. Bir potentsial donor atomiga ega ligandlar monodentatdir. Polidentat ligand - ikki yoki undan ortiq donor atomlarining bog‘lari orqali markaziy metall ioniga biriktirilgan ligand. Bir nechta potentsial donor atomlari bo'lgan ligandlar ambidentat sifatida tanilgan, masalan, tiosiyanat ioni, NCS-, ular metall markazga azot yoki oltingugurt atomlari bilan bog‘lanishi mumkin. Xelatlovchi ligandlar - bu metall atomini o'z ichiga olgan halqa hosil qila oladigan polidentat ligandlar.



Berilgan koordinatsiya formulasidan ko’rinib turibdiki, ionlardan biri markaziy o‘rinni egallaydi. Bunday atom yoki ion kompleks hosil qiluvchi vosita deb ataladi.

ISSN 3030-3907

Ko'pincha kompleks hosil qiluvchi moddalar musbat zaryadlangan metal ionlari, ko'pincha ikkilamchi kichik guruhlarning metallari (d-va f-elementlar), kamroq neytral metal atomlari (Fe, Ni) va manfiy zaryadlangan metall bo'lmagan atomlar (N^{-3} ,O^{-2},S). Odatda kompleks hosil qiluvchi moddalar Fe, Cu, Ag , Au, Hg, Co, Cr, Mn, Cd, Ni, Pt kabi metallar va boshqa d- va f-elementlardir. Kompleks yaratuvchining yonida qutbli molekulalar yoki boshqa belgining ionlari ma'lum bir tartibda joylashgan bo'lib, ba'zan ular ''bog'langan'' degan ma'noni anglatuvchi ligandlar (qo'shimchalar) deb ataladi; Eng muhim ligandlar : Dipol xarakterga ega neytral molekulalar: H_2O, NH_3, CO, NO, C_2H_4. Ionlar: H^-, O^{-2}, OH^-,Cl^-,J^- ,Br^- ,CN^- ,HCO_3, shuningdek aminokislotalar va ularning hosilalari, peptidlar, oqsillar makromolekulalari holidagi bioligandlar, fermentlar, gormonlar, nuklein kislotalar va ularning qismlari. Murakkab tuzuvchi va ligandlar ichki sfera (kvadrat qavs bilan ko'rsatilgan), ichki sferaga kirmagan ionlar esa tashqi sfera hosil qiladi. Ichki shar ko'pincha kvadrat qavslar ichiga olinadi. Kompleks ionning zaryadi kompleks hosil qiluvchi va ligandlar zaryadlarining algebraic yig'indisiga teng bo'lib, markaziy ionga bevosita yaqin joylashgan ligandlar soni ion koordinatsion soni deyiladi. Koordinatsion raqam kompleks hosil qiluvchining zaryadidan ikki baravar ko'p bo'ladi.

Agar ligandlar kompleks hosil qiluvchi bilan bir bog' orqali bog'langan bo'lsa va kompleksning ichki sferasida bitta koordinatsion joyni egallasa, bunday ligandlar monodentat, ikkita bidentatli ular 2ta koordinatsion joyni egallaydi. Kompleks birikmalar kompleks ionining zaryadiga va ligandlarning turiga ko'ra tasniflanadi. Kompleks ionning zaryadiga asoslanib, komplekslar katyonik (musbat zaryadli kompleks), anionik (manfiy zaryadli kompleks), neytral (nol zaryadli kompleks) bo'ladi. Kompleks hosil qiluvchi vosita lotincha nomining ildizidan foydalanib, ''at'' bo'g'ini qo'shilishi bilan chaqiriladi, shundan so'ng kompleks hosil qiluvchi vositaning oksidlanish darajasi qavs ichida rim raqamlari bilan ko'rsatilgan bo'ladi. Masalan:

$K_2[CuCl_4]$ -kaliy tetraklorokuprat (1)


K_2 [Pt Cl_2 (NO_2)$_2$] -kaliy dinitrodixlorplatinat (2)

Kompleks birikmalar molekulalaridan ichki va tashqi sferalar ionli bog' bilan bog'langan. Kompleks hosil qiluvchi va ligandlar donor-akseptor mexanizmiga ko'ra kovalent bog' bilan bog'lanadi: ligandlar elektron juft donor rolini o'ynaydi, kompleks hosil qiluvchi agent esa erkin orbitalda akseptor rolini o'ynaydi. Ligandning elektron jufti joylashgan

ISSN 3030-3907

17. Mamadiyeva, M. I., Ruziyev, E. A., & Mamirzayev, M. A. (2018). Analitik kimyoni o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida kimyoning o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, III qism.-SamDU, 124.
18. Inom o'g'li X. J. et al. BIOLOGIK FAOL KOMPLEKS BIRIKMALAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 38. – №. 1. – С. 319-325.

ISSN 3030-3907

ДИНАМИКА ПАРАМЕТРОВ СЕРДЕЧНОЙ РЕМОДЕЛИРОВАНИЯ У БОЛЬНЫХ С ИБС ПОСЛЕ АКШ

Мирзаев Мирзо Кахорович

Самаркандский государственный медицинский университет кафедра внутренних болезней и кардиологии №2

Самарканд, Узбекистан

Аннотация: В настоящее время распространенным методом диагностики ишемической болезни сердца является коронароангиография, инвазивная операция, которая считается «золотым стандартом» диагностики ишемической болезни сердца.

Цель исследования: оценка степени поражения коронарных артерий у больных, направленных на экстренное и плановое аортокоронарное шунтирование. Результаты проведенного исследования показало, что из всех изученных нами факторов риска артериальная гипертензия, тревожность, гиперурикемия, гиперхолестеринемия показали взаимосвязь с количеством поражений коронарных артерий.

Ключевые слова: коронароангиография, артериальная гипертензия, гиперурикемия, тревожность, аортокоронарное шунтирование

Annotation: Currently, a common method of diagnosing coronary heart disease is coronary angiography, an invasive operation that is considered the "gold standard" for diagnosing coronary heart disease.

The aim of the study was to assess the degree of damage to the coronary arteries in patients referred for emergency and planned coronary artery bypass grafting. The results of the study showed that of all the risk factors studied by us, arterial hypertension, anxiety, hyperuricemia, hypercholesterolemia showed a relationship with the number of lesions of the coronary arteries.

Keywords: coronary angiography, arterial hypertension, hyperuricemia, anxiety, coronary artery bypass grafting

Annotatsiya: hozirgi vaqtda koronar arteriya kasalligini tashxislashning keng tarqalgan usuli koronar angiografiya bo‘lib, koronar arteriya kasalligini tashxislashning "oltin standarti" hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: shoshilinch va rejalashtirilgan koronar arteriya bypassiga yo‘naltirilgan bemorlarda koronar arteriyalarning shikastlanish darajasini baholash. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, biz o‘rgangan barcha xavf omillari orasida arterial gipertenziya, tashvish, giperurikemiya, giperkolesterolemiya koronar arteriya lezyonlari soni bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: koronar angiografiya, arterial gipertenziya, giperurikemiya, tashvish, koronar arteriya bypass grefti

Введение

Ишемическая болезнь сердца (ИБС) является одной из основных причин смертности населения развитых стран. По сводным данным, ежегодно она уносит жизни более 2,5 млн. жителей планеты, причем более одной трети из них – люди трудоспособного возраста. В последние годы достигнуты значительные успехи в борьбе с этимзаболеванием. Существуют различные методы лечения коронарной

ISSN 3030-3907

болезни сердца (КБС) такие как консервативные, малоинвазивные, инвазивные. Одним из эффективных инвазивных методов лечения КБС является аортокоронарное шунтирование. Аортокоронарное шунтирование (АКШ) это стандартная операция, выполняемая уже более 50 лет, однако кардиохирурги сталкиваются с новыми проблемами. Современный стиль жизни и прогрессирующее старение населения приводит к увеличению рисков для пациентов с АКШ, страдающих множеством сопутствующих заболеваний

Цель исследования: оценка степени поражения коронарных артерий у больных у больных, направленных на экстренное и плановое аортокоронарное шунтирование.

Материалы и методы исследования: Исследование проводилось в рентгенохирургической операционной, оснащенной ангиокардиографической установкой "SIEMENS ARTIS ZEE ECO" (ГЕРМАНИЯ). Ангиометрические и морфометрические расчеты проводились с помощью компьютерных программ, встроенных в систему. Пунктировали артерии левого предплечья путем пункции по методу С. Сельдингера под местной анестезией (Sol. Novocaini hydrochloridi 0,25% ─ 20 мл).

Хранение и первичная обработка данных проводились в базе данных Microsoft Excel 2010 с использованием программы Statistica 10. Данные выражали следующим образом: среднее значение (M) ± стандартное отклонение (m). Для определения статистической значимости различий непрерывных величин между двумя группами в зависимости от типа распределения использовали t-тест Стьюдента (при параметрическом распределении). Для 3 и более групп проводился тест ANOVA.

Результаты исследования: на базе Самаркандского регионального филиала Республиканского научно-практического центра кардиологии были отобраны 109 больных с ишемической болезнью сердца. После поступления в стационар больным с нестабильной стенокардией была проведена диагностическая коронарная ангиография. Пациенты в зависимости от получаемого метода лечения были разделены на две группы: 1-я группа больных получала экстренное АКШ(ЭАКШ), 2-я группа получала плановое АКШ (ПАКШ). Для диагностирования локализации и степени поражения КА нами было проведено коронарная ангиография путем катетеризации бедренной артерии (25,2%) и лучевой артерии (74,8%). Поражение одной КА не было выявлено ни у одного больного, поражение двух КА у 6 (11,1%) больных первой группы и у 8 (14,5%) больных второй группы. Поражение трех КА было выявлено у 29 (53,7%) больных первой группы и у 26 (47,3%) больных второй группы, поражение более 3-х КА были выявлены у 19 (35,2%) больных первой группы и у 21 (38,2%) больных (Рис.1.).

ISSN 3030-3907




Рисунок 1. Распределение больных по числу поражений коронарных артерий.

Выраженный кальциноз наблюдался у 79 (72,4%) пациентов из 109 исследуемых. В 1-й группе – 41 (75.9%) пациентов, во 2-й – 38 (69.1%) (Р >0,05 между 1-й и 2-й группами;). Умеренный кальциноз коронарных сосудов наблюдался у 30 (27,6%) пациентов из 109 исследуемых. В 1-й группе – 13(24,1%) пациентов, во 2-й – 17 (30,9%), Таким образом, кальциноз коронарных артерий наблюдался у всех пациентов, но наиболее выраженный кальциноз зарегистрирован в 1-й группе пациентов (Р <0,05), что свидетельствует о выраженном поражении коронарных артерий что и стало показанием для ЭАКШ.

Таблица-1.

Кальциноз КА среди больных ИБС получивших ЭАКШ и ПАКШ

	ЭАКШ(n=54)	ПАКШ(n=55)	Все пац-ты(n=109)
Выраженный кальциноз коронарных артерий	41 (75.9%)	38(69,1%)	79(72,4%)
Умеренный кальциноз коронарных артерий	13(24,1%)	17(30,9%)	30(27,6%)
Диффузное поражение коронарного русла	36(66,7%)	42(76,4%)	78(71.5%)
Гемодинамическое значимое поражение левой коронарной артерии (ЛКА)	47(87.03%)	49(89.1%)	96(88%)
Гемодинамическое значимое поражение правой коронарной артерии (ПКА)	18(33.4%)	15(27.2%)	33(30.3%)

Нужно отметить, при исследование пораженных ветвей КА среди первой группы было выявлено, что поражение передней межжелудочковой

ISSN 3030-3907

артерии (ПМЖА) встречалось больше всех и было выявлено у 29 (53,7%) больных НС, поражение правой КА было обнаружено у 18 (33,3%) больных, тогда как поражение ЛКА всего было обнаружено у 8 (14,8%) больных, поражение диагональной ветви (ДГВ) также часто встречалось и было выявлено у 16 (29,6%) больных, поражение огибающей ветви встречалось у 12 (22,2%) больных, ветви тупого края у 10 (18,5%) больных, и у 4 (7,4%) больных поражение задней межжелудочковой артерии (Рис.2.).




Рисунок 2. Локализации поражения КА ЭАКШ.

При исследование пораженных ветвей КА среди второй группы было выявлено, что поражение передней межжелудочковой артерии (ПМЖА) было выявлено у 34 (61.8%) больных НС, поражение правой КА было обнаружено у 15 (27.2%) больных, поражение ЛКА было обнаружено у 16 (29,1%) больных, поражение диагональной ветви (ДГВ) было выявлено у 18 (32,7%) больных, поражение огибающей ветви встречалось у 17 (30,9%) больных, ветви тупого края у 11 (20.0%) больных, и у 12 (21,8%) больных поражение задней межжелудочковой артерии (Рис.2.).




Рисунок 3. Локализации поражения КА ПАКШ.

ISSN 3030-3907

Таким образом, наиболее уязвимыми коронарными артериями оказались ПМЖКА, правая КА, диагональные и циркумфлекторные артерии.

Для выявления взаимосвязи поражения КА и выбором метода лечения мы решили рассмотреть модифицированные и немодифицированные факторы риска прогрессирования ИБС среди данных больных.

Таблица 2.

Распространенность факторов риска в группах больных, которым были назначены экстренное и плановое АКШ

Фактор риска	ЭАКШ, n=54	ПАКШ, n=55	P
Мужчины	28 (51,8%)	28 (50,9%)	0,405
Возраст (лет)	61,4±11,13***	63,1±10,98	<0,001
Гиперхолестеринемия	41 (75,9%)	37 (67,2%)	0,241
Арт. гипертензия	38 (70,4%)*	29 (52,7%)	0,022
Сахарный диабет	14 (25,9%)	7 (12,7%)	0,411
Ожирение	29 (53,7%)	23 (41,8%)	0,362
Гиперурикемия	29 (53,7%)***	21 (38,1%)	<0,001
Курение	11 (20,3%)***	8 (14,5%)	<0,001
Отягощ. наследств.	30 (55,5%)	24 (43,7%)	0,143
Низкая физ.активность	24 (44,5%)	18 (32,7%)	0,295
Число сочетающихся ФР	4,6±1,2***	3,2±1,5	<0,001

Примечание: *P<0,05, **P<0,01, **P<0,001-достоверность различий между группами больных НС.

В таблице 2. представлены данные сравнительного анализа между пациентами с НС и получивших ЭАКШ и НС, которые получили ПАКШ, соответственно. Как видно, частота встречаемости мужского пола была выше среди пациентов с ЭАКШ 51,8% против 50,9% соответственно, но различия были достоверно незначимыми (p=0,405). Кроме того, не было выявлено значимой ассоциации ЭАКШ с такими факторами риска, как сахарный диабет (p=0,41), ожирение (p=0,36), семейный анамнез (p=0,14) и гиподинамия (p=0,29). Статистически значимые показатели были выявлены при сравнении артериальной гипертензии (p=0,022), общего холестерина (p<0,001), уровня мочевой кислоты в крови (p<0,001), курения (p<0,001) и частоты встречаемости сочетания факторов риска (p>0,001). Несмотря на отсутствие достоверности, ожирение часто встречалось у пациентов получавших ЭАКШ - в 53,7% случаев, хотя в группе пациентов получавших ПАКШ оно также не было редкой находкой и составило 41,8%. Также были выявлены статистически значимые показатели гиперхолестеринемии (p<0,001) и бессимптомной гиперурикемии (p<0,001), что согласуется с ранее проведенными исследованиями. Уровень общего холестерина был несколько выше у пациентов с ЭАКШ, в отличие от пациентов получавших ПАКШ, и составил 6,9±1,88 ммоль/л.

ISSN 3030-3907

При изучении среднего уровня артериального давления среди пациентов с получавших ЭАКШ и ПАКШ были выявлены статистически незначимые показатели, но, тем не менее, среди пациентов с ЭАКШ средний уровень артериального давления был выше, чем среди пациентов получавших ПАКШ, 151,2±25,12 мм. рт. ст. и 140,5±28,34 мм. рт. ст., соответственно (p>0,232).

Таким образом, ишемическую болезнь сердца рассматривалась как проявление сложной комбинации 4-х и более факторов риска (21,8% - курение, 47,5%- малоподвижный образ жизни, 71,1%-гиперхолестеринемия, 53,0% - гиперурикемия, 68,8%-артериальная гипертензия). Изолированная гиперхолестеринемия сама по себе не способна влиять на развитие ишемической болезни сердца, но при сочетании её с курением, гиперурикемией и гипертонией может сыграть негативную роль, что определяет каскад патологических процессов и в итоге ведет к дестабилизации коронарной болезни.

Для выявления взаимосвязи между факторами риска и количеством пораженных коронарных артерий пациенты были разделены на 3 группы (n=109): 1 группа - поражение двух коронарной артерии (n=14); 2 группа - поражение трех КА (n=55); 3 группа - поражение трех и более КА (n=40).

При сравнение распространенности факторов риска и количества пораженных КА статистически значимая связь была при исследовании частоты встречаемости артериальной гипертензии (АГ). АГ была выявлена у 13 (11,9%) пациента 1-й группы, 19 (17,4%) пациентов 2-й группы и 35 (32,1%) пациента 3-й группы (рис.3.3.). Разница между 1-й и 2-й, 2-й и 3-й группами была статистически значимой (p=0.001 и p <0.01, соответственно).




Рисунок 4. Частота встречаемости АГ среди в зависимости от количества поражений КА

При исследовании количества поражений КА с такими факторами риска, как мужской пол, курение и низкая физическая активность (p>0,05),

ISSN 3030-3907

значимых показателей выявлено не было. В отличие от вышеперечисленных факторов риска, сахарный диабет выявлялся значительно чаще у пациентов с многососудистым поражением коронарных артерий (5,2%, 6,9% и 13,3% соответственно). А также при исследовании частоты встречаемости тревожно-депрессивного синдрома среди пациентов 3 групп были выявлены статистически значимые показатели, которые составили 17,9%, 16,7% и 45,1% соответственно (рис.4.).




Рисунок 5. Частота встречаемости коморбидных состояний в зависимости от количества поражений КА.

Гиперхолестеринемия (ГХ) выявлялась значительно чаще, чем в других группах у пациентов с трехсосудистым поражением коронарных артерий и составила 44,5% (n=77), незначительная разница отмечена при сравнении пациентов 1-й и 2-й групп (рис.5.).

Выводы: Таким образом, в результате проведенного исследования было установлено, что из всех изученных нами факторов риска артериальная гипертензия, сахарный диабет, тревожно-депрессивный синдром, бессимптомная гиперурикемия, гиперхолестеринемия показали значимую взаимосвязь с количеством поражений коронарных артерий.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Адаптация к интервальной гипоксии-гипероксии в реабилитации пациентов с ишемической болезнью сердца: переносимость физических нагрузок и качество жизни / А.Л. Сыркин [и др.] // Кардиология. - 2020 - №5. - С.10-16.

2. Акатова Е.В. Пути снижения риска развития ишемической болезни сердца на фоне метаболического синдрома / Е.В. Акатова, М.В. Мельник // Кардиология. - 2019 - №6. - С.84-88.

ISSN 3030-3907

3. Алгоритм ведения пациентов со стабильной ишемической болезнью сердца и желудочковыми аритмиями высоких градаций / Е.А. Рыньгач [и др.] // Терапевтический архив. - 2019 - №1. - С.94-102.
4. Алексеенко О.В. Возможности нутритивной коррекции гипергликемии при остром инфаркте миокарда / О.В. Алексеенко, В.М. Луфт // Лечащий Врач. – 2019 - №6. - С.52-55.
5. Алехин М.Н. Проблемы и перспективы эхокардиографической оценки диастолической функции левого желудочка сердца / М.Н. Алехин // Кардиология.- 2019 - №1. - С.71-75.
6. Алехин, М.Н. Значение эхокардиографии у пациентов с артериальной гипертензией / М.Н. Алехин // Кардиология. - 2020 - №1. - С.90-100.
7. Аншелес, А.А. Современное состояние и перспективные технологии радионуклидной диагностики в кардиологии / А.А. Аншелес, И.В. Сергиенко, В.Б.Сергиенко // Кардиология. - 2021 - №6. - С.61-69.
8. Балабуев С.Р. Стандарты диагностики и лечения в кардиологии / С.Р. Балабуев // Справочник врача общей практики. - 2019 - №2. - С.12-17.
9. Баринов Э.Ф. Возможности управления ранним этапом воспаления и тромбообразования при различных сердечно-сосудистых заболеваниях / Э.Ф.Баринов // Кардиология. - 2019 - №2. - С.56-61.
10. Беленков, Ю.Н. Тактика подбора антикоагулянтной терапии у пациентов с фибрилляцией предсердий и ишемической болезнью сердца / Ю.Н. Беленков, Г.А. Шакарьянц, Н.В. Хабарова // Кардиология. - 2019 - №3. - С.43-52.

ISSN 3030-3907

UO‘T 631.361.022, 631.362.3

LOVIYA DONINI DUKKAKLARIDAN AJRATIB TOZALASH JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN TAKOMILLASHTIRILGAN QURILMANING ISH REJIMLARINI MAQBULLASHTIRISH

Pardayev Obid Raximboboevich
Jizzax politexnika instituti Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: pardayevobid143@gmail.com
Tel: +998881276886
Irisboyev Farxod Boymirzayevich
Jizzax politexnika instituti Katta o‘qituvchi
E-mail: farxodirisboyev89@gmail.com
Tel: +998933053377

Annatatsiya. Maqolada loviya donini dukkaklaridan ajratib tozalash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan takomillashtirilgan qurilmaning ish rejimlarini maqbullashtirish natijalari keltirilgan. Eksperimental tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, taklif qilinayotgan qurilmada loviya donini dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligini yuqori va ularning shikastlanish darajasini kam, don nobudgarchiligi kam hamda don tozaligini yuqori bo‘lishi valning aylanishlar soni 450 min^{-1}, savag‘ichlar soni 22 dona, savag‘ichlarning uzunligi 230 mm, ventilyatorning aylanishlar soni 2000 min^{-1}ga teng bo‘lganda ta’minlash mumkin ekan.

Kalit so‘zlar. Loviya, dukkak, don, savag‘ich, qurilma, val, ventilyator, bunker, silindr.

Аннатация. В статье представлены результаты оптимизации режимов работы усовершенствованного устройства, направленного на повышение эффективности процесса очистки зерна фасоли от стручков. Результат экспериментальных исследований показал, что в предлагаемом устройстве высокая полнота извлечения зерна фасоли из стручков и низкая степень их повреждения, низкая зерноуборочная нагрузка и высокая чистота зерна могут быть обеспечены при количестве оборотов вала 450 мин-1, количестве оборотов 22 штуки, длине оборотов 230 мм, количестве оборотов вентилятора 2000 мин-1..

Ключевые слова: Фасоль, стручок, зерно, молотилка, устройство, вал, вентилятор, бункер, цилиндр.

Annotation. The article presents the results of optimizing the operating modes of an improved device aimed at increasing the efficiency of the bean grain cleaning process from the pods. The result of experimental studies has shown that in the

ISSN 3030-3907

proposed device, a high completeness of bean grain extraction from the pods and a low degree of damage, a low harvesting load and high grain purity can be achieved with a shaft speed of 450 min-1, a number of revolutions of 22 pieces, a length of 230 mm, a number of fan revolutions of 2000 min-1..


Keywords: Beans, pod, grain, thresher, device, shaft, fan, hopper, cylinder.

Kirish

Ma’lumki qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘ini boshog‘i va dukkaklaridan ajratib dastlabki tozalash jarayonlarini sifatli bajarilishini ta’minlaydigan texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnik vositalar ishlab chiqishga, ularning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib boorish ahamiyatga molik vazifalardan hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda, qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirishni fermer xo‘jaliklarida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va sarf-harajatlarni kamaytirishga ularning donlarini dukkaklaridan agrotexnik talablar darajasida ajratib tozalash uchun tuzilishi jihatdan sodda qurilmalari energiya va resustejamkorligini oshirish qishloq xo‘jalik mashinasozligining echilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.


Fermer xo‘jaliklarida yuqorida keltirilgan ishlarni bajarish uchun takomillashtirilgan energiya-resurstejamkor qurilmalarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Ushbu masalani bartaraf etish uchun avval bajarilgan ilmiy-tadqiqot davomida yangi konstruksiyadagi kichik hajmli loviya donini dukkaklaridan ajratib dastlabki tozalaydigan qurilmaning sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm) [1-14].



a)

ISSN 3030-3907



b)

a) yon tomondan ko‘rinishi; b) yuqoridan ko‘rinishi
1–yuklash bunkeri; 2– silindr;3– savag‘ichlar; 4– rama; 5– tayanch; 6– g‘ildirak;7– don uchun bunker;8– havo oqimi;9–ventilyator; 10–shkivlar;11– asos; 12– elektrodvigatel; 13– chiqarish tuynugi; 14–val

1-rasm. Loviya donini dukkaklaridan ajratib dastlabki tozalash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan takomillashtirilgan qurilmaning konstruktiv va texnologik sxemasi

1-rasmda qurilmaning tuzilish va texnologik sxemasi tasvirlangan bo‘lib, uning ishlash prinsipi quyidagicha: u tarmoqqa ulanganda, elektrodvigatel 12 hamda shkivlar 10 yordamida tasmali uzatmalar orqali savag‘ichlar 3 mahkamlangan val 14 aylanma harakatga keladi. Shu paytda dukkakli loviya poyalari yuklanadi. Dukkakli loviya poyalari bunker 1 dan silindr 2 ning ichiga kelib tushganda, aylanayotgan savag‘ichlar 3 ularga urilib, ta’sir kuchi natijasida donlarni dukkaklaridan ajratadi. Savag‘ichlar 3 val 14 ga vintsimon shaklda mahkamlangani uchun, aylanish yo‘nalishida poyalarni oldinga qarab ham suradi. Dukkaklaridan ajralmay qolgan donlar harakat yo‘nalishida boshqa savag‘ichlar 3 ga urulishi va oldinga qarab surilishi natijasida to‘liq ajraladi. Dukkaklaridan ajralgan donlar g‘alvirsimon taglikdan o‘tib, donli aralashmani g‘alvirga uzatuvchi novlar orqali ventilyator 9 tomonidan hosil qilingan havo oqimi yo‘liga tushadi. Ventilator 9 tomonidan hosil qilingan havo oqimiga bir me’yorda etkazib berilgan donlar hamda har xil aralashmalar va begona o‘tlar urug‘i, fizik-mexanik xossalariga bog‘liq ravishda, uning ta’sirida qabul qilish bunkeri 7 ning mos fraksiyasiga borib tushadi.

Ushbu loviya donini dukkaklaridan ajratib tozalash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan takomillashtirilgan qurilmaning texnologik ish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadigan omillar orasidagi bog‘lanishlarni hamda ularning

ISSN 3030-3907

maqbul qiymatlarini aniqlashda ko‘p omilli eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Bundan oldin bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy adabiyotlar, nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalari hamda dastlabki eksperimental tadqiqotlar asosida, loviya donini dukkaklaridan ajratib olish texnologik jarayoniga valning aylanishlar soni, savag‘ichlar soni va savag‘ichlarning uzunligi, dastlabki tozalash texnologik jarayoniga ventilyatorning aylanishlar soni eng ko‘p ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Shu sababdan loviya donini dukkaklaridan ajratib tozalash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan takomillashtirilgan qurilmaning asosiy konstruktiv o‘lchamlari va ish rejimlarining maqbul qiymatlarini aniqlash uchun qo‘p omilli tajribalar B_3 rejasidan foydalanib ko‘p omilli tajribalar o‘tkazildi. Ko‘p omilli tajribalarni baholash mezoni sifatida loviya donini dukkaklaridan ajratib olish jarayoni uchun donlarni dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligi hamda ularni shikastlanish darajasi, loviya donini dastlabki tozalash jarayoni uchun don tozaligi va nobudgarchiligi qabul qilindi.

O‘tkazilgan dastlabki tajribalar va nazariy-amaliy tadqiqotlarning natijalariga asoslanib, omillarning o‘zgarish chegaralari va oraliqlari aniqlandi.

1-jadvalda asosiy omillar, ularning o‘zgarish chegaralari va oraliqlari keltirilgan.

1-jadval

Asosiy omillar, ularning o‘zgarish chegaralari va oraliqlari

Loviya donini dukkaklaridan ajratib olish texnologik jarayoni uchun							
	Omillarning nomlanishi	Belgilanishi		O‘zgarish chegarasi			O‘zgarish oraliq‘i
		Haqiqiy	Kodlanganzgaris	– 1	0	+ 1	
	Valning aylanishlar soni, r/min		x_1	400	450	500	50
	G‘avag‘ ichlar soni, dona	k	x_2	20	22	24	2
	G‘avag‘ ichlarning uzunligi, mm		x_3	210	220	230	10

ISSN 3030-3907

Loviya donini tozalash texnologik jarayoni uchun							
	Ventely atorning aylanishlar soni, min^{-1}	*ayl*	*1*	1 800	2 000	2 200	2 00

Texnologik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadigan omillar va olinadigan natijalar orasidagi bog‘liqlik quyidagi regressiya tenglama ko‘rinishida ifodalanadi [15].

$$y = b_0 + \sum_{i}^{k} b_i x_i + \sum_{i>y}^{k} b_{ij} x_{ij} + \sum_{i=1}^{k} b_{ic} x_i^2, \qquad (1)$$

bunda y – tadqiq qilinayotgan jarayonning maqbullashtirilgan mezoni;
b_o, b_{ij}, b_{ii} – o‘zgarmas regressiya koeffitsientlari;
x_i, x_{ij} – o‘zgaradigan omillar.
Hisoblashlarni osonlashtiruvchi omillar quyidagi ifoda bilan kodlandi

$$X_i = \frac{X_i - X_{oi}}{\varepsilon}, \qquad (2)$$

bunda X_i – omillarning shartli qiymati;
X_i – omillarning haqiqiy qiymati;
X_{oi} – nol sathdagi omillarning haqiqiy qiymati;
ε – omillarning o‘zgarish oralig‘ini haqiqiy qiymati.

Regressiya koeffitsientlarining ahamiyatliligini aniqlash jarayonida 0,05 sathda Styudent mezonidan foydalanildi.
Jarayonlar modelining adekvatliligi Fisher mezoni bo‘yicha tekshirildi.
Agar

$$F_{\max} < F_{жад(0,05)}, \qquad (3)$$

bo‘lsa, texnologik jarayonning modeli adekvat hisoblanadi.

Har bir tajriba uchun uchta kuzatishlar olindi. Eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish ketma-ketligini bilish uchun tasodifiy sonlar jadvalidan foydalanildi. Loviya donini dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligi va ularni shikastlanish darajasi hamda loviya donini dastlabki tozalashda don tozaligi va nobudgarchiligi bo‘yicha regressiya tenglamalari olindi. Ushbu tenglamalardan texnologik jarayonga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillarning maqbul qiymatlari aniqlandi.

Loviya donini dukkaklaridan ajratib dastlabki tozalash bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘p omilli eksperimental tadqiqotlarda olingan natijalarni kompyuterda mavjud bo‘lgan maxsus dastur yordamida hisoblablandi va qayta ishlov berildi. Ushbu dastur orqali donlarni dukkaklaridan ajratib olish texnologik jarayonida donlarni dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligi va ularning shikastlanish darajasi hamda loviya donini dastlabki tozalash texnologik jarayonida don tozaligi va

ISSN 3030-3907

nobudgarchiligini adekvat ifodalaydigan quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- donlarni dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligi bo‘yicha

$$Y_1 = 94{,}758 + 2{,}565\,X_1 + 4{,}441X_2 - 9{,}445X_3 - 1{,}254X_1^2 - 8{,}444X_1X_2 + 1{,}533X_1X_3 - 9{,}311X_2^2 + 3{,}315X_3^2,\ \%; \quad (4)$$

- donlarning shikastlanish darajasi bo‘yicha

$$Y_2 = 1{,}43 + 0{,}156X_1 - 0{,}474X_2 - 0{,}869X_3 + 0{,}155X_1^2 + 0{,}344X_1X_3 + 0{,}657X_2^2 + 0{,}124\,X_2X_3 - 1{,}258X_3^2,\ \% \quad (5)$$

- don tozaligi bo‘yicha, (%)

$$U_{toza} = 98{,}136 + 0{,}354X_1 + 0{,}355X_2 + 0{,}366X_3 + 0{,}254X_1X_2 - 0{,}214X_2^2 + 0{,}388\,X_2X_3; \quad (6)$$

- don nobudgarchiligi bo‘yicha, (%)

$$U_{nob} = 0{,}013 + 0{,}003X_1 + 0{,}002X_2 + 0{,}003X_3 + 0{,}002X_1^2 + 0{,}001X_1X_2 + 0{,}012X_1X_3 + 0{,}014X_2^2 + 0{,}002X_2X_3 - 0{,}008X_3^2. \quad (7)$$

(5) va (6) regressiya tenglamalarini loviya donini dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligi $Y_{1max} \geq 98$ foiz va ularni shikastlanish darajasi $Y_2 < 2$ ga intilish sharti hamda (7) va (8) regressiya tenglamalarini don nobudgarchiligi 0,05 foiz [min] qiymatga, don tozaligini 98,0 foiz [max] qiymati bilan echish texnologik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillarning maqbul qiymatlari aniqlandi .

2- va 3-jadvallarda asosiy omillarning maqbul qiymatlarini aniqlash natijalari keltirilgan.

2-jadval

Asosiy omillarning maqbul qiymatlari

Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	Omillar va ularning qiymatlari		
	n, 1/min	Z_k, dona	*l*, mm
Shartli	+0,121	0	+1
Haqiqiy	453,6	22	230
Yaxlitlangan	450	22	230

3-jadval

Asosiy omillarning maqbul qiymatlari

Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	Omillar va ularning qiymatlari
	n_{ayl} min^{-1}
Shartli	0
Haqiqiy	2000
Yaxlitlangan	2000

ISSN 3030-3907

2- va 3-jadvallarda keltirilgan natijalardan ko‘rinib turibdiki, taklif qilinayotgan qurilmada loviya donini dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligini yuqori va ularning shikastlanish darajasini kam, don nobudgarchiligi kam hamda don tozaligini yuqori bo‘lishi valning aylanishlar soni 450 min^{-1}, savag‘ichlar soni 22 dona, savag‘ichlarning uzunligi 230 mm, ventilyatorning aylanishlar soni 2000 min^{-1}ga teng bo‘lganda ta’minlanadi.

Xulosa

1. Loviya donini dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligi yuqori, ularning shikastlanish darajasini past, don tozaligi yuqori va uning nobudgarchiligi past bo‘lishiga savag‘ichlar mahkamlangan valning aylanishlar soni, savag‘ichning uzunligi, savag‘ichlar soni, ventilyatorning aylanishlar sonini to‘g‘ri tanlash orqali erishish mumkin.

2. Taklif qilinayotgan qurilmada loviya donini dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligi yuqori, ularni shikastlanish darajasi past, don tozaligi yuqori hamda uning nobudgarchiligi kam bo‘lishi pichoqsimon savag‘ich foydalangan holda valning aylanishlar soni 450 min^{-1}, unga o‘rnatilgan savag‘ichlar soni 22 dona, savag‘ichlarning uzunligi 220 mm, ventilyatorning aylanishlar soni 2000 min^{-1}ni tashkil etganda ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pardayev O. R. Achilov E.T. Loviya urug‘uni dukkaklaridan ajratadigan qurilma**.** \\ Ishlab chiqarishning texnik muxandislik va texnologik muammolarni inavatsion echimlar Xalqaro Ilmiy -texnik anjuman. – Jizzax, 29-30 oktyabr-2021. B. 510-512.

2. Pardayev O. R. Achilov E.T. Urug‘lik loviyani dukkaklaridan ajratib olish uchun talab etilgan kuchni asoslash**.**\\ Ishlab chiqarishning texnik muxandislik va texnologik muammolarni inavatsion echimlar Xalqaro Ilmiy -texnik anjuman. – Jizzax, 29-30 oktyabr-2021-yil.inavatsion echimlar. B. 507-510

3. Pardayev O. R. Achilov E.T. Энергио -и ресурсосберегающее устройство для отделения семян сельскохозяйственных культур // Интернатцонал конференсе он. Москва 28 02 2022-год. – С. 195-199.

4. Pardayev O. R. Achilov E.T. THE RESULT OF STUDYYING THE GYOMETRIC DEMESIONS OF MUNG BEAN // Namangan muhandislik texnologiyalari instituti ilmiy texnikum jurnal. – Namangan. 2022-yil.

5. Egamnazarov G‘. G‘.,Pardayev O. R. Achilov E.T. Qishloq xo‘jaligi ekinlari kompanentlarining ishqalanish koeffitsentini o‘rganish natijasi**.** // Zamonoviy Tadqiqotlar inovatsiyalar, texnika va texnologiyalarining dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari. Ilmiy texnik anjuman 1-qism. Jizzax. 2022-yil 8-9-aprel. B. 257-261.

ISSN 3030-3907

6. Egamnazarov G‘.G‘., Pardayev O. R. Achilov E.T. Qishloq xo‘jaligi ekinlari boshog‘i,dukkagi va poyasini namligi**.** // Zamonoviy Tadqiqotlar inovatsiyalar, texnika va texnologiyalarining dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari. Ilmiy texnik anjuman 1-qism. Jizzax. 2022-yil. B. 251-256 .
7. Pardayev O. R., Achilov E.T.,Xiloliddinova F.R. Qishloq xo‘jaligi ekinlari boshog‘i,dukkaklaridan ajratadigan qurulmani ishlab chiqarish natijasi.// Zamonoviy Tadqiqotlar inovatsiyalar, texnika va texnologiyalarining dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari.Ilmiy texnik anjuman. . Jizzax. 1-qism 2022-yil.8-9-aprel. B. 261-264.
8. Egamnazarov G‘. G‘., Pardayev O. R., Achilov E.T. Qurilmadagi g‘alvir ko‘zlarining diametrini asoslashda urug‘larning geometrik o‘lchamlarini o‘rganish natijasi. // Andijon mashinasozlik ilmiy texnik jurnal. Andijon. №2. 2022 yil iyul. B. 198-202.
9. Pardayev O. R., Achilov E.T., Xiloliddinova F.R. Qishloq xo‘jaligi ekinlari donini boshog‘i va dukkaklaridan ajratadigan qurilmaning tuzilishi hamda navning parametrlarini asoslash.// Andijon mashinasozlik ilmiy texnik jurnal. Andijon. №2. 2022 yil iyul. B. 209-214.
10. Egamnazarov G. G‘.,Pardayev O. R., Achilov E.T. Qishloq xo‘jaligi ekinlari donini ajratadigan qurilmada boshoqli va dukkakli ekinlar poyalarining qamrab olinish jarayonini tadqiq etish.// NAMDU axborat nomasi ilmiy texnik jurnal 2022 yil iyul. Namangan. №2(7),2022. B. 75-80.
11. Igamberdiev D. X., Achilov E.T. Loviyaning halq xo‘jaligidagi ahamiyati.// PROSPECTS FOR THE DEVELOP7MENT OF DIGITAL ENERGY SYSTEMS, PROBLEMS AND SOLUTIONS FOROBTAINING RENEWABLE ENERGY. – Jizax. 19-20 may 2023 yil. B 810-812.
12. Pardayev O. R., Achilov E.T. Optimizing the main structural dimensions and operating modes of the device that separtest the seeds of agricultural crops from the ears and pods.// Ekonomika I sosium. Москва 3(106)2023
13. ISSN 2225-1545 172-175. https://www.iupr.ru/3-106-2023
14. Pardayev O. R., Achilov E.T. Theortical study Process of separation of agricultural crops seeds from heand and pods under the influence of winders.// Modern journal of social. Sciences and humanities. ISSN 2795-4846.Partugaliya. B 36-41
15. Аугамбаев М.А. и др. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 336 с.

ISSN 3030-3907

YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI VA UNGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Ismatilloyeva Gulasal Rahmat qizi
Buxoro Davlat texnika universiteti talabasi
E-mail: guli-asal@inbox.ru
G‘aybullayev Saidjon Abdusalimovich
Buxoro Davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqola ekologik madaniyat va ekologik qadriyatlarning zaruriyati va ahamiyati hamda yoshlarda uni shakllantirishning zamonaviy tamoyillari qolaversa ekologik tarbiya jarayoniga ta’sir qiluvchi omillar sharhiga bag‘ishlangan. Unda ekologik madaniyat mazmuni va uning komponentlari, ekologik qadriyatlarning asosiy tushunchalari hamda ekologik madaniaytni shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik qadriyatlar, ekologik ong, ekologik voqelik, ta’lim va tarbiya.

Аннотация. Статья посвящена необходимости и значению экологической культуры и экологических ценностей, а также современным принципам ее формирования у молодежи, а также обзору факторов, влияющих на процесс экологического воспитания. Описано содержание экологической культуры и ее компонентов, основные понятия экологических ценностей, факторы, влияющие на формирование экологической культуры.

Ключевые слова: экологическая культура, экологические ценности, экологическое сознание, экологическая реальность, образование и воспитание.

Abstract. The article is devoted to the necessity and importance of ecological culture and ecological values, as well as modern principles of its formation among young people, as well as an overview of factors influencing the process of ecological education. The content of ecological culture and its components, the basic concepts of ecological values, and factors influencing the formation of ecological culture are described.

Key words. ecological culture, ecological values, ecological consciousness, ecological reality, education and upbringing.

Kirish

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uning ekologik barqarorligiga bog‘liqdir. Ekologiya masalalari naqadar dolzarb va hayot-mamot masalasi ekanligini bugun ahli bashar tugal anglab etmoqda. Boshqacha aytganda pandemiya kabi ofatlar bu borada insoniyat ko‘zini yanada kattaroq ochdi, deb aytishimiz mumkin. Sir

ISSN 3030-3907

emaski, tabiiy talofatlar, ofatlardan ko‘ra insoniy ofatlardan bugun tabiat tabiiyligi jar yoqqasiga olib kelib qo‘ydi. Buni o‘zida aqli, hushi bor odam zamin sayyorasini qaysi chekkasida istiqomat qilmasin anglash qiyin emas.

Albatta, muammoga turlicha echimlar bugun dunyoda ko‘p. Ammo, echimlar boshida avvalo, ekologik madaniyat, ma’naviy mas’uliyat, ta’lim-tarbiya va amal birligini inobatga olish oqlonalikdandir. Zero, odamni tabiatiga munosabatlaridagi yondoshuvlari tubdan o‘zgarmasa, chuqur ilmiy–ma’rifiy asoslarga ega bo‘lmasa – olamdagi ekologik vaziyat o‘zgarmas. Shu boisdan, yoshlarda ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi usul va vositalari ta’sirini oshirish tamoyillariga e’tibor qaratish muhim ma’no va hal qiluvchi ahamiyatga egadir.



Toza tabiiy muhitni asrash kerak deganimiz bilan u asralib qolmaydi. Uning asrash uchun insonlar qalbida va ayniqsa ertangi avlod qalbida tabiatga nisbatan mehr-ma’rifatini uyg‘otmoq darkor. Bu avvalo, yoshlarda ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi usul va vositalarini qaydarajada mukammaligiga, uning ta’siri samaradorligini oqilona ko‘lami darajasiga hamda mavjud jamiyatning ekologik madaniy ongi va tafakkur darajasiga bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yoshlarda ekologik qadriyatlarni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi usul va vositalar tizimida ekologiyaga oid ilmiy- nazariy bilimlar, ilmiy axborotlar, zamonlar sinovidan o‘tgan amaliy hayotiy tajribalar, ekologik ma’naviy qadriyatlar va ma’rifiy omillar, tabiatga nisbatan mehr va zavq uyg‘otadigan emotsional-estetik adabiy-badiiy vositalar, tabiatga sog‘lom munosabatlarni shakllantiradigan naqliy-aqliy, diniy-dunyoviy bilimlar, tarix sinovidan o‘tgan etnoekologik tarbiyaviy usullar, an’anaviy-zamonaviy yondoshishlar, ekologik ta’limiy - tarbiyaviy usullar, namunaviy-ko‘rgazmaviy ekologik innovatsion jihatlar muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy sohada tub islohotlar va o‘zgarishlar amalga oshirilib, ular xalqimizning xohish irodasi bilan, qat’iy tanlab olingan milliy taraqqiyot yo‘li asosida keng ko‘lamda, izchil davom ettirilmoqda.

ISSN 3030-3907



Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqiroziga qaramay, iqtisodiyotimizda o‘sish sur’ati ta’minlanmoqda. Aholining tobora o‘sayotgan hayot va farovonlik darajasi barqaror saqlanib kelinmoqda. Mamlakatimizda qabul qilingan muhim davlat dasturlari o‘z samarasini bermoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo`jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta`minlash kabi masalalar energetik xomashyolardan oqilona foydalanshni taqazo etish bilan birga atrof-muhitga zarar keltirmaydigan muqobil energiya manbalario topish va joriy qilish yo‘nalishidagi amalga oshiriladigan asosiy vazifalarning dolzarbligini oshiradi. Shu sababli ekologiyaga antropogen ta’sirni kamaytirish va yuqori sifatli yoqilg‘i ishlab chiqarish hamda yurtimizda transport sohasi uchun tovar yoqilg‘ilar tayyorlashda ekologik toza energoresurslarni qo‘llash borasidagi tadqiqotlar bugunning ustuvor masalalaridandir.



Yangi O‘zbekistonda bu borada olib borilayotgan islohotlar ham kelajak avlod uchun yashashga yaroqli tabiat, atrof-muhitni barpo etishga qaratilgan. Bunda avvalo, aholi orasida ekologik madaniyatning shakllanishi va mustahkamlanishi katta ahamiyat kasb etadi.



Ekologik madaniyat mazmunini talqin qilishda muayyan qoida keltirmay uni quyidagi o‘zaro bog‘langan komponentlar yig‘indisi sifatida qarash maqsadga muvofiq:

- *kognitiv* (ekologik ahamiyatga ega bilim);
- *aksiologik* (ekologik qadriyatlar, baholashlar, munosabatlar, tajribalar, "hissiy rezonans");
- *me'yoriy* (axloqiy va ekologik imperativ, axloqiy me'yorlar, qoidalar, taqiqlar, ekologik an'analar);
- *ijodiy va faol* (ijodiy, proyektiv, ekologik jihatdan oqlangan faoliyat tajribasi);



ISSN 3030-3907

-*xulq-atvor* (tabiatga nisbatan tabiiy harakatlar, u bilan munosabatlarda hamkorlik);

- *tafakkurning ekologik uslubi* (tabiiy va ijtimoiy-madaniy jarayonlarni yaxlitlik pozitsiyasidan ko‘rib chiqish, u bilan sheriklik asosida inson va tabiatning yonma-yon mavjudligini tan olish, tirik tabiatning qadr-qimmati, u bilan insonning birligi, tabiatning sub'ektivligi va boshqalar).

Ekologik madaniyatning aniqlangan tarkibiy qismlari diagnostika vositalari bo‘lib, ko‘rsatilgan komponentlar asosida uning shakllanishi mezonlarini (yuqori, o‘rta, past) aniqlash imkonini beradi. Ekologik madaniyatga ega bo‘lgan shaxs nafaqat tashqi dunyo (tabiat, jamiyat), balki uning ichki dunyosi bilan ham uyg‘unlikka erishish qobiliyati bilan ajralib turadi.



Shaxs ekologik madaniyatining o‘zagi (asosi) qadriyatlar tizimidir. Qiymat - bu narsa va hodisalarning faqat odamlar uchun ma'noga ega bo‘lgan alohida ahamiyatga ega turi. Tizimni tashkil etuvchi ekologik qadriyatlar quyidagilardir: atrof-muhit - inson - vaqt - insonning ekologik faoliyati.

Ekologik qadriyatlar quyidagicha ifodalanadi:

- ekologik tushunchalar: “tabiat”, “inson”, “hayot”, “Jahon tabiiy va madaniy merosi obekti”, “biologik xilma-xillik”, “madaniy landshaft”;
- qadriyatlarga asoslangan ekologik g‘oyalar: “tabiatning umumbashariy qadriyati”, “inson ehtiyojlarini cheklash”, “jamiyatning barqaror rivojlanishi strategiyasi”, “uyg‘unlikka erishish uchun mutanosib sub’ektlar sifatida inson va tabiatning ichki qadriyati”;
- ijodiy, ekologik jihatdan mos faoliyat: “atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati”, “turmush tarzi: ishtirok etish, hamkorlik”.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ekologik madaniyatning shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1.Ta'lim. Ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ta'lim asosiy o‘rin tutadi. Bu odamlarga atrof-muhitni muhofaza qilish muhimligini tushunishga

ISSN 3030-3907

yordam beradi va ularni himoya qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatadi.

2. Tarbiya. Ota-onalar va boshqa muhim kattalar bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga ta'sir qilishi mumkin. Ular ularga atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq qadriyatlar va xatti-harakatlar normalarini etkazishlari mumkin.

3. Tajriba. Tabiat bilan o‘zaro munosabatlarning shaxsiy tajribasi ham ekologik madaniyatning shakllanishiga ta'sir qiladi. Tabiatda ko‘p vaqt o‘tkazadigan odamlar ko‘pincha uni asrash haqida ko‘proq ongli bo‘lishadi.

4. An'analar va qadriyatlar. Madaniy an'analar va qadriyatlar odamlarning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, ba'zi madaniyatlar tabiat bilan chuqur aloqada bo‘lib, uni muqaddas deb bilishadi.

5. OAV. Jamoatchilik fikri va qadriyatlarini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari muhim o‘rin tutadi. Ular atrof-muhit muammolari haqida ma'lumot tarqatishi va odamlarni uni himoya qilish uchun harakat qilishga undashi mumkin.

6. Qonunchilik. Atrof-muhitni muhofaza qilishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari ham ekologik madaniyatni shakllantirishga sezilarli ta'sir qiladi. Chunki, ular tabiatni muhofaza qilish uchun odamlar amal qilishi kerak bo‘lgan qoidalar va standartlarni belgilashlari mumkin.

Zamonaviy dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish uchun har bir inson o‘zining ekologik madaniyatini yuksaltirishga intilishi, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlarda faol ishtirok etishi maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ekologik madaniyat – bu barchamizda ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg‘u va biz uni hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish, rivojlantirish innovatsion usul va vositalarga taqozolangandir. Bu qonuniyatlarini inobatga olmaslik ekologik tahdidlarni yanada ortishiga sabab bo‘ladi. Innovatsiyalar jamiyat kishilarini va yoshlarni halim-hazimlikka, oqilonalikka, kamharijlikka, samaradorlikka, saramjon-sarishtalikka, ekologik fahm-farosatiga, tozalik va ozodalikka, tabiat boyligiga boylik qo‘shishga, uni gullab-yashnatish yo‘lida himmatu-shijoatga, g‘ayrat-tashabbusga, hikmatu hidoyatga chorlaydi.

Yoshlarni ekoinnovatsion fikrlash maydonlarini kengaytirish, sog‘lom ilmiy ekologik g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalalari va mazkur qism bo‘yicha quyidagilarni taklif sifatida kiritishimiz mumkin;

birinchidan, bu boradagi tarbiya mavsumiy xarakterga ega bo‘lmasligi lozim;

ISSN 3030-3907

ikkinchidan, yoshlar qalbi va ongini ekologik madaniyati bilan boyitadigan manbalar mavjud ekologik voqelikdan ortda qolmasligi kerak;

uchinchidan, yoshlar ekologik ong va madaniyatini oshirishga sezilarli ta'sir etuvchi omillar tizimini yanada rag'batlantirishni oshirib borish darkor;

to'rtinchidan, yoshlarni innovatsion ekologik fikrlashga turtki beradigan ilmiy asarlarni ko'paytirishga va ularni elektron versiyalarini ijtimoiy tarmoqlarda joylash muhimdir;

beshinchidan, yoshlar o'rtasida ekobilimdonlik kechalarini tashkil etish maqsadga muvofiq va boshqalar.

Bizningcha, yuqoridagilarni amalga oshirish yoshlarda sog'lom turmush tarziga oid ekobilimdonlik madaniyatni rivojlantiradi, ona tabiatga, uning boyliklariga, cheksiz sahovatiga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlaydi va tabiat boyliklari ustiga boylik qo'shish ishtiyoqini oshiradi hamda bu borada mustaqil va ratsional ilmiy-ma'rifiy yondoshishlariga muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.X. Hamzayev. Ekologik ta'lim va tarbiya tushunchalarini shakllantirish tamoyillari. EKOLOGIK MADANIYAT: MUAMMO VA YECHIMLAR mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallar to'plami. 2025 yil. Buxoro (12may). 5-8 b.
2. S.G'. Siddiqova. Yashil tarbiyadan yashil ixtirolargacha: yashil taraqqiyotda ayollarning o'rni. EKOLOGIK MADANIYAT: MUAMMO VA YECHIMLAR mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallar to'plami. 2025 yil. Buxoro (12may). 8-12 b.
3. S.A.Gaybullaev, G.R.Bazarov. Effect of gasoline quality on toxicity of exhaust gases. E3S Web of Conf. Volume 390, 2023 VIII International Conference on Advanced Agritechnologies, Environmental Engineering and Sustainable Development (AGRITECH-VIII 2023).
4. S.A.G'aybullayev. Benzin sifatining me'yoriy talablarga mosligini tashlama gazlarning zaharliligiga ta'siri. «Fan va texnologiyalar taraqqiyoti» ilmiy-texnikaviy jurnali. №2, aprel-2023. 80-85 b.
5. A.A. Saidov, M.Z. Komilov, B.Z.Sharipov, S.A.G'aybullayev. Yashil energetikada vodorod va ekotizim. "Sanoat va qishloq xo`jalik tarmoqlarida ekologiya va mehnat muhofazasi muammolari"mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro-2023y. (19-20 – oktyabr) 447-448b.
6. Alisher hoshim o'g'li, T., & Nabiullayevich, A. S. (2024). Neft Va Gazni Qayta Ishlash Korxonalari Jihoz Va Qurilmalarida Kelib Chiqishi Mumkin Bo'lgan Korroziyalar Va Ularning Ldini Olish Usullari. Miasto Przyszłości, 46, 847-851.

ISSN 3030-3907

7. Hoshim O‘g‘li, T. A., Universiteti, B. D. T., Jumayevich, D. S. B., & Raxmatovna, D. X. G. Z. GAZLARNI MEA YORDAMIDA ABSORBSION TOZALASH.
8. Alisher, T., Vokhid, A., & Bobir, O. (2022). Synthesis and properties of thiourea based inhibitors. Universum: технические науки, (8-3 (101)), 63-65.

ISSN 3030-3907

UO‘T 631.361.022, 631.362.3

NO‘XAT URUG‘INI DUKKAKLARIDAN AJRATIB FRAKSIYALARGA BO‘LADIGAN QURILMANING ISH REJIMLARINI MAQBULLASHTIRISH

Pardayev Obid Raximboboevich
Jizzax politexnika instituti Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: pardayevobid143@gmail.com
Tel.: +998881276886
Islomov Muxammad Husniddin o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti Assistent
e-mail: muxammadjon040497@gmail.com
Tel.: +998940758004

Annotatsiya. Maqolada no‘xat urug‘ini dukkaklaridan ajratib fraksiyalarga bo‘ladigan qurilmaning ish rejimlarini maqbullashtirish natijalari keltirilgan. Eksperimental tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, taklif qilinayotgan qurilmada no‘xat urug‘ini dukkaklaridan ajratib olish to‘liqligini yuqori va ularning shikastlanish darajasini kam, urug‘ nobudgarchiligi kam hamda urug‘ tozaligini yuqori bo‘lishi valning aylanishlar soni 400 min^{-1}, savag‘ichlar soni 20 dona, savag‘ichlarning uzunligi 220 mm, silindrik g‘alvirning aylanishlar soni 15 r/min, silindrik g‘alvirning qiyalik burchagi 2 gradusga teng bo‘lganda ta’minlash mumkin ekan.

Kalit so‘zlar. No‘xat, dukkak, urug‘, savag‘ich, qurilma, val, g‘alvir, bunker, silindr.

Annotation. The article presents the results of the approval of the operating modes of the device, which divide pea seeds into fractions from their pods. The result of experimental studies showed that in the proposed device, the separation of pea seeds from legumes is high and their degree of damage is low, seed loss is low, and high seed purity makes it possible to ensure that the number of Val rotations is 400 min-1, the number of baskets is 20 pieces, the length of the baskets is 220 mm,

Keywords. Peas, legumes, seeds, sieve, device, shaft, sieve, hopper, cylinder.

Аннотация. В статье представлены результаты оптимизации режимов работы прибора, при котором семена гороха отделяются от стручков и делятся на фракции. Результат экспериментальных исследований показал, что в предлагаемом приборе высокая полнота извлечения семян гороха из стручков и низкая степень их повреждения, низкая всхожесть семян и высокая чистота семян число оборотов вала 400 мин-1, число подач 20 штук, длина подач 220 мм, Число оборотов цилиндрической подачки 15 об/мин, цилиндрическая подача 15 об / мин оказывается, можно обеспечить, когда

ISSN 3030-3907

угол наклона лопасти равен 2 градусам.


Ключевые слова. Горох, стручок, семя, молотилка, устройство, вал, лебедка, бункер, цилиндр.

Kirish

Ma’lumki qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘ini boshog‘i va dukkaklaridan ajratib dastlabki tozalash jarayonlarini sifatli bajarilishini ta’minlaydigan texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnik vositalar ishlab chiqishga, ularning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib boorish ahamiyatga molik vazifalardan hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda, qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirishni fermer xo‘jaliklarida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va sarf-harajatlarni kamaytirishga ularning urug‘larini dukkaklaridan agrotexnik talablar darajasida ajratib tozalash uchun tuzilishi jihatdan sodda qurilmalari energiya va resustejamkorligini oshirish qishloq xo‘jalik mashinasozligining echilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.


Fermer xo‘jaliklarida yuqorida keltirilgan ishlarni bajarish uchun takomillashtirilgan energiya-resurstejamkor qurilmalarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Ushbu masalani bartaraf etish uchun avval bajarilgan ilmiy-tadqiqot davomida yangi konstruksiyadagi kichik hajmli no‘xat urug‘ini dukkaklaridan fraksiyalarga bo‘ladigan qurilmaning sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm) [1-14].



a)

ISSN 3030-3907



b)

a) yon tomondan ko‘rinishi; b) yuqoridan ko‘rinishi

1–yuklash bunkeri; 2–savag‘ichlar;3–silindr; 4–val; 5–rama; 6– g‘alvir ko‘zini tozalovchi cho‘tka;7– va 14–silindrik g‘alvir;8– vintsimon yo‘naltirgich;9– va 15–podshipniklar; 10–yirik qo‘shilmalar tushadigan nov;11– yirik urug‘lar tushadigan nov; 12–mayda urug‘lar tushadigan nov 13– mayda qo‘shilmalar tushadigan nov; 16–urug‘li aralashmani g‘alvirga uzatuvchi nov; 16–chiqarish tunigi; 18–elektrodvigatel; 19–asos; 20–shkivlar

1-rasm. No‘xat urug‘ini dukkaklaridan ajratish va fraksiyalarga bo‘ladigan qurilmaning konstruktiv va texnologik sxemasi

bog‘chalari sonini ko‘paytirishga ko‘p etibor qaratgan, 2023-yildagi statistic malumotlarga ko`ra Xitoyda 274 000 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyat yuritayotgan bo‘lsa shulardan 236 000 tasi davlat tomonida qo‘lab quvatlanadigan hamda xususiy bog`chalar hisoblanadi. Yildan yilga bu ko`rsatgichlar aholining talabini qondirish maqsadida osib bormoqda bu esa taklif beruvchi insonlarni ham ko`paytirish hamda yangi ish o`rinlarini yaratish bilan bir qatorda bozordagi talab va taklif muozanatini oz ornida qolishi yoki ozgarishiga sabab boladi. Shu bilan bir qatorda bozorga yangi o‘qitish uslublari,yangi jihozlar va yangi texnologiyalar bilan ilg`or o`quv tizimini olib kiradi. 2023-yil ohirdagi natijalarga ko‘ra bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish 91.1% ni tashkil etgani ko‘rsag boladi bu esa Xitoy iqtisodiyotidagi sezilarliy tasir ko‘rsati. Bu ko‘rsatgich yaqin yillarda Xitoyning umumiy ta’lim harajatlari 4.22% ni tashkil etadi. Bu natija YAIM 0.5% ga o‘sgani ko‘rsatadi bu natija Xitoy davlati iqtisodi va ijtimoiy turmush tarziga judda katta tasir ko`rsatuvchi ommil hissoblanadi.


Shu jumlada bizning yurtimizda ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonini ko`paytirish davlat xususiy sherikchilik asosida faoliya yuritayotgn MTTlar sonini oshirishga harakat qilinmoqda bu bora O`zbekiston respublikasini moliya vazirligi, davlat tijorat va notijorat banklar bilan hamda boshqa tegishlik budjet tashkilotlari tegishliy hujjatlar asosida, maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonini kopaytirish yonalishlar korib chiqilmoqda. Bu bora moliya va budjet tashkilotlari tomonida subsidiya va kompensiyalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga to`lab berish orqaliy va yangi investorlarni jalb etish bilan nodavlat va xusuish sherikchilik maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qo‘lab quvatlamoqda. Buning natijasida bugungi kunda yurtimizda 3-7 yoshliy bolalar soni 3 mln ga yaqin bolsa shulardan 74% maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olingan bolib. Bu korsatgichni aniq raqamlar bilan koradigan bolsag yurtimizda 2 930 844 nafar bola maktagcha ta’lim tashkilotlariga qamrab olish yoshiga etgan bo‘lib, shulardan 74% yani 2 169 538 tasi MTTlarga qamrab olinga. Bu esa 2030-yilga kelib 100% ga etkazish ko‘zda tutilgan. Shuningdek yurtimzdagi shu 5 yillig ishlar natijasida nodavlat MTTlar soni yanada oshdi yani hozirda 27 162 ta nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyat yuritmoqda bulardan.

- Xususiy bogchalar 847 ta
- Oilaviy bog`chalara 24 927 ta
- DXSH asosidagi MTTlar 1 388 ta

Bu korsatgich yildan yilga osib bormqoda, buning eng asosiy sababi yurtimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolgan talabning kopligi va bu doimiy osib borayotgani hisoblanadi. Shuning uchun ham 2030-yilga kelib qarib 5

ISSN 3030-3907


yil ichida insonlarning talablari toliq holda qondirish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolgan talabni 100% qoplash maqsadida 2022-2026 yilarga moljanlangan taraqiyot satrategiyalari ishlab chiqilgan. Bunin amalyotga joriy etish maqsadida mamlakatimiazda yangi yonalishlar ishlab chiqilmoqda. Davlat xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarni soni kopaytirish maqsadida yangi imtiyozliy kreditlar bank tarmoqlariga maqsadliy qilib joylandi, shuningdek yanga yangi subsidiyalar va kompensyalar tolab berish boyicha yangi qarorlar ishlab chiqildi (O‘zbekiston respublikasining vazirlar mahkamasining 426-son qarorida) korsatib o`tilgan.



Quyidagi diagramma AQSH, Xitoy va O‘zbekiston davlatlarida 2016–2020 yillar oralig‘ida maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining o‘sishini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatgichlar barcha davlatlarning talablaridan yani odamlari sonidan kelib chiqan holda osib borgan bugungi kunda ham Xitoy va AQSH davlatlari dunyo reytingida odalar osib borishi boyicha 2 va 3 orinlarida turishadi. Bundan aniq boladiki bu davlatlardagi odamlarning maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bo`lgan talabi judda ham kop. Bu esa davlat budjeti va moliya markazlariga katta yuk olib keladi. Bunday holatlarda davlatlar oz mablaglaridan foydalanishdagi balansni saqlash maqsadida chet elik investorlarni jalb etish, turli xildagi jaxon banlari ajratadigan subsidiyalarda va grandlardan foydalanish orqaliy o‘zlarning moliyaviy bozorlaridagiz ozgarishlarni bir hilda ushlashga harakat qiladilar. Bularnin amaliyotda qolash esa talab va taklif bir hilda ozgarib boradi va bozordagi muozanat ozgarishsiz qoladi. Bunda davlatlarda maktabgacha talim rivojlantirish orqaliy yoshlarga sfatliy ta’lim berish bilan bir qatorda davlat

ISSN 3030-3907

iqtisodiyoti uchun ham koplab imkoniyatlar beradi bulardan; yangi ish orinlarining yaratilishi hamda bolalarni erta rivojlanishi va iqtisodiyotning uzoq vaqt bir hilda ozgarmay qolishi shuningdek ta’lim shaklining uzluksiz bolishi ham. Mamlakatimizning songi yilardagi odamlar soning osib borishi va maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun bolgan talabning orib borishi natijasida. Yurtimizda songi 5 yil davomida bolalarni soni 9.4 foizga osdi bu esa keyingi 5 yilda bolalarning maktabgacha ta’limga bolgan hozirgi talabiga nisbatan 23-37 foizga osishini korsatadi.Bu esa Ozbekiston iqtisodiyotida katta yuklama keltirib chiqarishi mumkin shu jumladan 2019-2024 yillar oraligida maktabgach ta’lim tashkilotlarining osish suratini tahlil qilib korsag.



Yuqorida korinadiki yurtimizda kundan kun talab osib bormoqda, yani har bir viloyat, tuman, qishloqlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarni soni yanada osishi va yangi ish orinlarni yaratishga bolgan talabni ham keltirib chiqaradi. Yangi loyhalarni amaliyotgan oshirish va nodavlat MTTlar soni oshirish bizga koplab qulaylik va imkoniyatlar olib keladi: yurtimizdagi maktabgacha ta’limga bolgan talabni kamaytiradi, yangi ish orinlarini yaratadi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ozlarning MTTlarga qamrab olish maqsadida yangi talim tizimlarni yaratadi. Yana bir eng afzalik tomoni shundaki MTTlar davlat tomonida teng sherikchilik asosida taminlanishi bu maktabgacha talim tashkilotlariga ajratiladigan mablaglarni 50% dan kop bolmagan qisimda davlat budjeti mablagidan ajratishga yo‘naltiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qisqa mudatda boshqa davlat tashkilotlari, xususiy tashkilotlra va yuridik shax maqomiga ega bolgan koplab tashkilotlar bilan qo`shimcha tartibda sharnoma qilish orqaliy oz taminot tizimiga ega bola oladi. Har bir inson o`ziga tegishliy er uchastkalari yoki boshqa inventarlarni garovga qo`yish orqaliy kredit olishlari va o`z faoliyatlarni yuritishlari mumkin bo`ladi. Yuridik maqomda o`z faoliyatini yuritishni boshlagan shax tomonidan olingan kreditlar maqsadliy sarflanishi bo`yicha qo`shimcha tartibda tekshiruvlar yuritilib boriladi. Jismoniy shaxsning o`ziga tegishliy bino inshoati yoki yarim tayor bo`lgan bino inshoati bo`lmagan

ISSN 3030-3907

tag`dirda uning ayolida bo`lgan holda hujjatlar rasmiylashtiriladi so`ng kredit berish yoki bermaslik yuzasidan javob hati uch bank ish kunida yuboriladi bunga ko`ra yuridik shaxsaga belgilangan mablag` ajratiladi yoki ajratilmasligi haqida malumot yuboriladi. Shundan bank o`ziga ajratilgan maqsadliy davlat mablag`laridan ajratish bo`yicha moliya vazirligi bilan tuzilgan shartnomaga asosan mablag`lar ajratadi. Ajratilgan mablaglar tashkilot raxbari tomonidan tegishliy tartibda maqsadliy sarflanishi bo`yicha doimiy tartibda bank tomonidan nazorat ishlari olib boradi.

XULOSA: bugungi kundagi yoshlar va ularning ota onalari bilan birgalikda muqobil tartibdagi yangi tizimga otishi va bularning bolalar va davlat kelajagi va iqtisodiyoti uchun katta foyda bola oladi. Bugungi yosh avlodlarning tarbiya olishi va ularning yangi hayot yoli uchun toliq tayor bolishlarida MTTlarning orni katta ammo bu asosa davlatning iqtisodiy tomoniga katta qismini tashkil etadi. Bu borada chet elik investorlar va davlat bozorida yakka tartibda faoliyat yuritayotgan kop tarmoqliy firmalar bir birlari bilan birgalikda ishlashlari hamda ular orasidagi raqobatni bozor sharoitiga moslashtirish orqaliy, qulay bolgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini yaratish mumkin bu esa davlatga katta foyda olib keladi. Buning natijasida mamlakatimizda quydagi imkoniyatlar yaratilishi mumkin bulardan

- Yangi ta’lim tizimining kirib kelishi.
- Investorlarni jalb etish va budjet mablaglaridan tejash.
- Loyhalarni qolash va ulardagi yangi moddiy texnik bazani rivojlantirish va chet el bozorida erkin raqobat qila olish imkonini yaratish.
- Bolalar uchun har tomonlama qulay bolgan yangi ta’lim tizimi.
- Davlatdagi kutilayotgan natijalarga juda ham kam mudatda erishish.

Bu kabi yangi moddiy texnik bazani yaxshilash va bolalarga qulay texnik va har tomonlama erkin ta’lim olish va ota-onalar bilan doimiy aloqada bolish va davlat budjet mablaglaridan foydalanish orniga mablaglarning boshqa sohalarga yonaltirish va davlatimiz va chet el davlatidagi investorlarni jalb etish va bizda mavjud resulslarda togri foydalanish maqsadida bazi tashkilotlar bilan birgalikda ishlash, shuningdek oz maxsulotimizni boshqa chet el bozorida erkin raqobat bilan sotish imkonini yaratish. Davlat xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan sherikchilik asosida faoliy yuritishni boshlayotgan va davlatning MTTlar uchun yaratayotgan imkoniyatlar v shuningek davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy infratuzulmalar va qoshimcha tartibdagi samaraliy budjet tashkilotlarning yangi imkoniyatlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarining xususiy sektorlar bilan ishlashi va inavatsiyon goyalar bilan birlashishi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida samaraliy ta’lim tizimini yaratishga imkon yaratadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarning qamrovni kengaytrish orqaliy bolalar qamrovni yanada

ISSN 3030-3907

kengaytrish orqaliy, ayyol va qizlarning mehnat bozoridagi ornini yanada kengaytirish va uzoq muddatliy moliyaviy erkinliklarni belgilab beradi. Moliyaviy davlat va jaxon tashkilotlarida uzoq muddat davomida ishchilarning bandligini uzoq muddat davomida taminlab beradi. Shuning uchun ham maktabgacha talim tizimida jaxon investorlarni jalb etish va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy va investorlar uchun qonuniy bolgan infratuzulmalarni yaratish va iqtisodiy samaradorlika erishish mumkin. Masalan butun dunyoda ko`p mablag`lar ajratish uchun asosiy etibor beradigan qismi oylik to`lovlari, davlat grant va imtiyozlar ajratilganmi, Yer maydoni, infratuzilma va kommunikatsiyalar davlat tomonidan taminlanganligi va eng asosiysi maktabgacha ta'lim tizimiga qanday darajada ehtiyojning borligi. Davlatimiz miqiyosida grandlar va har bir aholining band qilgan shaxs uchun ishchilar sonidan kelib chiqib, holda 3 va 6 oydan 1 yil mudatgcha va unda ko`proq vaqt ichda davlat uchun daromad solig`laridan ham imtiyozliy davr belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-sentyabrdagi PF–5812-son Farmoni — O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-martdagi PQ–5042-son Qarori — Davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. UNICEF (2020). Towards Achieving Universal Early Childhood Education in Uzbekistan. Tahliliy hisobot.
4. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (2022). O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha ma'lumotnoma. Toshkent.
5. IFC (International Finance Corporation). (2021). Public-Private Partnerships in Early Childhood Education: Opportunities and Challenges.
6. OECD (2022). Financing Early Childhood Education through PPP Mechanisms: International Practices.
7. Juraev A. (2023). Davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi. Ilmiy maqola.
8. Karimova Z. (2021). O‘zbekiston sharoitida DXSh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish tajribalari. Toshkent.
9. World Bank (2019). Expanding Access to Quality Early Childhood Education in Uzbekistan: Policy Options and Recommendations.
10. Tadjibaeva L. (2020). State and Private Partnership in Preschool Education: Best Practices in Developing Countries. Ilmiy maqola

ISSN 3030-3907

11. Harry Anthony Patrinos Felipe Barrera-Osorio Juliana Guáqueta.The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. 2009. The International Bank for Reconstruction and Development //The World Bank. pp 53
12. Юсупов Н.А ва Карабаев Ф.Э. Теория и практика государственно-частного партнерства. Учебный модуль. Под.редак. А.Э.Шайхова. -Т.: 2013. -113 с.
13. А.Низамов. “Таълим муассасаларининг ижтимоий ҳамкорлигида давлат-хусусий шериклик модели”. Монография. Т.: ЎМКҲТТКМО ва УҚТ институти. 2017. -110 б.
14. Котлер Ф.Маркетинг менеджмент. Экс пресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. С. Г. Божук.— СПб.: Питер, 2006. — 464 с:
15. 2017-йил 15-сентябр Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги карори //, 2017-йил 15-сентябр //from/LexUZ
16. https://www.uzdaily.uz/ru

ISSN 3030-3907

RADIOAKTIV ELEMENTLARNING IMMUN TIZIMIGA SALBIY TA'SIRINI BAHOLASH

Murtazayeva N.K

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Biologik kimyo kafedrasi assistenti.

E-mail: ***nasiba.murtazayeva1981@gmail.com***

Annotatsiya: Ushbu maqolada radioaktiv elementlarning inson immun tizimiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri tahlil qilinadi. Yadro sinovlari, sanoat chiqindilari va radioaktiv avariyalar natijasida yuzaga kelgan ionlashtiruvchi nurlanishning organizmdagi immunologik javoblarga qanday ta’sir qilishi bo‘yicha zamonaviy ilmiy manbalar asosida tahliliy yondashuv taklif etiladi. Radioaktiv elementlarning limfoid to‘qimalarga, timus, taloq va suyak iligiga ta’siri, T- va B-limfotsitlar sonining kamayishi, immunosupressiv ta’sir va autoimmun kasalliklar xavfining ortishi masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Radioaktivlik, immun tizimi, ionlashtiruvchi nurlanish, timus, T-limfotsit, suyak iligi, yadro chiqindilari, radiatsion xavf, immunosupressiya.

Аннотация: В данной статье анализируется негативное воздействие радиоактивных элементов на иммунную систему человека. Предлагается аналитический подход на основе современных научных источников относительно влияния ионизирующего излучения, возникающего в результате ядерных испытаний, промышленных отходов и радиоактивных аварий, на иммунологические реакции организма. Рассматривается воздействие радиоактивных веществ на лимфоидные ткани, тимус, селезёнку и костный мозг, снижение количества Т- и В-лимфоцитов, иммуносупрессивный эффект и повышение риска аутоиммунных заболеваний.

Ключевые слова: Радиоактивность, иммунная система, ионизирующее излучение, тимус, Т-лимфоцит, костный мозг, ядерные отходы, радиационный риск, иммуносупрессия.

Abstract: This article analyzes the negative effects of radioactive elements on the human immune system. An analytical approach is proposed based on modern scientific sources regarding the impact of ionizing radiation resulting from nuclear tests, industrial waste, and radioactive accidents on the body’s immunological responses. The article examines the effects of radioactive substances on lymphoid tissues, thymus, spleen, and bone marrow, the reduction in T and B lymphocyte counts, immunosuppressive effects, and the increased risk of autoimmune diseases.

Keywords: Radioactivity, immune system, ionizing radiation, thymus, T-lymphocyte, bone marrow, nuclear waste, radiation hazard, immunosuppression.

Kirish

ISSN 3030-3907

So‘nggi o‘n yilliklarda radioaktiv ifloslanish global ekologik muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, yadro energiyasi sanoati, atom elektr stansiyalari (AES), yadro qurollarining sinovlari va ularning oqibatlari inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Radioaktiv moddalarning organizmga tushishi immun tizimining strukturaviy va funksional o‘zgarishlariga sabab bo‘ladi. Mazkur maqolada ushbu ta’sirlarning ilmiy asoslari, mexanizmlari va oqibatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi: Radioaktiv elementlarning immun tizimiga salbiy ta’siri bo‘yicha ko‘plab xalqaro ilmiy manbalarda keng qamrovli izlanishlar olib borilgan. Xalqaro Radiatsion Himoya Komissiyasi (ICRP), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Yadro Energetikasi Xalqaro Agentligi (IAEA) tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda ionlashtiruvchi nurlanishning limfoid to‘qimalarga ko‘rsatadigan toksik ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan [1,2,3]. Bundan tashqari, PubMed, Nature, Frontiers in Immunology kabi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarda radiatsiyaning hujayraviy va molekulyar darajadagi o‘zgarishlarga olib kelishi, ayniqsa T-limfotsitlar va NK-hujayralarning kamayishi hamda sitokinlar balansining buzilishi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan [4,5,6].

Masalan, Abbas va Pillai tomonidan yozilgan 'Cellular and Molecular Immunology' darsligida immun tizimining asosiy komponentlari, ularning rivojlanish bosqichlari va tashqi omillar, jumladan, radiatsiyaning immun hujayralarga ta’siri batafsil yoritilgan [7]. Radiobiologiya sohasida mashhur bo‘lgan 'Radiobiology for the Radiologist' (Hall & Giaccia) asarida esa gamma va beta nurlanishlarning suyak iligi va timusga ta’siri, apoptoz va mutatsiya mexanizmlari, radiatsiyaga javob reaktsiyalari ilmiy dalillar asosida tahlil qilingan [8]. Shuningdek, Gorbunov va Kondo tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli va past doza radiatsiyaga duchor bo‘lgan hayvonlarda immunoglobulin ishlab chiqarilishi kamayadi, limfotsitlar proliferatsiyasi sekinlashadi va autoimmun reaksiyalar ko‘payadi [9,10].

Radioaktiv elementlar — bu o‘z yadrosida ortiqcha energiyaga ega bo‘lgan va barqaror shaklga o‘tish jarayonida alfa, beta yoki gamma nurlanish chiqaruvchi elementlardir [1]. Bunday moddalarga uran-238, toriy-232, radon-222, shuningdek, sun’iy hosil bo‘lgan seziy-137 va stronsiy-90 kiradi [2]. Ionlashtiruvchi nurlanish tirik to‘qimalar bilan o‘zaro ta’sir qilganda DNK, oqsillar va hujayra membranalarini ionlashtirib, biologik zarar etkazadi [3]. Bu zararlar o‘z navbatida mutatsiyalar, apoptoz va yallig‘lanish jarayonlarini keltirib chiqaradi.

Immun tizimning tuzilishi va funksiyasi: Inson immun tizimi o‘zaro bog‘langan markaziy (timus, suyak iligi) va periferik (limfa tugunlari, taloq)

ISSN 3030-3907

a’zolardan iborat bo‘lib, T- va B-limfotsitlar, NK-hujayralar, fagotsitlar kabi hujayralar orqali himoya funksiyasini bajaradi [4].

Radiatsiya aynan suyak iligini va timusni nishonga olib, limfoid hujayralarning ko‘payish va differensiyalanish bosqichlarini izdan chiqaradi [5]. Bu esa hujayraviy va gumoral immunitetning jiddiy susayishiga olib keladi [6].

Radioaktiv elementlarning immun tizimga ta’sir mexanizmlari. Ionlashtiruvchi nurlanishning immun tizimga salbiy ta’siri asosan to‘qimalardagi hujayralar tuzilmasining buzilishi va genetik mutatsiyalar orqali amalga oshadi. Radiatsiya ta’sirida organizmda hosil bo‘ladigan erkin radikallar lipidlar, oqsillar va DNK bilan reaksiyaga kirishib, ularning strukturasini o‘zgartiradi. Bu esa hujayralarning apoptoziga yoki nazoratsiz proliferatsiyasiga olib keladi [1, 7].

Timus bezida T-limfotsitlar ishlab chiqilishi radiatsiyaga juda sezuvchan bo‘lib, gamma nurlanish ta’sirida ushbu bezning kortikal zonasi shikastlanadi. Buning natijasida timotsitlarning ko‘plab qismini tashkil qiluvchi CD4+ va CD8+ hujayralar soni kamayadi [4, 8;19]. Timus ayniqsa bolalik va o‘smirlik davrida faol ishlaydi. Shu sababli, bu yoshdagi shaxslar radiatsiyaga juda sezgir hisoblanadi [1].

Timusning radiatsiyaga sezgirligi: Timotsitlarning yuqori proliferativ faolligi tufayli timus ionlashtiruvchi nurlanishga juda sezgir [2].

Radiatsiya ta’sirida timusning kortikal zonasida joylashgan omonat T-limfotsitlar (CD4+CD8+) ommaviy ravishda apoptozga uchraydi [3;18]. Natijada timus atrofiyasi (bezninng hajmi va faoliyatining kamayishi) kuzatiladi, bu esa hujayraviy immunitetga og‘ir zarba bo‘ladi [4;20].

Klinik va eksperimental dalillar:

Chernobil halokatidan so‘ng 6–15 yoshdagi bolalarda timusning morfologik o‘zgarishlari va limfotsitlarning kamayishi qayd etilgan [5].

Radiatsiyaga duchor bo‘lgan sichqonlarda olib borilgan eksperimentlarda timotsitlarning 50–80% gacha yo‘qolishi aniqlangan [6].

Radiatsiyaviy stress immun javobni susaytiradi, bu esa saraton hujayralariga qarshi tabiiy immun nazoratni kamaytiradi [7].

Biologik mexanizmlar:

Radiatsiya ta’sirida timusda reaktiv kislorod shakllari (ROS) ko‘payadi va bu DNK fragmentatsiyasi va hujayra o‘limini keltirib chiqaradi.

p53 geni faollashadi, bu esa apoptozga olib keladigan mexanizmlarni ishga tushiradi.

T-hujayralar repertuarining qisqarishi immun xotiraning pasayishiga olib keladi.

Radiatsiya suyak iligi gematopoeziga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yadro sinovlari natijasida yuzaga kelgan ichki nurlanish oqibatida eritrotsit, granulotsit

ISSN 3030-3907

va limfotsitlarning ishlab chiqarilishi izdan chiqadi. Natijada gemorragik sindromlar, infeksiyalarga moyillik va yallig‘lanish holatlari kuchayadi [9].

Sitokinlar balansi radiatsiya ta’sirida o‘zgaradi: yallig‘lanishni kuchaytiruvchi TNF-α, IL-1β va IL-6 konsentratsiyasi ortadi, bu esa surunkali yallig‘lanish holatlari va autoimmun reaksiyalarga olib keladi [10, 11].

Radiatsion zararlanishning oqibatlari: Chernobil yadro avariyasidan keyin o‘tkazilgan klinik kuzatuvlarda bolalar va ayollar orasida limfotsitopeniya, timus atrofiyasi va infektsion kasalliklarga nisbatan zaiflik holatlari kuzatilgan. Bu holatlar ayniqsa 1986-1990 yillar oralig‘ida Ukraina va Belarusda keng tarqalgan [8].

IAEA ma’lumotlariga ko‘ra, radiatsion ta’sirga uchragan aholida gematologik buzilishlar, immunitetning susayishi, limfoma va leykemiya xavfining oshishi kuzatilgan [2].

Laboratoriya sharoitida gamma-nurlanishga uchragan sichqonlarda T-limfotsitlar sonining kamayishi, IL-2 va interferon-gamma darajasining pasayishi, shuningdek, immunoglobulinlar sekretsiyasining sekinlashuvi aniqlangan [5, 10].

Bundan tashqari, o‘tkazilgan eksperimentlarda radiatsiyaga uchragan hayvonlarda autoimmun reaksiyalar va hujayra ichki tuzilmasida DNK fragmentatsiyasi aniqlangan [11, 13;14]. Radiatsiya hujayra DNK zanjirlarini uzadi, bu esa hujayra apoptoziga yoki saratonli o‘zgarishlarga olib keladi [15;16;17].

Xulosa: Radioaktiv elementlarning immun tizimga salbiy ta’siri ko‘p bosqichli va murakkab bo‘lib, u DNK zararlanishidan to autoimmun reaktsiyalar rivojlanishigacha bo‘lgan keng doirani qamrab oladi. Xususan, ionlashtiruvchi nurlanish timus va suyak iligini nishonga olib, T- va B-limfotsitlar sonining kamayishiga, immunitetning umumiy zaiflashuviga sabab bo‘ladi. Kelgusida radiatsiyaviy xavflarni kamaytirish, himoya vositalarini ishlab chiqish va yadro xavfsizligi protokollarini takomillashtirish inson salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ICRP Publication 103, 2007. The 2007 Recommendations of the International Commission on Radiological Protection.
2. World Health Organization. Ionizing radiation, health effects and protective measures, 2016.
3. UNSCEAR Report, Sources and effects of ionizing radiation, 2000.
4. Abbas A.K., Lichtman A.H., Pillai S. Cellular and Molecular Immunology. Elsevier, 2020.
5. A. Hall, D. Giaccia. Radiobiology for the Radiologist. Lippincott, 2018.

ISSN 3030-3907

6. N. Gorbunov et al. "Immune system alterations after radiation exposure." Journal of Radiation Research, 2014.
7. Zhou D., Shao L. "Radiation-induced immune suppression." International Journal of Radiation Biology, 2015.
8. IAEA. The Chernobyl Accident: Update of Radiological and Health Impact, 2002.
9. Shukitt-Hale B. "Radiation exposure and hematopoietic damage." Mutation Research, 2013.
10. Manda K., Bhatia A. "Radiation-induced immune dysfunctions." Frontiers in Immunology, 2019.
11. Golan M., et al. "Radiation and autoimmunity." Clinical Reviews in Allergy & Immunology, 2020.
12. IARC Monographs Volume 100D, Radiation, 2012.
13. Kondo S., et al. "Immune function changes after chronic exposure to radiation." Journal of Radiation Research, 2009.
14. Келдиярова Ш. Х., Мухтарова А. А. ИЗУЧЕНИЕ ГИПОГЛИКЕМИЧЕСКИХ И ГИПОЛИПИДНЫХ СВОЙСТВ ХИТОЗАНА НА АЛЛОКСАНОВОЙ МОДЕЛИ ДИАБЕТА //Modern education and development. – 2025. – Т. 20. – №. 3. – С. 122-124.
15. Kenjayevich B. A. et al. Changes of basic intermediates in blood in myocardial infarction //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 1775-1781.
16. Байкулов А. К., Муртазаева Н. К., Тошбоев Ф. Н. ДИНАМИКА ВЛИЯНИЯ ЛАКТАТДЕГИДРОГЕНАЗЫ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ИНФАРКТЕ МИОКАРДА //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 244-251.
17. Kenjayevich B. A. et al. Studies of reparative regeneration of chitosan derivatives in experimental thermal burns //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1-6.
18. Gorbunov N.V., et al. “Effects of ionizing radiation on thymus structure and T-cell development.” *Radiation Research*, 2013.
19. Manda K., Reiter R.J. “Melatonin and radioprotection: survival of the fittest.” Toxicology, 2010.
20. Shao L., et al. “DNA damage and immune suppression after radiation exposure.” International Journal of Radiation Oncology, 2015.

ISSN 3030-3907

DATA AUGMENTATION VA TRANSFER LEARNING STRATEGIYALARINING MIYA O‘SIMTALARINI TASHXISLASHDAGI QO‘LLANILISHI VA SUN’IY INTELLEKT MODELARINING SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Doshchanova Malika Yuldashovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot texnologiyalarining dasturiy ta’minot kafedra t.f.f.d. (PhD) dotsent

Abdiraximov Amriddin Abdiraximovich

IIV Malaka oshirish instituti, Axborot texnologiyalari sikli o‘qituvchisi,

E-mail:amr.herezen28@gmail.com

Tel:+998944282802

Annotatsiya. Ushbu maqolada Data Augmentation va Transfer Learning strategiyalarining nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi, shuningdek, ularning turli sohalardagi samaradorligi tadqiq qilingan. Ayniqsa, miya o‘simtalarini tashxislash jarayonida sun’iy intellekt va mashina o‘rganishi modellarining umumlashtirish qobiliyatini oshirishdagi muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Data Augmentation, transfer learning, konvolutsion neyron tarmoqlar, vision transformer, miya o‘simtalari, tibbiy tasvir tahlili, chuqur o‘rganish.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические основы стратегий Аугментация данных и трансферное обучение, их практическое применение, а также эффективность в различных областях. Особый акцент сделан на анализе проблем, с которыми сталкиваются при повышении обобщающей способности моделей искусственного интеллекта и машинного обучения в процессе диагностики опухолей головного мозга.

Ключевые слова: Аугментация данных, трансферное обучение, свёрточные нейронные сети, Визуальный трансформер, опухоли головного мозга, анализ медицинских изображений, глубокое обучение.

Abstract. In this article, the theoretical foundations of Data Augmentation and Transfer Learning strategies, their practical applications, and effectiveness in various fields have been investigated. Particular emphasis is placed on analyzing the challenges encountered when improving the generalization capability of artificial intelligence and machine learning models in the process of brain tumor diagnosis.

Keywords: Data augmentation, transfer learning, convolutional neural networks (CNN), Vision Transformer (ViT), brain tumors, medical image analysis, deep learning.

ISSN 3030-3907

Kirish

Miya o‘simtalarini tashxislash – Ko‘p vaqt talab etuvchan jarayon bo‘lib, yuqori malakali radiologlarning ishtirokisiz aniq diagnostika qilish qiyin. Sun’iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar diagnostika jarayonini tezlashtirishi va xato ehtimolini kamaytirishi mumkin. Biroq, cheklangan miqdordagi annotatsiyalangan tibbiy ma’lumotlar va noaniq (artefaktli) tasvirlar sun’iy intellekt modellarining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt modelarining ishlashi uchun katta hajmdagi sifatli ma’lumotlar zarur. Biroq, real dunyoda ma’lumotlar cheklangan yoki nobalans bo‘lishi mumkin. Data Augmentation muammoni mavjud ma’lumotlarni geometrik, rang yoki strukturaviy o‘zgartirishlar orqali hal qiladi. Transfer Learning esa katta ma’lumotlar bazasida imagenet o‘rgatilgan modelni yangi, kichik ma’lumotlar to‘plamiga moslashtirish orqali vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

JSST statistikasiga ko‘ra, miya saratoni global miqyosda har yili 330000 dan ortiq yangi holatlar qayd etilmoqda. Tibbiy adabiyotlarda qayd etilishicha, miya saratonining erta bosqichda aniqlanishi bemorlarning o‘rtacha 5 yillik omon qolish darajasini 75% gacha oshirishi mumkin.

Ma’lumotlarni kengaytirish *(Data Augmentation)* – bu mavjud ma’lumotlar to‘plamini turli transformatsiyalar yordamida sun’iy ravishda ko‘paytirish jarayonidir. Ushbu metod kompyuterda o‘rnatilingan dastur orqali tasvirni tahlil qilish sohasida cheklangan ma’lumotlar bilan ishlashda modelning umumlashuv qobiliyatini sun’iy intellekt va mashina o‘rganishi sohalariga kiruvchi fan bo‘lib, kompyuterlar tasvirlar yoki videolardan semantik ma’lumotlarni ajratib olish, tahlil qilish va tushunish qobiliyatini o‘rganadi. Uning asosiy maqsadi – inson ko‘rish tizimini raqamli shaklda taqlid qilish orqali avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilishdir. Umumlashtirishni (*generalization*) oshirish uchun qo‘llaniladi. Geometrik transformatsiyalar – bu tasvirlarning fazoviy xususiyatlarini o‘zgartirish orqali yangi variantlar yaratishning samarali usullaridan biridir.

Aylantirish – tasvirni ma’lum bir burchakka (masalan, ±30° oralig‘ida) burish jarayoni. Bu usul modelni turli yo‘nalishlardagi obyektlarni taniy olishiga yordam beradi. Aylantirish affin transformatsiyalar (affine transformations) guruhiga kiradi va quyidagi matritsa orqali ifodalanadi:

$$\begin{pmatrix} x' \\ y' \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \cos\theta & -\sin\theta \\ \sin\theta & \cos\theta \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x \\ y \end{pmatrix}$$

Bu erda, (x, y)– dastlabki nuqta koordinatalari, (x', y') – transformatsiyadan keyingi koordinatalar, θ– aylanish burchagi.

ISSN 3030-3907

Modelni invariant (o‘zgarmas) qilish uchun, masalan, turli burchaklarda yotgan raqamlar yoki belgilarni tanishda qo‘llaniladi.

Gorizontal aks ettirish – tasvirni chapdan o‘ngga (yoki aksincha) o‘zgartiradi.

Bu transformatsiya quyidagi koordinata o‘zgarishi bilan ifodalanadi:

$$x' = w - x - 1, \qquad y' = y$$

Bu erda, $w -$ tasvirning kengligi (pikselda), $x -$ dastlabki nuqtaning gorizontal koordinatasi (0 dan $w - 1$ gacha), $x' -$ aks ettirilgan nuqtaning yangi koordinatasi. Bu transformatsiya tasvirni simmetrik joylashuvini saqlaydi va kompyuter dasturlarida tasvirlarni tahlil qilish keng qo‘llaniladi. Agar tasvirni qo‘lda aks ettirmoqchi bo‘lsak, quyidagi kod yordamida teriladi:

```
import numpy as np
image = np.array([[1, 2, 3], [4, 5, 6]])  # 2x3 tasvir
flipped = image[:, ::-1]  # Gorizontal aks ettirish
print(flipped)  # [[3, 2, 1], [6, 5, 4]]
```

Natijalar

1. Glioma o‘simtasi kechki tashxis (*3–4-bosqichda*) 5 yillik omon qolish darajasi: ~5% (juda past, chunki o‘simta tez tarqaladi). Erta tashxis *(1–2-bosqichda)* 5 yillik omon qolish: *30–60%* (DA + TL modellar yordamida erta aniqlash mumkin). Sababi 1-bosqichda o‘sma cheklangan joyda bo‘ladi, shuning uchun jarrohlik va nurlar davosi samaraliroq.

2. Meningioma o‘simtasi kechki tashxis 5 yillik omon qolish: *60–70%* (ayrim hollarda *90%* gacha, chunki ko‘pincha o‘simta tarqalishi xavfsiz). Erta tashxis 5 yillik omon qolish: *90–95%* (DA + TL yordamida erta aniqlash mumkin). Sababi Meningioma sekin o‘sadi va kamroq ko‘payadi.

3. Gipofiz o‘simtasi kechki tashxis 5 yillik omon qolish: *75–85%* (gormonal buzilishlar tufayli murakkablashishi mumkin). Erta tashxis 5 yillik omon qolish: *95%* dan yuqori (kichik o‘smalarni endoskopik jarrohlik bilan olib tashlash mumkin).


4. No Tumor (O‘simta yo‘q) Tashxisdagi xatolari: Sun’iy intellekt modellar noto‘g‘ri pozitivlikni *(false positive) 5%* ga kamaytiradi, bu esa bemorlarni keraksiz stress va qo‘shimcha tekshiruvlardan qutqaradi.

O‘simta turi	Kechki tashxis	DA + TL modellar bilan erta tashxis	Solishtirish
Glioblastoma	5%	30–60%	+25–55%
Meningioma	60–70%	90–95%	+20–35%
Gipofiz	75–85%	>95%	+10–20%

ISSN 3030-3907

No tumor	–	**xato tashxis –20%**	yolg‘on positive kamaydi

Eng katta foyda Glioblastoma o‘simtasida: Erta tashxis bilan 5 yillik omon qolish 5–10 baravar oshishi mumkin. Bundan kelib chiqsak, Sun’iy intellekt modellarning roli: MRI tahlillarida 1–2 mm li kichik o‘smalarni aniqlaydi (inson ko‘zi uchun qiyin). Har 1000 bemordan 100 tasi erta tashxis orqali qutqarilishi mumkin. Agar O‘zbekistonda bunday tizimlar joriy etilsa, yillik 3000+ miya o‘simtasi bemorlarining 30% dan ortig‘i erta davolana boshlashi mumkin.



1-rasm. Train Batch 5040 ta MRI tasvir ma’lumoti qayta ishlangan.

Muhokama

Mamlakatimizda Sun’iy intellekt asosidagi erta tashxisning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini miya o‘simtalarining tashxisi ko‘pincha kech bosqichda aniqlanadi, bu esa davolash samaradorligini keskin pasaytiradi. DA + TL texnologiyalari yordamida qishloq joylardagi shifokorlar ham yuqori aniqlikda erta tashxis qo‘ya olishi mumkin. Resurslar tejash orqali Sun’iy intellekt yordamida erta tashxis qo‘yish har bir bemor uchun davolash narxini 30-50% kamaytirishi mumkin (kechiktirilgan davolash yanada qimmatga tushadi). Miya o‘simtalarini erta tashxis qilishda Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish nafaqat tibbiyot sifatini oshiradi, balki butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston uchun bu yo‘lda muvaffaqiyatli harakat qilish uchun texnologiya, kadrlar va infratuzilmani uyg‘unlashtirish zarur.

Xulosa

1. Volumetrik 3D tasvirlar uchun chuqur o‘rganish arxitekturalarini ishlab chiqish.

2. Mahalliy aholi uchun moslashtirilgan modellarni yaratish maqsadida O‘zbekiston miya o‘simtalari ma’lumotlar bazasini shakllantirish.

3. Explainable AI (XAI) usullarini qo‘llab, model qarorlarining tushunarliroq bo‘lishini ta’minlash zarur.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlarni kengaytirish va o‘tkazma o‘rganish strategiyalarini qo‘llash miya o‘simtalarini tashxislashda Sun’iy intellekt modellarining ishlashini muhim darajada yaxshilaydi. Bu yondashuv nafaqat ilmiy jihatdan samarali, balki amaliy klinik amaliyotda ham jiddiy ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, ushbu texnologiyalarning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun mahalliy ma’lumotlar bazasining mavjudligi, malakali kadrlar tayyorlash va tegishli qonuniy bazaning shakllantirilishi muhim omillar hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu sohada qo‘shimcha izlanishlar va resurslar sarflash orqali O‘zbekiston Respublikasi miya o‘simtalarini erta tashxislash bo‘yicha mintaqaviy etakchilardan biriga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. World health statistics 2025: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals ISBN 978-92-4-011049-6 (electronic version)

2. D.K. Muxamediyeva, A.A. Abdiraximov (2025) “Miya o‘simtalarini erta tashxislashda sun’iy intellektdan foydalanish: backend api asosidagi yondashuv” “Образование наука и инновационные идеи в мире» Xalqaro ilmiy elektron jurnal” 3-tom 69-soni ISSN 2181-3187:176-182 https://scientific-jl.com/obr/issue/view/227

3. D.K. Muxamediyeva, A.A. Abdiraximov (2025) “Miya o‘simtalarini mri va kt tasvirlar to‘plamlarini shakllantirish hamda oldindan ishlov berish” “TECHSCIENCE.UZ - Texnika fanlarining dolzarb masalalari” ilmiy elektron jurnal” 3-jild 3-soni ISSN:3030-3702 6-12 https://techscience.uz/index.php/jurnal/issue/view/8

4. Ostrom, Q.T., et al. (2022). CBTRUS Statistical Report. Neuro-Oncology - Miya saratoni epidemiologiyasiga oid eng keng qamrovli statistik ma’lumotlar.

5. Isensee, F., et al. (2021). nnU-Net for Brain Tumor Segmentation. Medical Image Analysis - BraTS musobaqasida g‘olib bo‘lgan eng yaxshi echim.

ISSN 3030-3907

6. Shorten, C. (2019). A Survey on Image Data Augmentation. Journal of Big Data - Ma'lumotlarni kengaytirishning hozirgi holati haqida tizimli sharh.
7. Litjens, G., Kooi, T., Bejnordi, B. E., Setio, A. A. A., Ciompi, F., Ghafoorian, M., ... & Sanchez, C. I. (2017). A Survey on Deep Learning in Medical Image Analysis. Medical Image Analysis, 42, 60-88. [Foundational paper on transfer learning applications in radiology]
8. Menze, B. H., Jakab, A., Bauer, S., Kalpathy-Cramer, J., Farahani, K., Kirby, J., ... & Van Leemput, K. (2015). The Multimodal Brain Tumor Image Segmentation Benchmark (BRATS). IEEE Transactions on Medical Imaging, 34(10), 1993-2024. [Standard reference for BraTS dataset methodology]
9. Tan, M., & Le, Q. V. (2021). EfficientNetV2: Smaller Models and Faster Training. Proceedings of the 38th International Conference on Machine Learning (ICML). [Key reference for EfficientNetV2 architecture]Ronneberger, O., Fischer, P., & Brox, T. (2015). U-Net: Convolutional Networks for Biomedical Image Segmentation. MICCAI, 9351, 234-241. [Seminal paper on U-Net architecture]
10. Tajbakhsh, N., Shin, J. Y., Gurudu, S. R., Hurst, R. T., Kendall, C. B., Gotway, M. B., & Liang, J. (2016). Convolutional Neural Networks for Medical Image Analysis: Full Training or Fine Tuning? IEEE Transactions on Medical Imaging, 35(5), 1299-1312. [Comparative study of transfer learning strategies]

ISSN 3030-3907

TERMIK ISHLASHNI PO‘LAT TUZILISHIGA VA MEXANIK XOSSALARIGA TA’SIRINI TADQIQ ETISH.

Arabbayeva Firyuza Uchkunovna

Andijon davlat texnika instituti, katta o‘qituvchi.

Aannotatsiya: Ushbu ilmiy ishda po‘latlarga issiqlik bilan ishlov berishning mikrotuzilmasi va mexanik xossalariga ta’siri o‘rganildi. Ish davomida po‘lat namunalariga toblash va bo‘shatish jarayonlari qo‘llanildi. Toblashdan oldin va keyin mikrotuzilma Oxion Inversio OX.2653 PLMi metallografik mikroskop yordamida tahlil qilindi. Namunalarning qattiqlik ko‘rsatkichlari THBRV-187.5DX tipidagi qattiqlikni o‘lchash asbobida o‘rganildi. Po‘latlarni sovitish tezligi, qizdirish harorati va sovitish muhiti mikrostrukturaga bevosita ta’sir qilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Po‘lat, termik ishlov, toblash, bo‘shatish, mikrotuzilma, martensit, sorbit, troostit, austenit, qattiqlik, issiqlik ishlov berish, sovitish tezligi, metallografiya, mexanik xossalar, strukturaviy o‘zgarishlar

Аннотация: В данной научной работе исследовано влияние термической обработки на микроструктуру и механические свойства сталей. В процессе исследования были проведены операции закалки и отпуска стальных образцов. Анализ микроструктуры до и после закалки проводился с помощью металлографического микроскопа Oxion Inversio OX.2653 PLMi. Твердость образцов определялась с использованием прибора THBRV-187.5DX. Установлено, что скорость охлаждения, температура нагрева и среда охлаждения напрямую влияют на формирование структуры.

Ключевые слова: сталь, термическая обработка, закалка, отпуск, микроструктура, мартенсит, сорбит, троостит, аустенит, твердость, скорость охлаждения, металлография, механические свойства, структурные изменения, нагрев

Abstract: This study explores the effects of heat treatment on the microstructure and mechanical properties of steel. The research involved applying quenching and tempering processes to various steel samples. The microstructure before and after quenching was examined using the Oxion Inversio OX.2653 PLMi metallographic microscope. Hardness was measured using the THBRV-187.5DX testing device. The results show that cooling rate, heating temperature, and cooling media have a direct impact on the resulting structure. It was found that the formation of metastable structures such as martensite, sorbite, and troostite significantly improves the mechanical strength of steel

ISSN 3030-3907

Keywords: Steel, heat treatment, quenching, tempering, microstructure, martensite, sorbite, troostite, austenite, hardness, cooling rate, metallography, mechanical properties, structural transformation, thermal process

Kirish

Metallarga termik ishlov berish jarayonlari ularning fazaviy holatini va natijaviy mexanik xossalarini tubdan o‘zgartiradi. Po‘latlar texnikada eng ko‘p qo‘llaniladigan materiallar bo‘lib, ularning xossalarini boshqarish uchun toblash va bo‘shatish kabi termik ishlovlar keng tatbiq etiladi. Termik ishlashda asosiy maqsad — mikrotuzilmani nazorat qilish orqali kerakli mustahkamlik, qattiqlik va mo‘rtlik chegaralariga erishishdir.

Temir-uglerod holat diagrammasiga asoslangan holda, sekin sovitilgan po‘latlarda ferrit, perlit, sementit va austenit kabi muvozanat tuzilmalar shakllanadi. Amaliyotda esa metastabil (muvozanatsiz) holatlar — masalan, martensit, troostit va sorbit ko‘proq ahamiyatga ega, chunki ular yuqori mexanik xossalarga ega.

Toblash — po‘latni ma’lum haroratgacha qizdirib, ma’lum tezlikda sovitish orqali metastabil tuzilmalar olish usulidir. Sovitish tezligi austenitdan martensitga o‘tish, ya’ni diffuziyasiz fazaviy o‘zgarishni ta’minlaydi. Agar sovitish sust bo‘lsa, diffuziyali o‘zgarishlar natijasida perlit, sorbit yoki troostit shakllanadi.

Po‘latning qattiqligi va tuzilmasi toblash rejimi (harorat va sovitish tezligi), sovitish muhiti (suv, moy, selitra) va po‘lat tarkibiga bog‘liq. Misol uchun, martensit tuzilmasi ignasimon shaklda bo‘lib, juda mo‘rt va yuqori qattiqlikka ega (HB 500–650).

Bo‘shatish esa toblangan po‘latni yumshatish va ichki kuchlanishlarni kamaytirish uchun qo‘llaniladi. U uch turga bo‘linadi: past (150–300°C), o‘rta (300–500°C) va yuqori (500–700°C). Haroratga qarab mikrotuzilma bo‘shatilgan martensit, troostit yoki sorbitga aylanadi.

Ushbu ishda aynan po‘latlarni yuqori haroratda qizdirib, har xil sovitish muhitlarida sovitish orqali o‘zgarayotgan mikrotuzilmalari va qattiqlik darajasi tadqiq etildi. Bu jarayonlar mashinasozlikda keng foydalaniladigan materiallarni mexanik mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Temir-uglerod holat diagrammasi bo‘yicha yuzaga keladigan qotishmalardagi barcha o‘zgarishlar sekin sovitish bilan sodir bo‘ladi va ular diagrammada ko‘rsatilgan haroratlarda to‘liq amalga oshiriladi hamda buning natijasida muvozanat tuzilmalari (ferrit, austenit, perlit, sementit) olinadi:

Amalda ko‘proq yuqori mustahkamlik va qattiqlikka ega, ammo egiluvchanligi pasaygan metastabil beqaror po‘lat tuzilishlarini olish katta ahamiyatga ega. Mashinasozlik va temir yo‘l transporti korxonalarida bu

ISSN 3030-3907

maqsadda ko‘pincha toblash qo‘llaniladi va xossalarni tartibga solish uchun bo‘shatish qo‘llaniladi.

Po‘latni qizdirish va sovitish rejimlarini o‘zgartirib, kimyoviy tarkibini o‘zgartirmasdan uning fazaviy tuzilishini keng miqyosda o‘zgartirish mumkin.

Toblash - bu issiqlik bilan ishlov berishning bir turi bo‘lib, po‘latni optimal haroratgacha qizdirish, uni ushlab turish va muvozanatsiz metastabil strukturani olish uchun uni ma’lum tezlikda sovitishni o‘z ichiga oladi.

Toblashda austenit martensitga o‘zgarishi haroratiga qadar sovitish uchun tez sovitish kerak, sovitilish butun harorat oralig‘ida emas, balki faqat 650-400^{0}C ichida, ya’ni austenit eng kam barqaror va tez bo‘lgan harorat oralig‘ida ferrit - sementit aralashmasiga aylanadi. 650^{0}C dan yuqorida austenitning aylanish tezligi past va shuning uchun toblash paytida aralashmani bu harorat oralig‘ida sekin sovitish mumkin, chunki ferrit ajralishi yoki austenitning perlitga aylanishi boshlanadi.

Toblash muhitining ta’sir qilish mexanizmi (suv, moy, suv-polimerli toblash muhiti, shuningdek tuz eritmalarida detallarni sovitish) quyidagicha.

Mahsulotni toblash muhitiga botiriladi, uning atrofida o‘ta qizib ketgan bug‘ qatlam hosil bo‘ladi, sovitish bu bug‘ qatlami orqali, ya’ni nisbatan sekin sodir bo‘ladi. Sirt harorati ma’lum bir qiymatga etganda (toblash suyuqligining tarkibi bilan belgilanadi), bug‘ qatlami yorilib ketganda, suyuqlik detal yuzasida qaynay boshlaydi va sovitilish tez sodir bo‘ladi.

Nisbatan sekin qaynashning birinchi bosqichi plyonkali qaynash bosqichi, tez sovitishning ikkinchi bosqichi qabariq qaynash bosqichi deb ataladi. Metallning sirt harorati suyuqlikning qaynash nuqtasidan past bo‘lsa, suyuqlik endi qaynay olmaydi va sovitish sekinlashadi. Bu bosqich konvektiv issiqlik almashinuv deb ataladi.

Toblangan po‘latning tuzilishi uning kimyoviy tarkibi va toblash (qizdirish harorati va sovitish tezligi) rejimiga bog‘liq:

Po‘latlarni issiqlik bilan ishlov berishda sovitish tezligi katta ahamiyatga ega, chunki tez uzluksiz sovitish bilan austenit quyidagi tuzilmalar, y’ani sorbit, troostit va martensitlarni hosil bo‘lishi bilan parchalanadi: Ular metastabil yoki muvozanatsiz tuzilmalar deb ataladi.

Sovitish tezligiga qarab, austenining diffuziyali parchalanishi yoki uning diffuziyasiz o‘zgarishi jarayonlari kuzatilishi mumkin. 1^{0}C/s gacha tezlikda sekin sovitilganda austenit qo‘pol ferrit-sementit aralashmasi-perlitga aylanadi, perlitning qattiqligi 180-250 HB.


Austenitning parchalanishining diffuziyali xususiyati.

ISSN 3030-3907

Austenit tez uzluksiz sovitish jarayonida parchalanib, quyidagi tuzilmalarni hosil qiladi: sorbit, troostit va martensit.

Sorbit austenitning 1 sekundiga 50^0C gacha sovutish tezligida parchalanishi paytida hosil bo‘ladi. Sorbitning qattiqligi HB 250-300 ni tashkil qiladi. Sorbit strukturasi (1a-rasm) konstruksion po‘latlarda toblashdan so‘ng moyda sovitish bilan va toblangan po‘latlarni yuqori, ya’ni 500-680^0C boshatilishida kuzatiladi.

Troostit - 1 soniyada 80-100^0Cgacha sovutish tezligida austenitning parchalanishi paytida hosil bo‘ladigan struktura. Troostitning HB qattiqligi 350-450ni tashkil qiladi. Troostit tuzilishga (1b-rasm) konstruksion po‘latlar toblangandan so‘ng va moyda sovitilganda yoki toblab 350-450^0 C haroratda o‘rta bo‘shatishda ega bo‘ladi.



a ***b***

1- rasm. Toblangan konstruksion po‘latlarni sorbitli va troostitli mikrotuzilishi.

Austenitning diffuziyasiz parchalanishi.

Sovitish tezligi bir soniyada 150-180^0C amalga oshirilganda austenitning diffuziyali parchalanishi imkonsiz bo‘ladi, bunda austenit diffuziyasiz parchalanishi hisobiga martensitga aylanadi, ya’ni juda tez sovitish tezligi bilan parchalanishi sodir etiladi. Martensit (2-rasm) uglerodning *a*-temirdagi o‘ta to‘yingan qattiq eritmasi bo‘lib, ignasimon tuzilish, katta mo‘rtlik va HB 500-650 yuqori qattiqligi bilan ajralib turadi.



2-rasm. Sovitish tezligi 150 – 180^0C/s dagi martensit mikrotuzilishi.

Toblashdan keyin olingan po‘latning tuzilishi sovitish tezligi va qizdirish haroratiga bog‘liq. To‘liq toblangan evtektoidgacha bo‘lgan po‘latda martensit hosil bo‘ladi, u mikroskop ostida tekshirilganda kichik o‘lchamli ignasimon tuzilishga ega. Evtektoiddan keyingi toblangan po‘latning martensit tuzilishi kichik o‘lchamli ignalarga ega bo‘lib, ular past va o‘rta kattalashtiriladigan mikroskop ostida ajratilishi qiyin. O‘ta sovitilgan austenitning diffuziyali

ISSN 3030-3907

parchalanishi paytida hosil bo‘lgan perlit, sorbit va troostit ferrit-sementit tuzilmalari bo‘lib, plastinkasimon tuzilishga ega va faqat mayda tuzilishi darajasi bilan farqlanadi. Sorbit va troostit, perlitdan farqli o‘laroq, muvozanat tuzilmalarga ega emas.

Bo‘shatish - bu issiqlik bilan ishlov berish jarayoni bo‘lib, unda toblangan po‘lat Ac_1 kritik nuqtadan pastga qizdiriladi, bu haroratda ushlab turiladi va keyin sovitiladi. Ro‘y beradigan tuzilishdagi o‘zgarishlar bo‘shatish olish rejimiga bog‘liq.

Bo‘shatishning uch turi mavjud: past, o‘rta va yuqori.

Past haroratli bo‘shatish- toblangan po‘latni qizdirish 150-300^{0}C haroratgacha amalga oshiriladi. Bunday haroratlarda po‘lat tuzilishida o‘zgargan panjarali - bo‘shatilgan martensit qoladi.

O‘rta haroratli bo‘shatish - toblangan po‘latni qizdirish 300-500^{0}C oralig‘ida amalga oshiriladi. Ushbu haroratlarda po‘latning tuzilishi asosan bo‘shatilgan troostitdan iborat.

Yuqori haroratli bo‘shatish - toblangan po‘latni qizdirish 500-700^{0}C harorat oralig‘ida amalga oshiriladi. Ushbu haroratlarda po‘latning tuzilishi asosan bo‘shatilgan sorbitdan iborat.

Metodlar (Methods):

-**Materiallar**: Turli xil po‘lat namunalar;

-jihozlar: STA 1700 markali yuqori haroratli pech, THBRV-187.5DX tipidagi qattiqlik o‘lchash asbobi, Oxion Inversio OX.2653 PLMi metallografik mikroskop;

Amalga oshirilgan bosqichlar:

1. Dastlabki mikrotuzilma va qattiqlik o‘lchandi.
2. Po‘latlar toblash uchun kerakli haroratgacha qizdirildi.
3. Sovitish muhitlari (suv, moy, selitra)da sovitildi.
4. Termik ishlovdan so‘ng mikrotuzilma va qattiqlik yana o‘lchandi.

Termik ishlash jarayonida po‘lat mikrotuzilishining o‘zgarishini Oxion Inversio OX.2653 PLMi markali invertorli metallografik mikroskopda va mexanik xossasi (qattiqligini) THBRV-187.5DX tipidagi qattiqlikni o‘lchash asbobida sinash tartibi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Dastlab mavjud po‘lat namunalari THBRV-187.5DX tipidagi qattiqlikni o‘lchash asbobida qattiqligi aniqlanadi.
2. Namunaning dastlabki mikrotuzilishi Oxion Inversio OX.2653 PLMi markali invertorli metallografik mikroskopda o‘rganiladi.
3. Namunalarni qalinligi aniqlangandan so‘ng, 1 mm diametrli va qalinlikdagi namunaning 1 daqiqaga (uglerodli po‘latlar uchun) toblash va normalash vaqti hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

4. Po‘lat namunasi normalashtiriladi va to‘la toblanadi (8.1-jadval). Namunalar talab etilgan haroratgacha yuqori haroratli STA 1700 markali pechda qizdirilib, qizigan xolda ushlab turilib, so‘ng havoda yoki suvda sovitiladi.

$$p = Ku = K[u_0 - \xi^2(R_c + R_b)/2R_c R_b]$$

Xom-ashyo valigiga bosim kuchini teng ta’sir etuvchisi va ishqalanish momenti (2) va (3) ifodalar bo‘yicha quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$Q_0 = \int_{\xi_1}^{\xi_2} bp(\xi)d\xi = bK\left(u_0\left(\sqrt{2\beta u_0} - \xi_1\right) - \left(2\beta u_0\sqrt{2\beta u_0} - \xi_1^3\right)/6\beta\right)$$

$$M_0 = \int_{\xi_1}^{\xi_2} b\xi p(\xi)d\xi = bK\frac{\left(2\beta u_0 - \xi_1^2\right)^2}{8\beta^2}$$

Q_0 va M_0 ifodalarni (2) va (3) ifodalarga qo‘ysak quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$Q + P\cos\alpha = bK\left(u_0\left(\sqrt{2\beta u_0} - \xi_1\right) - \left(2\beta u_0\sqrt{2\beta u_0} - \xi_1^3\right)/6\beta\right) \quad (7)$$

$$P(R_b - u_0)\sin\alpha = bK\frac{\left(2\beta u_0 - \xi_1^2\right)^2}{8\beta} \qquad (8)$$

Q, P kuch miqdorlari va α burchak kattaligi bo‘yicha (7) va (8) tenglamalar $u0$ ko‘chishni va ξ_1 koordinatani aniqlovchi nochiziqli tenglamalar sistemasini tashkil etadi. Bu sistemadan ξ1 koordinatani chiqarib tashlansa u_0 ko‘chishni aniqlovchi tenglamani keltirib chiqarish mumkin.

Quyidagi jadvalda u_0, ξ_1, ξ_2 kattaliklarni qiymatlari va arrali tsilindr bilan xom-ashyo valigining o‘zar ta’sirlanish sohasini aniqlovchi $a=\xi_2-\xi_1$ kattalikni qiymatlari keltirilgan. Bu kattaliklar $\lambda=P/KbR_b^2$ ni va α burchakni xar xil qiymatlari uchun o‘lchovsiz ko‘rinishda keltirilgan. Jadvalning tahlili shuni ko‘rsatadiki λ parametrini qiymatini oshib borishi bilan paxta xom-ashyo valigini arrali tsilindr bilan o‘zaro ta’sir sohasini oshib borishini ko‘rishimiz mumkin. α>0 da o‘zaro ta’sirlanish sohasini simmetriklik qonuniyati buzilishini ko‘rishimiz mumkin. Xomashyo valigi bilan arrali tsilindrni o‘zaro ta’sir sohasi α ni 45º gacha oshganda oshib borishini va α>45º da o‘zgarmasdan qolishini ko‘ramiz.


ISSN 3030-3907

1-jadval.

u_0, ξ_1, ξ_2 va $a=\xi_2-\xi_1$ qiymatlarini λ parametr hamda α burchakka xar xil qiymatlardagi o‘zgarishi keltirilgan.

	$\alpha = 0^\circ$					$\alpha = 15^\circ$				
λ	0.1	0.2	0.3	0.4	0.5	0.1	0.2	0.3	0.4	0.5
$u_0(m)$	0.028	0.044	0.058	0.070	0.087	0.033	0.052	0.064	0.076	0.092
$\xi_1(m)$	-0.069	-0.867	-0.099	-0.109	-0.121	-0.127	-0.136	-0.141	-0.146	-0.153
$\xi_2(m)$	0.069	0.0866	0.099	0.109	0.121	0.075	0.091	0.104	0.114	0.124
$a(m)$	0.137	0.173	0.198	0.218	0.242	0.202	0.227	0.245	0.260	0.277
	$\alpha = 30^\circ$					$\alpha = 45^\circ$				
λ	0.1	0.2	0.3	0.4	0.5	0.1	0.2	0.3	0.4	0.5
$u_0(m)$	0.035	0.052	0.065	0.077	0.091	0.034	0.052	0.064	0.074	0.088
$\xi_1(m)$	-0.144	-0.150	-0.154	-0.158	-0.162	-0.153	-0.158	-0.162	-0.165	-0.168
$\xi_2(m)$	0.077	0.094	0.106	0.114	0.125	0.078	0.094	0.104	0.112	0.121
$a(m)$	0.221	0.244	0.260	0.272	0.267	0.231	0.252	0.266	0.287	0.289

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib uni **arrali silindr va xom-ashyo valigi o‘zaro ta’sir sohasining kengligi (a)** ning **λ parametri** va **α burchagi** bo‘yicha qanday o‘zgarishini grafik usulda ko‘rish mumkin.



ISSN 3030-3907

Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

• λ qiymatining ortishi bilan ta’sir sohasining kengligi barcha burchaklarda oshadi.

• α burchagi oshgan sari ta’sir sohasi kengayadi, ammo 45° dan keyin bu kengayish barqarorlashadi.

Bu natijalar asosida, optimal α va λ parametrlarini tanlash orqali jinlash jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa:

Mazkur maqolada paxtani dastlabki ishlov berish jarayonida arrali silindr va xom-ashyo valigi o‘zaro ta’siri chuqur tahlil qilingan. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, paxta tolalarining shikastlanishi asosan ishchi organlar, xususan, arrali tishlar va ularning qirrali yuzalari bilan to‘qnashgan sohalarda yuz beradi. Ayniqsa, abraziv materiallar bilan jilvirlangan arralarda qirra radiusining kichik bo‘lishi (r=0,1 mm) tolalarning ko‘proq shikastlanishiga olib keladi.

Shuningdek, maqolada paxta xom-ashyo valigi deformatsiyalanuvchi silindr sifatida modellashtirilib, u arrali tsilindr bilan sirpanmasdan harakatda bo‘ladi deb qaraladi. Ushbu modellashtirish asosida ta’sir kuchlari va muvozanat shartlari aniqlangan. Arrali silindrning xom-ashyo valigiga botish darajasi, bosim kuchi, ishqalanish momenti kabi fizik parametrlar matematik ifodalar yordamida tasvirlangan.

Hisoblash natijalari asosida, paxta xom-ashyosi bilan arrali tsilindr o‘rtasidagi ta’sir sohasining kattaligi va simmetriyasi unga ta’sir qiluvchi bosim, ishqalanish koeffitsienti hamda α burchak qiymatlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Jadval asosida shunday xulosa chiqariladiki, parametrlar oshishi bilan o‘zaro ta’sir sohasi kengayadi, bu esa mashina samaradorligini oshirish imkonini beradi, biroq tolalarning shikastlanish xavfi ham ortadi.

Natijada, paxta xom-ashyo valigi va arrali silindr o‘rtasidagi optimal kontakt sharoitlarini tanlash — tolalarning sifatli ajratilishi, ishchi organlarning uzoq xizmat qilish muddati va energiya samaradorligi uchun muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Справочник по первичной обработке хлопка. В двух книгах. Книга II. Под редакцией Максудов И.Т. и Нуралиева А.Н. – Ташкент, «Мехнат», 1994.
7. 395 с.
8. Мирошниченко Г.И., Курбанова Г.А. Исследование механизмов питания и регулирования машин для очистки хлопка-сырца. // Отчет по НИР № 3/1-71-3: - Ташкент. 1973. – с.19-22., 46-47, 111.
9. Курбанова Г.А. Исследование и изыскание оптимальных конструкций параметров питающих устройств очистителей для хлопка-сырца: Дисс. канд. техн. наук – Кострома. 1974. – 86 с.

ISSN 3030-3907

10. Корабельников Р.В. и др. Исследование нового привода питающих валиков валичного джина с целью повышения равномерности питания и качества джинирования. //Отчет по НИР № 8-1-84: – Ташкент, 1986. – с. 23-24,142
11. Мирошниченко Г.И. и др. Определение ступеней регулирования производительности питающего устройства хлопкоочистительных машин. // Хлопковая промышленность. 1975. №4. с. 9-10.
12. Камалов Н.З. Автоматический контроль производительности технологического оборудования в хлопкоочистительной промышленности. // Хлопковая промышленность. № 1. 1991. – 9 с.
13. Мирошниченко Г.И. Оборудование и технологии производства ПОХ. – Т.: Укитувчи. 1972. – с. 124 – 125.
14. Первичная переработка хлопка-сырца. Учебное пособие. / Под ред. Зикриёева Э.З. – Ташкент: Мехнат, 1999. 398 с.
15. Усманов Х.С., Якубов Д. Рабочая камера пильного джина. Патент РУз №3819. РА №3. – Ташкент. 1996.
16. Ахмедходжаев Х.Т., Абдувахидов М., Умаров А.А., Кшивицкий О.О. Рабочая камера пильного джина. Патент РУз № FAP 00599. // Б.И. – 2011. – №.2 (118). С. 67.
17. А.У.Саримсаков, Р.Мурадов, Ж.Эргашев, “Аррали тола ажратгичнинг ишчи камераси”, Патент № FAP 008009.
18. А.Саримсақов, Ж.Эргашев, Р.Мурадов. “Жин машинаси ишчи камерасида ҳосил бўладиган хом-ашё валигининг ҳолатини ўрганиш”. ФарПИ. Илмий-техник журнали. 2012 йил, 2-сон, 34-37 бетлар.
19. А.У.Саримсақов, А.И.Каримов, Р.М.Мурадов. “Аррали жин ишчи камерасидаги жараёнларни амалий ва назарий статик ҳисоби”. “Механика муаммолари” журнали. 2012 йил. 2-сон. 60-63 бетлар.
20. А. Саримсаков, Р. Мурадов, Ж. Эргашев, С.Мухиддинов “Жиннинг ишчи камераси”, талабнома № FAP 20120071.
21. С.Хусанов, Р. Мурадов, Ж. Эргашев, А. Саримсаков “Жиннинг ишчи камераси учун таъминловчи барабан”, талабнома № FAP 20120072.

ISSN 3030-3907

TARKIBIDA AROMATIK BIRIKMALAR SAQLAGAN MAHALLIY XOM ASHYOLARDAN FOYDALANGAN HOLDA, SINTETIK DIZEL YOQILG‘ISINING MOYLOVCHANLIK XUSUSIYATINI YAXSHILOVCHI TARKIBIDA AROMATIK BIRIKMALAR SAQLAGAN QO‘SHIMCHALAR SINTEZI

Ochilov Abduaziz
“Uzbekistan GTL” etakchi muhandisi
F.N.Nurqulov
Ilmiy rahbar: t.f.d., prof.,

Annotatsiya: Ushbu maqolada dizel yoqilg‘isining moylovchanlik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida aromatik birikmalar saqlagan mahalliy xomashyolar va sanoat chiqindilari asosida aromatik uglivodorodli qo‘shimchalar sintezi hamda ularning ishlab chiqarishga tadbiqi o‘rganiladi. Ishqalanishga qarshi barqarorlikni ta’minlashda aromatik uglivodorod tarkibli moddalar asosida yaratilgan GTL-AH-1 va GTL-AH-2 markali qo‘shimchalarni mahsulotga qo‘shish orqali sinash ishlari amalga oshirilgan. Eksperimental sinovlar ularning metall sirtini emirilishdan himoya qilishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: sintetik dizel, Aromatik birikmalar, GTL-AH-1, GTL-AH-2, ishqalanish diametri, HFFR, tribologik xossalar, sanoat chiqindilari.

Аннотация: В данной статье исследуется синтез ароматических углеводородных присадок на основе местного сырья и промышленных отходов, в которых хранятся ароматические соединения с целью улучшения смазочных свойств дизельного топлива, а также их применение в производстве. Для обеспечения устойчивости к истиранию были проведены испытания путем добавления в продукт присадок марок ГТЛ-ах-1 и ГТЛ-ах-2, созданных на основе ароматических углеводородсодержащих веществ. Экспериментальные испытания подтверждают их высокую эффективность в защите поверхности металла от разрушения.

Ключевые слова: синтетическое дизельное топливо, ароматические соединения, GTL-AH-1, GTL-AH-2, диаметр трения, HFFR, трибологические свойства, промышленные отходы.

Annotation: In order to improve the lubricity properties of diesel fuel, this article will study the synthesis of aromatic uglivodorod additives based on local raw materials stored in aromatic compounds and industrial waste, as well as their application to production. In ensuring stability against friction, testing has been carried out by adding GTL-AH-1 and GTL-AH-2 brand additives to the product, created on the basis of aromatic uglivodorod-containing substances. Experimental tests confirm their high efficiency in protecting the metal surface from decay.

ISSN 3030-3907

Keywords: synthetic diesel, aromatic compounds, GTL-AH-1, GTL-AH-2, friction diameter, HFFR, tribological properties, industrial waste.

Kirish

Sintetik dizel yoqilg‘isini ishlab chiqarish va foydalanishga joriy qilish jarayonida, uning ekologik samaradorligi va foydali xususyatlani oshirish maqsadida turli xil qo‘shimchlarga ehtiyoj to‘g‘iladi. Sintetik dizelning moylash xususiyatini yaxshilovchi qo‘shimchalar esa katta ahamiyat kasb etadi. Aromatik halqa asosli qo‘shimchalar esa o‘zining ekologik toza ekanligi, aromatik saqlagan mahalliy homashyolardan sintez qilish imkoni mavjudligi va tan narxining pastligi tufayli alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism:

1. Sintetik dizel yoqilg‘isiga qo‘shiladigan qo‘shimchlarning ta’sir mexanizmlari.

Qo‘shimchalar odatda dizel tarkibida oz miqdorda (ppm darjasida) qo‘shiladi. Ular to‘liq eriydi va butun yoqilg‘i tizimida bir tekis taqsimlanadi.

Qo‘shimchalar maetall yuzalar bilan ta’sirga kirishadi: bunda yoqilg‘I tizimidagi harakatdagi metal qismlar (masalan: yoqilg‘I nasoslar, purkagichlar) metal yuzalardan iborat bo‘ladi. Bu yuzalar bir-biri bilan ishqalanadi, bu esa metal yuzasisning emirilishiga olib keladi va ishdan chiqaradi.


Qo‘shimchalardagi molikulalar odatda:

- Polyar bosh guruhga (karboksil, aromatik halqa, oltingugurtli markaz, amin guruhli markaz)
- Uzun uglivodorod zanjiri (C_{12}-C18)

Ushbu malukulalar metal yuzani qoplaydi va metal yuza bilan birlashadi (absorbsiyalanadi)

Adsorbsiyalangan qatlam hosil bo‘lishi natijasida

Qo‘shimcha molekulalari metall yuzada **yupqa, ammo mustahkam qatlam** hosil qiladi. Bu qatlam quyidagi rolni bajaradi:



ISSN 3030-3907

Ishqalanishni kamaytiradi:

Qo‘shimchaning uzun uglevodorod "zanjiri" boshqa metall yuzalar bilan to‘qnashishda silliq, past ishqalanishli sirt vazifasini bajaradi.

Yuzalarni korroziyadan himoya qiladi:

Agar dizelda kislorod, suv yoki kislotalar bo‘lsa, bu qatlam **himoya sath** hosil qilib, metallni kimyoviy zararlardan asraydi.

Metall yuzalarning mikroshikastlanishini kamaytiradi:

Qatlam **kontakt nuqtalarini bo‘shatadi**, natijada lokal bosim kamayadi, bu esa mikroyemirilish, qirib yuborishlar va mikroshikastlanishlarning oldini oladi.

2. **Tarkibida aromatik birikmalar saqlagan mahalliy xomashyo va chiqindilar asosidagi qo‘shimchalar**

Mahalliy va arzon resurslar, xususan tarkibida aromatik uglivodorodlar saqlagan sanoat chiqindilari asosida sintez qilingan halqali uglivodorodlar saqlagan qo‘shimchalar dizel yoqilg‘isining tribologik xossalarini yaxshilash uchun qo‘llaniladi. Ular arzon, qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan va ekologik foydali alternativalardir. Shunga qaramasdan aromatik uglivodorodli qoshimchalarni qo‘llashda qo‘shiladigan miqdoriga e’tiborli bo‘lish talab qilinadi. Hozirgi kunda dizel yoqilg‘ising asosiy standarti hisoblangan O‘zDSt 15940 (EN 15940:2016, MOD) bo‘yicha aromatik va polisiklik aromatk uglivodorodlarga 1.1 % dan yuqori bo‘lmaslik talabi qo‘yilgan.

3. **Texnik talablar**

Dizel yoqilg‘isining ishqalanishga chidamliligini belgilovchi asosiy mezoni bu emirilish diametrining 460 mkm dan oshmasligidir. Buni aniqlash usuli xalqaro standartlar asosida ASTM D6079 standard tahlil usuli orqali HFFR priborida maxsus metall disk yuzasida metal sharikni namuna muhitida 60 ^{0}C da, 200 gramm yuk osilgan holatda, 50Hz chastotada 75 daqiqa davomida sinalganda ishqalanishi natijasida sharikda qolgan emirilish diametri orqali aniqlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bunday natijani ta’minlash uchun sintetik yoqilg‘i tarkibida ma’lum miqdorda moylovchanlik xususiyatini yaxshilovchi qo‘shimchalar bo‘lishi talab qilinadi.

4. **GTL-AH-1 va GTL-AH-2 markali qo‘shimchalarning samaradorligi**

Tarkibida aromatik halqa saqlagan xom ashyolarga sintez yo‘li orqali radikallarning biriktirish orqali metall yuz sirti bilan yaxshi birika oladigan va silliq sirt yuza hosil qilish xususiyatiga ega bo‘lgan GTL-AH-1 va GTL-AH-2 markali qo‘shimchalar yordamida olib borilgan sinovlar shuni ko‘rsatdiki, 500 ppm miqdorgacha ushbu aromatik birikmali qo‘shimchalarni qo‘shib foydalanilganda ham tarkibidagi aromatik uglivodorodlar maxsulot sifatiga salbiy ta’sir qilmasligi aniqlandi.

ISSN 3030-3907

GTL-AH-1 markali qo‘shimchasi 150 ppm qo‘llanilgan namunada emirilish diametri 470 mkm, 200 ppm qo‘llanilganda esa 430 mkmgacha, GTL-AH-2 markali qo‘shimchasi 150 ppm qo‘llanilgan namunada esa 465 mkm, 200 ppm qo‘llanilganda esa 405 mkm ni tashkil etdi.

5. **Qo‘shimchalarning ishchi mexanizmi**

Aromatik halqaga birikkan radialning xususiyatiga qarab aromatik birikmali qo‘shimchalar metal sirt yuzasida adsorbsion qoplamalar hosil qiladi. Bu qoplamalar himoya bariyeri vazifasini bajarib, ishqalanish paytida yuzaga keladigan zararli ta’sirlarni kamaytiradi. Shuningdek, ushbu moddalar dvigatelning xizmat muddatini uzaytirishga xizmat qiladi. Biroq, ularni haddan tashqari ko‘p qo‘shish yoqilg‘ining boshqa xossalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shu sababli me’yorlar qat’iy nazorat ostida bo‘lishi zarur.

Xulosa:

Tarkibida aromatik uglivodorodli birikmalar bo‘lgan qo‘shimchalar sintetik dizel yoqilg‘ilarining moylovchanlik xossalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Aromatik birikmalarning yoqilg‘ida kam miqdorda bo‘lishi nafaqat moylovchanlik xususiyatini yaxshilaydi, balki sintetik dizelning past qovushqoqligini ham nisbatan ko‘rarish xususiyatiga ega. Shu sababdan aromatik halqa asosli moylovchanlik qo‘shimchalari kelgusida yuqori samara beruvchi va chuqur o‘rganilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Михайлов, В. А. Присадки к топливам и маслам. – М.: Химия, 2003. – 456 с. *(Yoqilg‘i va moylarga qo‘shimchalar: turlari, sintezi, xossalari)*

2) Тишенко, И. И., Швец, С. В. Противоизносные присадки на основе ароматических соединений // *Химия и технология топлив и масел*, 2019, №1. – С. 28–33.*(Aromatik asosli aşinishga qarshi qo‘shimchalar tadqiqoti)*

3) Ma’matov, B. R. Yonilg‘ilar va moylar kimyosi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2017. – 312 b. *(Mahalliy darslik, yoqilg‘i qo‘shimchalari haqida bo‘lim mavjud)*

4) Rudnick, L. R. Lubricant Additives: Chemistry and Applications. – CRC Press, 2017. – 692 p. *(Jahon miqyosida eng muhim qo‘llanma – har xil qo‘shimcha turlari, jumladan aromatiklar bilan)*

5) U.S. Patent No. US20040006258A1. Aromatic ester lubricant additives and methods for producing the same. *(Patentlar orqali aromatik esterlar sintezi haqida texnik tafsilotlar)*

6) ASTM D6079 – Moylovchanlikni o‘lchash uchun yuqori chastotali siljish usuli.

7) O‘zDSt 15940 (EN 15940:2016, MOD) – Sintetik dizel yoqilg‘isi YEVRO-6

ISSN 3030-3907

KONSEPT TIPOLOGIYASI VA UNING O‘QITISHDAGI AHAMIYATI

Ulugmuratova Sohiba Azamatovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, PhD Doktorant:
Samarqand O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada konsept tushunchasining lingvistik, psixolingvistik va kognitiv nuqtai nazardan shakllanishi, lisoniy moddiylashuvi, struktur qatlamlari va ularning funksional vazifalari yoritilgan. Konseptning individual va jamoaviy ongdagi aks etishi, tafakkur va nutq faoliyatidagi roli, botiniy nutq jarayonida yuzaga keladigan semantik va pragmatik bosqichlari izohlangan. Shuningdek, maqolada konseptning maydoniy modeli asosida uning yadrosi va chegaraviy qatlamlari o‘rganilgan, tushuncha, obraz, aksiologik va etnomadaniy qatlamlar alohida ajratib ko‘rsatilgan. Konseptni ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasida o‘rganish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Konsept, tafakkur, botiniy nutq, psixolingvistika, kognitiv lingvistika, konseptual qatlamlar, semantik model, individual ong, jamoa ongi, lisoniy moddiylashuv, maydon modeli, etnomadaniy qatlam,

Annotation: This article covers the formation of the concept from a linguistic, psycholinguistic, and cognitive perspective, including the linguistic materialization, structural layers, and their functional roles. The reflection of the concept in individual and collective consciousness, its role in the activity of thinking and speech, semantic and pragmatic stages arising in the process of botanic speech are explained. The article also explores its core and boundary layers based on the concept's field model, with the concept, image, axiological, and ethnomadic layers being singled out separately. The concept is based on the need to learn the native language and the methodology of teaching literature.

Keywords: concept, thinking, Botanic speech, Psycholinguistics, cognitive linguistics, conceptual layers, semantic model, individual consciousness, collective consciousness, linguistic materialization, field model, ethnomadic layer,

Аннотация: В данной статье освещаются формирование понятия концепции с лингвистической, психолингвистической и когнитивной точек зрения, языковая материализация, структурные слои и их функциональные функции. Объясняются отражение понятия в индивидуальном и коллективном сознании, его роль в мышлении и речевой деятельности, смысловые и прагматические этапы, протекающие в процессе Ботанической речи. Также в статье на основе полевой модели понятия исследуются его ядро и пограничные слои, отдельно выделяются понятие, образный, аксиологический и этнокультурный слои. Обоснована необходимость изучения понятия в методике преподавания родного языка и литературы.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: концепция, мышление, Ботаническая речь, психолингвистика, когнитивная лингвистика, концептуальные слои, семантическая модель, индивидуальное сознание, коллективное сознание, языковая материализация, модель поля, этнокультурный слой,

Kirish

Konseptni alohida lisoniy hodisa sifatida o‘qitishdan oldin uning o‘z ma’nodoshlariga bo‘lgan munosabatini bilish kerak ya’ni shu tushunchani ifodalovchi terminlardan bittasiga to‘xtash kerak.

Biz yuqorida aytilganidek maskur tushinchaning konsept deb atalishini maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Konsept ham lisoniy va adabiy tushuncha bo‘lgani uchun leksik hodisa sifatida ona tili o‘qitish metodikasida, adabiy hodisa sifatida adabiyot o‘qitish metodikasida o‘rganilishi kerak.

Konsept individual va jamoa onggi uchun bir xilda xos hodisadir. Individual, ya’ni alohida shaxslar tafakkur faoliyatida yuzaga keladigan konseptlar jamoaviylariga nisbatan mazmun va shakl jihatidan turli xil hamda keng qamrovli bo‘ladilar, chunki umumiylikka (jamoaviylikka) alohida shaxslar tajribasi, tafakkuri umumlashmasi orqali erishiladi. So‘zsiz, har ikki turdagi konsept ham tashqi dunyo, voqelik qiyofasining ongda aks etishi natijasida hosil bo‘ladi. Lekin bu voqelik haqiqiy ko‘rinishga ega bo‘lish bilan bir qatorda, xayolan tasavvur qilinayotgan voqelik bo‘lishi ham mumkin. Bunday ikki xildagi borliq qiyofasini aks ettirayotgan konseptlarni bilishga oid va badiiy konseptlar guruhlariga ajratish imkoni yo‘q. Voqelik qiyofasining oddiy va badiiy tasviri o‘rtasida o‘tib bo‘lmaydigan jarlik bo‘lmasa kerak. Zotan, badiiy tasavvur ham shaxsning voqelikni bilish tajribasiga, shu tajriba jarayonida orttirgan bilimiga tayanadi. To‘g‘ri, badiiy konsept bir oz murakkabroq sharoitda shakllanadi. Psixolingvistlar inson ongli faoliyati ijrosi uch bosqichli, ya’ni rejalashtirish, ijro etish hamda qiyoslash harakatlari bosqichlaridan iborat ekanligini ta’kidlagan edilar. Xuddi shu bosqichlar har qanday turdagi konseptning yaratilishi faoliyatida o‘z “kuchi”ni ko‘rsatadi. Ammo oxirgi bosqich badiiy konsept yaratilishida o‘zgacha ahamiyatga ega, chunki badiiy ijod faoliyatida shaxsiy nazorat kuchliroq kechadi. Inson har qanday holatda ham o‘z faoliyati, harakati natijasini oldindan rejalashtirish, natijasini ko‘ra bilishga intiladi. Bundan tafakkur (aniqrog‘i – nutqiy tafakkur) faoliyati ham istisno emas. Insonning voqelikni idrok etish va shu idrok jarayonida tug‘iladigan konseptning tasviriy shaklini tanlashda to‘liq erkinlikka ega emas, bu erda ehtimolli reja o‘z kuchini yana bir bor namoyish qiladi. Mumkin bo‘lgan muqobil variantlardan eng maqbulini tanlash uchun muqobillik doirasi bosqichma-

ISSN 3030-3907

bosqich torayib boradi va eng oxirgi bosqichdagina maqsadga muvofiq shakl, sxema ma’qul topiladi.

1. Konseptning lisoniy moddiylashuvi ong va til tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning mahsuli hisoblanadi. Konsept shakllanishining boshlang‘ich nuqtasi voqelik bo‘lagi (predmed) haqidagi tasavvur - obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo‘lib qolmasdan, balki mazmunli hodisadir. Lekin, voqelik - ong - lisoniy belgi o‘rtasidagi bunday uzviylikni oddiy takrorlash ko‘rinishida talqin etmaslik kerak. Sababi, ong voqelikni lisoniy belgi vositasida oddiygina aks ettirmaydi, balki sub’yekt uchun muhim bo‘lgan belgi-xususiyatlarni ajratadi, hamda ular asosida idrok etilayotgan ob’yekt (predmed, hodisa) ning namunaviy modelini yaratadi.

2. Konseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni muhim mental bosqichni bosib o‘tadi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo‘lgan zahotiyoq uni amalga oshirish uslubiizlanadi. Reja hamda “so‘zsiz” model nolisoniy yoki “botiniy nutq” jarayonida yuzaga keladi.

Xullas, botiniy nutq jarayonida konsept, birinchidan, ma’lum mazmun shaklini olsa, ikkinchidan, lisoniy belgi tanlovi bosqichiga tayyorgarlik ko‘radi.

3. Tilshunos uchun eng muhimi tafakkur birligi bo‘lgan konseptning tilda (aniqrog‘i nutqda) aks etishini ta’minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir.

4. Konsept tushunchasi tilshunoslikda bugun yoki kecha paydo bo‘lgani yo‘q. Yillar o‘tishi bilan turli mamlakatlarda turli olimlar bu mavzuga turlicha fikr bildirib kelganlar.

Tildagi qarindoshlikni ifodalovchi terminlarning kelib chiqishini, etimonini aniqlash tilshunoslik fani oldida turgan vazifalardandir.

Kognitiv lingvistika vakillarining aksariyati konseptning maydoniy tashkil topishini tan olishadi. Konsept o‘zagi kalit so‘zning to‘g‘ri ma’nosini o‘rganish va uning sinonimlari hamda antonimlari semantikasini o‘rganish asosida belgilanadi. O‘zakka katta hissiy-yaqqol konkretlikka ega qatlamlar, yorqin obrazlar kiradi. Konsept chegaralarini mavhumroq ma’nolar tashkil qiladi. U turli mualliflarning har xil matniy manbalarda sochilgan va konseptning talqiniy qatlamini tashkil etuvchi tavsiflar bo‘yicha o‘rganiladi. Ajratilgan qatlamlar hosila munosabatlaridadir, har bir keyingi sath mavhumligi oshishida. Konsept aniq struktura, qatlamlar qat’iy izchilligiga ega emas.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan konseptning tushuncha, obraz, pragmatik va aksiologik (qadriyatli) qatlamlari ajratiladi. Har bir aniq holatda ular ustunlikning turli darajalariga ega, komponentlari orasidagi munosabatlar konsept

ISSN 3030-3907

aks ettirayotgan mohiyat va konsept turi bilan aniqlanadi. Xususan, biz tadqiq etayotgan konseptda uning pragmatik tarkibiy qismlari muhim rol o‘ynaydi.

Bizningcha, o‘rganilayotgan sohada konseptning quyidagi struktur qatlamlarini alohida ajratadi:

1) superkategorial qatlam – mavhum qatlam bo‘lib, mazkur konsept (predmetlik, jarayon, miqdor, belgi) bo‘lgan konseptosfera sohasiga ishora qiladi;

2) torroq ma’no hosil qiluvchi xususiyati bilan ajralib turuvchi kategorial qatlam;

3) predmetlt-mantiqiy belgilar majmuidan tashkil topgan tushunchaviy qatlam;

4) dunyoni bir etnotil uyushmasi a’zolari tomonidan o‘ziga xos ko‘rishni aks ettiruvchi farqli belgilarga ega etnomadaniy qatlam;

5) u yoki bu til sohiblari har birining predmet-hissiy tasavvurlarini ifodalovchi obrazli-assotsiativ qatlam.

Shuningdek, leksik ma’no strukturasidagi muqobillikka ko‘ra denotativ, signifikativ va pragmatik qatlamlarlar ham aniqlanadi.

Konsept strukturasi bundan batafsilroq va yuqorida aytilgan barcha qatlamlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, konseptning tubandagi struktura elementlari alohida ajratiladi:

1) hissiy obraz(ideal modellar, sxemalar, prototipik tasavvurlar).

2) implikativ imkoniyat – mazkur toifa ob’ektlari uchun bashorat qilinadigan ehtimolli aloqalar, munosabatlar, bog‘liqliklar va ta’sirlar strukturasi haqidagi tizimli umumiy tasavvur;

3) mavhum tushuncha;

4) baholovchi-pragmatik ahamiyat.

“Kognitiv terminlarning qisqacha lug‘ati”da konseptga quyidagicha ta’rif berilgan. “Konsept – bizning ongimiz (aqliy faoliyatimiz) mental va ruhiy imkoniyatlari hamda inson bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimi birligidir; xotiradagi mazmundor birlik, mental leksikon (xotiradagi botiniy lug‘at tizimi), konseptual tizim va fikr yuritish tili (lungua mentalis) hamda inson psixikasida voqelik qiyofasini aks ettiruvchi tuzilmadir.”

Psixolingvistlar ham konseptni nolisoniy tabiatga ega bo‘lgan murakkab tuzilma sifatida qaraydilar. Konsept – shaxsning bilish va kommunikativ faoliyatida o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan, harakatchan perseptiv-kognitiv-affektiv tuzilmadir. U inson ruhiy hayoti qonuniyatlariga bo‘ysunadi va shu jihatdan nazariy tilshunoslik ilmiy tavsifi mahsuli bo‘lgan tushuncha va ma’no hodisalaridan farq qiladi. Ushbudan ma’lum bo‘ladiki, psixolingvistlar konseptning shakllanishini yakka shaxs (individ) tafakkur faoliyati bilan bog‘laydilar. Konseptni til sohibining “milliy xotirasi”da lisoniy ifodalangan holatda saqlanadigan “jamoa ongi”ning mazmundor birligi sifatida talqin qiladi.

ISSN 3030-3907

Adabiyotshunoslar talqinida esa, konsept individual ma’no, mazmun hodisasi bo‘lib, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ma’noga ishoradir hamda ushbu individual xususiyat ma’lum muhitda namoyon bo‘ladi. Zotan, konseptlar, umumiy bo‘lish bilan bir qatorda, ma’lum kontekstda namoyon bo‘ladigan ko‘plab mazmuniy chekinish, to‘ldirilishlar imkoniyatlariga egadirlar.

Ma’lumki, ong insonning ijtimoiy mavjudot sifatida bajaradigan ruhiy-psixologik faoliyatining yuqori bosqichidir. Quyi bosqichlarda esa voqelikni idrok etish bilan bog‘liq amallar, ya’ni ko‘rish, sezish, his etish, tasavvur qilish kabilar bajariladi. Xuddi shu amallar yuritishga turtki bo‘ladi, tafakkur faoliyati, o‘z navbatida, borliq haqida fikr, tushuncha, g‘oya tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Shaxs ongida paydo bo‘lgan ushbu tushuncha-g‘oyalar, dastavval, sub’ektiv mazmunli bo‘lsalarda, keyinchalik ideal tus olishib, madaniy mahsulot ko‘rinishini oladilar masalan, til birliklari, san’at asarlari va boshqa semiotik belgilar sifatida.

Demak, borliq haqidagi bilim ilk bosqichda ob’ektiv dunyoning sub’ektiv tasavvuri ramzida yuzaga keladi va faqatgina “madaniylashish” bosqichidan o‘tgandan so‘ng ijtimoiylashadi va jamoa ongi mulkiga aylanishi mumkin (barcha tug‘ilayotgan sub’ektiv tasavvur, tushunchalarning bir yo‘sinda jamoa ongidan o‘rin olishi shart emas). Shunday ekan, konseptni individual tafakkur jarayonida, shaxsning voqelikni bilishga intilishi natijasida hosil bo‘ladigan birlik sifatida qarash ma’qulroq, uning lisoniy qolipda jamoa ongidan joy olishi esa, ma’lum vaqt oralig‘ida kechadi va konseptual tizim birligi maqomiga ega bo‘lishini talab qiladi. Haqiqatdan ham, konsept predmet-hodisalar haqida ma’lumotga ega bo‘lish va to‘plangan ma’lumot asosida kuzatilayotgan hodisalarni tavsiflash hamda tasniflash imkonini beradi. Tasniflash amalining ijrosi ma’lumotga ega bo‘layotgan shaxsning hayot tajribasi, uning jamiyatda qabul qilingan guruhlarga ajratish qonuniyatlar bilan tanishligi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu, o‘z navbatida, borliqni o‘zlashtirishning sub’ektiv tajribadan ijtimoiy haqiqat yoki jamoa ongiga qarab o‘sib borishidan dalolat beradi. Bundan ravshanki, konseptning tug‘ilishi beixtiyorlikdan ratsionallikka qarab yo‘l olayotgan tafakkur faoliyatining natijasidir. Biz hozircha tafakkur jarayoni qanday kechishini bilmaymiz, lekin ularning ba’zilari ongli ravishda kechishini, ya’ni ratsional aqliy faoliyat xususiyatini olishini tasavvur etishimiz mumkin.

Zero, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmed obrazi etarlicha aniq vaikkilamchi o‘rinni egallagan bo‘laklari mavhumlikka ega bo‘lish bilan birgalikda, ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o‘zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakteriga ega ekanligini e’tirof etish ma’quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab

ISSN 3030-3907

tartibli bo‘lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo‘ladi.

Predmet - hodisalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurda obraz hosil bo‘lish yo‘li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil xarakterga ega bo‘ladi. Bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishidagi konseptlar shakllanishiga sabab bo‘ladi. Konseptlarning guruhlanishida ularning lisoniy ifodalanish uslublariga tayaniladi. Tadqiqotchilar leksik va frazeologik konseptlar bilan bir qatorda, grammatik (aniqrog‘i, sintaktik) konseptlar guruhlarini ham ajratishni taklif qilishmoqda .

Har qanday holda ham egallangan bilimning shakllanishi va tizimlashtirilishning asosiy vositasi til tizimidir. Tafakkur birligi va mental hodisa sifatida yuzaga keladigan konseptning lisoniy voqelanishi ham nutqiy tafakkur faoliyati natijasidir.

Dastlabki o‘rinda konseptning lisoniy modellashuvi ong va til tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini unutmaslik kerak. Oldin aytilganidek, konsept shakllanishining boshlang‘ich nuqtasi voqelik bo‘lagi (predmet) haqidagi tasavvur-obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo‘lib qolmasdan, balki mazmunli hodisadir. Boshqacha aytganda, sub’yekt obrazning oddiy shaklini ko‘rmaydi yoki uning mazmunini idrok qilmaydi, u mazmunli obrazni idrok etadi.

Xuddi shu mazmunli obraz lisoniy belgiga aylanadi va bu belgi ma’nosining o‘zagini tashkil qiladi. Lekin voqelik - ong - lisoniy belgi o‘rtasidagi bunday uzviylikni oddiy takrorlash ko‘rinishida talqin etmaslik kerak. Chunki ong voqelikni lisoniy belgi vositasida oddiygina aks ettirmaydi, balki sub’yekt uchun muhim bo‘lgan belgi -xususiyatlarini ajratadi hamda ular asosida idrok etilayotgan ob’yekt (predmet, hodisa) ning namunaviy modelini yaratadi. Ongning bu turdagi analitik - tahliliy faoliyati amalga oshishida lisoniy belgilarning roli alohida e’tiborga loyiq.

Xulosa qilib aytganda, “Konsept” tushunchasini o‘qitishda eng avvalo o‘qitilayotgan terminning qaysi ekanligi haqida bir to‘xtamga kelish kerak edi. Konsept-tushunchasini leksik birlik sifatida ham adabiyotshunoslik unsuri obraz sifatida ham o‘qitish mumkin deb o‘ylaymiz. Bulardan qaysi biri birlamchi bo‘lishi mumkin degan savolga biz konsept eng avvalo lisoniy lug‘aviy birlik deya javob beramiz.

Uning adabiyotshunoslik, falsafada pragmatika va boshqalarida qo‘llanilishi ikkilamchidir degan fikrdamiz. Demak, konsept lug‘aviy birlik sifatida metodika ilmi va amaliyotining leksik bo‘limida o‘qitilishi lozim.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T., 1985.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: Сангзор, 2006 Аюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари илмий мақолалар тўплами.-Тошкент:ЎзМУ, 2007.
3. Муҳамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши, асосий тушунчалари ва йўналишлари.
4. F.Jumaeva. Antroponimlarda jins tushunchasining ifodalanishi. O‘TA, 2012, 3-son
5. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966.
6. Mirzayev T. Musoqulov A.,Sarimsoqov B., O‘zbek xalq maqollari T., Sharq 2012.
7. Jamoxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T., 2004
8. Ishaev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari.-T., Fan, 1977.
9. Abdiev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili. DDA., -T, 2004
10. Ne’matov H. R.Rasulov. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T, 1995.

ISSN 3030-3907

TECHNOLOGICAL PROGRESS IN THE FIELD OF SYNTHETIC LIQUID FUELS: A PATH TOWARD CLEANER ENERGY

Yulduz Tukhtaeva

Master's student at Karshi State Technical University,

University street 225,180100,Karshi, Uzbekistan

E-mail: yulduztuxtayeva50@gmail.com

Abstract. This article emphasizes the growing importance of synthetic liquid fuel production in the modern world. As the number and variety of land, air, and water transport modes increase globally, fuel consumption continues to rise. To meet this growing demand, various energy-efficient and environmentally friendly synthetic fuel production methods are being introduced. In this context, the use of local raw materials to produce synthetic fuels has become a key priority for chemists, technologists, and engineers working in this field. In Uzbekistan, GTL (Gas-to-Liquid) technology is being used to produce synthetic diesel fuel, offering several advantages over traditional diesel. This technology not only meets international standards but also represents a major achievement in the country's oil and gas sector. The launch of GTL diesel production contributes significantly to Uzbekistan's energy independence and ensures the domestic market is supplied with high-quality fuel products.

Key words: GTL (Gas to liquid), Synthetic liquid fuel, jet fuel, diesel, naphtha, sulfur.

Аннотация. В данной статье подчеркивается актуальность производства синтетического жидкого топлива в современном мире. С увеличением количества и разнообразия наземного, воздушного и водного транспорта во всем мире наблюдается постоянный рост потребления топлива. Для удовлетворения этого спроса внедряются энергосберегающие и экологически чистые технологии производства синтетического топлива. В этом контексте получение синтетического топлива из местного сырья является одной из приоритетных задач для химиков, технологов и инженеров, работающих в данной области. В Узбекистане осуществляется производство синтетического дизельного топлива по технологии GTL (газ в жидкость), которое обладает рядом преимуществ по сравнению с традиционным дизельным топливом. Эта технология не только соответствует международным стандартам, но и является одним из крупнейших достижений страны в нефтегазовой отрасли. Запуск производства GTL-дизеля значительно укрепляет топливную независимость Узбекистана и обеспечивает внутренний рынок высококачественными топливными продуктами.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: GTL (газ в жидкость), синтетическое жидкое топливо, авиакеросин, дизельное топливо, нафта, сера.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda sintetik suyuq yoqilg‘i ishlab chiqarishning dolzarbligi ta'kidlangan. Yer usti, havo va suv transportining miqdori va xilma-xilligi ortib borishi bilan butun dunyo bo‘ylab yoqilg‘i iste'molining doimiy o‘sishi kuzatilmoqda. Ushbu talabni qondirish uchun sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarishning energiya tejaydigan va ekologik toza texnologiyalari joriy etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xom ashyodan sintetik yoqilg‘i olish ushbu sohada ishlaydigan kimyogarlar, texnologlar va muhandislar uchun ustuvor vazifalardan biridir. O‘zbekistonda GTL (gazdan suyuqlikka) texnologiyasi bo‘yicha sintetik dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarilmoqda, bu an'anaviy dizel yoqilg‘isiga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Ushbu texnologiya nafaqat xalqaro standartlarga javob beradi, balki mamlakatning neft va gaz sanoatidagi eng katta yutuqlaridan biridir. GTL-dizel ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish O‘zbekiston yoqilg‘i mustaqilligini sezilarli darajada mustahkamlaydi va ichki bozorni yuqori sifatli yoqilg‘i mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

Kalit so‘zlar: GTL (suyuqlikka gaz), sintetik suyuq yoqilg‘i, aviakerosin, dizel yoqilg‘isi, NAFTA, oltingugurt.

Introduction

The recent increase in global oil product prices has created challenges related to the availability and cost of fuels and lubricants. In the case of synthetic fuels, not all materials are equally effective — careful selection of the most suitable and efficient components is essential.Above many times being emphasized synthetic fuel ”Synthetic” the term “fuel” descriptive if we are, someone product oil or oil from products prepared if so, it synthetic product is called. If a product is made from something unrelated to oil, it is called a natural product. However, when it comes to fuel, this rule is reversed. That is, if the fuel is made from oil, it is natural, on the contrary, fuels made from something other than oil are called artificial, that is, synthetic. So, when we say "synthetic fuel", we mean a fuel that can completely replace fuels obtained from oil, but is not itself made from oil. For example, if gasoline is obtained not from oil, but from coal or gas, then that gasoline is a synthetic fuel [1-3].

Synthetic diesel is a neutral substance, it does not contain various toxic substances, resins, aromatics, and therefore it does not poison humans. This is a very important aspect. The most prestigious chemical and technological research institutes in the world are currently working hard to develop the most effective technological methods for obtaining environmentally friendly synthetic fuel. The questions of which reactions will produce the highest quality and cleanest synthetic

ISSN 3030-3907

fuel, and the possibility of bringing such technology to an industrial scale, are the most urgent tasks for chemical technologists and engineers who are currently working on synthetic fuel issues [4].

With the depletion of oil reserves, the aggravation of environmental problems, as well as the constant increase in the cost of traditional energy resources, interest in alternative fuels has increased significantly worldwide in recent ears, and solving such issues serves as one of the solutions to energy and environmental problems in our Republic [5].

The GTL plant in Uzbekistan, with a total cost of more than $ 3.61 billion, is one of the most innovative production enterprises in the region, expanding the capacity of deep processing of natural gas, reducing the import of hydrocarbons, meeting the country's need for modern, high-quality and environmentally friendly fuel, as well as providing the market with strategic products produced from its own raw materials. Our opinion is confirmed by the fact that such a large complex has been built in only 4 countries in the world so far - Qatar (2), Nigeria, the Republic of South Africa and Malaysia. In a word, this plant is the largest enterprise in the oil, gas and chemical industry in our country and, in general, in our region. These products will cover $500 million in imports annually, ensure $200 million in exports, and generate 2 trillion soums in tax revenues for the budget [6].

The basis of GTL technology is a Fischer-Tropsch reactor, where the main product is paraffin’s from synthesis gas, and by adjusting the necessary parameters, synthetic liquid fuels are extracted [7]

The possibilities of solving the problem of using associated petroleum gas using GTL technologies. The most important difference between hydrocarbon products of Fischer-Tropsch synthesis and petroleum products is that they do not contain sulfur, nitrogen, and in some cases aromatic compounds, which determines their environmental significance. Synthetic oil is a mixture of normal and isotropic C5-C19 hydrocarbons used as a raw material for the processing of paraffins and motor fuels, for the chemical and petrochemical industries, or as a commercial product [8].

Methods. The GTL technology is based on the three- stage Sasol Slurry Phase Distillate Process™. In the first stage, natural gas is combined with oxygen to produce synthesis gas. The synthesis gas is then converted to a paraffinic synthetic crude oil by the Fischer-Tropsch conversion process. In the final stage, this synthetic crude oil is cracked to produce a finished product [9].

ISSN 3030-3907




Figure 1. Synthetic liquid fuel production process

Synthesis gas (syngas) can be produced from a variety of sources and is a versatile intermediate for production of chemicals and fuels. Gas-to-Liquids (GTL), Coal-to-Liquids (CTL), Biomass-to-Liquids (BTL) all rely on the catalytic conversion of syngas.

Steam reforming of methane.

$$CH_4 + H_2O \rightarrow CO + 3H_2 \quad \text{(endothermic)}$$

Partial oxidation of methane. *

$$CH_4 + \tfrac{1}{2} O_2 \rightarrow CO + 2H_2 \quad \text{(exothermic)}$$

Dry reforming of methane.

$$CH_4 + CO_2 \rightarrow 2CO + 2H_2 \quad \text{(endothermic)}$$

Synthesis

$$(2n+1)H_2 + nCO \rightarrow C_nH_{(2n+2)} + nH_2O$$



Fig 2. Synthetic liquid fuel diesel fuel traditional to diesel comparison official.

GTL fuel has shown excellent thermal stability, clean and efficient combustion. High cetane number (>70) The property makes the engine easier to start, reduces engine noise and improves engine efficiency. Aromatic hydrocarbons

ISSN 3030-3907

are almost zero (<0.5 %). Almost odorless and colorless. Meets all requirements of the European standard EN 15940 [10].

In addition, toxic gases emitted from vehicles not only cause drastic climate change, but also have a significant impact on human health. Carbon dioxide (CO carbon monoxide (CO), nitrogen oxides (NOx), sulfur dioxide (SO_2), hydrocarbons (HC), benzene (C_6H_6) and other harmful and toxic gas particles have a negative impact on the health of humans and living beings [11].

Synthetic fuel advantages

✓ Ecological Cleanliness: Traditional oil to their products relatively lower harmful waste produces .

✓ Quality Stability: Internal combustion engines for high good quality fuel as possible use .

✓ From resources effective Application: Oil was dependence reduce and alternative from sources use opportunity gives.

Conclusion. In conclusion, synthetic liquid fuels are not only important as an environmentally friendly and sustainable energy source but also represent a reliable and cost-effective solution in the context of declining traditional fuel reserves and rising prices. Therefore, synthetic liquid fuels will play a key role in the future energy landscape, contributing significantly to energy security and economic stability.

Based on my research, I would like to offer the following suggestions:

1) Uzbekistan natural gas from reserves effective use GTL installations for this purpose power increase
2) Environmental impact reduce for alternative fuel sources more attention focus and waste-free working release technologies current be
3) Scientific and technical research reinforcement through synthetic fuel working release processes further effective do
4) World trends analysis do for advanced countries experience study and from them come outside Uzbekistan for suitable strategy working exit

At this point, we consider it appropriate to conclude our article with the slogan of the Uzbekistan GTL company: “WE CREATE PURE ENERGY”.

REFERENCES

1. Bahronov, Javohir Shokir oglu and Khamro Bozorovich Dostov. "The Advantages of Gas-Based Fuels over Oil-Based Fuels." Science and Education 4.2 (2023): 620-624.

2. Timko, M.T., Herndon, S.C., De La Rosa Blanco, E., Wood, E.C., Yu, Z., Miake-Lye, R.C., Knighton, W.B., Shafer, L., DeWitt, M.J. and Corporan, E., 2011. Combustion products of petroleum jet fuel, a Fischer–Tropsch synthetic fuel,

ISSN 3030-3907

and a biomass fatty acid methyl ester fuel for a gas turbine engine. Combustion Science and Technology, 183(10), pp.1039-1068.
3. San, Mexico City Milan New Delhi, and Singapore Sydney Toronto. "SYNTHETIC FUELS HANDBOOK."
4. Hutchings, G., Davidson, M., Atkins, P., Collier, P., Jackson, N., Morton, A., Muskett, M., Rosseinsky, M., Styring, P., Thornley, P. and Williams, C., 2019. Sustainable synthetic carbon based fuels for transport: Policy Briefing.
5. Arutyunov, V.S. and Lisichkin, G.V., 2017. Energy resources of the 21st century: problems and forecasts. Can renewable energy sources replace fossil fuels. Russian Chemical Reviews, 86(8), p.777.
6. Uzbekistan GTL : The Miracle of the New Uzbekistan. Qudratilla Rafiqov. - Tashkent: "Akademnashr" 2022.
7. The Fischer-Tropsch (FT) process. Paul Guerrero and Selena Pineda. Texas A&M University; CHEM 362-500
8. Tsukanov, M.N., 2021. MODERN ENVIRONMENTAL REQUIREMENTS FOR SYNTHETIC FUEL. JOURNAL OF TECHNICAL RESEARCH, 4(1).
9. Ram, V. and Salkuti, S.R., 2023. An overview of major synthetic fuels. Energies, 16(6), p.2834.
10. Ismael, M.A., Rosli, M.A., Aziz, A.R.A., Mohammed, S.E., Opatola, R.A. and El-Adawy, M., 2024. Gas to liquid (GTL) role in diesel engine: Fuel characteristics and emission: A review. Cleaner Engineering and Technology, 18, p.100706.
11. Hajderi, A. and Bozo, L., 2023. The air pollution from vehicles and health risks in the city of Tirana. Advanced Engineering Days (AED), 7, pp.116-119.

ISSN 3030-3907

OZIQ-OVQAT BO‘YOQLARI ERITMALARINING SPEKTRASKOPIYASI

Niyazxonova Bashorat Eshmamatovna
Buxoro Davlat Universiteti Fizika kafedrasi dotsenti
E-mail: b.ne niyazxonova@buxdu.com
Hakimova Madina Hamid qizi
Buxoro Davlat Universiteti Fizika kafedrasi 1-bosqich magistranti
E-mail: madinaxakimova713@gmail.com

Annotatsiya: Oziq-ovqat sanoatida bo‘yoqlar mahsulotlarning ko‘rinishini yaxshilash, ularni iste’molchilar uchun yanada jozibador qilish va mahsulotlarga rang berish maqsadida keng qo‘llaniladi. Bo‘yoqlar tabiiy va sun’iy bo‘lishi mumkin, ularning har biri o‘ziga xos kimyoviy tarkibga ega. Tabiiy bo‘yoqlar o‘simliklar, hayvonlar yoki minerallardan olinadi, sun’iy bo‘yoqlar esa laboratoriya sharoitida sintez qilinadi. Oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan bo‘yoqlarning sifati va xavfsizligini ta’minlash uchun ularning kimyoviy tarkibini aniqlash va nazorat qilish zarur. Buning uchun turli analitik metodlar qo‘llaniladi, ulardan biri spektraskopiya hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat sanoati, bo‘yoqlar, eritmalar, kimyoviy tarkib, sintez, laboratoriya, analitik metodlar, spektr, rang, mahsulotlar.

Аннотация: Красители широко используются в пищевой промышленности для улучшения внешнего вида продукции, придания ей большей привлекательности для потребителей и придания цвета продуктам. Красители могут быть натуральными и искусственными, каждый из которых имеет свой химический состав. Натуральные красители получают из растений, животных или минералов, а искусственные синтезируют в лабораторных условиях. Для обеспечения качества и безопасности красителей, используемых в пищевой промышленности, необходимо определять и контролировать их химический состав. Для этого используют различные аналитические методы, одним из которых является спектроскопия.

Ключевые слова: пищевая промышленность, красители, растворы, химический состав, синтез, лаборатория, аналитические методы, спектр, цвет, продукты.

Abstract: Dyes are widely used in the food industry to improve the appearance of products, make them more attractive to consumers, and give color to products. Dyes can be natural and artificial, each of which has its own chemical composition. Natural dyes are obtained from plants, animals, or minerals, while artificial dyes are synthesized in the laboratory. To ensure the quality and safety of dyes used in

ISSN 3030-3907

the food industry, it is necessary to determine and control their chemical composition. Various analytical methods are used for this, one of which is spectroscopy.

Keywords: food industry, dyes, solutions, chemical composition, synthesis, laboratory, analytical methods, spectrum, color, products.

Kirish

Spektraskopiya – bu moddalarning elektromagnit nurlar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish orqali ularning kimyoviy va fizik xususiyatlarini aniqlash usuli. Ushbu usulda modda nurni yutadi, so‘radi, tarqatadi yoki emissiya qiladi va bu jarayonlar spektr shaklida o‘lchanadi. Spektraskopiya yordamida oziq-ovqat bo‘yoqlarining eritmalaridagi molekulalar va atomlarning xususiyatlari, ularning tarkibiy qismlari va kontsentratsiyasi aniqlanadi. Bu usulning asosiy afzalligi – tezkorlik, aniqlik va sezgirlikdir. Shu sababli spektraskopiya oziq-ovqat sanoatida sifat nazorati va xavfsizlikni ta’minlashda keng qo‘llaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Karimov va Islomovning “Oziq-ovqat bo‘yoqlarining ultrabinafsha spektraskopiyasi usullari” maqolasida ultrabinafsha (UV) spektraskopiyaning oziq-ovqat bo‘yoqlarini aniqlashda qo‘llanilishi batafsil tahlil qilingan. Mualliflar UV spektraskopiyaning tez va aniq natija berishini, shuningdek, tabiiy va sun’iy bo‘yoqlarni farqlashda samarali ekanligini ta’kidlaydilar. Ushbu metod eritmalardagi bo‘yoq miqdorini aniqlashda keng qo‘llaniladi.[1]

Rustamova infraqizil (IR) spektraskopiyasining tabiiy bo‘yoqlarni tahlil qilishdagi imkoniyatlarini o‘rganadi. IR spektraskopiyasi yordamida oziq-ovqat bo‘yoqlarining kimyoviy tuzilishini aniqlash, ularning tabiiy yoki sun’iy ekanligini farqlash mumkinligi ko‘rsatildi. Bu usul oziq-ovqat mahsulotlarining sifat nazoratida muhim ahamiyatga ega.[2]

Tursunov va Yuldashev atom absorptsion spektraskopiyasining oziq-ovqat bo‘yoqlaridagi metall elementlarni aniqlashdagi qo‘llanilishini o‘rgandilar. Bu metod yordamida eritmalardagi zararli metallarning miqdori aniqlanib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga yordam beradi.[3]

Sobirovning yadro magnit rezonansi (YMR) spektraskopiyasi bo‘yicha ishlanmalari oziq-ovqat bo‘yoqlarining molekulyar tuzilishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. YMR usuli eritmalardagi bo‘yoq moddalarning kimyoviy xususiyatlarini aniqlashda yuqori aniqlik ko‘rsatadi.[4]

Isroilova va Akhmedov spektraskopik metodlar yordamida oziq-ovqat bo‘yoqlarining sifat nazoratini amalga oshirishni taklif qiladilar. Ularning tadqiqotida UV, IR va Raman spektraskopiyasi usullari solishtirilib, har bir

ISSN 3030-3907

metodning afzalliklari va cheklovlari ko‘rsatildi. Bu ish spektraskopiyaning oziq-ovqat sanoatidagi amaliy ahamiyatini oshirishga qaratilgan.[5]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oziq-ovqat bo‘yoqlari eritmalarining spektraskopik tahlili uchun bir necha usullar mavjud. Ultrabinafsha-ko‘k spektraskopiya, infraqizil spektraskopiya, atom absorptsion spektraskopiyasi va yadro magnit rezonansi spektraskopiyasi kabi usullar eng ko‘p ishlatiladiganlar qatoriga kiradi. Har bir usul o‘ziga xos printsip va qo‘llanish sohasiga ega bo‘lib, ularning har biri bo‘yoqlarni aniqlash va tahlil qilishda o‘ziga xos ma’lumot beradi. Ultrabinafsha-ko‘k spektraskopiya oziq-ovqat bo‘yoqlarining elektron holatlariga ta’sir etuvchi ultrabinafsha va ko‘k nurlarni o‘rganadi. Bo‘yoqlar molekulalaridagi elektronlar bu nurlar ta’sirida yuqori energiyali holatlarga ko‘tariladi va bu jarayon natijasida yutilish spektri hosil bo‘ladi. Yutilish spektridagi maksimal nuqtalar bo‘yoq molekulalarining kimyoviy tarkibi va kontsentratsiyasi haqida ma’lumot beradi. Ushbu usul yordamida sun’iy va tabiiy bo‘yoqlarni farqlash, ularning aralashmalarini aniqlash mumkin. Masalan, beta-karotin kabi tabiiy bo‘yoqlar va azo-bo‘yoqlar kabi sun’iy bo‘yoqlar spektrda o‘ziga xos yutilish maksimal nuqtalariga ega. Infraqizil spektraskopiya bo‘yoq molekulalarining vibratsion va rotatsion holatlarini o‘rganadi. Infraqizil nurlar molekulalar bilan o‘zaro ta’sirda ularning kimyoviy guruhlarini aniqlashga yordam beradi. Har bir kimyoviy guruh infraqizil spektrda o‘ziga xos tebranish chastotasiga ega bo‘lib, bu orqali bo‘yoq molekulasining tarkibi va tuzilishi haqida aniq ma’lumot olish mumkin. Ushbu usul ko‘pincha bo‘yoqlarni identifikatsiya qilish, ularni sintez qilish jarayonini nazorat qilishda qo‘llaniladi. Infraqizil spektr yordamida murakkab bo‘yoq aralashmalaridagi har bir komponentni ajratib ko‘rsatish mumkin.[6]

Atom absorptsion spektraskopiyasi oziq-ovqat bo‘yoqlarida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan metallarni aniqlashga mo‘ljallangan. Bo‘yoqlar tarkibida ba’zan rang beruvchi metall ionlari bo‘lishi mumkin, ular mahsulotning rangini va sifatini belgilaydi. Shu bilan birga, ba’zi metallar inson salomatligiga zararli bo‘lishi mumkin, shuning uchun ularning miqdorini aniqlash va nazorat qilish zarur. Atom absorptsion spektraskopiyasi yordamida bo‘yoq eritmalaridagi metall elementlar aniqlanadi va ularning kontsentratsiyasi o‘lchanadi. Bu usul yuqori sezgirlikka ega bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.[7]

Yadro magnit rezonansi spektraskopiyasi bo‘yoq molekulalarining atom yadrolarining magnit xususiyatlarini o‘rganadi. Bu usul yordamida bo‘yoqlarning molekulyar tuzilishi, ularning kimyoviy bog‘lanishlari, molekulalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar va dinamikasi haqida batafsil ma’lumot olish mumkin. Yadro magnit rezonansi spektraskopiyasi yuqori aniqlik va sezgirlikka ega bo‘lib,

ISSN 3030-3907

murakkab aralashmalarni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Ushbu usul yordamida bo‘yoq molekulalarining strukturaviy xususiyatlari, ularning o‘zgarishlari va reaksiyalardagi ishtiroki o‘rganiladi.

Spektraskopiya usullari yordamida oziq-ovqat bo‘yoqlarining sifatini nazorat qilish, ularning tarkibini aniqlash va xavfsizligini ta’minlash mumkin. Spektraskopik tahlil tezkor, aniq va sezgir bo‘lib, u oziq-ovqat sanoatida sifat nazorati, standartlarga muvofiqlikni ta’minlash va iste’molchilar uchun xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim vosita hisoblanadi. Bo‘yoqlarning spektri orqali ularning kimyoviy xususiyatlari, aralashmalar tarkibi va kontsentratsiyasi haqida ma’lumot olish mumkin. Bu esa mahsulot sifatini yaxshilash va iste’molchilarni himoya qilishga xizmat qiladi. Spektraskopiya oziq-ovqat bo‘yoqlarining tabiiy yoki sun’iy ekanligini aniqlashda ham qo‘llaniladi. Tabiiy bo‘yoqlar ko‘pincha murakkab molekulyar tuzilishga ega bo‘lib, ularning spektri sun’iy bo‘yoqlardan farq qiladi. Ushbu farqni aniqlash iste’molchilarni aldashdan himoya qiladi va mahsulot sifatini oshiradi. Masalan, tabiiy bo‘yoqlar spektrida ko‘plab o‘ziga xos yutilish va emissiya chiziqlari mavjud bo‘lsa, sun’iy bo‘yoqlarda bu chiziqlar ko‘pincha soddaroq va aniqroq bo‘ladi. Bu farqni aniqlash oziq-ovqat mahsulotlarining haqiqiyligini tasdiqlashda muhimdir. Spektraskopiya sohasida yangi texnologiyalar va usullar doimiy ravishda rivojlanmoqda. Lazer spektraskopiyasi, Raman spektraskopiyasi va mass-spektrometriya kabi ilg‘or usullar bo‘yoqlarni yanada aniqlik bilan tahlil qilish imkonini beradi. Lazer spektraskopiyasi yuqori aniqlik va sezgirlik bilan bo‘yoqlarni aniqlashga yordam beradi. Raman spektraskopiyasi molekulalarning vibratsion va rotatsion holatlarini o‘rganishda qo‘llaniladi, bu esa bo‘yoqlarning kimyoviy xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Mass-spektrometriya esa bo‘yoq molekulalarining molekulyar og‘irligini aniqlashda qo‘llaniladi va murakkab aralashmalardagi har bir komponentni ajratib ko‘rsatadi. Oziq-ovqat bo‘yoqlarining spektraskopiyasi ilmiy tadqiqotlarda ham muhim o‘rin tutadi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar bo‘yoqlarning kimyoviy xususiyatlarini, ularning oziq-ovqat mahsulotlariga ta’sirini o‘rganishga yordam beradi. Shu orqali yangi, xavfsiz va sifatli bo‘yoqlar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqotlar spektraskopik metodlarni takomillashtirish, yangi bo‘yoq turlarini sintez qilish va ularning xavfsizligini baholashga qaratilgan. Spektraskopik tahlil oziq-ovqat bo‘yoqlarining kimyoviy va fizik xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Bu esa ularning xavfsizligi va sifatini ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatida spektraskopiya yordamida bo‘yoqlarni aniqlash, ularning kontsentratsiyasini o‘lchash va aralashmalarni tahlil qilish samarali bo‘lib, mahsulot sifatini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy

ISSN 3030-3907

texnologiyalar va usullar yordamida spektraskopiya sohasidagi yutuqlar oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.[8]

Quyidagi jadvalda oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llaniladigan bo‘yoqlarning spektraskopik tahlili keltirilgan. Jadvalda har bir bo‘yoqning to‘lqin uzunligi oralig‘i, maksimal yutilish nuqtasi (λmax), ko‘rinadigan rangi va asosiy foydalanish joylari haqida ma’lumotlar berilgan. Tahlillar asosan Ultrabinafsha-Ko‘rinadigan nur (UV-Vis) spektraskopiyasi usuli yordamida olib borilgan.

Oziq-ovqat bo‘yoqlari spektraskopik tahlil jadvali

№	Bo‘yoq nomi	To‘lqin uzunligi (nm)	Eng kuchli yutilish (λmax)	Rangi	Foydalanish
1	Tartrazin	200–600	427 nm	Sariq	Ichimliklar, shirinliklar
2	Kunduzi sariq	200–600	482 nm	To‘q sariq	Non mahsulotlari, qandolatlar
3	Allura qizil	200–600	504 nm	Qizil	Energiya ichimliklari, konfetlar
4	Yorqin moviy	200–700	630 nm	Moviy	Muzqaymoq, jele mahsulotlar
5	Ponsyo 4R	200–600	510 nm	Qizil	Go‘sht mahsulotlari, souslarda
6	Karmin (tabiiy)	200–600	495 nm	Qizil-pushti	Tabiiy bo‘yoq, hasharotdan olinadi
7	Xlorofillin (tabiiy)	200–700	405 nm va 660 nm	Yashil	Barg pigmenti, tabiiy, o‘simlikdan olinadi
8	Kurkumin	200–600	425 nm	Oltin-sariq	Ziravor (zarchava), tabiiy antioksidant sifatida

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat bo‘yoqlari eritmalarining spektraskopiyasi oziq-ovqat sanoatida sifat nazoratini ta’minlash, mahsulot xavfsizligini oshirish va iste’molchilarni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Turli spektraskopik usullar bo‘yoqlarni aniqlash, ularning tarkibini o‘rganish va sifatini baholashda samarali vosita hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar va usullar yordamida spektraskopiya sohasida yangi yutuqlar erishilmoqda, bu esa oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Spektraskopik tahlil oziq-ovqat bo‘yoqlarining kimyoviy va fizik xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkonini berib, ularning xavfsizligi va sifatini ta’minlashda asosiy vosita bo‘lib qolmoqda. Shu tariqa, spektraskopiya oziq-ovqat bo‘yoqlarining sifatini oshirish va iste’molchilarning sog‘lig‘ini himoya qilishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, kelajakda ham bu sohada ilmiy va amaliy tadqiqotlar davom ettirilishi zarur.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, A., & Islomov, D. (2018). Oziq-ovqat bo‘yoqlarining ultrabinafsha spektraskopiyasi usullari. “O‘zbekiston Kimyo Jurnali”, 12(3), 45-52.
2. Rustamova, N. (2019). Infraqizil spektraskopiya yordamida tabiiy bo‘yoqlarni tahlil qilish. “Oziq-ovqat Sanoati”, 7(2), 33-40.
3. Tursunov, S., & Yuldashev, M. (2020). Oziq-ovqat bo‘yoqlarida metall elementlarni aniqlashda atom absorptsion spektraskopiyasining qo‘llanilishi. “Kimyo va Texnologiya”, 15(1), 78-85.
4. Sobirov, J. (2017). Yadro magnit rezonansi spektraskopiyasi va uning oziq-ovqat bo‘yoqlarini tahlil qilishdagi o‘rni. “Ilmiy Izlanishlar”, 9(4), 22-29.
5. Isroilova, M., & Akhmedov, R. (2021). Spektraskopik metodlar yordamida oziq-ovqat bo‘yoqlarining sifat nazorati. “Texnologik Tadqiqotlar”, 18(3), 56-63.
6. Nazarov, B. (2018). Oziq-ovqat sanoatida spektraskopiyaning ahamiyati va istiqbollari. “Sanoat Kimyosi”, 11(2), 14-21.
7. Qodirov, F., & Tadjibaeva, S. (2019). Raman spektraskopiyasining oziq-ovqat bo‘yoqlarida qo‘llanilishi. “Kimyo Ilmi”, 14(3), 39-46.
8. Yusupov, D. (2020). Oziq-ovqat bo‘yoqlarining spektraskopik tahlili: nazariy va amaliy jihatlar. “O‘zbekiston Fanlari Akademiyasi Jurnali”, 24(1), 12-19.
9. Ergashev, K., & Rakhmatova, L. (2022). Lazer spektraskopiyasi yordamida bo‘yoq eritmalarining aniqligi. “Zamonaviy Texnologiyalar”, 20(2), 70-77.
10. Saidova, G. (2021). Oziq-ovqat bo‘yoqlarining spektraskopik usullar bilan monitoringi. “Sog‘lom Hayot”, 6(1), 50-57.

ISSN 3030-3907

FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI TIBBIYOT TALABALARI DIAGNOSTIK KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Xalimova Salomat Asrorovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Biologik kimyo kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot yo‘nalishidagi talabalarning diagnostik ko‘nikmalarini rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning roli qayta ko‘rib chiqiladi. Klinika, biologiya, farmakologiya va texnologiya fani o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asosida yaratilgan darslik va amaliy mashg‘ulotlar diagnostik fikrlash, laborator-analitik usullar va zamonaviy axborot texnologiyalari yondashuvlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha metodik tavsiyalar taqdim etiladi. Olib borilgan tadqiqotimizda zamonaviy ta’lim texnologiyalari, amaliy mashg‘ulotlar va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi o‘quv uslublarining samaradorligi ortirish, axamiyatini ko‘tarilish masalalari yoritiladi. Tibbiy ta’limda diagnostik kompetentsiyalarni rivojlantirish zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi talablariga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun tibbiyot oliygohlarida integratsiya masalalariga e’tibor katta.

Kalit so‘zlar: interdisiplinar ta’lim, diagnostik kompetentsiya, problemaga yo‘naltirilgan o‘qitish

Аннотация. В данной статье пересматривается роль междисциплинарной интеграции в развитии диагностических навыков студентов медицинского направления. На основе неразрывной связи клинических, биологических, фармакологических и технологических дисциплин представлены методические рекомендации по созданию учебных пособий и практических занятий, направленных на повышение эффективности диагностического мышления, лабораторно-аналитических методов и современных информационных технологий. В ходе исследования освещены вопросы повышения результативности и значимости современных образовательных технологий, практических занятий и компетентностного подхода в учебном процессе. Развитие диагностических компетенций в медицинском образовании является неотъемлемой частью подготовки высококвалифицированных специалистов, отвечающих требованиям современной системы здравоохранения. Поэтому в медицинских вузах уделяется большое внимание вопросам интеграции дисциплин.

Ключевые слова: междисциплинарное обучение; диагностическая компетенция; проблемно-ориентированное обучение

ISSN 3030-3907

Annotation. This article reconsiders the role of interdisciplinary integration in developing diagnostic skills among medical students. Based on the intrinsic connections between clinical medicine, biology, pharmacology, and technology, it offers methodological recommendations for designing textbooks and practical exercises aimed at enhancing diagnostic reasoning, laboratory-analytical methods, and modern information technology approaches. The study highlights issues related to increasing the effectiveness and importance of contemporary educational technologies, hands-on training, and a competency-based approach in teaching. Fostering diagnostic competencies in medical education is an integral part of training highly qualified professionals who meet the demands of today's healthcare system. Therefore, medical universities place significant emphasis on disciplinary integration.

Keywords: interdisciplinary education; diagnostic competency; problem-based learning

Kirish

Bugungi tibbiy ta'limda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun diagnostik kompetentsiyani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kompetentsiya — kasallikni to‘g‘ri baholash, tashxis qo‘yish va davolash strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatidir, u turli tibbiy fanlar bilimlari sinteziga asoslanadi. Klinik tafakkur, laborator ko‘nikmalar, farmakologik bilimlar va raqamli vositalardan foydalana olish yosh mutaxassisni murakkab vaziyatlarda ham aniq qaror qabul qila oladigan darajaga etaklaydi. Shunday qilib, diagnostik kompetentsiya – bu kasbiy vazifalarni to‘g‘ri baholash, aniqlik bilan kasallikni aniqlash va mos davolash rejasini tuzish ko‘nikmasidir. Bu esa faqat bitta fan emas, balki bir nechta tibbiy fanlarning uzviy bog‘liqligida shakllanadi. Diagnostik kompetentsiya – bu tibbiyot mutaxassisining kasallikni to‘g‘ri aniqlash, tahlil qilish, baholash va asosli tashxis qo‘yish bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar jamlanmasi hisoblanadi [1]. Diagnostik kopmetensiyani samarali shakllantirish va rivojlantirishda hozirgi kunda integratsiyalashgan yondashuv alohida axamiyatga egadir. Bunday kompetentsiya keng qamrovli bo‘lib, o‘z ichiga klinik tafakkur, laborator-analitik fikrlash, farmakologik bilimlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish va zamonaviy tibbiy qurilmalardan samarali foydalanishni oladi [2].

Tibbiyot sohasidagi bilimlar faqat bir yo‘nalishdagi emas, balki turli sohalar – biokimyo, anatomiya, fiziologiya, patologik anatomiya, farmakologiya, klinik fanlar va tibbiy informatika bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi [3]. Shu boisdan tibbiy ta'limda fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonlari nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirishga ham xizmat

ISSN 3030-3907

qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimi diagnostik kompetentsiyalarni rivojlantirishda yangi pedagogik va texnologik yondashuvlarni, jumladan, muammoga yo‘naltirilgan ta’lim, klinik holatlarni o‘rganish (case-study), simulyatsion o‘qitish, modulli tizim va reflektiv o‘rganish metodlarini keng tatbiq etishni taqozo etmoqda. Bo‘lajak mutaxasisisning tahlilliy fikrlash salohiyatini oshirishda fanlararo integratsiyani axaamiyati kattadir. Natijada talabada kasbiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay olish malakasi rivojlanadi[4]. Shuning uchun ham mazkur tadqiqotda fanlararo aloqadorlik asosida diagnostik kompetentsiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi va ularning amaliy samaradorligi o‘rganiladi. Zamonaviy tibbiy ta’limda “kompetensiya” tushunchasi ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan murakkab integrallashgan tushuncha sifatida talqin qilinadi. Shu o‘rinda diagnostik kompetentsiya esa — bu tibbiy kasb egasining bemor holatini to‘g‘ri baholash, klinik simptomlarni aniqlash, tashxislash algoritmini qo‘llash, laborator va instrumental tekshiruv natijalarini tahlil qilish va asosli tashxis qo‘yish kabi faoliyatlar majmuasidir [1,2].Diagnostik kompetentsiya professional klinik fikrlash, analitik mulohaza yuritish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, kommunikativ va reflektiv yondashuv kabi asosiy komponentlardan tashkil topgan. U nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy faoliyatga bevosita tatbiq etiladigan ko‘nikma va malakalarga asoslanadi. Tibbiy ta’limda bu kompetentsiya klinik fanlar (terapiya, xirurgiya, pediatriya), laborator tibbiyot, farmakologiya, anatomiya, fiziologiya va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi [3].

Adabiyotlar sharxida o‘rganilgan adabiyotlarning asosiy qismi diagnostic kompitensiyasni quyidagi komponentlarga ajratgan. Kognitiv komponent – kasalliklar etiologiyasi, patogenezi, klinik manzarasi, differensial tashxis va tasdiqlovchi laborator instrumental usullar haqida puxta bilimga ega bo‘lish haqida m’lumotlarni mustaxkamlashga yordam beradi. Operatsion (amaliy) komponent – anamnez to‘plash, fizik tekshiruv, laborator va tasviriy tekshiruvlarni tahlil qilish, klinik algoritmlarni qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishda muxim hisoblanadi. Motivatsion-kommunikativ komponent – bemor bilan samarali muloqot qilish, holatga empatik yondashish, tibbiy axloqiy me’yorlarga rioya qilish masalalariga qaratilgan. Refleksiv-kompetent yondashuv – qabul qilingan diagnostik qarorni baholash, tahlil qilish va zarurat bo‘lsa, tuzatish kiritish qobiliyatini shakllantirishda muximdir. Shuningdek, diagnostik kompetentsiyaning shakllanishi kliniko-laborator tafakkur va differensial tashxis yuritish algoritmlari orqali rivojlanadi. Bu esa talabalarning ilmiy-tahliliy yondashuvi va qaror qabul

ISSN 3030-3907

qilish mexanizmlarini mustahkamlaydi. Diagnostik kompetentsiyaning yuqori darajada rivojlanganligi — shifokorning professional etukligi va bemorga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatining kafolati hisoblanadi [5].

Tadqiqotda bo‘lajak shifokorlarda tahliliy fikrlash, klinik qaror qabul qilish, tashxis qo‘yish va davolash rejasini ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishda integratsiyalashgan ta’lim metodlarining o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada diagnostik kompetentsiyani rivojlantirishda simulyatsion texnologiyalar, muammoga yo‘naltirilgan o‘qitish, klinik holatlar asosida o‘qitish (case-study), interaktiv metodlar va zamonaviy baholash usullaridan foydalanish natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari fanlararo yondashuv asosida olib borilgan amaliy mashg‘ulotlarning o‘quv jarayonidagi samaradorligini oshirganligini, talabalar bilim darajasining va diagnostik fikrlash ko‘nikmalarining sezilarli darajada yaxshilanganligini ko‘rsatadi. Maqolada ilgari surilgan metodik tavsiyalar tibbiy ta’lim sifatini oshirish va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentsiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA: Interdisiplinar integratsiya metodikasini yaratishda quyidagi yondashuvlar qo‘llanildi:

Muammoga yo‘naltirilgan o‘qitish (PBL): klinik vaziyatlar asosida taqdim etiladigan case-study mashg‘ulotlari.

Simulyatsion treninglar: real kasallik senariylari va diagnostik laboratoriya jihozlari bilan ishlash.

Modulli ta’lim tuzilmasi: fanlararo bloklar shaklida rejalashtirilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar.

Reflektiv yondashuv: talabalarning o‘z xulosalarini tahlil qilib, qaror qabul qilish jarayonini qayta ko‘rib chiqishi.

Eksperimental guruh (integratsiyalashgan metod asosida) va nazorat guruhi (an’anaviy dars usuli) taqqoslanib, diagnostik kompetentsiya darajasi test va amaliy vazifalar orqali baholandi.

Nazariy-tahliliy metod ya’ni teoritik analiz usulida ilmiy adabiyotlar taxlili qilinidi. Qolaversa, ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalarni o‘rganish orqali diagnostik kompetentsiya va fanlararo integratsiya haqidagi ilmiy qarashlarni aniqlashda bu taxlilining o‘rni bor. Pedagogik tajriba usulidan ham foydalandik. Bunda tajriba guruhi (integratsiyalashgan o‘qituv metodikasi asosida o‘qitiladi), nazorat guruhi (an’anaviy metod asosida o‘qitiladi), eksperimentdan oldin va keyin testlar orqali diagnostik kompetentsiya darajasi baholash mumkin bo‘ladi. Tadqiqotni nazorat va tajriba bilan solishtirishda va natijalarni taxlil qilishda statistic metodlardan foydalaniladi. Bundan tashqari zamonaviy metodlardan biri hisoblangan modellashtirish metodidan ham foydalanishimiz mumkin. Bunda

ISSN 3030-3907

integratsion va stimullatsion usullar asosida talabalar bilimlarini model sifatida ko‘rib rejalar ishlab chiqishimiz mumkin bo‘ladi.

NATIJALAR; Bauer va boshqalar tibbiyot va pedagogika yo‘nalishidagi talabalar orasida diagnostic faoliyatni solishtiradigan tadqiqot o‘tkazishdi. Tadqiqotda quyidagi ishlar ko‘rib chiqilgan. Bunda 142 ta tibbiyot ta’lim muassasasi talabasiga turli xildagi simulyatsiyalangan klinik holat berilib, ular tomonidan asosiy diagnostic jarayon gipoteza qo‘yish, dalillar yig‘ish, taxlil qilish va xulosa chiqarish faoliyati kodlangan holatda o‘rganishga berilgan. Tibbiyot yo‘nalishida talabalarning gipoteza yaratish va yakuniy xulosalar chiqarishda yuqori yondashuvi, pedagogik yo‘nalishda esa dalillarni yig‘ish va tahlil qilishga ustuvorlik berishi aniqlangan.

Zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo integratsiya o‘quvchilarda chuqur tahliliy fikrlashni shakllantiradi. Ularni amaliy faoliyatga tayyorlash va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida muxim axamiyat kasb etmoqda. Fanlararo yondashuv, eng avvalo, tizimli fikrlashni rivojlantiradi. Talabalar muammolarga faqat bitta fan doirasida emas, balki bir nechta fanlar nuqtai nazaridan yondashishni o‘rganadilar. Bu esa ularda kompleks, integratsiyalashgan tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirib, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish salohiyatini oshiradi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv, shuningdek, innovatsion faoliyatga tayyorlovchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, biotexnologiya, tibbiyotda sun’iy intellekt, farmakogenomika kabi ilg‘or yo‘nalishlar aynan biologiya, informatika, kimyo va matematikaning sintezi natijasida yuzaga kelmoqda. Shu sababli fanlararo bilimlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, fanlararo integratsiya amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Talabalar laboratoriya, dizayn, diagnostika, muhandislik yoki texnologik loyihalarda faol ishtirok etish orqali nazariy bilimlarini real hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Nihoyat, fanlararo yondashuv ilmiy-tadqiqot faoliyatini chuqurlashtirish va samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Murakkab ilmiy muammolarni hal qilishda biror bir fan doirasida qolib ketish cheklov bo‘lsa, fanlararo integratsiya bunday masalalarga kengroq, tizimli va chuqurroq yondashish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy ilm-fanning rivojlanishiga zamin yaratadi[4,5].

Bauer va boshq. tomonidan olib borilgan tadqiqotda tibbiyot va pedagogika yo‘nalishidagi talabalar o‘rtasida diagnostik faoliyatlar – ya’ni gipoteza yaratish, dalil yig‘ish, dalilni baholash va xulosa chiqarish bosqichlari o‘rganilgan. Simulyatsiyalangan klinik holatlar asosida 142 tibbiyot va 122 pedagogika

ISSN 3030-3907

talabasining yozma hisobotlari Epistemic Network Analysis (ENA) usuli orqali tahlil qilingan. Natijalar tibbiyot talabalari gipoteza tuzish va diagnostik xulosa chiqarishga urg‘u berishini, pedagogika talabalari esa dalil yig‘ish va ularni baholashga ko‘proq e’tibor berishini ko‘rsatgan. Bu esa har bir soha vakillari diagnostik faoliyatni turlicha tashkil etishini anglatadi[6].

Xu va boshq**.** tomonidan ishlab chiqilgan va tibbiy ta’limda joriy etilgan e-MedLearn platformasi asosidagi PBL tizimi diagnostik kompetentsiyalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan ilg‘or model sifatida maydonga chiqdi. Tadqiqotda boshqarilgan raqamli PBL muhitining samaradorligi empirik tahlil vositalari orqali baholangan bo‘lib, u amaliy va metodik jihatdan muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi. Zamonaviy tibbiy ta’limda diagnostik kompetentsiyalarni shakllantirish eng muhim maqsadlardandir. Klinik fikrlash, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish, farqlash tashxisi, reflektiv tahlil kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoga yo‘naltirilgan o‘qitish (Problem-Based Learning, PBL) metodikasi o‘zining samaradorligini ko‘rsatmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar yordamida integratsiyalashgan va boshqariladigan PBL muhitlari orqali talabalar bilimni amaliy diagnostik vaziyatlarga tatbiq etishni faol o‘zlashtiradilar [7].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etilgan darslar:

-Tizimli tafakkurni rivojlantiradi,

-Analitik va reflektiv ko‘nikmalarni mustahkamlaydi,

-Innovatsion yondashuv talabalarni mustaqil izlanishga rag‘batlantiradi.

Bunda biotibbiyot, klinika va informatsion texnologiyalar integratsiyasi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa: Fanlararo integratsiya tibbiyot talabalari diagnostik kompetentsiyasini shakllantirishda samarali vositadir. PBL, simulyatsiya va modulli yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash orqali murakkab kasbiy vazifalarni mustaqil va aniq ijro etish qobiliyati ortadi. Ushbu metodik tavsiyalarni keng joriy etish natijasida tibbiy oliygohlarda etuk, klinik fikr yurita oladigan mutaxassislar tayyorlash imkoniyati kengayadi. Fanlararo integratsiyalashgan metodlar orqali diagnostik faoliyatni klinik bilimlar, analitik fikrlash, axborot texnologiyalari, biotibbiy etika va sog‘liqni saqlash menejmenti bilan uyg‘un holda tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Masalan, Bauer va boshq. tadqiqotida klinik va pedagogik yo‘nalishdagi talabalarning diagnostik faoliyatlaridagi farqlar tahlil qilinib, har bir sohaga xos kompetentsiyalar asosida maxsus ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlangan. Shuningdek, Graber va hamkasblar tomonidan taklif etilgan interprofessional diagnostik kompetentsiyalar to‘plami diagnostika jarayoniga jalb etilgan barcha mutaxassislarning hamkorlikdagi ishlash madaniyatini

ISSN 3030-3907

shakllantirish uchun nazariy asos yaratadi. Xu va boshqalar tadqiqoti esa PBL (Problem-Based Learning) metodikasini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda, talabalar diagnostik kompetentsiyasini strukturali va reflektiv shaklda rivojlantirishda e’tiborga loyiq ilmiy yondashuvni taklif etadi. Bunday integratsiyalashgan tizimlar talabalarga o‘z fikrlash jarayonini ongli tahlil qilish, gipoteza asosida qaror qabul qilish, kross-funksional hamkorlikda ishlash va xatolardan o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, diagnostik kompetentsiyalarni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikka asoslangan ta’lim metodikasi:kompleks bilimlarni birlashtirishni; real klinik vaziyatlarda qaror qabul qilishni; kommunikatsion va reflektiv ko‘nikmalarni chuqurlashtirishni; xavfsiz, bemor markazli diagnostik muhitni shakllantirishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shmidt M.B. Kasbiy kompetentsiya tushunchasi va uning tibbiy ta’limdagi ahamiyati // Tibbiyotda Innovatsiyalar. – 2020. – №4. – B. 23–27.
2. Harden R.M., Crosby J.R. AMEE Guide No 20: The good teacher is more than a lecturer—the twelve roles of the teacher // Medical Teacher. – 2000. – Vol. 22, No 4. – P. 334–347.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. Savelyeva N.V. Integratsion yondashuv orqali tibbiy ta’lim sifatini oshirish // Meditsinskiy vestnik. – 2021. – №6. – B. 45–48.
5. Qodirov B.S., Mamatov I.N. Klinik tafakkurni shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni // Tibbiyotda ilm va tajriba. – 2020. – №2. – B. 44–48.
6. Graber ML, Olson APJ, Rencic J, Rusz D, Papa F, Croskerry P, Zierler B, Harkless G, Giuliano M, Schoenbaum S, Colford C, Cahill M. Competencies for improving diagnosis: an interprofessional framework for education and training in health care. *Diagnosis*. 2019;6(4):335–341. doi:10.1515/dx-2018-0107
7. Xu Y., Shao Y., Dong J., Shi S., Jiang C., Li Q. (2025). *Advancing Problem-Based Learning with Clinical Reasoning for Improved Differential Diagnosis in Medical Education*. CHI’25 conference proceedings.

ISSN 3030-3907

УДК - 519.6

УРАВНЕНИЕ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЭРОЗОЛЕЙ, ЗАГРЯЗНЯЮЩИХ ВЕЩЕСТВ ИЛИ ПЫЛИ В АТМОСФЕРЕ С УЧЁТОМ ТУРБУЛЕНТНОЙ ДИФФУЗИИ И СКОРОСТИ ОСЕДАНИЯ

Махмудов Рустам Зайнидин ўғли

Докторант Ташкентского университета информационных технологии.

ОРЧИД - 0009-0007-4812-444X

Махмудов Зайнидин Махамадиевич

Доцент кафедры «Информационные технологии» ТУИТ Самаркандского филиала.

ОРЧИД - 0009-0006-3002-278X

Аннотация. В статье рассматривается математическая модель распространения аэрозольных частиц и загрязняющих веществ в атмосфере. Основное внимание уделяется описанию физических механизмов переноса, включая адвекцию, турбулентную диффузию и гравитационное оседание. Представлена обобщённая форма уравнения переноса загрязняющих веществ с соответствующими граничными и начальными условиями. Обсуждаются возможные подходы к численному решению задачи и применение модели для анализа экологических последствий атмосферного загрязнения.

Ключевые словаЮ Атмосфера, аэрозоли, загрязняющие вещества, математическая модель, турбулентная диффузия, оседание, уравнение переноса, экология.

Annotatsiya. Maqolada atmosferada aerozol zarralari va ifloslantiruvchi moddalarning tarqalishining matematik modeli ko‘rib chiqiladi. Asosiy e'tibor jismoniy transport mexanizmlarini, shu jumladan adveksiya, turbulent diffuziya va tortishish cho‘kishini tavsiflashga qaratilgan. Tegishli chegara va boshlang‘ich shartlar bilan ifloslantiruvchi moddalarni tashish tenglamasining umumlashtirilgan shakli keltirilgan. Muammoni raqamli hal qilishning mumkin bo‘lgan yondashuvlari va atmosfera ifloslanishining ekologik oqibatlarini tahlil qilish uchun modelni qo‘llash muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar. atmosfera, aerozollar, ifloslantiruvchi moddalar, matematik model, turbulent diffuziya, cho‘kma, transport tenglamasi, ekologiya.

Annotation. The article considers a mathematical model of the propagation of aerosol particles and pollutants in the atmosphere. The main focus is on describing the physical mechanisms of transport, including advection, turbulent diffusion, and gravitational subsidence. A generalized form of the pollutant transport equation with appropriate boundary and initial conditions is presented. Possible approaches

ISSN 3030-3907

to the numerical solution of the problem and the application of the model to analyze the environmental consequences of atmospheric pollution are discussed.

Keywords: Atmosphere, aerosols, pollutants, mathematical model, turbulent diffusion, subsidence, transport equation, ecology.

1. Введение

Распространение аэрозольных частиц и загрязняющих веществ в атмосфере является одной из актуальных проблем современной науки и техники. Рост индустриализации, интенсификация транспортных потоков, сельскохозяйственные и бытовые выбросы ведут к увеличению концентрации вредных примесей в воздухе, что оказывает серьёзное воздействие на здоровье человека, климатические процессы и экосистемы. Понимание механизмов перемещения, трансформации и осаждения таких веществ — необходимое условие для прогнозирования последствий загрязнения, оценки рисков и разработки эффективных природоохранных мер.

Физические процессы, лежащие в основе распространения аэрозолей в атмосфере, крайне сложны и многокомпонентны. Они включают:

- Адвекцию — перенос примесей под действием средних потоков воздуха;
- Турбулентную диффузию — перемешивание частиц, вызванное хаотичными колебаниями скорости воздуха;
- Гравитационное оседание — движение частиц вниз под действием силы тяжести;
- Химическую трансформацию — реакции между веществами;
- Сорбцию и ресуспензию — взаимодействие частиц с подстилающей поверхностью.

Для моделирования этих процессов применяются дифференциальные уравнения переноса, позволяющие описывать эволюцию концентрации загрязняющих веществ во времени и пространстве. Такие модели лежат в основе систем атмосферного мониторинга, прогностических климатических моделей, а также нормативных документов по охране окружающей среды.

Настоящая работа сосредоточена на математическом моделировании распространения аэрозольных загрязняющих веществ с учётом адвекции, турбулентной диффузии и гравитационного оседания. Несмотря на то, что каждое из этих явлений исследуется отдельно, их совместное влияние является ключевым для точного описания поведения частиц в атмосфере, особенно в приземных слоях и вблизи источников выброса.

Целью данной работы является формулировка математической модели, адекватно описывающей распространение аэрозольных частиц в атмосфере,

ISSN 3030-3907

и анализ её свойств с учётом основных физических механизмов переноса. Такая модель может служить основой для разработки численных методов расчёта, экологических прогнозов и прикладных систем оценки загрязнения воздуха.

2. Анализ литературы по теме

Исследование процессов переноса и осаждения аэрозольных частиц и загрязняющих веществ в атмосфере имеет большое научное и практическое значение. Эти процессы лежат в основе прогноза загрязнения воздуха, оценки экологического воздействия и разработки мер по охране окружающей среды. В данной области проведено множество фундаментальных и прикладных исследований как зарубежными, так и отечественными учёными.

Первые теоретические исследования, связанные с распространением загрязняющих веществ в атмосфере, восходят к работам Гаусса, а затем были развиты в так называемой гауссовой модели рассеяния, применяемой для оценки концентрации выбросов от точечных источников в атмосфере. Эта модель широко использовалась в инженерных расчетах, однако она имеет ряд ограничений — не учитывает сложную структуру турбулентности и оседание частиц.

Моделирование турбулентной диффузии. С развитием теории турбулентности в атмосферной физике были предложены модели, в которых процессы турбулентной диффузии описываются с помощью коэффициентов турбулентного переноса, зависящих от высоты, температуры и стратификации атмосферы. Важный вклад в развитие этих моделей внесли работы[1], основатели теории подобия в пограничном слое атмосферы[2], предложили эмпирические зависимости для коэффициентов турбулентной диффузии[3], разработали комплексные модели химической трансформации и диффузии аэрозолей[4].

Учёт гравитационного оседания частиц. При моделировании распространения частиц важно учитывать их седиментацию (оседание под действием силы тяжести), особенно для крупных фракций аэрозоля и пылевых частиц. В уравнения диффузионного типа этот процесс включается в виде дополнительного адвективного члена с постоянной или переменной скоростью оседания. Работы с, а также исследования в рамках моделей ҲЙСПЛИТ, САЛПУФФ и WPФ-Сҳем позволяют учитывать транспорт, диффузию и гравитационное оседание аэрозольных загрязнений с высокой точностью.

Численные методы и моделирование в реальных условиях. Современные модели распространяются на трёхмерные нестационарные

ISSN 3030-3907

уравнения переноса, решаемые численными методами — конечных разностей, конечных элементов или метода контрольных объёмов. Моделирование таких процессов требует учёта реального метеорологического поля (ветра, температуры, влажности), сложного рельефа местности и условий на границах.

Отечественные исследования. В научной среде Узбекистана и стран СНГ также ведутся интенсивные исследования по моделированию распространения аэрозольных загрязнений. Р. Равшанов разработал математические модели распространения аэрозольных частиц с учётом турбулентной диффузии и оседания в условиях Узбекистана, предложил эффективные численные схемы решения[1].

В работах Назарова А.Н., Абдуллаева Б.М. рассматриваются пылевые процессы в Приаралье и городских агломерациях[5]. В публикациях Юнусовой М.К. и Саидова Б.Т. представлены модели с учётом рельефа местности и сезонной изменчивости метеоусловий.

Проблемы и перспективы. Несмотря на успехи в данной области, остаются нерешёнными следующие задачи:

- более точное определение коэффициентов турбулентной диффузии для разных типов местности;
- моделирование комплексного взаимодействия аэрозолей с радиацией и облаками;
- численная устойчивость и эффективность схем для реального времени;
- валидация моделей на основе натурных измерений в Центральной Азии.

Анализ научной литературы показывает, что задача моделирования распространения аэрозольных загрязнений в атмосфере с учётом турбулентной диффузии и оседания частиц является актуальной и глубоко проработанной, но требует дальнейших исследований, особенно в специфических климатических условиях Узбекистана и других регионов. Использование адаптированных математических моделей на основе локальных данных остаётся важнейшим направлением современной экологической науки.

3. Методология исследования

Методология данного исследования направлена на разработку, реализацию и анализ численной модели, описывающей пространственно-временную динамику аэрозольных частиц и загрязняющих веществ в атмосфере с учётом ключевых физических процессов — турбулентной диффузии и гравитационного оседания.

4. Анализ и результаты

ISSN 3030-3907

Физико-математические основы. Распространение аэрозолей и загрязняющих веществ в атмосфере описывается на основе закона сохранения массы. Основными физическими процессами являются:

- турбулентная диффузия — хаотическое перемешивание частиц в результате турбулентности атмосферы;
- гравитационное оседание — движение частиц вниз под действием силы тяжести;
- возможное присутствие источников/выбросов загрязнений.

Основное уравнение. Рассматривается задача в трёхмерной области $(x,й,з)\in\Omega\subset P^3(x, й, з)$, где з — вертикальное направление.

Общее уравнение переноса для средней концентрации загрязняющего вещества $\theta(x,й,з,т)$ имеет вид:

$$\begin{cases} \frac{\partial x}{\partial t} + u\frac{\partial \theta}{\partial x} + v\frac{\partial \theta}{\partial y} + (w - w_g)\frac{\partial \theta}{\partial z} + (\sigma + \alpha)\theta = \\ = D(T, |u|, d_p)\frac{\partial^2 \theta}{\partial x^2} + D(T, |v|, d_p)\frac{\partial^2 \theta}{\partial y^2} + D(T, (w - w_g), d_p)\frac{\partial^2 \theta}{\partial z^2} + \delta Q; \\ R_1\frac{\partial T}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x}\left(R_2\frac{\partial T}{\partial x}\right) + \frac{\partial}{\partial y}\left(R_2\frac{\partial T}{\partial y}\right) + \frac{\partial}{\partial z}\left(R_2\frac{\partial T}{\partial z}\right) + W. \end{cases} \quad (1)$$

- $\theta=\theta(x,й,з,т)$ — концентрация вредных веществ.
- $у,в,w$ — компоненты скорости ветра.
- $w_г$ — скорость оседания аэрозольных частиц.
- σ,α — коэффициенты поглощения и удержания веществ.
- $Д$— коэффициенты турбулентной диффузии (могут зависеть от температуры, скорости ветра и диаметра частиц $д_n$).
- $\delta К$ — стационарный источник загрязнения (с использованием функции Дирака — точечный источник).
- $T=T(x,й,з,т)$ — температура воздуха.
- $R_1 = \sum_{i=1}^{2} \rho_i\, c_p \theta_i$ — эффективная теплоемкость.
- $R_2 = \sum_{i=1}^{2} (\rho_i\, c_p + \lambda_i)\theta_i$ — эффективная теплопроводность.
- W — солнечная радиация.

Начальные условия

$$\theta|_{т=0}=\theta^0(x,й,з);\ T|_{т=0}=T^0(x,й,з) \quad (2)$$

Граничные условия

Учитываются 6 поверхностей:

- $x=0,\ x=Л_x$
- $й=0,\ й=Л_й$
- $з=0,\ з=Х_з$

Для концентрации θ:

ISSN 3030-3907

$$\left.\begin{aligned} -D_x\frac{\partial\theta}{\partial x}|_{x=0} &= \xi(\theta_E-\theta) \qquad -D_x\frac{\partial\theta}{\partial x}|_{x=L_x} = \xi(\theta_E-\theta)\\ -D_y\frac{\partial\theta}{\partial y}|_{y=0} &= \xi(\theta_E-\theta) \qquad -D_y\frac{\partial\theta}{\partial y}|_{y=L_y} = \xi(\theta_E-\theta)\\ -D_z\frac{\partial\theta}{\partial z}|_{z=0} &= \beta\theta - f_0 \qquad -D_z\frac{\partial\theta}{\partial z}|_{z=L_z} = \xi(\theta_E-\theta)\end{aligned}\right\} \quad (3)$$

- ξ— коэффициент взаимодействия с окружающей средой.
- θ_E — внешняя концентрация.
- $\beta\theta-\phi_0$ — вклад источника выброса с поверхности земли.

Для температуры T — условия типа Ньютона (теплообмен):

$$\left.\begin{aligned} \alpha_{13}k_1\frac{\partial T}{\partial x}|_{x=0} &= \alpha_{14}(T-T_0), \quad \beta_{13}k_1\frac{\partial T}{\partial x}|_{x=L_x} = \beta_{14}(T-T_0)\\ \alpha_{15}k_1\frac{\partial T}{\partial y}|_{y=0} &= \alpha_{16}(T-T_0), \quad \beta_{15}k_1\frac{\partial T}{\partial y}|_{y=L_y} = \beta_{16}(T-T_0)\\ \alpha_{17}k_1\frac{\partial T}{\partial z}|_{z=0} &= \alpha_{18}(T-T_0), \quad \beta_{17}k_1\frac{\partial T}{\partial z}|_{z=L_z} = \beta_{18}(T-T_0)\end{aligned}\right\} \quad (4)$$

Уравнение (1) описывает распространение температуры и концентрации аэрозольных частиц в атмосфере, учитывая:

- адвекцию (перенос),
- диффузию (в том числе турбулентную),
- гравитационное оседание частиц,
- теплопередачу,
- солнечную радиацию,
- начальные и граничные условия.

Выбираем расчетной области *(х,й,з)* это обычно будеть кубоид: *[0,Лх]×[0,Лй]×[0,Хз]* в сетке: $х_и$,$й_ж$,$з_к$ временные шаги $т_н$.

Исходные предположения. Для упрощения модели и увеличения её вычислительной устойчивости сделаны следующие предположения:

- Плотность воздуха считается постоянной в пределах исследуемой области.
- Параметры турбулентности *Дх,Дй,Дз* зависят от высоты и определяются по параметрам атмосферного пограничного слоя.
- Скорость оседания $в_с$ считается постоянной для заданной фракции частиц.
- Химические реакции и влажностные эффекты не учитываются на данном этапе.

Метод решения. Для численного решения задачи применяется метод конечных разностей на равномерной трёхмерной сетке. Используются:

- неявная схема по времени для временной дискретизации;
- центрально-разностная аппроксимация пространственных производных;
- аппроксимация граничных условий второго рода (например, отсутствие потока через верхнюю границу).

ISSN 3030-3907

С целью повышения устойчивости и точности могут применяться схемы типа неявные схемы.

Проведём пошаговое дискретное решение уравнения для концентрации загрязняющих веществ (аэрозолей) с помощью неявного метода конечных разностей и метода прогонки

Уравнение в 1Д-форме (по з):

$$\frac{\partial \theta}{\partial t} = D\frac{\partial^2 \theta}{\partial z^2} - w_g\frac{\partial \theta}{\partial z} + F(z,t) \qquad (5)$$

где:

- *θ(з,т)* — концентрация загрязняющих веществ,
- *Д* — коэффициент диффузии,
- $w_г$ — скорость оседания,
- *Ф(з,т)* — источник загрязнений.

Разбиение по сетке будет осуществляться следующем образом.

Пусть, интервал по *з∈[0,Х]*, шаг по пространству: $х=Х/Н$, $з_и=их$, где *и=0,1,...,Н*, шаг по времени: τ, $\theta_i^n \approx \theta(z_i, t^n)$.

Дискретизация (неявная схема) внутренние узлы *и=1,2,...,Н−1*:

$$\frac{\theta_i^{n+1} - \theta_i^n}{\tau} = D\frac{\theta_{i+1}^{n+1} - 2\theta_i^{n+1} + \theta_{i-1}^{n+1}}{h^2} - w_g\frac{\theta_{i+1}^{n+1} - \theta_{i-1}^{n+1}}{2h} + F_i^{n+1}$$

Умножим обе части на *τ*:

$$\theta_i^{n+1} - \theta_i^n = \tau D\frac{\theta_{i+1}^{n+1} - 2\theta_i^{n+1} + \theta_{i-1}^{n+1}}{h^2} - \tau w_g\frac{\theta_{i+1}^{n+1} - \theta_{i-1}^{n+1}}{2h} + \tau F_i^{n+1}$$

Приведем к СЛАУ переносим всё в левую часть:

$$-\tau В\frac{\theta_{i-1}^{n+1}}{h^2} + \left(1 + \frac{2\tau D}{h^2}\right)\theta_i^{n+1} - \tau D\frac{\theta_{i+1}^{n+1}}{h^2} + \tau w_g\frac{\theta_{i+1}^{n+1} - \theta_{i-1}^{n+1}}{2h} = \theta_i^n + \tau F_i^{n+1}$$

Теперь введем коэффициенты:

$$A = -\frac{\tau D}{h^2} - \frac{\tau w_g}{2h}$$

$$B = 1 + \frac{2\tau D}{h^2}$$

$$C = -\frac{\tau D}{h^2} - \frac{\tau w_g}{2h}$$

$$f_i = \theta_i^n + \tau F_i^{n+1}$$

И получим стандартную форму трёхдиагональной системы:

$$A\theta_{i-1}^{n+1} + B\theta_i^{n+1} + C\theta_{i+1}^{n+1} = f_i$$

Посмотрим граничные условия, предположим внизу *з=0*: задан поток

$$-D\frac{\theta_1^{n+1} - \theta_0^{n+1}}{h} = \beta\theta_0^{n+1} - f_0 \;\rightarrow\; \theta_1^{n+1} = \theta_0^{n+1} - \frac{h}{D}(\beta\theta_0^{n+1} - f_0)$$

Вверху *з=Х*: задана концентрация $\theta_0^{n+1} = \theta_E$

Теперь используя метода прогонка получим системы уравнений:

ISSN 3030-3907

$$A_i\theta_{i-1}^{n+1} + B_i\theta_i^{n+1} + C_i\theta_{i+1}^{n+1} = f_i$$

Прямой ход

Для $u=1 \rightarrow H-1$:

$$\alpha_1 = \frac{C_1}{B_1}, \beta_1 = \frac{f_1}{B_1}$$

$$\alpha_i = \frac{C_i}{B_i - A_i\alpha_{i-1}}, \quad \beta_i = \frac{f_i - A_i\beta_i}{B_i - A_i\alpha_{i-1}}$$

Обратный ход:

$$\theta_{H-1}=\beta_{H-1}, \ \theta_u=\alpha_u\theta_{u+1}+\beta_u, \ \ u=H-2,\ldots,0$$

Пример №1: Подробное пошаговое решение уравнения переноса аэрозолей с учётом турбулентной диффузии и оседания в 1Д по высоте *з*, используя неявный метод конечных разностей и метод прогонки.

Численные расчёты реализуются с использованием языка Пйтҳон.

Параметры задачи:

$Ҳ = 1.0$ - Высота области (м)

$T_н = 1.0$ -Конечное время (с)

$H = 50$ -Число узлов по пространству

$M = 100$ - Число временных шагов

$Д = 0.01$ - Коэффициент диффузии

$w_г = 0.02$ - Скорость оседания

$\beta = 0.1$ - Коэффициент взаимодействия с поверхностью

$\phi_0 = 0.01$ - Источник на поверхности

$\theta_E = 0.0$ - Верхняя граница концентрации

то получаем следующей (Рис.-1) результат:




Рис.-1. Концентрация аэрозолей.

На графике видно, что концентрация аэрозолей максимальна у поверхности (з=0), где работает источник, и быстро убывает с высотой — что логично из-за оседания и нулевой концентрации на верхней границе.

Пример №2: Реализацию в 2Д, добавим учёт температуры, турбулентности и источников.

Допустим если

ISSN 3030-3907

$Л_x$= 1.0, $Л_з$ =1.0 -Размеры области (м)

H_x= 40, $H_з$ =40 - Число узлов по x и з

$дx = \frac{Lx}{Nx}$, $дз = \frac{Lz}{Nz}$

$T_н$ = 1.0 - Конечное время (с)

M = 100 - Число временных шагов

$дт = \frac{T_n}{M}$

$Д_0$ = 0.01 - Базовый коэффициент диффузии

$w_г$ = 0.02 - Оседание

β = 0.1 - Коэффициент взаимодействия с поверхностью

$ф_0$ = 0.01 - Источник на поверхности

$К$ = 0.5 - Внутренний источник

θ_E = 0.0 - Граничная концентрация




Рис.-2. Распределение концентрации вредных веществ (аэрозолей) в атмосфере.

График выше показывает распределение концентрации вредных веществ (аэрозолей) в атмосфере $\theta(x,з)$ с учётом:

- Турбулентной диффузии, зависящей от температуры и её градиентов: $Д=Д_0 \cdot(1+0.1/\nabla T/)$
- Скорости оседания частиц $w_г$,
- Внутреннего источника загрязнения $К$,
- Поглощения у поверхности Земли через коэффициенты β и $ф_0$,

Что видно на графике:

- Максимальная концентрация у нижней границы $з=0$ — там находится источник загрязнения.
- По мере повышения по оси $з$, концентрация уменьшается — за счёт диффузии и оседания.

ISSN 3030-3907

• Учитывая турбулентность, видно, что по горизонтали (ось x) значения не совсем одинаковы — из-за вариаций температуры и градиента.

5. Результаты

Целью настоящего исследования является разработка и анализ математической модели распространения аэрозолей и загрязняющих веществ в атмосфере с учётом процессов турбулентной диффузии и гравитационного оседания частиц. Для достижения данной цели использован комплексный междисциплинарный подход, сочетающий элементы атмосферной физики, дифференциальных уравнений, численных методов и прикладной экологии.

Анализ и интерпретация результатов численного моделирования распространения вредных веществ в атмосфере с учётом турбулентной диффузии и оседания:

1. Характер распределения концентрации $\theta(x, з)$:

Максимум концентрации наблюдается вблизи нижней границы $з=0$ — это согласуется с тем, что:

- Вредные вещества поступают с поверхности Земли (стационарный источник ϕ_0),
- Частицы подвергаются оседанию ($w_г>0$) и гравитационно накапливаются в нижней части.

• Концентрация убывает с высотой $з$, что отражает:

- Воздействие вертикального градиента: турбулентное перемешивание частиц затруднено на больших высотах,
- Оседание способствует накоплению вблизи почвы.

• Горизонтально (x) значения почти однородны, но есть незначительные отклонения, вызванные:

- Различиями в температуре,
- Неоднородной турбулентной диффузией $Д(T,|\nabla T|)$,
- Поглощением через границы.

2. Роль температуры и её градиента:

• Температура $T(x,з)$ влияет на диффузию через величину $Д(T,|\nabla T|)$:

- Где градиент температуры выше — диффузия усиливается.
- Это имитирует эффект турбулентности и подогретого воздуха, способствующего более активному перемешиванию.

• На практике это может соответствовать:

- Городским территориям, где воздух более тёплый и перемешан;
- Ночью — эффект будет ослаблен.

3. Влияние оседания ($w_г$) и источников:

ISSN 3030-3907

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ. Общий объем сукук в обращении на конец 2024 года превысил 930 миллиардов долларов США, что на 10% больше по сравнению с предыдущим годом, несмотря на геополитические обострения. Из этой суммы 26% составляют сукук в долларах США, при этом основную часть выпускают суверенные эмитенты. Сукук составляют 25% от общего объема выпуска долговых обязательств в долларах США на рынках, таких как страны Совета сотрудничества арабских государств Персидского залива (ССАГПЗ), Малайзия, Индонезия, Турция и Пакистан. На рынке долгового капитала (DCM) в регионе ССАГПЗ объем составляет около 1 триллиона долларов США, из которых около 40% — это сукук. Рынковая диверсификация увеличилась благодаря дебютным выпускам сукук рядом суверенных фондов благосостояния, лизинговых компаний по самолетам и государственных структур. Объем ESG-сукук достиг 44,5 миллиарда долларов США, увеличившись на 23% по сравнению с предыдущим годом. Объемы глобальных сукук, вероятно, превысят 1 триллион долларов США в 2025 году, сообщает Fitch Ratings. Сукук останется ключевой частью рынка долгового капитала (DCM) в ряде стран

ISSN 3030-3907

Организации Исламского Сотрудничества (ОИС) и продолжит быть важным инструментом на развивающихся рынках (EM), составив 12% от всего объема долговых обязательств США в долларах, выпущенных на развивающихся рынках в 2024 году (кроме Китая). Fitch ожидает, что общий финансовый климат останется благоприятным, при этом Федеральная резервная система США, как ожидается, снизит ставки до 3,5% к четвертому кварталу 2025 года. Однако кредитные характеристики эмитентов могут повлиять на доступ к рынку.

В последнее время на рынке сукук наблюдается рост тематических выпусков сукук, в том числе социально-экологически направленных сукук. Тенденция к тематическим выпускам сукук потенциально может повлиять на будущее рынка сукук и привести к появлению тематических рынков сукук, сопоставимых с существующими тематическими рынками облигаций, на которых были выпущены облигации, связанные с охраной окружающей среды, доступом к водным ресурсам, микрофинансированием и гендерным равенством. Созданный по модели рынка «зеленых» облигаций, рынок «зеленых» сукук рассматривался как одно из потенциальных решений для заполнения дефицита в финансировании ЦУР.

«Зеленые» сукук — это инструменты, соответствующие нормам шариата и предназначенные для финансирования «зеленой» инфраструктуры. Они могут использоваться для финансирования производства энергии из возобновляемых источников, управления отходами, устойчивого сельского хозяйства, строительства энергоэффективных зданий, рационального использования природных ресурсов и аналогичных видов деятельности. Импульс нарастает с тех пор, как в 2017 году в Малайзии был выпущен первый «зеленый» сукук.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ. Развитие рынков «зеленых» сукук преследует следующие цели:

- Обеспечение вклада в достижение ЦУР в области возобновляемых источников энергии, энергоэффективности, устойчивого жилья и других экологически чистых отраслей промышленности;
- Позиционирование исламского финансирования как инклюзивной и социально ответственной формы финансирования;
- Развитие отечественных рынков капитала, привлечение институциональных инвесторов и обеспечение доступа к новой базе инвесторов;
- Повышение осведомленности об исламских формах финансирования и экологической ответственности.

ISSN 3030-3907

Поступления как от выпуска «зеленых» облигаций, так и от выпуска «зеленого» сукук направляются на заранее определенные проекты, оказывающие социальное или экологическое воздействие. Однако эти два инструмента отличаются друг от друга по нескольким признакам:

•«Зеленые» облигации — это ценные бумаги, которые представляют собой задолженность эмитента перед их владельцами, в то время как «зеленый» сукук представляет собой владение (юридическое или узуфрукт) базовыми активами.

•«Зеленый» сукук должен быть подкреплен минимальным количеством материальных активов, чтобы его можно было продать, а стоимость базовых активов должна быть больше или равна стоимости выпуска.

•Сукук не предусматривает выплату процентов. Прибыль, выплачиваемая инвесторам, привязана к финансовым потокам, генерируемым базовыми активами.

•В то время, как и «зеленые» облигации, и «зеленые» сукук требуют удостоверения (сертификации) воздействия на окружающую среду третьей стороной, «зеленые» сукук также требуют фетвы, которая выдается шариатским комитетом по соответствию.

После выпуска первых «зеленых» облигаций более десяти лет назад, рынок «зеленых» облигаций стремительно рос, установив новый мировой рекорд в 258 млрд долларов США в 2019 году – на 51% выше, чем итоговый показатель 2018 года, равный 170,6 млрд. долларов США. Рынок «зеленого» сукук появился значительно позже, но также демонстрирует быстрый рост, стимулируемый не только инвесторами, но и эмитентами, ищущими альтернативные источники финансирования для реализации «зеленых» инфраструктурных проектов.

Юго-Восточная Азия взяла на себя инициативу по использованию «зеленого» сукук для финансирования проектов в области возобновляемых источников энергии. В Малайзии и Индонезии был осуществлен ряд новаторских сделок, по всем из которых был превышен лимит подписки. В 2017 году малайзийская компания Tadau Energy выпустила первый в мире «зеленый» сукук стоимостью 64 млн долларов США для финансирования солнечной электростанции. В марте 2018 года правительство Индонезии выпустило первый суверенный «зеленый» сукук в долларах США. Пятилетний выпуск привлек 1,25 миллиарда долларов США. Интересно, что 30% инвесторов в индонезийский «зеленый» сукук были традиционными «зелеными» инвесторами. «Зеленый» сукук вскоре появился и в других

ISSN 3030-3907

регионах мира. В мае 2019 года компания-застройщик из Дубая Маджид Аль Футтайм (МАФ) выпустила первый «зеленый» сукук среди стран GCC. В ноябре того же года ИБР выпустил свой первый «зеленый» сукук, собрав 1 млрд. евро.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Зеленая исламская экономика представляет собой важное направление, которое объединяет принципы устойчивого развития и исламского финансового права (шариата). Она предлагает инновационные инструменты и механизмы для решения экологических проблем, сохраняя при этом этические и социальные нормы. В основе зеленой исламской экономики лежат идеи социальной ответственности, справедливости и защиты окружающей среды, что делает её привлекательной для широкого круга инвесторов и участников рынка.

Средства зеленой исламской экономики, такие как ESG-сукук, зеленые сукук и другие исламские финансовые инструменты, открывают новые горизонты для инвестиций в экологически устойчивые проекты, направленные на снижение углеродного следа, улучшение экологической ситуации и развитие возобновляемых источников энергии. Применение таких инструментов не только способствует улучшению состояния окружающей среды, но и помогает создать экономику, основанную на принципах справедливости, социальной солидарности и долговременной устойчивости.

Таким образом, зеленая исламская экономика и её средства финансирования представляют собой перспективную модель для интеграции устойчивых и этичных инвестиционных решений в мировой финансовый ландшафт, позволяя достичь как экологических, так и экономических целей на глобальном уровне.

ЛИТЕРАТУРА.

1. Islamic Green Finance: Development, Ecosystem, and Prospects [Исламские зелёные финансы: развитие, экосистема и перспективы]. — World Bank Group, 2019. — Электронный ресурс. — Режим доступа: https://documents1.worldbank.org/curated/pt/591721554824346344/pdf/Islamic-Green-Finance-Development-Ecosystem-and-Prospects.pdf

2. Hanif M., Haider I., Abbas Ali S., Irfan M. Green Economy and Islamic Finance: Crossing a Sustainable Path in Economic Development [Зелёная экономика и исламские финансы: устойчивый путь экономического развития]. — 2023. — Электронный ресурс. — Режим доступа: https://www.researchgate.net/publication/377273049

ISSN 3030-3907

3. Khan M., Mohamed S. Green Sukuk for Sustainable Development [Зелёный сукук для устойчивого развития]. — 2017. — Электронный ресурс. — Режим доступа: https://www.researchgate.net/publication/319365772
4. Islamic Development Bank. First Green Sukuk Report [Первый отчёт по выпуску зелёного сукук]. — 2019. — Электронный ресурс. — Режим доступа: https://www.isdb.org/news/isdb-issues-first-green-sukuk
5. Рашидов У.Ш. Исламское финансирование как фактор устойчивого развития в условиях глобализации // Экономика и финансы. — 2022. — №3. — С. 45–50.
6. Мусаева Н. Развитие зеленой экономики в странах ОИС // Вестник экономики. — 2023. — №5. — С. 101–105.

ISSN 3030-3907

IONLANTIRUVCHI NURLAR TA’SIRIDA MITOXONDRIALARDA SODIR BO‘LADIGAN BIOKIMYOVIY O‘ZGARISHLAR VA MITOXONDRIAL DISFUNKSIYA KELIB CHIQISHI

Keldiyorova Sh.X.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Biologik kimyo kafedrasi assistenti
E-mail: keldiyorovashohida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ionlantiruvchi nurlanishning mitoxondrial funksiyaga salbiy ta’siri qayta ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor – nurlanish natijasida paydo bo‘ladigan oksidlovchi stress, mitoxondrial DNK (mtDNK) zararlanishi, membrana potentsialining o‘zgarishi va hujayra apoptozi mexanizmlariga qaratilgan. Adabiyotlar tahlili metaanaliz usulida amalga oshirilib, so‘ngi o‘n yillikdagi tadqiqotlar natijalari solishtiriladi. Natijalar mitoxondrial himoya mexanizmlarini kuchaytiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ionlantiruvchi nurlar, mitoxondriya, oksidlovchi stress, mtDNK, apoptoz, mitoxondrial disfunksiya.

Аннотация: В данной статье пересматривается негативное влияние ионизирующего излучения на митохондриальную функцию. Основное внимание уделяется окислительному стрессу, возникающему вследствие облучения, повреждению митохондриальной ДНК (мтДНК), изменению потенциала мембраны и механизмам клеточного апоптоза. Анализ литературы проводится с использованием метода метаанализа, при этом сопоставляются результаты исследований за последнее десятилетие. Полученные данные указывают на необходимость разработки стратегий, усиливающих защитные механизмы митохондрий.

Ключевые слова: ионизирующее излучение, митохондрия, окислительный стресс, мтДНК, апоптоз, митохондриальная дисфункция.

Abstract: This article reviews the adverse effects of ionizing radiation on mitochondrial function. The main focus is on the oxidative stress generated by radiation exposure, damage to mitochondrial DNA (mtDNA), changes in membrane potential, and mechanisms of cellular apoptosis. The literature review is conducted using a meta-analysis approach, comparing the findings of studies from the past decade. The results indicate the need to develop strategies that strengthen mitochondrial protective mechanisms.

Keywords: ionizing radiation, mitochondria, oxidative stress, mtDNA, apoptosis, mitochondrial dysfunction.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mitoxondriya hujayralarning asosiy energetik markazi bo‘lib, ATP sintezi, hujayra o‘limi va oksidlovchi stress darajasini

ISSN 3030-3907

boshqarish vazifasini bajaradi (Wallace, 2012). Ionlantiruvchi nurlanish (ultrabinafsha, rentgen, gamma nurlanish) hujayra komponentlariga, xususan mitoxondriyaga zarar yetkazadi va mitoxondrial disfunksiya rivojlanishiga sabab bo‘ladi (Azzam va b., 2012). Bunday disfunksiya yallig‘lanish, oksidlovchi stressning kuchayishi hamda kardiovaskulyar va neyrodegenerativ kasalliklarda muhim rol o‘ynaydi (Murphy & Hartley, 2018). So‘ngi o‘n yillikda ionlantiruvchi nurlanish va mitoxondriya sog‘lomligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortdi, ammo mexanizmlar to‘liq aniqlanmagan qolmoqda. Bundan tashqari qarish jarayonlari va mitoxondriya o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘rganilmoqda.

Adabiyotlar tahlili: “Gamma-nurlanish hujayralarda ROS hosil bo‘lishini 2–5 baravar oshiradi (Zhang va b., 2018), bu esa mitoxondrial membrana potentsialining pasayishiga olib keladi (Kim va boshq., 2020).”

Oksidlovchi stress va ROS hosil bo‘lishi**.** Ionlantiruvchi nurlar hujayra ichida erkin radikallar – ROS sintezini oshiradi. Gamma-nurlanish hujayradagi superoksid ($O_2 \cdot^-$) va gidroksil radikal ($\cdot OH$) darajasini taxminan 3–6 barobar ko‘taradi (Zhang va b., 2018). ROS mitoxondrial membranani oksidlovchi modifikatsiyalarga duchor qiladi, membrana lipidlari peroksidlanadi va membrana potentsiali pasayadi (Kim & Lee, 2020).

mtDNK zararlanishi va ta’mirlash mexanizmlari. Mitoxondrial DNK nisbatan himoyasiz bo‘lib, ionlantiruvchi nurlanish natijasida doza bilan bog‘liq ravishda nukleotid o‘zgarishlari va datchik kesishlar hosil bo‘ladi (Smith va b., 2021). Quyidagi ta’mirlash yo‘llari muhim: bazal eksizion ta’mirlash (BER) va oligomer tugashi ta’mirlash (OLT) mexanizmlari. Ammo yuqori darajada ROS zo‘riqishi bu jarayonlarni ingibirlaydi va mtDNK o‘zaro rekombinatsiyasini kamaytiradi (Wang va b., 2019).

Mitoxondrial membrana potentsiali va MPTP faollashuvi. Mitoxondrial membrana potentsiali ($\Delta\psi m$) hujayra energiya hemostazisi uchun muhim ko‘rsatkichdir. Ionlantiruvchi nurlar $\Delta\psi m$ ni pasaytirib, mitoxondrial permeabillik ostonasini ochilishi (MPTP) ga sabab bo‘ladi (Vercesi va b., 2015). MPTP ochilishi sitokrom c ajratilishiga va hujayra apoptosini boshlovchi kaskadni faollashtirishga olib keladi.

Apoptoz va nekroz jarayonlari. Mitoxondrial signallash yo‘llari orqali hujayra apoptozi ikki asosiy mexanizm bo‘yicha boshlanadi: intrinsik yo‘l (cit c–Apaf-1–kaspaza-9 kaskadi) va ekstrinsik signal (TNF-α reseptorlari orqali). Ionlantiruvchi nurlar intrinsik yo‘l orqali hujayra o‘limini faollashtiradi, bu esa o‘rganishlardagi asosiy kuzatilgan javobdir (Elmore, 2007). Yuqori doza nurlanish nekrozga ham olib kelishi mumkin, biroq bu kamroq tadqiq qilingan.

ISSN 3030-3907

Mitoxondrial elektron o‘tkazuv zanjiri (ETZ) komplekslariga shikast yetishi

Kompleks I va III: Gamma-nurlanish I va III komplekslardagi Fe–S tutuvchi komplekslarni oksidlash orqali elektron oqimini buzadi, buning natijasida supersoksid ($O_2^{\cdot -}$) hosil bo‘lishi kuchayadi (Garcia va b., 2017). Kompleks II–IV: Yuqori dozalarda bu komplekslar ham faoliyatini yo‘qotib, sitoxrom oksidaza faolligi pasayadi, ATP sintezi darajasi 20–30% ga tushadi (Lee va boshq., 2019).

Mitoxondrial dinamikasi: fisyon (bo‘linish), fuzion (birikish) va mitofagiya (zararlangan mitoxondriyalarni olib tashlash). Fisyon–fuzion balansining buzilishi: Ionlantiruvchi nurlanish DRP1 mediatorli fisyonni rag‘batlantiradi va OPA1-ga bog‘liq fuzionni ingibir qiladi, bu esa mitoxondriyalardagi fragmentatsiyani kuchaytiradi (Xu va b., 2020). Mitofagiya: Zararlangan mitoxondriyalarni olib tashlash mexanizmi bo‘lib, nurlanish paytida PINK1/Parkin yo‘li faollashadi, ammo yuqori ROS bu yo‘lni susaytirib, hujayrada dysfunctional mitoxondriyalarni yig‘ilishiga olib keladi (Sun va b., 2021).

Doza–javob munosabati va radioprotektiv molekulalar. Doza–javob: 0,5–2 Gy oralig‘ida ROS hosil bo‘lishi 2 baravar oshadi, 5 Gy va undan yuqori dozalar mitoxondrial rupturani keltirib chiqaradi (Zhou va b., 2016).

Mitoxondrial dinamikaga ta’sir: Fisyon–fuzion muvozanati buzilganda hujayra hayoti uchun zarur energiya yetishmasligi, metabolik disbalans yuzaga keladi. Bu ayniqsa miokard hujayralarida kislorod yetishmovchiligida yomonlashgan kardiomiopatiya xavfini oshiradi (Xu va b., 2020).

Mitofagiya va autofagiya: PINK1/Parkin yo‘li susayishi kasalliklarda, masalan Parkinsonda ham kuzatiladi; nurlanishdan keyingi sitoprotektiv mexanizmlarni kuchaytirish uchun ushbu yo‘llarni dorilar yordamida modulyatsiya qilish istiqbollari ochiq (Sun va b., 2021).

Radioprotektiv yondashuvlar: MitoQ va SkQA kabi molekulalar klinik sinovlardan o‘tayotgani bois, ularning dozasi va yetkazish tizimini optimallashtirish zarur. Nanozarrachalar asosida dori yo‘naltirish, suyak iligida radioproteksiya uchun yangi strategiyalarni beradi.

ROS hosil bo‘lishi gamma-nurlanish ta’sirida birinchi uchrashuvchi javob bo‘lib, mitoxondrial lipidlarga va oqsillarga oksidlovchi zarba beradi (Zhang va b., 2018; Kim & Lee, 2020).

mtDNK zararlanishi BER va OLT mexanizmlari bilan qisman ta’mirlanadi, ammo yuq zori ROS darajasida bu mexanizmlar sustlashadi va mtDNK mutatsiyalari yig‘iladi (Smith va b., 2021; Wang va b., 2019).

$\Delta\psi m$ pasayishi va MPTP ochilishi orqali sitokrom c sitoplazmaga chiqarilib, kaspaza kaskadi faollashuvi boshlanadi (Vercesi va b., 2015).

ISSN 3030-3907

Apoptoz ionlantiruvchi nurlanish sharoitida hujayra o‘limini boshqaruvchi asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi (Azzam va b., 2012; Elmore, 2007).

Tahlil natijalari amaliy jihatdan quyidagilarni ko‘rsatadi: mitoxondrial disfunksiyani oldini olish uchun antioksidant terapiya, masalan, mitoQ, SkQA va N-asetilsistein kabi birikmalar samarali (Smith va b., 2021). Shuningdek, MPTP blokatorlari (Cyclosporin A) $\Delta\psi m$ ni saqlashga yordam beradi (Vercesi va b., 2015). Biroq, organizmning barcha hujayra turlarida bir xil terapevtik javob olinmaydi, shuning uchun istiqbolli tadqiqotlar gen terapevtik yo‘llar va nano-konveyer sistemalar orqali dori yetkazishni o‘z ichiga olishi lozim.

Xulosa: Ionlantiruvchi nurlanish mitoxondriyal disfunksiya rivojlanishida markaziy rol o‘ynaydi: ROS hosil bo‘lishi, mtDNK zararlanishi, membrana potentsialining pasayishi va apoptoz kaskadining faollashuvi orqali. Mazkur jarayonlarni bartaraf etish uchun antioksidant vositalar, MPTP blokatorlari va yangi biotexnologik yondashuvlarni rivojlantirish zarur. Kelajakda individual hujayra turlariga moslashtirilgan himoya strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar kengaytirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azzam, E. I., Jay-Gerin, J.-P., & Pain, D. (2012). Ionizing radiation–induced metabolic oxidative stress and prolonged cell injury. Cancer Letters, 327(1–2), 48–60.
2. Elmore, S. (2007). Apoptosis: a review of programmed cell death. Toxicologic Pathology, 35(4), 495–516.
3. Kim, S., & Lee, J. (2020). Mitochondrial membrane potential alteration after gamma irradiation. Radiation Research, 193(3), 245–253.
4. Murphy, M. P., & Hartley, R. C. (2018). Mitochondria as a therapeutic target for common pathologies. Nature Reviews Drug Discovery, 17(12), 865–886.
5. Smith, A. G., Bell, E. L., & Jones, C. (2021). Mitochondrial DNA damage and repair: Implications for disease. Journal of Cellular Biochemistry, 122(4), 345–356.
6. Vercesi, A. E., Kowaltowski, A. J., & Grijalba, M. T. (2015). Mitochondrial permeability transition and cell death: The role of reactive oxygen species. Biochimica et Biophysica Acta (BBA) - Bioenergetics, 1853(3), 471–479.
7. Wallace, D. C. (2012). Mitochondria and cancer. Nature Reviews Cancer, 12(10), 685–698.
8. Wang, X., Wang, W., Li, L., Perry, G., Lee, H.-g., & Zhu, X. (2019). Oxidative stress and mitochondrial dysfunction in Alzheimer’s disease. Biochimica et Biophysica Acta (BBA) - Molecular Basis of Disease, 1865(5), 1195–1206.

ISSN 3030-3907

9. Sh K. et al. OKSIDATIV STRESS VA UNING ORGANIZMGA TA'SIRI //ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 18. – C. 68-74.
10. Ozben T. Oxidative stress and antioxidants in aging //NATO SCIENCE SERIES SUB SERIES I LIFE AND BEHAVIOURAL SCIENCES. – 2004. – T. 358. – C. 99-115.

ISSN 3030-3907

MULTI-SIKLON VA ELEKTROFILTR TIZIMLARINING INTEGRATSIYALASHUVI ORQALI SANOAT CHANGSIZLANTIRISH SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH

Botirjon Abdullajonov
Namangan Davlat Texnika Universiteti
Sabohat Ergashxo‘jayeva
Namangan Davlat Texnika Universiteti
Ahror Tursunov
Namangan Davlat Texnika Universiteti
E-mail: ahrortursunov.de@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada paxta tozalash korxonalarida amalda qo‘llanilayotgan chang havosini tozalash texnika va texnologiyalarining tahlili keltirilgan. Asosiy e’tibor multi-siklon va elektrofiltr tizimlarining alohida va integratsiyalashgan holatdagi samaradorligini solishtirishga qaratilgan. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikki bosqichli changsizlantirish tizimi (multi-siklon + elektrofiltr) yordamida umumiy chang miqdorini 95% gacha kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, PM2.5 va PM1.0 zarrachalarini yuqori aniqlikda ushlab qolish, energiya samaradorligini tahlil qilish va ekspluatatsion qulaylik darajasi baholandi. Olingan natijalar asosida ishlab chiqarish korxonalarida ekologik xavfsizlikni oshirish, texnologik modernizatsiya va nazorat tizimlarini joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surildi.

**Kalit so`zlar:** Multi-siklon tizimi; elektrofiltr; changni ushlab qolish; sanoat havosi; ekologik xavfsizlik; filtratsiya samaradorligi; zarracha o‘lchami (PM10, PM2.5, PM1.0); energiya samaradorligi; integratsiyalashgan tizim; mayda changlarni so`ndirish texnologiyalari.

Abstract: This article presents an analysis of the air dust removal technologies currently used in cotton-cleaning enterprises. The main focus is on comparing the efficiency of multi-cyclone and electrofilter systems, both individually and when integrated. Experimental results demonstrate that a two-stage dust removal system (multi-cyclone + electrofilter) can reduce the total dust content by up to 95%. The study also evaluates the effectiveness of capturing fine particulate matter (PM2.5 and PM1.0), energy efficiency, and operational convenience. Based on the obtained findings, scientifically grounded recommendations are proposed for enhancing environmental safety, introducing technological modernization, and implementing advanced monitoring systems in industrial facilities.

Keywords: Multi-cyclone system; electrofilter; dust capture; industrial air; environmental safety; filtration efficiency; particle size (PM10, PM2.5, PM1.0); energy efficiency; integrated system; fine dust suppression technologies.

ISSN 3030-3907

Аннотация: В статье представлен анализ методов и технологий очистки воздуха от пыли, применяемых на хлопкоочистительных предприятиях. Основное внимание уделяется сравнению эффективности мультициклон-систем и электрофильтров в изолированном и интегрированном состоянии. Результаты эксперимента показали, что с помощью двухступенчатой системы пылеудаления (мульти-циклон + электрофильтр) общее количество пыли можно снизить до 95%. Однако были оценены уровни улавливания частиц PM2, 5 и PM1, 0 с высоким разрешением, анализ энергоэффективности и простота эксплуатации. На основе полученных результатов были выдвинуты научно обоснованные предложения по повышению экологической безопасности на производственных предприятиях, технологической модернизации и внедрению систем контроля.

Ключевые слова: Мультициклонная система; электрофильтр; улавливание пыли; промышленный воздух; экологическая безопасность; эффективность фильтрации; размер частиц (PM10, PM2, 5, PM1, 0); энергоэффективность; интегрированная система; технологии удаления мелкой пыли.

Kirish

Jahonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘lig‘iga zararli ta’sirining oldini olish, shuningdek, hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida texnik va texnologik jarayonlar oqibatida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishga yangi yondashuvlarni joriy qilish bo‘yicha kom’leks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Aholi sonining o‘sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Yer yuzidagi o‘rmonlar ko‘payish o‘rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o‘zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Global miqyosda xalq ho`jaligi istemol talablarinining oshib borishi qolaversa har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish muammolariga yechim izlash bugungi kun ishlab chiqarish suratini yanada jadallashiga olib kelmoqda. Bunda, ishlab chiqarish jarayonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga atrof muhitga yetkazilayotgan ziyonni kamaytirish muammosi ham yetarlicha etiborga loyiq masala hisoblanadi. Global miqyosda shahar va qishloq joylarida tashqi havoning ifloslanishi, 2022-yilga kelib, yiliga bevaqt o`limlar soni 4,2 million o‘limga sabab bo‘lishi taxmin qilinmoqda. Bu o‘lim yurak-qon tomir va nafas olish tizimi kasalliklari va saratonni keltirib chiqaradigan diametri 2,5 mkm (PM2,5) gacha bo‘lgan mayda zarrachalar ta'siridan kelib chiqadi. JSST hisob-kitoblariga

ISSN 3030-3907

ko‘ra, dunyo bo`yicha tashqi havoning ifloslanishi 2022-yilda yiliga 4,2 million erta o‘limga sabab bo‘lishi taxmin qilinmoqda. JSST hisob-kitoblariga ko‘ra, 2016-yilda tashqi havoning ifloslanishi bilan bog‘liq erta o‘limlarning taxminan 58 foizi yurak-qon tomir kasalliklari va insult, 18 foizi surunkali obstruktiv o‘pka kasalliklarini keltirib chiqarmoqda. [1]. 2013 yilda Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Saraton tadqiqotlari bo‘yicha xalqaro agentligi (IARC) tashqi havoning ifloslanishi inson salomatligiga kanserogen ta'sir ko‘rsatadi, degan xulosaga keldi. Havoning zarrachalari bilan ifloslanishi saraton, ayniqsa o‘pka saratoni bilan kasallanishning ko‘payishi bilan bog‘liq. Paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarida havo muhitiga katta miqdorda chang aralashmalari chiqadi. Bunday changlar nafaqat ishlab chiqarish muhitida ishchilarning sog‘lig‘iga zarar yetkazadi, balki atrof-muhitning ifloslanishiga, yashash hududlari ekologik xavfsizligining pasayishiga olib keladi. Shu bois, changni samarali ushlab qolish va tozalash texnologiyalarini joriy etish zamonaviy sanoat korxonalarining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib, paxta tozalash korxonalarida changni ajratish va tozalash uchun bir necha turdagi texnik vositalar – xususan, siklonlar, multi-siklon tizimlar, elektrostatik filtrlar va impulsli tozalagichlar qo‘llanilmoqda. Har bir texnologiya o‘zining konstruktiv xususiyatlari, ishga tushirish shartlari, energiya sarfi va ushlab qolish koeffitsienti bilan farqlanadi. Aksariyat hollarda birgina texnologiya changni to‘liq ushlab qololmaydi, bu esa kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda changga qarshi kurashishda ko‘p bosqichli filtratsiya tizimlari**,** ya’ni multi-siklon va elektrofiltrlarning integratsiyalashuvi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Multi-siklonlar zarrachalarni inersion-separatsiya asosida ajratishda samarali bo‘lsa, elektrofiltrlar ayniqsa mayda dispersli, mikron o‘lchamdagi zarrachalarni elektrostatik maydon orqali ushlab qolish imkonini beradi. Ushbu maqolada paxta tozalash sanoatida mavjud chang tozalash texnologiyalari tahlil qilinadi va multi-siklon-elektrofiltr integratsiyalashgan tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslar va amaliy takliflar bayon etiladi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot doirasida respublikamizdagi bir necha yirik paxta tozalash korxonalarida qo‘llanilayotgan mavjud chang tozalash texnologiyalari, xususan multi-siklon tizimlari va elektrofiltrlarning ishlash prinsiplari, konstruktiv xususiyatlari, ekspluatatsion holati hamda ular integratsiyalangan holdagi natijadorligi bo`yicha o‘rganishlar olib borildi. Tadqiqod obyekti sifatida Namangan viloyatining Kosonsoy, Pop va Beruniy tumanlarida joylashgan paxta tozalash zavodlari tanlab olindi. Ushbu korxonalarda turli rusumdagi changni ushlab qoluvchi qurilmalar o‘rnatilgan bo‘lib, ularning ayrimlari so‘nggi yillarda modernizatsiya qilingan, ayrimlari esa ma`nan eskirgan

ISSN 3030-3907

bo`lishiga qaramasdan buguni kunga qadar foydalanib kelinmoqda. Xususan, multi-siklon tizimi: ushbu qurilma bir nechta (6–12 ta) siklonlardan iborat bo‘lib, har bir siklon markazdan qochma kuchlar asosida chang zarrachalarini inertsiya printsipi orqali ajratib oladi. Bu tizim o‘rta va katta o‘lchamli chang zarrachalarini ushlab qolishda yuqori samaradorlikka ega. U gazlarni va turli hildagi mayda chang zarralarini samaraliroq tozalash uchun birgalikda ishlaydigan bir nechta siklonlardan iborat. Multi-siklonning ishlash printsipi aylanish harakati sodir bo‘ladigan siklon korpusiga chang va boshqa zarralarni o‘z ichiga olgan gaz oqimining kiritilishiga asoslanadi. Bunday holda, markazdan qochma kuch ta'sirida og‘ir zarralar chiqariladi va siklon devorlariga yotqiziladi, so‘ngra suv bilan yuviladi, bu gazni samarali tozalashni ta'minlaydi.




1-rasm.”Multi Cyclone" qurilmasining ko`rinishi

Mazkur multisiklonning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Yuqori tozalash samaradorligi: chang va zarrachalarni gaz oqimlaridan samarali ravishda olib tashlaydi va yuqori darajadagi chiqindilarni tozalashni ta'minlaydi.
- Kam quvvat iste'moli: kam quvvat sarfi bilan ishlaydi, bu esa operatsion xarajatlarni kamaytiradi va iqtisodiy jihatdan samarali ishlashni ta'minlaydi.
- Qulay dizayn: joyni tejaydigan va mavjud ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalashuvni osonlashtiradigan ixcham dizaynga ega.
- Yuqori unumdorlik: Innovatsion dizayn va optimallashtirilgan qurilish tufayli butun xizmat muddati davomida yuqori unumdorlik va ishonchli ishlashni ta'minlaydi.

Elektrofiltr tizimi esa elektrostatik maydon ta’sirida havo oqimidagi zarrachalarni va mayda changlarni zaryadlab, metall elektrod sirtiga tortib ushlab qoladi. Bu qurilma ayniqsa mayda (PM2.5 va undan kichik) zarrachalarni tozalashda samarali hisoblanadi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Elektrofiltr chang ushlagich sxemasi.

Filtr korpus va elektrodlar tizimidan iborat. Filtr korpusi yerga ulangan bo‘ladi. Elektrodlar metall plastinalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning bir qismi (cho‘ktirgich elektrodlar) korpusga ulangan, ikkinchi qismi esa (koronar elektrodlar) izolyatsiyalangan.

Izolyatsiyalangan va korpusga ulangan elektrodlar ketma-ket joylashgan. Bu elektrodlar orasida doimiy yuqori kuchlanish manbai yordamida 25-100 kV gacha bo‘lgan potensial farq yaratiladi. Potensial farqning qiymati elektrodlarning geometriyasiga bog‘liq bo‘lib, ular orasidagi masofa oshgan sari bu farq ham ortadi. Chunki elektrofiltr faqat elektrodlar orasida ion razryadi mavjud bo‘lsa ishlaydi. Gaz elektrodlar orasidan o‘tganida ionlanadi. Chang zarrachalari ionlar bilan ta’sirlashib, manfiy zaryad hosil qiladi va musbat qutbli cho‘ktirgich elektrodlariga tortiladi. Elektrodlar yuzasiga cho‘kkan chang zarrachalari zaryadini yo‘qotib, qisman bunkerga tushadi. Filtrni vibratsiya yoki yuvish orqali muntazam tozalash talab etiladi, bunda filtr vaqtincha o‘chiriladi. Rangli metall eritish pechi gazida ishlaganda, filtr har 10 soatda bir marta 15 daqiqa davomida yuviladi. Tozalanayotgan gazning maksimal harorati 300°C dan oshmasligi kerak, ish harorati esa 250°C gacha bo‘lishi mumkin. Elektrodlarning balandligi 12 metrgacha yetadi. Elektrofiltr 0,1 mkm gacha bo‘lgan mayda chang zarrachalarini gaz oqimidan ajratib olish imkoniyatiga ega. Mazkur ikki tizim sinov davomida alohida-alohida hamda ketma-ket ulanib (kompleks integratsiya holatida) baholandi va tajribalar olib borildi. Tajriba ishlarini o‘tkazish uchun quyidagi asbob-uskunalar va vositalardan foydalanildi: AQAir PM2.5/PM10 turkumidagi lazerli chang analizatorlari – kirish va chiqish nuqtalaridagi chang kontsentratsiyasini aniqlash uchun. Anemometr – havo oqimi tezligini aniqlash uchun. Raqamli energiya o‘lchagich (kWh) – tizimlarning ish davomida iste’mol

ISSN 3030-3907

qilgan elektr energiyasini aniqlash uchun. Har bir texnologik sinov kamida 3 marotaba takrorlandi. Har bir o‘lchov sikli 5 daqiqalik ish vaqtidan so‘ng, tizim barqarorlashgach amalga oshirildi. Olingan ma’lumotlar bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar, dispersiyalar va minimal/maksimal ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi. Tadqiqot davomida changni ushlab qolish samaradorligi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$\eta = \frac{C_{\text{kirish}} - C_{\text{chiqish}}}{C_{\text{kirish}}} \cdot 100\%$$

bu yerda:

- η – filtrlash tizimi samaradorligi (%),
- C_{kirish} – filtrlashdan avvalgi havo tarkibidagi chang kontsentratsiyasi (mg/m^3),
- C_{chiqish} – filtrlashdan keyingi havo tarkibidagi chang kontsentratsiyasi (mg/m^3).

Shuningdek, har bir tizim uchun quyidagi qo‘shimcha ko‘rsatkichlar baholandi: Energiya sarfi (kWh/tonna paxta), texnik xizmat ko‘rsatish chastotasi (haftasiga/ming soatga),zarrachalar spektri bo‘yicha tozalash quvvati (PM10, PM2.5, PM1.0). Tahlil natijalari deskriptiv statistikalar**,** grafik solishtirishlar**,** hamda energiya–samaradorlik–ekspluatatsion qulaylik mezonlari asosida baholandi. Shuningdek, tizimlarning individual va kombinatsiyalangan holatdagi natijalari o‘zaro solishtirildi. Olingan natijalar asosida umumiy texnologik baho va ilmiy takliflar shakllantirildi. Olingan eksperimental ma’lumotlar asosida filtrlash tizimlarining texnik-iqtisodiy samaradorligi, ekologik foydaliligi va ekspluatatsion qulaylik darajasi ko‘p mezonli baholash asosida tahlil qilindi. Har bir qurilma alohida holda, shuningdek, multi-siklon va elektrofiltr tizimlarining integratsiyalangan kombinatsiyasi holatida o‘rganildi. Tahlil davomida quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar hisobga olindi:

4. Texnologik samaradorlik – yuqorida keltirilgan formulaga asosan aniqlangan changni ushlab qolish darajasi.

5. Energiya sarfi (E) – qurilmaning bir soatlik ish sikli davomida iste’mol qilgan quvvati (kWh) va q

6. qayta ishlangan paxta massasiga nisbatan hisoblangan ko‘rsatkich:

ISSN 3030-3907

$$E = \frac{P \cdot t}{M}$$

bu yerda:

- P – o‘rtacha quvvat sarfi (kW),
- t – ishlash vaqti (soat),
- M – qayta ishlangan paxta massasi (tonna).

Shuningdek, ekspluatatsion barqarorlik – tizimning texnik xizmat ko‘rsatish chastotasi (xizmat oralig‘i), tozalash modullarining bloklanish tezligi, va xizmat muddatining uzluksizligi (MTBF – Mean Time Between Failures) orqali baholandi.Tozalash darajasi spektral tahlili esa – chang tarkibining zarracha diametri bo‘yicha (PM10, PM2.5, PM1.0) fraksiyalari lazerli analizatorlar orqali aniqlanib, har bir tizimda aynan qaysi turdagi zarrachalar samarali ushlab qolinayotganiga e’tibor qaratildi. Bundan tashqari, tahlil jarayonida grafik tahlil usullari (chang konsentratsiyasi vaqtga nisbatan grafigi, tizimdan oldin va keyingi PM darajalari bo‘yicha diagrammalar), shuningdek, foydalilik indeksi (Efficiency-to-Cost Ratio) ham ishlab chiqildi. Tadqiqotlarimiz davomida, shuningdek filtrlash modullarining joylashuvi va oqim yo‘nalishining optimal konfiguratsiyasi simulyatsiya asosida model qilindi. Bu yondashuv orqali tizimda bosim yo‘qotishlarini minimallashtirish, energiya sarfini kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoniyati ko‘rib chiqildi.

Natijalar. O‘tkazilgan eksperimental tajribalarimiz natijalariga ko‘ra, chang zarralarini so`ndirish tozalash tizimlarining har biri alohida holatda muayyan darajada samaradorlikni ko‘rsatdi. Biroq, **multi-siklon** va **elektrofiltr** tizimlarining **ketma-ket ulanib ishlatilishi** orqali changni ushlab qolish samaradorligida sezilarli o`zgarishlar kuzatildi. Tajribalar davomida chang konsentratsiyasi filtrlashdan oldin va keyin o‘lchandi. Quyidagi jadvalda turli tizimlar bo‘yicha o‘rtacha samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan

1- jadval.

Filtrlash samaradorligi bo‘yicha tahlil

Tizim turi	C_kirish (mg/m³)	C_chiqish (mg/m³)	Samaradorlik (%)
Faqat multi-siklon	450	85	81.1
Faqat elektrofiltr	460	65	85.9
Multi-siklon + elektrofiltr (integratsiya)	455	22	**95.2**

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har ikkala tizim integratsiyalashgan holatda ishlatilganda maksimal samaradorlikka erishilgan. Lazerli analizator


ISSN 3030-3907

yordamida changning zarracha o‘lchamlari bo‘yicha tarqalishi o‘rganildi. Multi-siklon tizimi asosan PM10 va PM2.5 zarrachalarni samarali ushlasa-da, PM1.0 darajadagi mikrozarrachalar ko‘p miqdorda o‘tib ketdi. Elektrofiltr esa, ayniqsa PM2.5 va PM1.0 segmentida yuqori natijalarni berdi. Quyida zarracha turlari bo‘yicha integratsiyalangan tizimning ushlab qolish darajasi: PM10 – 97.8%, PM2.5 – 94.5%, PM1.0 – 91.2%. Energiya samaradorligi bo‘yicha tahlil natijalarimiz shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan tizimda quvvat sarfi nisbatan yuqori bo‘lsa-da, tozalash samaradorligi hisobiga bu ortiqcha energiya xarajati iqtisodiy jihatdan asoslangan.


2-jadval.

Energiya samaradorligi bo‘yicha tahlil

Tizim turi	**O‘rtacha quvvat sarfi (kWh/tonna)**	**Xizmat oralig‘i (kun)**
Faqat multi-siklon	0.45	14
Faqat elektrofiltr	0.52	10
Integratsiyalashgan tizim	0.68	21



3-rasm. Chang konsentratsiyasining kirish va chiqishdagi farqi (mg/m³)



ISSN 3030-3907

4-rasm. Energiya sarfi va tozalash darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko`rsatkichlari.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, multi-siklon va elektrofiltr tizimlarining integratsiyalashuvi paxta tozalash sanoatida chang havosini tozalashda yuqori texnologik yechim bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki energiya samaradorligini ham optimallashtiradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sanoat korxonalarida, xususan paxta tozalash sanoatida qo‘llanilayotgan an’anaviy chang tozalash tizimlari (multi-siklon yoki elektrofiltr) alohida holatda ma’lum darajadagi ekologik xavfsizlikni ta’minlasa-da, ularning kombinatsiyalashuvi orqali yuqori samaradorlikka va energiya tejamkorligiga erishish imkoniyati mavjud. O‘tkazilgan tajriba va hisob-kitoblarga ko‘ra, multi-siklon + elektrofiltr integratsiyalashgan tizimi orqali:

12.Umumiy changni ushlab qolish samaradorligi 95% dan yuqori bo‘ldi,

13.Zich sanoat changi tarkibidagi PM2.5 va PM1.0 kabi inson salomatligiga xavfli zarrachalarni 90% dan ortig‘ini ushlab qolish mumkin bo‘ldi,

14.Tizimning texnik xizmat oralig‘i kengaydi, ekspluatatsion barqarorligi oshdi,

15.Har bir tonna mahsulotga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi nisbatan yuqoriroq bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich ekologik foyda bilan iqtisodiy jihatdan qoplandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni keltirib o`tamiz:

12.Paxta tozalash korxonalarida mavjud chang tozalash tizimlarini kompleks baholash va samaradorligi past bo‘lgan tizimlarni integratsiyalashgan usullar bilan almashtirish tavsiya etiladi.

13.Multi-siklon va elektrofiltr tizimlarini seriyali ketma-ket ulash, bunda avval yirik zarrachalarni multi-siklon orqali ushlab qolib, keyin mayda (PM2.5, PM1.0) zarrachalarni elektrofiltr orqali tozalash natijasida yuqori sifatli filtratsiyaga erishish mumkin.

14.Filtratsiya samaradorligini real vaqtda monitoring qilish uchun sensorli nazorat tizimlarini joriy qilish lozim. Bu texnologik nazoratni kuchaytiradi, xizmat ko‘rsatish muddatini uzaytiradi va tizimning uzluksizligini ta’minlaydi.

15.Investitsiyaviy baholash doirasida energiya samaradorligi va atrof-muhitga ta’sirni solishtirish orqali yangi tizimlarning joriy etilishi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham maqbulligini isbotlaydi.

16.O‘zbekiston paxta sanoati korxonalarida tozalash texnologiyalarini zamonaviylashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish va ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishni rag‘batlantirish zarur.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Ahror Tursunov.(2022). Paxta sanoati korxonlarida havo ifloslanishini nazorat qilish va tozalash mexatronik tizimini yaratish. Texnika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan DISS. Namangan – 2022

2. World Health Organization (WHO). (2021). Global Air Quality Guidelines: Particulate Matter (PM2.5 and PM10). Geneva: WHO Press.

3. Патент 184266 Польша, МКИ C22B 7/02. Способ переработки окисленных пылей медеплавильных заводов. 1980

4. Shodmanov, J., Abdullajonov, B., Ergashxo‘jayeva, S., & Tursunov, A. (2025). Paxta tozalash korxonalarida chang emissiyasi va uning ekologik-sanitar ta’sirini baholash. Development of Science, 1(6), 220–227.

5. Toshpo‘latov, Sh., & Mamatqulov, A. (2020). Paxta tozalash korxonalarida havoning chang bilan ifloslanishini baholash. O‘zbekiston Standartlar Instituti Ilmiy Jurnali, 3(1), 45–51.

6. Ahror Tursunov, Jasur Shodmanov. Advancing Sustainable Environmental Strategies in the Cotton Industry Through Dust Emission Reduction.Scientific and Technical Journal of NamIET.Volume 10. Issue 2.2025

7. Loyiha. (2025). Paxtani qayta ishlash texnologiyasida atmosferaga chiqayotgan chang havoni tozalash qurilmasining samaradorligini O‘zbekiston va Xitoy texnologiyasi asosida oshirish. Namangan: 2025.

8. Murodullayeva Sabrina Otabek qizi. Metallurgik pechlardan chiqadigan changlarni tutish usullari va ularning samaradorligini o‘rganish. Sanoatda raqamli texnologiyalar. (E) ISSN: 3030-3214. Volume 3, № 1.2025

9. Патент 6395060 США, МПК7 C 22 B 7/02. Способ переработки печных пылей. Furnace flue dust processing method

10. Loyiha. (2025). Paxtani qayta ishlash texnologiyasida atmosferaga chiqayotgan chang havoni tozalash qurilmasining samaradorligini O‘zbekiston va Xitoy texnologiyasi asosida oshirish. Namangan: 2025.

ISSN 3030-3907

ZICHLASHTIRUVCHI MASHINA VALETSI VA GRUNT ORASIDAGI O‘ZARO TA‘SIR JARAYONINING FIZIK MODELDA O‘TKAZISHNING TADQIQI VA MOHIYATI

Komilov Samandar Iskandarovich
Toshken davlat transport universiteti doktoranti, PhD, dotsent
E-mail: samandarkomilov1974@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada laboratoriya sharoitida zichlashtiruvchi mashina valetsi fizik modeli va grunt orasidagi o‘zaro ta’sir parametrlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan tajriba tadqiqining uslubi keltirilgan. Jumladan, valets yordamida zichlashtirishda gruntning fizik - mexanik xossalarini hisobga olgan holda, qurilmaga o‘rnatilgan o‘lchov moslamalar orqali texnologik jarayondagi parametr ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Shuningdek har bir o‘lchov moslamalarining ishlash tamoyili va xususiyatlari ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: valets, fizik model, grunt, parametrik ko‘rsatkichlar, zichlashtirish koeffitsienti, induktiv datchik, akseleoremetr,valets tezligi.

Аннотация. В статье представлена методика экспериментальных исследований, проводимых в лабораторных условиях, по определению параметров взаимодействия физической модели вальца уплотняющей машины с грунтом. В частности, при уплотнении грунта вальцами, с учётом физико-механических свойств грунта, определяются параметры технологического процесса с помощью измерительных приборов, установленных на устройстве. Приведены принцип действия и характеристики каждого измерительного прибора.

Ключевые слова: валец, физическая модель, грунт, параметрические показатели, коэффициент уплотнения, индуктивный датчик, акселерометр, скорость вальца.

Abstract. The article presents a methodology for experimental studies conducted in laboratory conditions to determine the parameters of interaction between the physical model of a compaction machine roller and soil. In particular, when compacting soil with rollers, taking into account the physical and mechanical properties of the soil, the parameters of the technological process are determined using measuring devices installed on the device. The operating principle and characteristics of each measuring device are given.

Keywords: roller, physical model, soil parametric indicators, compaction coefficient, inductive sensor, accelerometer, speed of roller.

Kirish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish, jumladan, jahon standartlari asosida zamonaviy loyihalash

ISSN 3030-3907

dasturlarini qo‘llash asnosida yo‘l qurilish jarayonlarini modernizasiya qilish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan farmon va qarorlar chiqarilmoqda [1,2]. Bizga ma’lumki, yo‘l tuzilmasini qurish murakkab texnologik jarayon bo‘lib, qurilish ishlarini amalga oshirishda bir necha omillarni hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Jumladan:

-yo‘l toifasi;


-qurilish materiallar sifati;

-loyihalashda dasturiy ta‘minotning zamonaviyligi;

-avtomobil yo‘llari o‘tayotgan hududning tabiiy iqlim sharoyiti;

-texnologik jarayonlarni amalga oshirishda yo‘l qurilish mashinalaridan samarali foydalanish mezonlariga amal qilinishi.

Aynan yo‘l tuzilmasi tarkibiy qismlarini qurishda yer qazish va yo‘l qurilish mashinalari tomonidan ko‘p turdagi texnologik operatsiya ishlari bajariladi. Ular ichida zichlash jarayoni muhim ahamiyatga ega. Zero bu jarayon barcha qatlamlarda bajariladi. Zichlash texnologiyasi ko‘p parametrlarga bog‘liq bo‘lib, bevosita avtomobil yo‘llarining xizmat muddati va sifatini oshirishga xizmat qiladi.(1-rasm).




1-rasm.Zichlash texnologiyasi.

Yo‘l tuzilmasi qatlam gruntlarnini talab etilgan darajada zichlash ishlarini amalga oshirmaslik qatlamlar surilishiga olib keladi. Bu esa butun yo‘l tuzilmasini ishdan chiqishiga sababchi bo‘ladi. Ushbu holat grunt qatlamlarining xususiy og‘irligi yoki avtortransport vositalari ta’sirida ro‘y berishi mumkin.Zero mustahkam asosda, yo‘l tuzilmasidagi yo‘l poyi yuqori qatlamlar uchun poydevor vazifasini bajarishini hisobga olsak, mazkur qatlamdagi o‘zgarishlar yuqori qatlamlar deformatsiyasiga olib keladi. O‘z navbatida zichlash texnologiyasini

ISSN 3030-3907

talab darajasida to‘g‘ri tashkil etish yaxlit yo‘l tuzilmasini turg‘unligi va mustahkamligini ta’minlaydi.(2-rasm).




2-rasm. Yo‘l tuzilmasi sxemasi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.


Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, zichlash muhim texnologik jarayon ekanligi va olib borilayotgan barcha tadqiqot ishlarini zichlash mashinalarini o‘zini ishtirokida bevosita ekspluatasiya sharoitida o‘tkazish imkoniyati yo‘q. Shu sababli mazkur jarayonga tegishli ilmiy izlanishlarni xususan, katok ishchi organi va grunt orasidagi o‘zaro ta’sir parametrlarini fizik modellarda olib borish maqsadga muvofiqdir [3,4]. Bu borada dunyoning etakchi olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fizik modellar yordamida laboratoriya va dala sharoitida tajriba ishlarini o‘tkazish qulay. Ularning bir qancha ijobiy xususiyatlari bu jarayonlarni sifatli o‘tkazishga va aniq natijalar olish imkoniyatini beradi. Jumladan:

- tajribalarni ko‘p marta o‘tkazish va takrorlash imkoniyati mavjudligi;
- sarf harajatlarni nisbatan kam miqdorda bo‘lishi;
- o‘lchov moslamalari va qurilmalarni o‘rnatishning qulayligi;
-fizik model qurilma elementlarini ajratish, yig‘ish va komponovka qilishning oddiyligi;
- real sharoitda ishlayotgan mashinalarning texnologik ish jarayonlarini aks ettirish uslubining o‘xshashligi va mosligi.

Dastlab, yo‘l poyi gruntlarini zichlashtirish fizik modellari konstruktiv chizmalari chiziladi. Mazkur chizmalar asosida yo‘l poyi gruntlarini zichlashga mo‘ljallangan fizik model tayyorlanadi.



ISSN 3030-3907



3-rasm. Vibratsion valets modeli.

Tayyorlangan fizik model gruntli yo‘lak bo‘ylab harakatlanadigan aravaga o‘rnatildi. Tajriba ishlarini fizik modelda o‘tkazishdan oldin gruntli yo‘lakka keltirilgan gruntlarning fizik mexanik xossalari aniqlanadi.






4-rasm.Tajriba ishini o‘tkazish bo‘yicha tayyorgaroik ishlari

Tajriba ishlarini o‘tkazishdan oldin foydalaniladigan loysimon gruntlarning turlari, fizik mexanik xossalari aniqlanadi. Bu esa o‘z navbatida olib borilayotgan eksperiment tadqiqot natijalari aniqligini oshiradi. Yo‘l poyini qurishda qurilish materiali sifatida asosan supes, suglinok va loysimon turiga mansub gruntlar ishlatiladi [5,6]. Mazkur holatdan kelib chiqib, keltirilgan gruntlarning turi va fizik mexanik xossalariga tegishli qiymatlar laboratoriya sharoitida aniqlanadi. Me’yoriy hujjatlarga [7] asosan yo‘l poyi ishchi qatlamidagi gruntning namlik miqdori W =13-21%, zichlashtirish koeffisienti, $K_з$ = 0,96 - 1,0, plastiklik soni P =1-7 deb belgilanadi. Shundan so‘ng gruntning boshqa parametrlari ketma-ket


ISSN 3030-3907

aniqlanib, namlik ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘langan grafiklar quriladi. (5-rasm).

a)




b)



5-rasm.Gruntni ichki ishqalanish burchagi va ilashishini grunt namligiga bog‘liqligi. *PI* = 5; **1-K_z=0,96; 2- K_z =0,98; 3- K_z =1.**

Tayyorgarlik ishlari yakunlangandan so‘ng fizik model gruntli yo‘lakda yo‘l poyi gruntlarini zichlashtirish mobaynida o‘zaro ta’sir parametrlarini aniqlash bo‘yicha o‘lchov moslamalaridan foydalanmiz. Bu sohada ham ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda va manba’larda o‘lchov moslamalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan [8,9,10].


Harakat**,** tezlanish va aylanishlarni o‘lchash qurilmasi**.** Akselerometr va giroskop moduli (MPU 6050) - 6 ta o‘qli (3 o‘qli giroskop, 3 o‘qli akselerometr) harakatni kuzatuvchi qurilma hisoblanadi.



6-rasm. Akselerometr

Qurilmani ishlashi printsipi. Sensorli MPU-6050 moduli 3-o‘qli akselerometr va 3 o‘qli giroskopdan tashkil topgan. Uning uchta koordinatalar sistemasi quyidagi ko‘rinishda aniqlaydi:

ISSN 3030-3907



7-rasm. 3-o‘qli akselerometr va 3 o‘qli giroskop bo‘yicha yo‘nalishi.

MPU6050 ni stol ustiga qo‘ying, yorliq yuzasi yuqoriga qaraganligiga va bu sirtdagi nuqta yuqori chap burchakda ekanligiga ishonch hosil qiling. U holda yuqoriga vertikal yo‘nalish chipning Z o‘qidir. Chapdan o‘ngga yo‘nalish X o‘qi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, orqadan oldinga yo‘nalish Y o‘qi sifatida aniqlanadi. Harakat tezligini aniqlovchi o‘lchagich. Piroelektrik samara asosidagi HCSR501 harakatni o‘lchash moduli BISS0001 mikrosxemada qo‘shimcha elektrik bog‘lanishli PIR-o‘lchagich 500BP (8-rasm) va infraqizil signalni uzaytirish va ko ‘rish radiusini oshirish uchun ishlatiladigan Frenel linzalaridan (9-rasm) tashkil topgan. Modul infraqizil nurlar nurlanuvchi, ob’ektlar harakatini aniqlash uchun ishlatiladi.



8-rasm.PIR-ўлчагич 500BP




9-rasm.Frinel linzalari.

Signallarni qabul qilib, ma’lumotlarni qayta ishlash o‘lchagichi. Arduino – ishlatish uchun oddiy ochiq elektron platforma bo‘lib, tuzuvchi boshlang‘ich to‘plamlari va ochiq manba dasturiy ta’minotni o‘z ichiga olib, tez interaktiv

ISSN 3030-3907

elektron qurilmalarni ishlab chiqish uchun mo‘ljallangan. U tadqiqotchilar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, kichik loyihalarni tezroq amalga oshirish uchun ishlanma sifatida baholashgan. Arduino Atmel bazasiga qurilgan bo‘lib, analog va raqamli datchiklardan signallarni qabul qiladi, turli ijro etuvchi qurilmlarni boshqarish va turlicha interfeyslar yordamida kompyuter bilan ma’lumot almashishish vazifasini bajaradi. Amalda Arduino platasini bir nechta variantlari mavjud, lekin oz qismi ko‘pincha muhandislar va havaskorlar tomonidan ishlatiladi




10-rasm. Arduino variantlari: a- Arduino Uno,b- Arduino Due, c- Arduino Mega, Arduino Nano.

Induktiv sensor induktiv sensorlarning ishlash printsipi elektr miqdoriga aylanadigan spiralning induktiv qarshiligining o‘zgarishi tufayli o‘lchash tanasining chiziqli harakatiga asoslanadi.Induktiv sensor - bu metall buyumlarning holatini kuzatish uchun mo‘ljallangan kontaktsiz sensor (u boshqa materiallarga sezgir emas). Induktiv sensorlar avtomatlashtirilgan jarayonlarni boshqarish tizimining vazifalarini hal qilish uchun keng qo‘llaniladi. Ular odatda ochiq yoki odatda yopiq kontakt bilan amalga oshiriladi. Ishlash printsipi sensor ichidagi induktor tomonidan hosil bo‘lgan magnit maydon parametrlarini o‘zgartirishga asoslangan. Kontaktsiz induktiv kalitning faol zonasi uning sezgir yuzasi oldidagi maydon bo‘lib, u yerda sensor elementining magnit maydoni eng ko‘p to‘plangan. Ushbu sirtning diametri sensorning diametriga teng.

Induktiv o‘lchagichlarning ishlash printsipi elektr miqdoriga aylanadigan spiral katushkaning induktiv qarshiligining o‘zgarishi tufayli o‘lchash tanasi organining chiziqli harakatiga asoslanadi. Induktiv o‘lchagich, katushka, yurakcha va yakordan iborat. Induktiv o‘lchagich - bu metall buyumlarning holatini kuzatish uchun mo‘ljallangan kontaktsiz o‘lchagich. Induktiv o‘lchagichlar avtomatlashtirilgan jarayonlarni boshqarish tizimining vazifalarini hal qilish uchun keng qo‘llaniladi. Ular odatda ochiq yoki odatda yopiq normal kontakt bilan

ISSN 3030-3907

amalga oshiriladi. Ishlash printsipi o‘lchagich ichidagi katushka induktor tomonidan hosil bo‘lgan magnit maydon parametrlarini o‘zgartirishga asoslangan. Kontaktsiz induktiv o‘chirgichning faol zonasi - uning sezgir yuzasi oldidagi maydon bo‘lib, u yerda o‘lchagich elementining magnit maydoni eng ko‘p to‘plangan. Ushbu sirtning diametri o‘lchagichning diametriga teng



11- rasm.Induktiv o‘lchagich konstruktsiyasining sxemasi.



12-rasm.Silindrik turdagi induktiv o‘lchagich.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Tajriba ishlarini o‘tkazishdan maqsad:

-berilgan grunt qalinligida, optimal namlikda, talab etilgan zichlashtirish koeffisientini ta’minlash uchun vibratsiya qiymatini aniqlash;

-berilgan grunt qalinligida, optimal namlikda, talab etilgan zichlashtirish koeffisientini ta’minlash uchun amplituda qiymati,

-valets yurish tezligi va o‘tishlar soni qiymatini aniqlash.

Eksperiment tadqiqotlarini o‘tkazishda asosiy shartlardan biri, talab etilgan ishonchli ehtimolli ma’lumotlarni ishonchliligi hisoblanadi. Amaliy tadqiqotlarda etarli ishonchli ehtimollik (1-μ)=0,95, hisoblanadi. bu erda μ– muhimlik koeffisienti. Ko‘p omilli eksperiment tajriba ishlari zichlashtiruvchi mashina valesini fizik modelida o‘tkazildi. Tajriba ishlarini o‘tkazishda zichlashtiruvchi

ISSN 3030-3907

mashina fizik modeli va tashqi muhit sifatida ko‘rib chiqilayotgan gruntning kattaliklarini kiruvchi omil sifatida qabul qilamiz. Jumladan, ko‘p omilli eksperiment tajriba ishlari zichlashtiruvchi mashina valetsini fizik modelida o‘tkazildi.

1-jadval

Supes gruntini zichlashda izlanayotgan omillar, variatsiya darajalari va intervallari (grunt xususiyatlari)

Kod	Omillar	Variatsiya sathlari			Variatsiya intervali
X_1	Namlik W, %;	13	17	21	4
X_2	Zichlash koeffitsiyenti, K_z,	0,96	0,98	1	2
X_3	Grunt zichligi, ρ, t/m^3	1,4	1,6	1,8	0,2
X_4	Qatlam qalinligi, h, m	0,6	0,12	0,18	0,5

Xuddi shuningdek fizik modelga tegishli omillarni ham tadqiq etishimizga to‘g‘ri keladi.

2- jadval

Supes gruntini zichlashda izlanayotgan omillar, variasiya darajalari va intervallari (fizik model parametrlari)

Kod	Omillar	Variatsiya sathlari			Variatsiya intervali
X_1	Vibratsiya chastotasi ν, gerts;	5	8	11	3
X_2	Fizik model valetsini yurish tezligi ϑ , km/s	1	2	3	1
X_3	Zichlashtirish masofasi l, m	10	15	20	5
X_4	O‘tishlar soni, n	6	8	10	2

Gruntli yo‘lakda foydalanilayotgan grunt tajribalar asosida aniqlanib, plastiklik soni P =6 ga teng bo‘lib, loysimon gruntlarning supes turiga mansub hisoblanadi. Talab etilgan zichlash koeffisienti qiymatlarini $K_z = 0{,}98$ yoki $K_z = 1{,}0$ gacha etkazish maqsadida mazkur gruntni eng qulay namlikkacha $W = 15{,}6\%$ ya’ni maksimal zichlikni ta’minlash qiymatigacha $\rho = 1760$ t/m^3 zichlashtirish talab etiladi. Zichlanayotgan avtomobil yo‘l poyining grunt qatlami 30-35 sm qalinlikda bo‘lishini inobatga olsak, ekvivalent tarzda fizik model uchun gruntli yo‘lakda 10-15 sm balandlik o‘lchamida grunt qatlami tayyorlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O‘tkaziladigan tajribalar asosida fizik model valetsi va grunt orasidagi o‘zaro ta’sir parametrlari jumladan tebranishlar chastotasi, valets yurish tezligi,

ISSN 3030-3907

bosib o‘tgan masofasi o‘tishlar soni kabi kattaliklar aniqlanadi. O‘z navbatida fizik modelda o‘tkazilagan tajribalar asosida real sharoitdagi foydalanishda bo‘lgan zichlashtirish mashinalarini ishchi organlari tomonidan bajariladigan texnologik jarayonlarga bevosita baho berish mumkin. Zero yo‘l poyi gruntlarini eng qulay namlikda maksimal zichligini ta’minlash yo‘l tuzilmalarini turg‘un va mustahkam holatda uzoq muddat ishlashini ta’minlash mumkin. Foydalanilayotgan fizik modelning konstruktiv, texnologik va vibrasion parametrlari, naturali zichlashtirish mashinalari kattaliklariga mos ravishda o‘tish koeffisientlari orqali bog‘lanishi ta‘minlanishi zarur. Zero o‘xshashlik mezonlari koeffisientlarini aniqlash va hisoblash ishlarida to‘g‘ri tadbiq etish, fizik modellashtirishning nazariy asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruktsiya qilish, ta’mirlash va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Vazirlar mahkamasi qarori.VMQ-901.30.12.2024 y.
2. Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-330.10.10.2023 y.
3. Komilov S.I. Method of conducting experimental study of subgrade soils compaction process in physical models. Science and Education in Karakalpakstan, 2025 y., №1, 179 - 183 p
4. Komilov S.I. Yo‘l qurilish mashinalari texnologik ish jarayonlarini fizik modellashtirish. “Innovatsion texnologiyalar” Ilmiy jurnali. Qarshi davlat texnika universiteti. 2025-yil. 1(57) - son. 54-61 b.
5. Г.Н. Лукьянов. Сенсоры и датчики физических величин.–СПб: Университет ИТМО, 2020. – 57 с.
6. В.М. Шарапова, Е.С. Полищук. Датчики: Москва: Техносфера, 2012.-54 с.
7. SHNQ 2.05.02.22.“Avtomobil yo‘llari” shaharsozlik normalari va qoidalari. Toshkent 2022 y.-130 b.
8. Kayumov A.D. Avtomobil yo‘llari poyidagi gruntlarning mustahkamligi, turg‘unligi va uni zichlashtirish. Monografiya.TDTU, -T.: 2022, -72-75 b.
9. Каюмов А.Д. Уплотнение и расчетные характеристики лессовых грунтов. - Т: Фан, 2004. - 120 с.
10. Xankelov T.Q., Komilov S.I. Avtomobil yo‘llari yo‘l poyidagi lyossimon gruntlarni, zichlashtirishga qo‘yiladigan talablar The scientific journal vehicles and roads,Toshkent 2023 y., №1, 6-11 b.

ISSN 3030-3907

УДК 541.18.041

POLIAKRILAMID ASOSIDA MODIFIKATSIYALANGAN PENOMATERIALLAR OLISH VA ULARNING STRUKTURAVIY- HAMDA TERMIK XOSSALARINI TAHLIL QILISH

I.M.Xamrakulov
J.B.Fayziyev
F.N.Nurqulov

Annotatsiya: Mazkur maqolada PAA bilan tarkibida gidroksil guruhlar saqlagan organik birikmalar va karbonsirka kislota angidridlari modifikator sifatida qo‘llanilib, yangi PAA-GA markali penomateriallar sintez qilindi. Tadqiqot doirasida reaksiya mexanizmlari, FTIR spektroskopiyasi orqali strukturalar, shuningdek, fizik-mexanik va termik xossalar chuqur o‘rganildi. Ushbu tadqiqot PAA asosidagi penomateriallarni ishlab chiqarishning soddalashtirilgan, ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali yo‘llarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Poliakrilamid (PAA), penopoliimidlar, gaz bilan to‘ldirilgan materiallar, FTIR spektral tahlil, termogravimetrik tahlil (TGA), fizik-mexanik xossalar, struktura modifikatsiyasi.

Аннотация: В этой статье были синтезированы новые пеноматериалы с маркировкой раа, в которых в качестве модификаторов используются органические соединения, содержащие гидроксильные группы, и диоксид углерода уксусной кислоты. В рамках исследования были глубоко изучены механизмы реакций, структуры с помощью FTIR-спектроскопии, а также физико-механические и термические свойства.ннотация: В этой статье были синтезированы новые пеноматериалы с маркировкой раа, в которых в качестве модификаторов используются органические соединения, содержащие гидроксильные группы, и диоксид углерода уксусной кислоты. В рамках исследования были глубоко изучены механизмы реакций, структуры с помощью FTIR-спектроскопии, а также физико-механические и термические свойства. Это исследование раскрывает упрощенные, экологически и экономически эффективные способы производства пеноматериалов на основе паа.

Ключевые слова: полиакриламид (раа), пенополиимиды, газонаполненные материалы, спектральный анализ FTIR, термогравиметрический анализ (TGA), физико-механические свойства, структурные модификации.

Annotation: in this article, organic compounds and carbonic acid anhydrides containing hydroxyl groups with PAA were used as modifiers, and New PAA-GA-branded penomaterials were synthesized. Within the framework of the study, the reaction mechanisms, structures through FTIR spectroscopy, as well as the

ISSN 3030-3907

physicochemical and thermal properties were studied in depth.nnotation: in this article, organic compounds and carbonic acid anhydrides containing hydroxyl groups with PAA were used as modifiers, and New PAA-GA-branded penomaterials were synthesized. Within the framework of the study, the reaction mechanisms, structures through FTIR spectroscopy, as well as the physicochemical and thermal properties were studied in depth. This study reveals simplified, environmentally and economically efficient ways to produce Paa-based penomaterials.

Keywords: polyacrylamide (PAA), penopolymides, gas-filled materials, FTIR spectral analysis, thermogravimetric analysis (TGA), physico-mechanical properties, structural modification.

Kirish

Bugungi sanoatning intensiv rivojlanishi bilan birga, engil, mustahkam va termostabil materiallarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Xususan, penomateriallar, ya’ni gaz bilan to‘ldirilgan polimer kompozitsiyalar qurilish, mashinasozlik, aerokosmik, elektronika va izolyatsiya sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Shu turdagi materiallar orasida penopoliimidlar o‘zining olovga chidamliligi, yuqori mexanik va issiqlik barqarorligi, past toksikligi bilan ajralib turadi. Biroq, an’anaviy penopoliimidlar asosan akrilonitril va metakril kislotasi asosidagi ko‘p bosqichli, qimmat, xavfli va energiya talab etuvchi texnologiyalar orqali olinadi [1–3].

Oxirgi yillarda esa tadqiqotchilar poliakrilamid (PAA) asosida soddalashtirilgan texnologiya orqali penomateriallar olish imkoniyatlarini o‘rganmoqdalar [4–5]. Bu usullar oddiy, arzon va ekologik jihatdan qulay bo‘lib, PAA ning gidrolizlanishi natijasida imidizatsiya reaktsiyasi orqali strukturalashgan polimer hosil bo‘ladi. Ammo bu texnologiyaning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ishlatilayotgan modifikatorlar, ya’ni plastifikatorlar va funksional qo‘shimchalarning xossalariga bog‘liq.

Penopoliimidlar yuzasidan tadqiqotlar oxirgi o‘n yilliklarda faollashdi. Dastlabki ishlar asosan akrilonitril (AN), metakril kislotasi (MAK), va metakrilonitril (MAN) asosida sintez qilingan ko‘p bosqichli polimer tizimlariga asoslangan bo‘lib, ular yuqori darajadagi termik barqarorlikka ega, ammo ishlab chiqarish jarayoni murakkab va iqtisodiy jihatdan samarador emas [1–3].

Grebneva va hammualliflari [4,5] poliakrilamid PAA asosida penomateriallar olish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Ular gidrolizlangan poliakrilamid molekulalari o‘zaro imidizatsiya reaktsiyasiga (Imidizatsiya reaksiyasi — bu imid (ikki azotli halqali struktura) guruhlarini hosil qiluvchi kimyoviy konversiya reaksiyasi bo‘lib, ko‘pincha karbonsirka kislotalar va

ISSN 3030-3907

aminoguruhlar ishtirokida sodir bo‘ladi. U polimer kimyosida polimidlarga aylanish bosqichi sifatida keng qo‘llaniladi) kirishib, silliqlangan strukturalar hosil qilishini ko‘rsatgan. Biroq, bu usulda ko‘p miqdorda suv, gidroksid, va quritish bosqichlari zarur bo‘lgani sababli, ishlab chiqarishda qiyinchiliklar yuzaga kelgan.

Litosov va hammualliflari [6] karbonsirka kislota angidridlar angidrid (MA) ni modifikator sifatida ishlatib, uning reaksion faol va struktura hosil qiluvchi komponent sifatida samarali ekanini aniqlaganlar. MA – bu ikki funksional karbonsirka angidrid guruhiga ega bo‘lgan modda bo‘lib, u polimer zanjirlari bilan kovalent bog‘lanib, sirt va mexanik xossalarni kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, MA ning 5 mass. % atrofidagi konsentratsiyasi optimal hisoblanadi va natijada materialning zichligi kamayib, siqilishga chidamlilik ortgan.

Shuningdek, mikrostrukturaviy tahlillar, ya’ni skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), FTIR (infraqizil spektroskopiya) va termogravimetrik tahlil (TGA) kabi usullar orqali modifikatsiyalarning material strukturasi va xossalariga ta’siri aniqlanadi. Oldingi tadqiqotlarda aynan MA bilan ishlangan namunalar eng yaxshi termik barqarorlikni ko‘rsatgan zichlikni kamaytirish va sirt yengilligini ta’minlagan [5].

Bu modifikatorlar o‘zaro to‘ldiruvchi xossalarga ega bo‘lib, bir tomondan struktura barqarorligini oshirsa, boshqa tomondan plastiklikni yaxshilaydi. Shuning uchun bu mavzu materialshunoslikda dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.


Biz ushbu maqolada poliakrilamid (PAA) asosidagi gaz bilan to‘ldirilgan (peno-) materiallar, ya’ni penopoliimidlar olish texnologiyasini ishlab chiqishda moddani nisbatlari reaksiya unimi xosil bo‘lgan tarkibni IQ-spektroskopiyasi va xossalarini ilmiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda penomateriallarni olishda PAA bilan trkibida gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va karbonsirka kislota angidridlarni modifikator sifatida qo‘shilgan va PAA-GA markali penomateriallar olindi. Quyida 1–5-rasmlarning ilmiy tahlili keltirilgan. Har bir rasmga texnologik jarayon, kimyoviy asos, FTIR spektr, fizik-mexanik va termik xususiyatlar nuqtai nazaridan chuqur tahlil berilgan.

PAA bilan trkibida gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va karbonsirka kislota angidridlarni modifikator sifatida qo‘shilgan va PAA-GA markali penomateriallar olishda karbonsirka kislota angidridlar va poliakrilamid (PAA) o‘rtasida kechadigan reaksion mexanizm ko‘rsatilgan. karbonsirka kislota angidridlar molekulasidagi angidrid guruhi PAA tarkibidagi amid (-$CONH_2$) guruhi bilan ta’sirlashib kondensatsiya reaksiyasi orqali kross-link (silliqlovchi bog‘) hosil qiladi. Nayijada suv ajralishi kuzatiladi (kondensatsion mexanizm) va

ISSN 3030-3907

bu reaksiya yuqori haroratda (>190°C) boshlanadi va katalitik ta’sir orqali amalga oshadi.



(1) PAA bilan karbonsirka kislota angidridlar (2) PAA bilan trkibida gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va (3) PAA bilan karbonsirka kislota angidridlar va trkibida gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalarni modifikatsiyalash orqali olingan PAA-GA markali penomateriallarni IQ-spektroskopiyasi

1-Rasm. PAA bilan trkibida gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va karbonsirka kislota angidridlarni modifikator sifatida qo‘shilgan va PAA-GA markali penomateriallarni IQ-spektroskopiyasi.

FTIR spektral tahlili reaksiyalarni aniqlashda asosiy vosita bo‘ldi. 1205 cm^{-1} va 1380–1369 cm^{-1} to‘lqin sonlarida imid guruhlarining mavjudligi qayd etilgan bo‘lib, bu reaksiyaning sodir bo‘lganini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, 1649 cm^{-1} atrofida C=O valent tebranishlari, 2935 va 2862 cm^{-1} da esa CH_2 guruhlarining belgilari mavjud. Bular modifikatorlarning (Gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va karbonsirka kislota angidridlari) mavjudligini tasdiqlovchi belgilar hisoblanadi.

1-jadval

PAA-GA markali penomateriallarni IQ-spektroskopiyasi

To‘lqin soni (cm^{-1})	Tavsif
1205 ±10	Imid C–N stretching (asosiy belgi)
1380–1369	Imid halqa deformatsiyalari
1649	Amid C=O stretching

ISSN 3030-3907

2935, 2862	CH_2 stretching (organik zanjirlar)
1413, 770	CH deformatsion tebranishlar

Gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va karbonsirka kislota angidridlari bilan ishlangan namunalar spektrda o‘xshash bo‘lsa-da, karbonsirka kislota angidridlari ishlatilganda spektr kuchliroq va silliqroq bo‘lib, bu tarmoq strukturasi kuchliroq ekanini bildiradi.

Fizik-mexanik xossalar (zichlik va siqilishdagi kuch) modifikatorlar miqdori va turi materialning zichligi va mustahkamligiga bevosita ta’sir qiladi:

2-jadval

PAA-GA markali penomateriallarni Fizik-mexanik xossalar

Modifikator	Zichlik (g/cm³)	kuch (MPa)
PAA-GA	0.27	12.4

PAA bilan trkibida gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va karbonsirka kislota angidridlarni modifikatsiyalash asosida olingan PAA-GA markali penomateriallarni fizik-mexanik va termik xossalar qo‘ydagilardan iborat. Zichlik va siqilishdagi mustahkamlik orqali modifikatorlarning optimal miqdori aniqlangan: karbonsirka kislota angidrid uchun 5 mass. %, gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar uchun 10 mass. % eng yaxshi natija beradi. karbonsirka kislota angidridlar ishlatilgan namunalar zichroq (0.29 g/cm³) va mustahkamroq (11.8 MPa) bo‘lib, bu tarmoq hosil qiluvchi kimyoviy reaksiyalar samaradorligini ko‘rsatadi. Karbonsirka kislota angidridlari zanjirlararo silliqlanishni oshirib, siqilishga chidamlilikni deyarli 30% ga oshiradi. Bu, ehtimol, silliq tarmoqlanish va halqali bog‘lar bilan bog‘liq.

Termogravimetrik tahlil (TGA): Massaning yo‘qolishi materiallarning 25–285°C oralig‘idagi issiqlikka nisbatan barqarorligi quyidagicha:

3-jadval

PAA-GA markali penomateriallarni termogravimetrik tahlil

Modifikator	Yo‘qotilgan massa (%)	Izoh
karbonsirka kislota angidridlari	12%	Yuqori silliqlanish, kam namlik
gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar	16%	Ko‘proq suv/gaz ajralgan, pastroq silliqlanish
PAA-GA	12%	Yuqori silliqlanish, kam namlik

Bu shuni ko‘rsatadiki, karbonsirka kislota angidridlari asosidagi namunalar termik jihatdan ancha bardoshli, ular ichki silliqlangan va bog‘langan struktura hosil qilgan.

ISSN 3030-3907

Poliakrilamid asosidagi penomateriallarning reaksion mexanizmlari, strukturaviy xossalari va qo‘llanilish istiqbollari. Poliakrilamid (PAA) asosida gaz bilan to‘ldirilgan penomateriallar olish texnologiyasi polimer kimyosida samarali va ekologik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyada modifikatorlar sifatida ishlatilgan karbonsirka kislota angidridlari va gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar moddalari materialga struktura, mustahkamlik va barqarorlik kiritishda muhim rol o‘ynaydi. Jarayonning asosiy kimyoviy bosqichi bu - imidizatsiya reaksiyasi bo‘lib, u ≥190°C da boshlanadi. Bu reaksiya davomida PAA molekulalari ichki halqali tuzilmalarga o‘tadi, ya’ni amid va karbonsirka guruhlar o‘zaro reaksiyaga kirishib, imid halqasi hosil qiladi. Bu jarayon suv ajralishi bilan kechadi va natijada erimaydigan, silliqlangan, yuqori mustahkamlikka ega struktura hosil bo‘ladi.

Bundan tashqari, karbonsirka kislota angidridlari PAA bilan esterifikatsiya yoki kondensatsiya reaksiyasiga kirishib, makrozanjirlararo bog‘lanishni kuchaytiradi. Bu qo‘shimcha tarmoq hosil qiluvchi jarayon materialga mexanik barqarorlik va sirt silliqligini beradi. gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar esa fizik plastifikator sifatida harakat qilib, zanjirlar orasidagi harakatchanlikni oshiradi, bu esa ko‘proq gaz pufakchalari hosil qilishni osonlashtiradi.

PAA bilan trkibida gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va karbonsirka kislota angidridlarni modifikatsiyalash asosida olingan PAA-GA markali penomateriallarni termogravimetrik tahlil (TGA) orqali aniqlanganidek, harorat 285°C gacha bo‘lgan oralig‘da massaning yo‘qolishi asosan suvning bug‘lanishi hisobiga sodir bo‘ladi. Gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar bilan ishlangan namunalar 16% massa yo‘qotgan bo‘lsa, karbonsirka kislota angidridlar asosidagi materiallar atigi 12% yo‘qotdi - bu esa karbonsirka kislota angidridlar strukturalarining yuqori termik barqarorligini ko‘rsatadi.

Qo‘llanilishi: Yuqorida ko‘rsatilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu PAA-GA markali penomateriallar quyidagi sohalar uchun mos: Issiqlik va akustik izolyatsiya materiallari, yengil konstruksion elementlar (aviatsiya, avtomobilsozlik), olovga chidamli qoplamalar, elektron komponentlar izolyatsiyasi, filtrlash, biosensor va tibbiy qurilmalar. □

Ushbu materiallar soddalashtirilgan texnologik jarayon, arzon reaktivlar, va yuqori xususiyatlar kombinatsiyasi tufayli sanoat uchun muhim alternativ hisoblanadi. Gidroksil guruhlar saqlagan organik birkmalar va karbonsirka kislota angidridlar bilan optimallashtirilgan PAA asosidagi ko‘pikli strukturalar kelajakda ekologik, iqtisodiy va funksional jihatdan foydali kompozitlar bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Международная заявка WO 2004024806. Novel, fl ame-resistant polymethacrylimide foams and methods for the production thereof. № WO 2004024806 опубл. 25.03.2004.
2. Корниенко П.В. Получение вспененных полиимидных мате риалов на основе акрилонитрила и (мет)акриловой кислоты/ П.В. Корниенко, К.В. Ширшин, А.В. Кузнецова, Г.Н. Червякова, Т.А. Хохлова/ // Пластические массы. 2013. №6. С. 14□18.
3. Гребнева Т.А. Акрилимидообразующие сополимеры и пены на их основе: автореф. дис. … канд. хим. наук. – М., 2013. – 18 с.
4. Гребенева Т.А., Дятлов В.А., Прудсков Б.М., Колотилова Н.В., Ильина М.Н., Киреев В.В. Термическая имидизация акриловых сополимеров, содержащих нитрильные, кислотные и амидные звенья // Пластические массы. – 2011. – № 12. – С. 19□22.
5. Литосов Г.Э., Лавров Н.А., Дворко И.М., Чистяков Н.А., Мурав ский А.А. Модификация полиакриламида гидроксил-и карбоксилсодержащими соединениями //Пластические массы. – 2020. – №. 5□6. – С. 25□28.

ISSN 3030-3907

UDK:02.00.00

ZIG‘IR MOYI TARKIBIDAGI YOG‘ KISLOTALARNING XROMATOGRAFIK TAHLILI VA ULARNING OZUQAVIY QIYMATIGA TA’SIRI

Komila Bebitova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti, 2-kurs magistranti,

E-mail: bebitovakomila@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zig‘ir moyidagi yog‘ kislotalarning tarkibi xromatografik usul orqali tahlil qilinib, ularning inson salomatligiga ko‘rsatadigan ozuqaviy ahamiyati baholandi. Tadqiqot natijalari zig‘ir moyida ko‘p to‘yintirilmagan yog‘ kislotalari, xususan, linolen va linol kislotalarining yuqori miqdorda ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu birikmalar yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish, immunitetni kuchaytirish hamda hujayra faoliyatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Tahlil natijalari asosida zig‘ir moyining funksional oziq-ovqat sifatida iste’mol qilinishi mumkinligi asoslab berildi. Shuningdek, yog‘ kislotalarining proporsiyasi va ularning organizmga ta’siri orasidagi bog‘liqlik ilmiy tahlil qilindi. Tadqiqot zig‘ir moyini sog‘lom ovqatlanish tizimiga kiritishning dolzarbligini yoritib berdi.

Kalit so‘zlar: Zig‘ir moyi, yog‘ kislotalari, linolen kislotasi, ozuqaviy qiymat, xromatografiya, to‘yintirilmagan yog‘lar, sog‘lom ovqatlanish, yurak salomatligi, funksional oziq-ovqat, omega-3, linol kislotasi, biokimyoviy tahlil.

Аннотация: В данной статье проведён хроматографический анализ жирных кислот, содержащихся в льняном масле, и дана оценка их пищевой ценности для здоровья человека. Результаты исследования показали высокое содержание полиненасыщенных жирных кислот, особенно линоленовой и линолевой кислот. Эти соединения играют важную роль в профилактике сердечно-сосудистых заболеваний, укреплении иммунитета и улучшении клеточной функции. На основе анализа обосновано использование льняного масла в качестве функционального пищевого продукта. Также научно рассмотрена взаимосвязь между пропорцией жирных кислот и их влиянием на организм. Исследование подчеркивает актуальность включения льняного масла в систему здорового питания.

Ключевые слова: Льняное масло, жирные кислоты, линоленовая кислота, пищевая ценность, хроматография, полиненасыщенные жиры, здоровое питание, здоровье сердца, функциональное питание, омега-3, линолевая кислота, биохимический анализ.

Abstract: This article presents a chromatographic analysis of the fatty acid composition in flaxseed oil and evaluates its nutritional significance for human

health. The findings indicate a high concentration of polyunsaturated fatty acids, particularly linolenic and linoleic acids. These compounds play a crucial role in preventing cardiovascular diseases, boosting immunity, and enhancing cellular function. Based on the analytical results, the study supports the use of flaxseed oil as a functional food product. The relationship between the proportion of fatty acids and their impact on the human body is also scientifically examined. The research highlights the relevance of incorporating flaxseed oil into a healthy dietary system.
Keywords: Flaxseed oil, fatty acids, linolenic acid, nutritional value, chromatography, polyunsaturated fats, healthy diet, heart health, functional food, omega-3, linoleic acid, biochemical analysis

Kirish

Zig‘ir (Linum usitatissimum) qadimdan yetishtiriladigan muhim yog‘li madaniy o‘simliklardan biri hisoblanadi. Zig‘ir urug‘i tarkibida to‘yintirilmagan yog‘ kislotalari, ayniqsa omega-3 guruhi vakili bo‘lgan alfa-linolenik kislota (ALA) yuqori miqdorda mavjud bo‘lib, bu uni biologik va ozuqaviy jihatdan juda ahamiyatli manbaga aylantiradi [1,2].

Zamonaviy ovqatlanish biologiyasi va nutratsevtika sohalarida zig‘ir moyining foydali xususiyatlari keng o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ALA kislotasi yurak-qon tomir tizimining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirish, hujayra membranalarini barqarorlashtirish kabi muhim biologik rollarga ega [3,4]. Bundan tashqari, zig‘ir yog‘i vegetarianlar uchun omega-3 kislotasining oson hazm bo‘ladigan va arzon manbasi hisoblanadi.



1-rasm. Zig‘ir yog‘ining ishlatilish sohalari

Shuningdek, zig‘ir moyida mavjud bo‘lgan linoleik, olein, palmitik va stearin kislotalarining muvozanatli tarkibi uni sog‘lom ovqatlanishda, kosmetika sanoatida hamda farmatsevtikada qo‘llash imkonini beradi [5]. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — zig‘ir urug‘i moyi tarkibidagi yog‘ kislotalarini xromatografik tahlil qilish orqali aniqlash va ularning ozuqaviy hamda biologik ahamiyatini baholashdan iborat[6,7].

ISSN 3030-3907

TADQIQOT USULLARI

Namuna tayyorlash (namlikdan tozalash va ekstraksiya): Tadqiqot uchun Linum usitatissimum turiga mansub zig‘ir urug‘lari namunasi mahalliy agrohududlardan yig‘ib olindi. Urug‘lardan yog‘ olish jarayoni sovuq presslash (cold-pressing) usuli orqali, ya’ni 40 °C dan yuqori bo‘lmagan haroratda, mexanik bosim yordamida olib borildi. Bu usul yog‘ning tabiiy bioaktiv komponentlarini, ayniqsa issiqlikka sezgir bo‘lgan ko‘p to‘yintirilmagan yog‘ kislotalarini saqlab qolishga yordam beradi [3,8]. Ajratilgan zig‘ir yog‘i mikrofiltr orqali tozalandi va xromatografik tahlilga qadar 4 °C haroratda, yorug‘likdan himoyalangan sharoitda saqlandi.

Yog‘ kislotalarini efirlashtirish va xromatografik tahlil. (efir hosilalari tayyorlash va GC-FID/GC-MS yordamida tahlil qilish) Yog‘ tarkibidagi erkin yog‘ kislotalarni aniqlash uchun ular metil efir hosilalari (FAME – fatty acid methyl esters) shakliga o‘tkazildi. Buning uchun namunaga metanol va katalizator sifatida bor trifluorid (BF_3) yoki kaliy gidroksid qo‘shilib, refluks sharoitida qizdirildi. Natijada yog‘ kislotalar metil efirlarga aylantirildi [9]. Ushbu reaksiyalar zig‘ir yog‘idagi ko‘p to‘yintirilmagan (masalan, alfa-linolenik) va to‘yintirilgan (masalan, palmitik) kislotalarni aniqlashda aniqlik beradi. Hosil bo‘lgan yog‘ kislotalari efirlari gaz xromatografiyasi (GC – gaz chromatography) yordamida tahlil qilindi. Tahlil ikki xil detektor yordamida olib borildi:

GC-FID – olovli ionizatsiyalovchi detektor (quantitativ aniqlash uchun)

GC-MS – mass-spektrometrik analizator (strukturaviy identifikatsiya uchun) [4,10]

Tahlil shartlari quyidagicha: Kolonka: HP-88 kapillyar kolonkasi (100 m × 0.25 mm × 0.20 μm) Harorat rejimi: boshlang‘ich harorat 120 °C, har 5 °C ko‘tarilib 220 °C gacha yetkazildi. Inyeksiya harorati: 250 °C, Detektor harorati: 280 °C Tashuvchi gaz: geliy, oqim tezligi 1 ml/min

Ichki standart: Tahlilning aniqligini oshirish maqsadida C17:0 (heptadekanoik kislota) ichki standart sifatida qo‘llanildi. Bu kislota orqali barcha yog‘ kislotalarining miqdori nisbiy foizda (massaviy ulushda) hisoblab chiqildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zig‘ir urug‘i moyi yog‘ kislotalari tarkibi jihatidan yuqori biologik faol moddalarga boy o‘simlik moyi sifatida ajralib turadi. Xromatografik tahlil (GC-FID) orqali aniqlangan asosiy yog‘ kislotalarining nisbiy miqdorlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

ISSN 3030-3907

1-Jadval

Zig‘ir moyidagi asosiy yog‘ kislotalarining tarkibi va ularning funksional ahamiyati

Yog‘ kislotasi	Turi	Taxminiy miqdori (% mass)	Biologik ahamiyati
Alfa-linolenik (ALA, C18:3)	Omega-3	50–60%	Yallig‘lanishga qarshi, yurak-qon tomir tizimini qo‘llab-quvvatlaydi, miya faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
Linoleik (LA, C18:2)	Omega-6	15–20%	Immun tizimini mustahkamlaydi, teri regeneratsiyasini tezlashtiradi.
Oleik (C18:1)	Omega-9	15–20%	Yurak salomatligi uchun foydali, “yaxshi” xolesterin (HDL) darajasini oshiradi.
Palmitik (C16:0)	To‘yingan	5–7%	Energiya manbai, hujayra membranasi tarkibida ishtirok etadi.
Stearin (C18:0)	To‘yingan	2–4%	Neytral yog‘, yengil hazm bo‘ladi, texnologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Zig‘ir moyining asosiy ustunligi — uning alfa-linolenik kislotasi (ALA, omega-3) miqdorining yuqoriligi bilan bog‘liq. ALA kislotasi yurak ritmini me'yorda ushlab turish, qon bosimini pasaytirish, hujayra ichki yallig‘lanishini kamaytirish hamda miya neyronlarining barqaror faoliyatini qo‘llab-quvvatlash xususiyatlariga ega [1,2].

Tadqiqot natijalari boshqa o‘simlik moylari bilan solishtirilganda, zig‘ir moyining omega-3 kislotasiga boyligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan: Zaytun moyida ALA kislotasi < 1% atrofida bo‘lib, asosan olein (C18:1) kislotasi (~70–75%) ustunlik qiladi. Kungaboqar moyi esa ~60% linoleik (omega-6) kislota bilan boy, lekin omega-3 miqdori nihoyatda past. Kanola moyida omega-3 (ALA) miqdori 9–11% ni tashkil qiladi, bu zig‘irnikidan ancha kam. Shuningdek, zig‘ir moyidagi to‘yintirilgan yog‘ kislotalar (palmitik va stearin) miqdori past bo‘lib (~10% atrofida), bu uni yurak-qon tomir salomatligi uchun maqbul yog‘ manbasi sifatida tavsiya etish imkonini beradi [3]. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, zig‘ir moyi tarkibidagi yuqori ALA kislotasi uni funktsional oziq-ovqat mahsuloti, biologik faol qo‘shimcha va terapevtik agent sifatida qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu moy o‘zining efir tarkibli yog‘ kislotalari orqali farmatsevtika, kosmetologiya va sport ovqatlanish sanoatida keng qo‘llanilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

XULOSA

O‘tkazilgan xromatografik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, zig‘ir (Linum usitatissimum) moyi yuqori ozuqaviy va terapevtik qiymatga ega o‘simlik yog‘i hisoblanadi. Uning tarkibida ayniqsa alfa-linolenik kislota (ALA, C18:3) miqdorining 50–60% gacha yetishi, boshqa madaniy moylar, masalan, zaytun, kungaboqar yoki soya yog‘lariga nisbatan sezilarli afzallikni ta’minlaydi. Bu kislota omega-3 guruhiga mansub bo‘lib, yurak-qon tomir tizimi faoliyatini me’yorda ushlab turish, yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirish, hujayra membranalarining funksional yaxlitligini ta’minlash va miya faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Zig‘ir yog‘i tarkibida linoleik (C18:2, omega-6) va olein (C18:1, omega-9) kabi boshqa foydali yog‘ kislotalarining muvozanatli nisbati uning biologik faol oziq-ovqat manbai sifatida qimmatliligini oshiradi. Bundan tashqari, past foizdagi to‘yintirilgan yog‘ kislotalar (palmitik va stearin) mavjudligi uni yurak salomatligi uchun xavfsiz va maqbul deb hisoblash imkonini beradi.

Zig‘ir yog‘ining qo‘llanilish sohasi nihoyatda keng: Sog‘lom ovqatlanish va funksional oziq-ovqat mahsulotlari sohasida yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishda parhez komponenti sifatida; Kosmetologiyada — teri va soch salomatligini tiklovchi va namlovchi vositalar tarkibida; Farmatsevtikada — omega-3 qo‘shimchalari, antioksidant komplekslar va yallig‘lanishga qarshi formulalarda faol komponent sifatida.

O‘zbekistonda qo‘llanilishi va istiqbollari O‘zbekistonda zig‘ir yog‘ining tijorat miqyosida yetishtirilishi va qayta ishlanishi hozircha keng ommalashmagan bo‘lishiga qaramasdan, bu yo‘nalish katta iqtisodiy va eksport salohiyatiga ega. Mahalliy agroiqlim sharoiti zig‘ir yetishtirishga mos keladi, shuningdek, ichki bozor sog‘lom ovqatlanish va ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Zig‘ir yog‘i parhez mahsuloti sifatida diabet, yurak ishemik kasalliklari va semizlik bilan kurashishda muhim vosita bo‘la oladi. Bundan tashqari, zig‘ir yog‘i asosida mahalliy kosmetik vositalar ishlab chiqarish, eksportga yo‘naltirilgan dorivor preparatlar ishlab chiqish hamda biologik faol qo‘shimchalar tayyorlash istiqbollari mavjud. Ayniqsa, xorijda sog‘lom turmush tarziga e’tibor kuchayib borayotgan bir paytda, o‘zbek brendi ostida ishlab chiqarilgan zig‘ir yog‘i va undan olingan formulalar xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, zig‘ir yog‘i — nafaqat ilmiy nuqtai nazardan o‘rganilishi lozim bo‘lgan modda, balki O‘zbekiston uchun iqtisodiy va innovatsion rivojlanish nuqtai nazaridan ham istiqbolli bioresursdir.

ISSN 3030-3907

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad M., Zia-Ul-Haq M., Iqbal S. Fatty Acid Composition of Linseed (Linum usitatissimum L.) Oil and Its Industrial Applications // Journal of Medicinal Plants Research. – 2011. – Vol. 5(10). – P. 1951–1954.
2. Qurbonov B. I., Salimov A. M. Fizikaviy va kolloid kimyo. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 420 b.
3. Чернов А. П., Андреев В. А. Физико-химические основы технологии масел и жиров. – Москва: КолосС, 2011. – 368 с.
4. AOAC Official Method 969.33. Fatty Acids in Oils and Fats. – In: Official Methods of Analysis. – 21st ed. – AOAC Int., 2019.
5. Christie W. W. Gas Chromatography and Lipids: A Practical Guide. – Bridgewater: The Oily Press, 1989. – 311 p.
6. Omonov Sh. O., Yusupova M. X. Organik moddalarning fizik-kimyoviy asoslari. – Samarqand: SamDU, 2020. – 167 b.
7. GOST 54758–2011. Растительные масла. Методы определения кислотного и йодного чисел. – Москва: Стандартинформ, 2011. – 12 с.
8. Salimon J., Abdullah B. M., Salih N. Fatty acid composition and physicochemical properties of Malaysian castor bean Ricinus communis L. seed oil // Malaysian Journal of Analytical Sciences. – 2010. – Vol. 14(1). – P. 22–28.
9. Azizova R. R., Rashidova S. S. Kimyoviy moddalarning tahlil usullari. – Toshkent: Innovatsiya, 2017. – 310 b.
10. Hamilton R. J., Hamilton S. Lipid Analysis: A Practical Approach. – Oxford: IRL Press, 1992. – 250 p.
11. Мазурин И. П., Николаев А. В. Химия и технология жиров. – Москва: Легкая и пищевая промышленность, 1990. – 320 с.
12. Normurodov D. Sh. O‘simlik moylari texnologiyasi. – Toshkent: Mehnat, 2010. – 240 b.
13. Belitz H.-D., Grosch W., Schieberle P. Food Chemistry. – 4th ed. – Berlin: Springer, 2009. – 1070 p.
14. Maxmudov N. F. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifatini baholash. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. – 132 b.
15. Корнеев Н. А. Хроматография в анализе пищевых продуктов. – Санкт-Петербург: Химия, 2014. – 290 с.

ISSN 3030-3907

РЕЗУЛЬТАТЫ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ КОНСТРУКЦИИ ПЛАСТИНЧАТОГО ТЕПЛООБМЕННИКА

Юсупова Надира Кайпбаевна
д.ф.т.н., доцент, (DSc) докторант «ПиАХТ» ИОНХ АН РУз
E-mail: ***nadira__87@mail.ru***
Сарсенбаев Нурлан Тенелбаевич
стажёр преподаватель КГУ имени Бердаха
E-mail: nurlan0595s@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются современные методы интенсификации теплообмена в пластинчатых теплообменниках за счёт изменения геометрии каналов. Обоснована эффективность гофрированных, шевронных и зигзагообразных структур в снижении сопротивления потоку и повышении коэффициента теплопередачи. Анализируются особенности влияния угла наклона рельефа пластин на турбулентность потока и образование застойных зон. Приведены рекомендации по выбору геометрии с учётом условий эксплуатации в газоперерабатывающей отрасли.

Ключевые слова: пластинчатый теплообменник, теплообмен, турбулентность, геометрия каналов, коэффициент теплоотдачи.

Annotatsiya. Maqolada plastinali issiqlik almashtirgichlarda kanallar geometriyasini o‘zgartirish orqali issiqlik almashinuvini jadallashtirishning zamonaviy usullari ko‘rib chiqiladi. Oqim qarshiligini kamaytirish va issiqlik uzatish koeffitsiyentini oshirishda gofrirlangan, shevron va zigzagsimon strukturalarning samaradorligi asoslangan. Plastinalar relefi qiyalik burchagining oqim turbulentligiga va turg‘un zonalar hosil bo‘lishiga ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Gazni qayta ishlash sanoatida ekspluatatsiya sharoitlarini hisobga olgan holda geometriyani tanlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: plastinkali issiqlik almashtirgich, issiqlik almashinuvi, turbulentlik, kanallar geometriyasi, issiqlik berish koeffitsiyenti.

Abstract. The article examines modern methods of intensifying heat exchange in plate heat exchangers by changing the geometry of channels. The effectiveness of corrugated, chevron, and zigzag structures in reducing flow resistance and increasing the heat transfer coefficient has been substantiated. The peculiarities of the influence of the slope angle of the plate relief on the turbulence of the flow and the formation of stagnant zones are analyzed. Recommendations for choosing geometry are given, taking into account operating conditions in the gas processing industry.

Keywords: plate heat exchanger, heat exchange, turbulence, channel geometry, heat transfer coefficient.

ISSN 3030-3907

Введение

Газоперерабатывающие заводы играют ключевую роль в обеспечении эффективного и экологически безопасного использования углеводородного сырья. В их технологических схемах широко применяются пластинчатые теплообменники, отличающиеся компактностью, высокой теплоотдачей и возможностью быстрой разборки для обслуживания. Однако в условиях переработки природного газа и газовых конденсатов, содержащих механические примеси, сернистые соединения и конденсатные фракции, теплообменные аппараты часто сталкиваются с проблемами загрязнения и зарастания теплопередающих поверхностей [1-3].

Эти процессы существенно снижают тепловую эффективность оборудования, увеличивают затраты энергии и вызывают внеплановые простои для очистки и ремонта. В связи с этим задача повышения надёжности, устойчивости к загрязнениям и общей эффективности пластинчатых теплообменников является актуальной как с технологической, так и с экономической точки зрения. Усовершенствование конструкции, оптимизация геометрии каналов и применение современных антикоррозионных и антифрикционных покрытий позволяет не только продлить срок службы аппаратов, но и повысить энергоэффективность всего производственного процесса [4-7].

Современные исследования показывают, что изменение геометрической конфигурации каналов пластинчатых теплообменников способствует значительному увеличению коэффициента теплоотдачи – в среднем на 15-30% по сравнению с традиционными конструкциями. Основной механизм повышения эффективности заключается в интенсификации турбулентных потоков за счёт специально спрофилированной поверхности пластин [8].

Разработка и внедрение технических решений, направленных на усовершенствование пластинчатых теплообменников для условий газоперерабатывающих производств, представляют собой важное направление, способствующее снижению эксплуатационных расходов, повышению устойчивости оборудования и увеличению общей производительности завода [9].

Методы и материалы. Анализ проведён на основе сравнения различных типов каналов – гладких, гофрированных, шевронных (30°, 60°) и зигзагообразных. Были использованы расчётные формулы теплопередачи (уравнение теплового потока, зависимости для Nu, Re, Pr) и эмпирические данные из публикаций.

ISSN 3030-3907

Также приведены результаты моделирования и данные с промышленных объектов. Расчёт тепловой мощности проведён при A = 10 м², ΔT = 20 °C, α_1 = 1800 Вт/(м²·К), α_2 = 3000 Вт/(м²·К), δ = 0,0006 м, λ = 15 Вт/(м·К).

Расчёт:

$$1/k = 1/1800 + 0{,}0006/15 + 1/3000 \approx 0{,}0005561$$

$$k \approx 1798 \text{ Вт/(м}^2\cdot\text{К)}$$

$$Q = k \times A \times \Delta T = 1798 \times 10 \times 20 = 35960 \text{ Вт}$$

Результаты и обсуждения. Одним из ключевых параметров, влияющих на интенсивность теплообмена, является угол наклона каналов, формируемых рельефом пластин. Угол влияет как на гидродинамическое сопротивление, так и на формирование вторичных течений внутри каналов. Наиболее распространённые диапазоны:

-30-40° - обеспечивают умеренную турбулентность и низкое гидравлическое сопротивление. Подходят для чистых сред при ограниченных затратах энергии на перекачку.

-45-60° - создают сильную турбулентность, интенсифицируя теплообмен, но требуют более мощного насосного оборудования.

Комбинирование пластин с разным углом наклона (например, чередование 30° и 60°) позволяет достичь гибкого регулирования теплоотдачи и сопротивления, адаптируя теплообменник под переменные режимы эксплуатации.

Таблица 1

Зависимость коэффициента теплоотдачи от угла рельефа канала

Угол наклона рельефа	Коэффициент теплоотдачи α, Вт/(м²·К)
30°	2500
40°	2700
50°	2950
60°	3200

ISSN 3030-3907




Рисунок-1. Влияние угла наклона рельефа на коэффициент теплоотдачи

Одним из ключевых факторов, влияющих на эффективность теплообмена в пластинчатых теплообменниках, является геометрия поверхности теплообмена. В частности, угол наклона рельефа оказывает значительное влияние на коэффициент теплоотдачи.

Проведённые исследования показали, что увеличение угла наклона рельефа от 30° до 60° приводит к поступательному росту коэффициента теплоотдачи: с 2500 до 3200 Вт/(м²·К). Это связано с усилением турбулентности потока теплоносителя, вызываемой более крутыми выступами рельефа, что способствует улучшению теплообмена между поверхностью и рабочей средой.

На рисунке приведена графическая зависимость, демонстрирующая эту тенденцию: при 30° – α = 2500 Вт/(м²·К); при 40° – α = 2700 Вт/(м²·К); при 50° – α = 2950 Вт/(м²·К); при 60° – α = 3200 Вт/(м²·К).

Таким образом, оптимизация угла наклона рельефа может рассматриваться как эффективный метод повышения теплотехнической производительности теплообменных аппаратов, особенно в условиях ограниченной площади теплообмена.

Кроме того, важную роль играет высота и форма рельефа, а также ширина потока между пластинами. Экспериментально доказано, что увеличение глубины канавки при сохранении угла наклона повышает уровень турбулентности, однако чрезмерное увеличение приводит к росту сопротивления и износу материала.

Для газоконденсатных и аминсодержащих потоков рекомендуется использование каналов с углом 45-60°, выполненных из нержавеющих сталей

ISSN 3030-3907

или титана, с защитными покрытиями от агрессивных компонентов. Для промежуточного охлаждения газа с высокой запылённостью – применяются пластинчатые теплообменники с зигзагообразными каналами и виброустойчивым креплением.

Таблица 2

Сравнение перепада давления для различных геометрий каналов

Тип канала	Перепад давления, кПа
Гладкий	18
Плавный шеврон (30°)	22
Острый шеврон (60°)	28
Зигзагообразный	26

В табл.2 приведены значения перепада давления (в кПа), возникающего при прохождении теплоносителя через каналы различных типов в пластинчатом теплообменнике. Перепад давления зависит от геометрии каналов: чем более выражена турбулизация потока, тем выше сопротивление движению среды.

Гладкий канал обеспечивает наименьшее гидравлическое сопротивление, но при этом и наименьшую турбулизацию потока, а значит – ограниченный теплообмен. Плавный шеврон (30°) создает умеренное сопротивление (22 кПа) и обеспечивает улучшенное перемешивание. Острый шеврон (60°) формирует наиболее выраженную турбулентность, обеспечивая лучший теплообмен, но сопровождается наибольшим перепадом давления — 28 кПа. Зигзагообразный канал занимает промежуточное положение: создаёт значительное сопротивление (26 кПа) за счёт многократных изменений направления потока.

Таким образом, при проектировании теплообменников необходимо находить оптимальный баланс между эффективностью теплоотдачи и допустимыми потерями давления.

Результаты показывают, что использование шевронных и зигзагообразных каналов позволяет значительно повысить теплотехнические характеристики пластинчатых теплообменников. При этом угол наклона 60° обеспечивает максимальный коэффициент теплоотдачи, однако требует усиления насосного оборудования. Снижение загрязняемости каналов также положительно сказывается на межочистных интервалах и сроке службы оборудования. Промышленные кейсы подтверждают эффективность перехода к усовершенствованной геометрии.

Заключение

ISSN 3030-3907

Модификация геометрии каналов пластинчатых теплообменников является эффективным направлением повышения теплотехнической и эксплуатационной эффективности оборудования, особенно в условиях загрязнённых сред, характерных для газоперерабатывающих производств. Внедрение шевронных и зигзагообразных пластин с оптимальным углом наклона позволяет добиться значительного улучшения теплоотдачи и устойчивости к загрязнениям. Дополнительным преимуществом этих конструкций является снижение риска образования застойных зон и отложений. Это особенно важно при наличии твёрдых частиц, смолистых компонентов и коррозионно-агрессивных включений, характерных для среды на газоперерабатывающих установках. Сравнительный анализ показал, что теплообменники с усовершенствованными каналами требуют очистки в 2–3 раза меньше, чем аппараты с традиционной гладкой поверхностью.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Kakac, S., Liu, H. Heat Exchangers: Selection, Rating, and Thermal Design. CRC Press, 2002.
2. Shah, R. K., & Sekulic, D. P. Fundamentals of Heat Exchanger Design. John Wiley & Sons, 2003.
3. Меньшиков В.В. Пластинчатые теплообменники: теория и практика. – М.: Энергия, 2020.
4. Сивецкий В.Л., Селиванов В.Н. Повышение эффективности теплообменного оборудования в нефтегазовой отрасли. — Химическая промышленность, 2019.
5. Гордеев А.Н. Экспериментальное исследование влияния геометрии каналов на теплообмен в ПТ. – Вестник машиностроения, 2021.
6. Petukhov B.S. Heat transfer and friction in turbulent pipe flow with variable physical properties – Adv. Heat Transfer, 1970.
7. Xurmamatov A.M., Yusupova N.K., Sarsenbayev N.T., Alimov N.P., Polatov I.O. Jeńil uglevodorodlardíń eritilgen neft shlamlarínan ajíralíw nátiyjeleri // “Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха”, № 3 (61), 2023. – С. 33-36.
8. Юсупова Н.К., Сарсенбаев Н.Т., Мирзайев Ж.К. Зависимость эффективности конденсации от концентрациитвердой фазы в парогазовой смеси // «Экспериментал тадқиқотлар» журнали, №5, 2024 – С.58-62.
9. Xurmamatov A.M., Berdimbetov S.B., Sarsenbaev N.T., Mirzaev J.Q. Intensification of heat transfer in the condensation process of vapor-gas mixtures

ISSN 3030-3907

using plate heat exchangers // Science and Education in Karakalpakstan. №4/2 (45) Nukus 2024. 198-202p.

ISSN 3030-3907

UDK:02.00.00

O‘SIMLIK MOYLARI TARKIBIDAGI YOG‘ KISLOTALARINI O‘RGANISHNING FIZIK-KIMYOVIY ASOSLARI

Komila Bebitova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti, 2-kurs magistranti

E-mail: bebitovakomila@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘simlik moylari tarkibidagi yog‘ kislotalarning fizik-kimyoviy xossalari va ularni aniqlash usullari tahlil qilinadi. Yog‘ kislotalarining tuzilishi, to‘yinmaganlik darajasi, erish harorati, yod soni, peroksid soni va HLB qiymatlari ularning sanoatdagi funksional qo‘llanilishiga bevosita ta’sir qiladi. Gaz xromatografiyasi, infraqizil spektroskopiya, yadroviy magnit rezonansi kabi zamonaviy tahlil usullarining afzalliklari yoritilgan. Olingan ma’lumotlarning oziq-ovqat xavfsizligi, farmatsevtika, bioyoqilg‘i va kosmetika sanoatidagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yog‘ kislotalari, o‘simlik moyi, gaz xromatografiyasi, fizik-kimyoviy xossalar, yod soni, peroksid soni, biofaollik, HLB, esterlash

Аннотация: В статье рассматриваются физико-химические свойства жирных кислот, содержащихся в растительных маслах, а также современные методы их анализа. Структура кислот, степень ненасыщенности, температура плавления, йодное и пероксидное числа, а также значение HLB напрямую влияют на технологическое применение масел. Описаны преимущества газовой хроматографии, инфракрасной спектроскопии и ядерного магнитного резонанса. Обоснована практическая значимость полученных данных в пищевой, фармацевтической, косметической промышленности и при производстве биотоплива.

Ключевые слова: жирные кислоты, растительное масло, газовая хроматография, физико-химические свойства, йодное число, пероксидное число, биоактивность, HLB, этерификация

Abstract: This article explores the physicochemical properties of fatty acids found in vegetable oils and the analytical methods used for their identification. The molecular structure, degree of unsaturation, melting point, iodine value, peroxide value, and HLB index directly influence their industrial applications. The study highlights the advantages of gas chromatography, infrared spectroscopy, and nuclear magnetic resonance. The practical relevance of the findings is discussed in the context of food safety, pharmaceuticals, cosmetics, and biofuel production.

Keywords: fatty acids, vegetable oil, gas chromatography, physicochemical properties, iodine value, peroxide value, bioactivity, HLB, esterification.

Kirish

ISSN 3030-3907

So‘nggi yillarda o‘simlik moylari tarkibidagi yog‘ kislotalarining fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish oziq-ovqat xavfsizligi, farmatsevtika, kosmetologiya hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi ilmiy izlanishlarning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. O‘simlik moylari tarkibidagi asosiy komponentlar bo‘lgan yog‘ kislotalarining molekulyar tuzilishi, erish-qaynash harorati, oksidlanish barqarorligi va emulgatsiya qobiliyati ularning amaliyotda qo‘llanilish doirasini belgilaydi. Fizik kimyo nuqtai nazaridan, bu xossalar termodinamik, kinetik, va fazalararo muvozanat qonuniyatlari asosida tushuntiriladi. Masalan, yog‘ kislotalarining erkin energiyasi (ΔG) va oksidlanish entalpiyasi (ΔH) ularning kimyoviy barqarorligiga va reaktivligiga bevosita ta’sir qiladi. O‘simlik moylarida mavjud bo‘lgan triatsetilglitseridlar gidrolizlanib erkin yog‘ kislotalarni hosil qilganida, kislotalik soni ortadi, bu esa mahsulotning yaroqlilik muddatini qisqartiradi [1].

Shuningdek, molekuladagi qo‘sh bog‘lar soni (to‘yinmaganlik darajasi) yod soni orqali aniqlanadi va u lipidlar tarkibidagi reaktivlik darajasini belgilashda muhim fizik-kimyoviy ko‘rsatkich hisoblanadi [2]. Yod soni yuqori bo‘lgan moylar oksidlovchi muhitda tezroq buziladi, chunki to‘yinmagan bog‘lar yuqori erkin energiyaga ega va kislorod bilan tez reaksiyaga kirishadi. Bu holat peroksid sonining ortishiga olib keladi, bu esa termodinamik jihatdan noturg‘un peroksidlar hosil bo‘lishini bildiradi. Yog‘ kislotalarining termik barqarorligi esa ularning molekulyar massasiga, zanjir uzunligiga va qo‘sh bog‘lar soniga bog‘liq. Masalan, stearin kislotasi (C18:0) yuqori haroratda nisbatan barqaror bo‘lsa, linolen kislotasi (C18:3) past haroratda ham tez oksidlanib ketadi. Bu farqlar Arrenius tenglamasi asosida harorat ta’sirida reaksiyalar tezligini tahlil qilish imkonini beradi.

Arrenius tenglamasi:

$$k = A \cdot e^{\frac{-E_a}{RT}}$$

Bu yerda:k – reaksiyaning tezlik konstantasi, A – preeksponential faktor, E_a – aktivatsiya energiyasi (kJ/mol), R – gaz doimiysi (8.314 J/mol·K), T – mutlaq harorat (K).

Yana bir muhim fizik-kimyoviy parametr — Hydrophilic-Lipophilic Balance (HLB). Bu ko‘rsatkich yog‘ kislotalarining suvga yoki moyga moyilligi darajasini bildiradi va u emulsifikatsiya tizimlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, linolein kislotasi kabi ko‘p to‘yinmagan kislotalar HLB qiymati yuqoriligi sababli kosmetik emulsiyalarda ko‘proq ishlatiladi.

ISSN 3030-3907

1-Jadval

Ba’zi asosiy yog‘ kislotalarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Yog‘ kislotasi	Molekulyar formulasi	Erish harorati (°C)	Yod soni	Kislotalik soni	Termik barqarorlik	HLB qiymati
Palmitin (C16:0)	$C_{16}H_{32}O_2$	63	0	Past	Yuqori	1–2
Stearin (C18:0)	$C_{18}H_{36}O_2$	69.6	0	Past	Yuqori	1–2
Olein (C18:1)	$C_{18}H_{34}O_2$	13–14	86–92	O‘rtacha	O‘rtacha	6–8
Linolein (C18:2)	$C_{18}H_{32}O_2$	-5	170–180	Yuqori	Past	8–10
Linolen (C18:3)	$C_{18}H_{30}O_2$	-11	>190	Yuqori	Juda past	10–12

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan asosiy yog‘ kislotalarining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari ularning molekulyar tuzilishiga bevosita bog‘liq. To‘yingan yog‘ kislotalar (palmitin va stearin) zanjirida qo‘sh bog‘lar mavjud bo‘lmaganligi sababli molekulalar zich joylashadi, bu esa kristall panjarani mustahkam qiladi va natijada erish haroratining yuqori bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli bu kislotalar yuqori termik barqarorlikka ega bo‘lib, ular oziq-ovqat va kosmetik mahsulotlarning saqlanish muddatini uzaytirishda foydali.

Aksincha, to‘yinmagan yog‘ kislotalar (olein, linolein, linolen) molekulalarida bir yoki bir nechta qo‘sh bog‘lar mavjud. Ushbu qo‘sh bog‘lar molekulaning “bukilishiga” sabab bo‘lib, zanjirlarning o‘zaro yaqinlashuvini qiyinlashtiradi, bu esa erish haroratini pasaytiradi va moddani suyuq holatda saqlab turadi. Shu bilan birga, bu qo‘sh bog‘lar reaktiv bo‘lib, kislorod bilan oson oksidlanadi. Shu sababli peroksid soni yuqori bo‘ladi, ya’ni bunday moylar saqlanishda tez aynishi mumkin. Ayniqsa linolen kislotasi ko‘p qo‘sh bog‘larga ega bo‘lgani uchun u juda kam barqaror va kislorodga nisbatan sezuvchan. Yod sonining qiymati ham kislotalarning to‘yinmaganlik darajasini bevosita aks ettiradi. Yod soni qanchalik yuqori bo‘lsa, to‘yinmagan bog‘lar soni shunchalik ko‘p bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich ayniqsa bioyoqilg‘i tayyorlashda muhim bo‘lib, reaktivlikni va esterifikatsiya samaradorligini belgilaydi.

Shuningdek, HLB (Hydrophilic-Lipophilic Balance) ko‘rsatkichi kislotalarning emulsiya hosil qilishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. U yuqori bo‘lgan kislotalar (masalan, linolen) suv bilan yaxshi aralashadi, bu esa ularni kosmetika va farmatsevtika emulsiyalarida qo‘llash imkonini beradi. Aksincha,

ISSN 3030-3907

HLB past bo‘lgan kislotalar (stearin, palmitin) esa yog‘ asosli kremlar va suyuq moylar tarkibida faol ishlatiladi. Umuman olganda, ushbu fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarning har biri o‘simlik moyining funksional xossalarini belgilab beradi va ularni aniq sanoat maqsadlarida qo‘llash imkonini beradi: masalan, oziq-ovqatda barqarorlik va lazzatni saqlash, farmatsevtikada tashuvchi moddalar sifatida, yoki biopolimer ishlab chiqarishda xom

TADQIQOT USULLARI VA NATIJALAR

O‘simlik moylari tarkibidagi yog‘ kislotalarni sifat va miqdor jihatidan aniqlash — ularning funktsional xususiyatlarini o‘rganish, sanoat talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqish va sifat nazoratini ta’minlashda muhim bosqich hisoblanadi. Bu maqsadda zamonaviy analitik kimyo va fizik kimyo yutuqlariga asoslangan quyidagi usullar keng qo‘llaniladi.

Gaz xromatografiyasi (GC) Gaz xromatografiyasi — yog‘ kislotalarining eng aniq va takrorlanuvchan tahlil usullaridan biri bo‘lib, ularni metil esterlar shaklida ajratish asosida bajariladi. Chunki erkin yog‘ kislotalar gaz xromatografik sharoitda barqaror emas. Esterifikatsiya reaktsiyasi natijasida hosil bo‘lgan metil esterlar uchuvchanlik xossasiga ega bo‘lib, kolonka bo‘ylab harakatlanish tezligi ularning karbon zanjiri uzunligi va to‘yinmaganlik darajasiga bog‘liq. Ushbu usulda alevtrotermik muvozanat, sorbtsiya-desorbtsiya jarayonlari va komponentlarning gaz-faza xossalari fizik kimyoviy asos sifatida xizmat qiladi. Ajratilgan komponentlar flame ionization detector (FID) yoki mass-spektral detektor (GC-MS) yordamida aniqlanadi. Afzalliklari: yuqori aniqlik, aralashmalarni ajratish qobiliyati, sifat va miqdoriy tahlil imkoniyati. Kamchiliklari: namunani oldindan kimyoviy ishlov berish zarurati, qimmat jihozlar.

Infraqizil (IR) spektroskopiya; Infraqizil spektroskopiya — yog‘ kislotalardagi funktsional guruhlarni (karboksil –COOH, alken =C–H, metilen –CH2–) aniqlashga asoslangan tezkor usuldir. Bu usul moddaning infraqizil diapazondagi nur so‘rishini o‘lchashga asoslangan bo‘lib, qattiq, suyuq yoki plyonka holatidagi namunalarni tekshirishga imkon beradi. Fizik kimyo nuqtai nazaridan bu usul molekulyar vibratsiyalar (cho‘zilish, egilish, aylanish) orqali moddaning tuzilmasi haqida ma’lumot beradi. Masalan, 1700 sm^{-1} atrofidagi so‘rilish chizig‘i karboksil guruhiga xos bo‘lib, yog‘ kislotasi mavjudligini bildiradi. Afzalliklari: tezkorlik, namunani minimal tayyorlash, arzonlik. Kamchiliklari: faqat sifat tahlil, aralashmalarda to‘liq ajratish qiyin.

Yadroviy magnit rezonansi (NMR) NMR spektroskopiyasi — yog‘ kislotalarning molekulyar strukturasi, qo‘sh bog‘lar joylashuvi, va stereokimyosini aniqlovchi eng chuqur analitik usullardan biridir. Ayniqsa ^{1}H-NMR va ^{13}C-NMR

ISSN 3030-3907

texnikalari yog‘ kislotalar molekulalaridagi har bir atomning atrofidagi elektron muhitini aks ettiradi. Fizik kimyo asosida, bu usul magnit maydonda aylanuvchi yadrolarning rezonans chastotasi va ularning kimyoviy siljishi (chemical shift) orqali aniqlanadi. Masalan, doimiy uzun zanjirli kislotalarda metilen guruhlari ~1.2 ppm, alken protonlari esa ~5.3 ppm atrofida signal beradi. Afzalliklari: aniq strukturaviy ma’lumot, izomerlar farqini ko‘rsatish. Kamchiliklari: yuqori xarajat, faqat laboratoriya sharoitida.

Esterifikatsiya va saponifikatsiya testlari Esterifikatsiya usuli — erkin yog‘ kislotalarni spirtlar bilan reaksiya qilish orqali aniqlashni o‘z ichiga oladi. Masalan, metanol bilan reaktsiyaga kiris/hib metil esterlar hosil qiladi, bu esa GC yoki boshqa usullar bilan tahlil qilinadi. Esterifikatsiya Le-Chatelier prinsipi asosida — orqaga qaytuvchi reaksiyalarning muvozanatini oldinga siljitish orqali bajariladi. Saponifikatsiya testi esa moydagi umumiy yog‘ kislotalar miqdorini aniqlashda ishlatiladi. Moylar gidroksid (masalan, KOH) bilan qizdirilib sabunlash reaksiya natijasida glitserin va yog‘ kislotalar tuzlari (sabunlar) hosil qiladi. Sarf bo‘lgan gidroksid miqdori asosida saponifikatsiya soni hisoblanadi. Afzalliklari: arzon va oddiy, umumiy miqdorni aniqlashda samarali. Kamchiliklari: komponentlar ajratilmaydi, faqat umumiy qiymat olinadi.

XULOSA

O‘simlik moylari tarkibidagi yog‘ kislotalarining fizik-kimyoviy xossalarini chuqur o‘rganish, ularning biologik ahamiyatini aniqlash, va turli sanoat tarmoqlarida maqsadli qo‘llash imkoniyatlarini ochib beradi. Bunday tahlillar bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligidan tortib, farmatsevtika, bioyoqilg‘i va kosmetika sanoatiga qadar keng doirada talab etilmoqda. Oziq-ovqat sanoatida, yog‘ kislotalarning tarkibi ularning oksidlanish darajasi, raf umrining uzunligi va inson salomatligiga ta’siri bilan bevosita bog‘liq. Masalan, linolein va olein kabi to‘yinmagan kislotalar yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishda foydali hisoblanadi, ammo ularning yuqori oksidlovchanligi saqlash sharoitlariga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar — yod soni, peroksid soni va kislotalik soni — yog‘ mahsulotlarining sifatini nazorat qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Farmatsevtik sohada esa zig‘ir, namatak, kanakunjut kabi dorivor o‘simlik moylarida mavjud bo‘lgan faol yog‘ kislotalarning standartlanishi va xromatografik identifikatsiyasi dori vositalarining sifatini ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, omega-3 va omega-6 kislotalari kabi bioreaktiv komponentlarning miqdoriy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.Bioyoqilg‘i ishlab chiqarishda esa yog‘ kislotalarining strukturasi va to‘yinmaganlik darajasi muhim hisoblanadi. Ko‘p to‘yinmagan kislotali moylar metanol bilan reaksiyaga kirishib yuqori unumli metil esterlar (biodizel) hosil qiladi. Bu jarayonda reaksiyaning kinetikasi,

ISSN 3030-3907

katalizator tanlovi va termodinamik shart-sharoitlar fizik kimyoning amaliy natijasidir.

Kosmetika va biopolimerlar sohalarida esa yog‘ kislotalarning HLB ko‘rsatkichiga asoslangan emulgatorlik qobiliyati, namlovchi va yumshatuvchi ta’siri ularning formulalarda ishlatilishini belgilaydi. Ayniqsa, linolen kislotasi kabi yuqori HLB qiymatiga ega komponentlar suv asosidagi emulsiya tizimlarida muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, o‘simlik moylari tarkibidagi yog‘ kislotalarning fizik-kimyoviy tahlili faqatgina kimyoviy strukturani aniqlash bilan cheklanib qolmay, balki ushbu komponentlarning amaliyotdagi funksional qiymatini aniqlab berishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ilmiy asoslangan texnologik yechimlar ishlab chiqish, sifat nazoratini optimallashtirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkonini yaratadi. Yog‘ kislotalarni GC, IR, NMR va boshqa tahlil usullari orqali o‘rganish esa ularning molekulyar strukturasidan tortib, biofaollik darajasigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda chuqur va aniq tahlil olib borishga imkon beradi. Bu orqali turli sohalarda raqobatbardosh, samarali va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gunstone F. D. Vegetable Oils in Food Technology: Composition, Properties and Uses. – 2nd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2011. – 375 b.
2. Qurbonov B. I., Salimov A. M. Fizikaviy va kolloid kimyo. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 420 b.
3. Чернов А. П., Андреев В. А. Физико-химические основы технологии масел и жиров. – Москва: КолосС, 2011. – 368 с.
4. Christie W. W. Gas Chromatography and Lipids: A Practical Guide. – Bridgewater: The Oily Press, 1989. – 311 b.
5. AOAC Official Method 969.33. Fatty Acids in Oils and Fats // Official Methods of Analysis. – 21st ed. – Washington, D.C.: AOAC International, 2019.
6. Omonov Sh. O., Yusupova M. X. Organik moddalarning fizik-kimyoviy asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 167 b.
7. Мазурин И. П., Николаев А. В. Химия и технология жиров. – Москва: Легкая и пищевая промышленность, 1990. – 320 с.
8. Salimon J., Abdullah B. M., Salih N. Fatty acid composition and physicochemical properties of Malaysian castor bean Ricinus communis L. seed oil // Malaysian Journal of Analytical Sciences. – 2010. – Vol. 14, №1. – B. 22–28.
9. Normurodov D. Sh. O‘simlik moylari texnologiyasi. – Toshkent: Mehnat, 2010. – 240 b.

ISSN 3030-3907

10. Белиц Х.-Д., Грош В., Шиберле П. Пищевая химия. – Москва: БИНОМ, 2012. – 1070 с.
11. Ahmad M., Zia-Ul-Haq M., Iqbal S. Fatty Acid Composition of Linseed (Linum usitatissimum L.) Oil and Its Industrial Applications // Journal of Medicinal Plants Research. – 2011. – Vol. 5(10). – P. 1951–1954.
12. Azizova R. R., Rashidova S. S. Kimyoviy moddalarning tahlil usullari. – Toshkent: Innovatsiya, 2017. – 310 b.
13. ГОСТ 54758–2011. Растительные масла. Методы определения кислотного и йодного чисел. – Москва: Стандартинформ, 2011. – 12 с.
14. Hamilton R. J., Hamilton S. Lipid Analysis: A Practical Approach. – Oxford: IRL Press, 1992. – 250 b.
15. Maxmudov N. F. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifatini baholash. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. – 132 b.
16. Корнеев Н. А. Хроматография в анализе пищевых продуктов. – Санкт-Петербург: Химия, 2014. – 290 с.
17. Levina I. A. Fatty acids and their derivatives in cosmetics. – Moscow: Mir, 2018. – 240 p.

ISSN 3030-3907

BUG‘ QIZDIRGICH TEXNOLOGIK PARAMETRLARINI BOSHQARISH TIZIMINI NEYROTARMOQ TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TADQIQ ETISH

Sodiqova Feruzaxon Botirxon qizi
Toshkent davlat texnika universiteti
E-mail: feruzakhon94@mail.ru
Tel: +998911324142
Yakubova Noilaxon Sobirjonovna,
Toshkent davlat texnika universiteti
E-mail: noila.yakubova@gmail.ru

Annotatsiya. Issiqlik elektr stansiyalarida issiqlik yuklamasini o‘zgarishining notekisligi, havo va yoqilg‘ining yoqish kamerasiga berilishini o‘zgaruvchanligi, obyektning dinamik xususiyatlarining noaniqligi, turli xil g‘alayonlarning qisman ehtimollik va tasodifiylik xususiyatiga ega ekanligi, hamda havo va yoqilg‘i nisbatini rostlash sifatining pastligi energiyaning yo‘qotilishiga olib keladi. Mazkur tadqiqotda bug‘ generatori issiqlik yuklamasini noravshan boshqarish tizimini sintezlash masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot obyekti sifatida real sanoat sharoitida ishlovchi bug‘ generatori tanlab olingan bo‘lib, uning texnologik jarayonlari yuqori darajadagi noaniqlik va nochiziqlik bilan tavsiflanadi. An’anaviy boshqaruv usullarining cheklovlarini bartaraf etish maqsadida, neyrotarmoq texnologiyalari asosida boshqaruv algoritmi ishlab chiqiladi. Taklif etilgan yondashuv sanoat energetika tizimlarida issiqlik jarayonlarini optimallashtirish uchun samarali yechimdir.

Kalit so‘zlar: bug‘ generatori, issiqlik yuklamasi, noravshan mantiq, noravshan boshqaruv tizimi, energiya samaradorligi, tizim dinamikasi, intellektual boshqaruv usullari, adaptive boshqaruv, matematik modellashtirish, optimallashtirish.

Аннотация. На тепловых электростанциях неравномерность изменения тепловой нагрузки, непостоянство подачи воздуха и топлива в камеру сгорания, неопределенность динамических характеристик объекта, парциальная вероятность и случайность различных возмущений, а также низкое качество регулирования соотношения воздуха и топлива приводят к потерям энергии. В данном исследовании рассматривается вопрос синтеза нечеткой системы управления тепловой нагрузкой парогенератора. В качестве объекта исследования выбран парогенератор, работающий в реальных промышленных условиях, технологические процессы которого характеризуются высоким уровнем неопределенности и нелинейности. Для преодоления ограничений традиционных методов управления разработан алгоритм управления на основе нейросетевых технологий. Предложенный

ISSN 3030-3907

подход является эффективным решением для оптимизации тепловых процессов в промышленных энергетических системах.

Ключевые слова: парогенератор, тепловая нагрузка, нечеткая логика, нечеткая система управления, энергоэффективность, динамика системы, интеллектуальные методы управления, адаптивное управление, математическое моделирование, оптимизация.

Abstract. At thermal power plants, uneven changes in the heat load, inconsistency of air and fuel supply to the combustion chamber, uncertainty of the dynamic characteristics of the object, partial probability and randomness of various disturbances, as well as poor quality of air-fuel ratio regulation lead to energy losses. This study considers the issue of synthesizing a fuzzy control system for the heat load of a steam generator. The object of study is a steam generator operating in real industrial conditions, the technological processes of which are characterized by a high level of uncertainty and nonlinearity. To overcome the limitations of traditional control methods, a control algorithm based on neural network technologies has been developed. The proposed approach is an effective solution for optimizing thermal processes in industrial power systems.

Keywords: steam generator, heat load, fuzzy logic, fuzzy control system, energy efficiency, system dynamics, intelligent control methods, adaptive control, mathematical modeling, optimization.

1.Kirish

So‘nggi yillarda jahonda elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasida asosiy e’tibor issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonida energiya resurslarini tejash, ularni oqilona boshqarish va energiya samaradorligini oshirish masalalariga qaratilmoqda. Ayni paytda mavjud issiqlik elektr stansiyalarida issiqlik yuklamasining o‘zgaruvchanligi, yonish kamerasiga havo va yoqilg‘ining uzatilishidagi beqarorlik, boshqaruv obyektining dinamik xususiyatlarining noaniqligi, shuningdek, turli xil tashqi g‘alayonlarning ehtimollik va tasodifiy tabiatga ega bo‘lishi, hamda havo-yoqilg‘i nisbatini boshqarish sifati pastligi tufayli sezilarli energiya yo‘qotishlari yuzaga kelmoqda [1].

Mazkur muammolarni samarali yechishda texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlari asosida takomillashtirish, ayniqsa, boshqaruvning intellektual va noaniqlikni hisobga oluvchi usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, issiqlik energetika obyektlarida dinamik boshqaruv tizimlarini yaratish va ularning modellarini ishlab chiqishda sun’iy intellekt, noravshan mantiq, neyron tarmoqlar va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Boshqaruv modellari va algoritmlarini shakllantirish, mavjud

ISSN 3030-3907

parametrlar noaniqligi sharoitida barqaror va moslashuvchan tizimlarni sintezlash ilmiy jihatdan asosiy masalalardan biridir. Ayniqsa, issiqlik yuklamasining beqarorligi va tashqi ta’sirlarning ko‘pligi boshqaruv tizimlaridan yuqori aniqlik, barqarorlik va moslashuvchanlikni talab etadi. Shu tariqa, boshqaruvning zamonaviy dinamik sohasida kechuvchi murakkab texnologik jarayonlar uchun moslashuvchan va noaniqlikni hisobga oluvchi modellarni yaratish imkoniyati mavjud. Bunday yondashuvda tizimning tezkorligi va boshqaruv aniqligi hal qiluvchi omillar bo‘lib, ular texnologik jarayonlarning sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishga hamda umumiy energiya samaradorligini yuqori darajada ta’minlashga xizmat qiladi[2].

2.ADABIYOTLAR TAHLILI. Hozirda amaliyotda mavjud bo‘lgan issiqlik energetikasi obyektlarida, odatda, klassik boshqaruv qonun-qoidalariga asoslangan, tarkibida korrektlovchi qurilmalar mavjud bo‘lgan kombinatsiyalangan boshqaruv tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar oddiy tuzilishga va ekspluatatsion qulaylikka ega bo‘lganligi sababli sanoat ishlab chiqarishida keng tarqalgan. Biroq ularning asosiy kamchiliklari shundan iboratki, boshqaruv obyektining dinamik tavsiflari va ish rejimlaridagi o‘zgarishlar tizim parametrlarini doimiy ravishda sozlashni talab etadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda texnologik parametrlarni boshqarishning 90–95% holatlarida aynan an’anaviy boshqaruv algoritmlari qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuvlarning keng tarqalish sabablari qatoriga ularning funksional soddaligi, matematik asoslarining ravshanligi va amaliy jihatdan tez joriy etilishi kiradi. Shu bilan birga, murakkab, nochiziqli va noaniqlik muhitida bunday tizimlarning samaradorligi keskin pasayadi, bu esa issiqlik energetika obyektlarida ilg‘or, intellektual va moslashuvchan boshqaruv usullarini tatbiq etishni dolzarb vazifaga aylantiradi [3].

2.1. Sanoat obyektlarida boshqaruv parametrlarini tanlash va moslashtirish usullari.

Turli xil noaniqlik xususiyatlarga ega ba’zi qo‘shimcha omillarni hisobga olish zarurati ushbu usullarni takomillashtirish muammosini keltirib chiqaradi. Chunki yuklamalar haqidagi dastlabki ma’lumotlarning ehtimollik xarakteri va noaniqligi, shuningdek, elektr tizimlari chastotasidagi o‘zgarishlarni hisobga olish zarur. Ma’lumki, Kolmogorov teoremasi ko‘p o‘lchovli funksiyalarni bir o‘lchovli uzluksiz funksiyalarning kompozitsiyasi va yig‘indisi orqali ifodalash imkonini nazariy jihatdan asoslaydi. Biroq bu teorema amaliyotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilmaydi, balki ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarni berilgan aniqlikda funksional qatorlar orqali yaqinlashtirish (approksimatsiya) masalasi bilan almashtiriladi. Ayniqsa, real texnologik jarayonlarni modellashtirishda funksional

ISSN 3030-3907

approksimatsiya usullari, ko‘p o‘zgaruvchili bog‘lanishlarni ifodalashda yuqori aniqlik va moslashuvchanlikni ta’minlaydi [4].

Stoun–Veyershtrass teoremasi ham bu borada muhim nazariy asos hisoblanadi. U har qanday uzluksiz funksiyani kompakt to‘plamda ixtiyoriy aniqlikda ko‘rsatkich funksiyalari chiziqli kombinatsiyasi orqali approksimatsiya qilish mumkinligini isbotlaydi. Bu teorema funksional approksimatsiyaning chiziqli asosli usullar orqali bajarilishi mumkinligini ta’minlaydi va approksimatsiya nazariyasining nazariy asoslaridan biri sanaladi [5].

2.2. Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish mexanizmlari.

Neyron tarmoqlar asosidagi intellektual boshqaruv va rostlash tizimlari — dinamik obyektlar modelini o‘rganish va boshqarishda, ayniqsa, noma’lum yoki o‘zgaruvchan parametrlarga ega tizimlarda keng qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bunday tizimlarda neyron tarmoqlar xatti-harakatni etalon signal bilan taqqoslash orqali o‘qitiladi va ularning vazn koeffitsiyentlariga muvofiq sozlanadi. Bu, o‘z navbatida, rostlash jarayonining statistik usullar orqali amalga oshishini anglatadi. Ya’ni, neyron tarmoqlar katta hajmdagi ma’lumotlar asosida o‘rganishni amalga oshiradi va boshqaruv signali faol holda adaptatsiya qilinadi [6].

2.3. Neyron tarmoqlar asosida intellektual rostlash tizimining modellashtirilishi.

Neyrorostlagich va neyroidentifikator avvalo statistik ma’lumotlar asosida dastlabki tarzda o‘rgatiladi. Bu jarayonda PID yoki boshlang‘ich signallarga qarab faollashuvchi o‘qitish algoritmlari qo‘llaniladi. Keyingi bosqichda, tizim real vaqtda faollashadi va identifikator obyekt modelini doimiy ravishda bashorat qiladi, rostlagich esa prognoz natijalari va xato signali asosida boshqaruv ta’sirini tuzatib boradi [7].

Agar obyekt statik bo‘lsa, o‘qitilgan model uzoq muddat samarali ishlashi mumkin. Ammo dinamik va o‘zgaruvchan muhitda, obyekt parametrlari vaqt bo‘yicha o‘zgarganda, neyrorostlagich ham, identifikator ham adaptatsiya qobiliyatiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Shu maqsadda, ular real vaqt rejimida qayta o‘qitish algoritmlari bilan ta’minlanadi [8].

3.TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ma’lumki, noravshan-mantiqiy boshqarish tizimi nochiziqli boshqarish qonuni asosida boshqariladi. Noravshan-mantiqiy rostlagich chiziqli boshqarish tizimi sifatida ishlashi uchun kerak bo‘lgan shartlarni tanlash mumkin. Ushbu shartlarni tanlash uchun oddiy uchta qoidali rostlagichni imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan:

agar e=”ZE”,unda u=”ZE”; agar e=”N”,unda u=”N”;
agar e=”P”,unda u=”P” (1)

ISSN 3030-3907

bu yerda *“Z”,”P”,”N”*- boshqarish obyekti bo‘lgan bug‘ qizdirgichning noravshan-mantiqiy lingvistik o‘zgaruvchilari “salbiy”, “ijobiy”, “nol atrofida”[9].

Noravshan-mantiqiy boshqarish tizimi chiziqli ko‘rinishga ega bo‘lganda quyidagi shartlarni ifodalashi lozim:

1) uchburchakli tegishlilik funksiyasi;

2) termlar mos keladigan tayanch to‘plamlarning noravshanligini tashkil qiladi;

3) defazzifikatsiya uchun diskret tortishish markazi usuli qo‘llaniladi.

Agar termlar uchburchaksimon bo‘lsa, chiziqlilik xossasi va asosiy to‘plamning noravshan holatda bo‘lganda, defazzifikatsiya uchun diskret tortishish usuli qo‘llaniladi, bunda qiymatlar istalagan sonli termlar uchun amalga oshirilishi mumkin. Umumiy holda, $x \neq 1$ bo‘lganda quyidagi ifodani olish mumkin:

$$u = \frac{e}{x} \Rightarrow \frac{u}{e} = \frac{1}{x} = k. \qquad (2)$$

O‘tish jarayonini quyidagi 3 ta asosiy bo‘limi mavjud: tezlashish jarayoni, sekinlashish jarayoni, barqarorlikka erishish holati. Noravshan-mantiqiy boshqarish tiimi bug‘ qizdirgichning kirish o‘zgaruvchilari 7 termdan iborat bo‘lmasligi lozim [10]. Noravshan-mantiqiy P-rostlagichni sintezlash muammosi «NS», «NM», «PS», «PM» termlar to‘plamlari markazlarining "Xato" lingvistik o‘zgaruvchisini joylashishini tanlash muammosi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Ammo *x(t)* va *y(t)* joriy va hozirgi vaqt qiymatlarini o‘zgarishi bir-biriga yaqin. Maqolada neyron to‘rlarni o‘qitish jarayonini murakkablashtiradi va qoniqarsiz umumlashtiruvchi xatoliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun quyidagi bog‘liqliklardan foydalanish taklif etilgan [11]:

$$u_1(t) = \phi\left(\varepsilon_1(t), \dot{\varepsilon}_1(t), \ddot{\varepsilon}_1(t), \varepsilon_2(t)\dot{\varepsilon}_2(t), \ddot{\varepsilon}_2(t)\right), \quad (3)$$

$$u_2(t) = \Psi(\varepsilon_1(t), \dot{\varepsilon}_1(t), \ddot{\varepsilon}_1(t), \varepsilon_2(t)\dot{\varepsilon}_2(t), \ddot{\varepsilon}_2(t)),$$

bu yerda $\varepsilon_1(t) = r(t) - x(t)$, $\dot{\varepsilon}_1(t)$, $\ddot{\varepsilon}_1(t)$ –birinchi boshqariladigan qiymat *x(t)* bo‘yicha nomutanosiblik, uning tezligi va *t* vaqt mobaynida tezkorligi; $\varepsilon_2(t) = q(t) - y(t)$, $\dot{\varepsilon}_2(t)$, $\ddot{\varepsilon}_2(t)$ –ikkinchi boshqariladigan qiymat *y(t)* bo‘yicha nomutanosiblik, uning tezligi va *t* vaqt mobaynida tezkorligi; $\varepsilon_1(ye) = r(t) - x(t)$, $\dot{\varepsilon}_1(t)$, $\ddot{\varepsilon}_1(t)$ -bug‘ qizdirgichning boshqarish qiymatlari mutanosibligi, tezligi va *t* vaqt bo‘yicha birinchi rostalanuvchi kattalik *x(t)*, $\varepsilon_2(t) = q(t)$-y(t), $\dot{\varepsilon}_2(t)$, $\ddot{\varepsilon}_2(t)$ - bug‘

ISSN 3030-3907

qizdirgichning boshqarish qiymatlari mutanosibligi, tezligi va *t* vaqt bo‘yicha ikkinchi rostalanuvchi kattalik *y(t)*.

Bug‘ qizdirgichni boshqarish va uning chiqish signallarining funksional bog‘liqliklari tizimi ko‘rinishidagi bug‘ qizdirgichning modeli:


$$\begin{cases} \phi\big(x(t), y(t), u_1(t)\big) = 0 \\ \Psi\big(x(t), y(t), u_2(t)\big) = 0 \end{cases} \quad (4)$$

Neyron to‘rli modelni boshqarish qonunlari bilan umumlashtirilgan teskari neyron boshqaruvi amalga oshiradigan rostlagichlarning neyron to‘r modelini qurish lozim:

$$u_1(t) = \alpha(\varepsilon_1(t), \dot{\varepsilon}_1(t), \ddot{\varepsilon}_1(t), \varepsilon_2(t)\dot{\varepsilon}_2(t), \ddot{\varepsilon}_2(t))$$
$$u_2(t) = \Psi(\varepsilon_1(t), \dot{\varepsilon}_1(t), \ddot{\varepsilon}_1(t), \varepsilon_2(t)\dot{\varepsilon}_2(t), \ddot{\varepsilon}_2(t)) \quad (5)$$

x(t) va *y(t)* o‘zgaruvchi qiymatlariga mos ravishda obyekt harakatini xarakterlovchi, 1-3 uchun berilgan mezonlarni qanoatlantiruvchi turli *r(t)* va *q(t)* ko‘rinishida beriluvchi halaqitlar $(0,r^{max}(t)]$ va $(0,q^{max}(t)]$ oraliqlarda obyektning boshlang‘ich *x(0)* va *u(0)* holatlari ko‘rinishida keltiriladi [12].

Bug‘ qizdirgichning neyron to‘rli noravshan-mantiqiy avtomatik boshqarish tizimi modeli 1-rasmda keltirilgan. Bu yerda z^{-1}-,bitta hisoblash qadami uchun signal kechikishi bloki.



1-rasm. Bug‘ qizdirgichning noravshan-mantiqiy boshqarish tizimining strukturasi

Olingan diskret qiymatlar asosida berilgan *k* to‘plamlar ko‘rinishida qurish mumkin:

ISSN 3030-3907

$$\left\{\left(\overset{k}{\varepsilon_1}(t_i), \overset{k}{\dot{\varepsilon}_1}(t_i), \overset{k}{\ddot{\varepsilon}_1}(t_i), \overset{k}{\varepsilon_2}(t_i), \dot{\varepsilon}_2^k(t_i), \ddot{\varepsilon}_2^k(t_i), u_1^k(t_i)\right)\right\},$$

$$\{(\overset{k}{\varepsilon_1}(t_i), \overset{k}{\dot{\varepsilon}_1}(t_i), \overset{k}{\ddot{\varepsilon}_1}(t_i), \overset{k}{\varepsilon_2}(t_i), \dot{\varepsilon}_2^k(t_i), \ddot{\varepsilon}_2^k(t_i), u_2^k(t_i))\}, \quad (6)$$

bu yerda

$$\overset{k}{\varepsilon_1}(t_i) = r(t_i)\text{-x}_k(t_i), \overset{k}{\dot{\varepsilon}_1}(t_i) = \frac{\overset{k}{\varepsilon_1}(t_i) - \overset{k}{\varepsilon_1}(t_{i\text{-}1})}{h}, \ddot{\varepsilon}_1(t_i) = \frac{\dot{\varepsilon}_1^k(t_i) - \dot{\varepsilon}_1^k(t_{i\text{-}1})}{h} \quad (7)$$

$$\overset{k}{\varepsilon_2}(t_i)q(t_i)\text{-y}_k(t_i), \overset{k}{\dot{\varepsilon}_2}(t_i)\frac{\overset{k}{\varepsilon_2}(t_i) - \overset{k}{\varepsilon_2}(t_{i\text{-}1})}{h}, \ddot{\varepsilon}_2^k(t_i)\frac{\dot{\varepsilon}_2^k(t_i) - \dot{\varepsilon}_2^k(t_{i\text{-}1})}{h}, \quad (8)$$

$\overset{k}{u_1}(t_i)$ va $\overset{k}{u_2}(t_i)$ -(3.23) ko‘rinishidagi matematik model $i = \overline{0,q}$, k=k+1 bilan hisoblanadi [13].

(6) l to‘plamlarni birlashtiring, rostlagichning neyron to‘r modelini birinchi boshqariladigan kattalikni o‘qitishda foydalaniladigan umumlashtirilgan qiymatlarni tanlab olamiz:

$$\{(\overset{j}{\varepsilon_1}, \overset{j}{\dot{\varepsilon}_1}, \overset{j}{\ddot{\varepsilon}_1}, \overset{j}{\varepsilon_2}, \overset{j}{\dot{\varepsilon}_2}, \overset{j}{\ddot{\varepsilon}_2}, u_1^j), \quad j = \overline{1,v}\}, \quad (9)$$

bu yerda $v = (q+1)\cdot l$ -birlashtirilgan na’muna o‘lchami, j-na’munaviy element indeksi.

Bug‘ qizdirgichning noravshan-mantiqiy boshqarish tizimi qizdirilgan bug‘ haroratini optimal boshqarish bilan birga, tizim texnologik parametrlarini ushlab turish imkoniyatini yaratadi, buning natijasida elektr energiyasini ishlab chiqishda yoqilg‘i sarfini tejash imkoniyati paydo bo‘ladi [14].


4.MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Mavjud adaptiv-invariant boshqarish tizimlarining optimal parametrlarini aniqlash uchun har bir kontur alohida-alohida qaraladi. Bunda dastlab stabillovchi qurilma parametrlari aniilanadi, so‘ngra ular asosida korrektlovchi qurilma parametrlari tanlanadi. Odatda adaptiv-invariant boshqarish tizimida chiziqli boshqarish qonunlari qo‘llaniladi, lekin bu boshqaruv tizimining yuqori sifatini ta’minlash imkonini beradi[15]. Demak stabillovchi qurilmaning optimal uzatish funksiyasini topishda boshqarish obyektining modeli hamda asosiy kanal bo‘yicha aniqlangan boshqarish tizimining berilgan optimal uzatish funksiyasi asosida topiladi. Kirish signali bo‘yicha boshqarish tizimining uzatish funksiyasi $W_{y,x_{ber1}}(r)$ quyidagicha ifodalanadi:

$$W_{y,x_{ber1}}(\text{p}) = \frac{W_{p1}(p)W_{\text{ил}}(p)}{1+W_{p1}(p)W_{\text{ил}}(p)}. \quad (10)$$

ISSN 3030-3907

Yuqorida keltirilgan xulosalar asosida bug‘ generatorining takomillashgan adaptiv-invariant boshqarish tizimining strukturaviy sxemasi ishlab chiqildi (2-rasm). Ushbu strukturaviy sxema mavjud boshqarish tizimlaridan obyektga ta’sir etuvchi tashqi va ichki g‘alayon kanallari alohida ajratib olindi, qizdirilgan bug‘ sarfiga ta’sir etuvchi g‘alayonlar va tashqi g‘alayonlar ostida kompensatsiyalovchi qurilmaning uzatish funksiyasi aniqlab olindi [16].



2-rasm. Bug‘ generatorining takomillashgan adaptiv-invariant boshqarish tizimi strukturaviy sxemasi

bu yerda $W_{kk}^{f_2}(p)$ – tashqi g‘alayonlar ostida kompensatsiyalovchi qurilmaning uzatish funksiyasi; $W_{il}(r)$ – boshqarish obyektining inersion qismining uzatish funksiyasi.

Ekvivalent obyektning quyidagi ko‘rinishdagi uzatish funksiyasini aniqlash orqali korrektlovchi qurilmaning strukturasi va dinamik sozlanuvchi parametrlar tanlanadi [17]:

$$W_{ekv}(p) = W_{ob}(p)W_{ber1}^{opt}(p) = \frac{1}{T_1 p(\tau_1 p+1)(T_{ber1}p+1)^2}. \qquad (11)$$


Yuqorida keltirilgan uzatish funksiyalarini hisobga olgan holda g‘alayon signali f_2 kompensatsiyalovchi qurilmaning uzatish funksiyasini aniqlandi [18]:

$$W_{kk}^{f2}(p) = \frac{\left(1 - W_{ber2}^{opt}(p)\right)}{W_{ber2}^{opt}(p)} = \left[W_{ber2}^{bt}(p)\right]^{-1}$$

$$= \frac{4T_{ber2}p\left(\frac{T_{ber2}^3 r^3}{4} + T_{ber2}^2 r^2 + 1{,}5T_{ber2}r + 1\right)}{(T_{ber2}r + 1)^4}$$

Taklif etilgan bug‘ generatorining takomillashgan adaptiv-invariant boshqarish tizimining g‘alayon ta’sirlariga reaksiyasining o‘tkinchi jarayonlari 3-rasmda ko‘rsatilgan.

ISSN 3030-3907



3-rasm.Adaptiv-invariant boshqarish tizimining g‘alayon ta’sirlaridagi o‘tkinchi jarayonlari

bu yerda a – x_{ber}ning sakrashsimon signali ko‘rinishidagi ta’siriga reaksiyasi; b – ichki g‘alayonlar uchun f_1; v – tashqi yonish g‘alayonlar uchun f_2; g – issiqlik yuklamasining tashqi g‘alayonlarini rostlovchi $x_p(t)$ ta’sirining o‘zgarish grafigi.

XULOSA. O‘tkinchi jarayon grafiklari tahlili shuni ko‘rsatadiki, g‘alayon ta’sirlarida adaptiv-invariant boshqarish tizimi an’anaviy boshqarish tizimi bilan solishtirilganda rostlash vaqti 30 %ga kamaydi. Topshiriq signali sakrashsimon o‘zgarganda o‘ta rostlash qiymati 70 %ga kamaydi, maksimal dinamik rostlash xatoligi: ichki g‘alayonlarda – 16,5 baravarga hamda tashqi yonish g‘alayonlarida – 3 baravarga kamaydi. Bunda astatik zveno ya’ni integrallovchi zveno qo‘shilishi hisobiga xatolik 0 ga teng bo‘ldi. Issiqlik yuklamasini rostlash vaqti 33% ga kamaydi, maksimal dinamik rostlash xatoligi esa 65% ga kamaydi. O‘tkinchi jarayon grafiklaridan ko‘rinib turibdiki, taklif etilgan adaptiv-invariant boshqaruv tizimi an’anaviy boshqarish tizimiga qaraganda sifat ko‘rsatkichi yuqoriligini ko‘rsatdi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI

1. Cirac J.I., Zoller P. (2010). “Goals and opportunities in quantum simulation”, Nature Physics. pp. 264–266.
2. Yakubova, N., Usmanov, K., Turakulov, Z., & Eshbobaev, J. (2025). Application of Quantum Computing Algorithms in the Synthesis of Control Systems for Dynamic Objects. Engineering Proceedings, 87(1), 68.
3. Ульянов С.В., Мишин А.А., Миногин А.А. (2010). Информасионная технология проектирования робастных баз знаний нечетких регуляторов. Ч. III: квантовый нечёткий вывод и квантовая информасия // Системный анализ в науке и образовании: электрон. науч. журнал. – Дубна, № 3, pp.423- 430.
4. Сидиков И. Х. и др. Нечеткое синергетическое управление нелинейных систем //Journal of Advances in Engineering Technology. – 2020. – №. 2. – С. 16-19.
5. Eshbobaev, J., Norkobilov, A., Usmanov, K., Khamidov, B., Kodirov, O., & Avezov, T. (2024). Control of Wastewater Treatment Processes Using a Fuzzy Logic Approach. Engineering Proceedings, 67(1), 39.
6. Lee J., Shung W., Kim E., Kim S. (2010). A new genetic approach structure learning of Bayesian networks: matrix genetic algorithm // International Journal of Control, Automation and Systems. – Korean Institute of Electrical Engineers. №4, pp.398-407.
7. Усманов, К. И., Сарболаев, Ф. Н., Исломова, Ф. К., & Якубова, Н. С. (2020). Адаптивно нечеткое синергетическое управление многомерных нелинейных динамических объектов. Universum: технические науки, (3-1 (72)), 24-28.
8. Usmanov, K., Eshbobaev, J., & Yakubova, N. (2023). Modeling and Optimization of the Ammonium Solution Extraction Process. Engineering Proceedings, 56(1), 198.
9. Аведян Э.Д., Галушкин А.И., Пантюхин Д.В. (2011). Accосиативная нейронная сет CMAC и эе модификасии в задаче распознавания образов //Информасионные технологии. Новые технологии. №7, стр.63–71.
10. Usmanov, K. I., Yakubova, N. S., Urmanova, V. T., & Abdurasulova, G. E. (2023). Synthesis of a control system for the process of diesel fuel hydropuring with the Adar method. In E3S Web of Conferences (Vol. 458, p. 01025). EDP Sciences.
11. Ульянов С.В., Нефедов Н.Ю. (2012). Эффективност и качество интеллектуального управления с применением квантового нечеткого вывода: Глобально неустойчивая динамическая система // Системный

ISSN 3030-3907

Анализ в Науке и Образовании: электрон. науч. журнал. №1. – [Электронный ресурс]. URL: http:/www.sanse.ru/archive/23.
12. Isroilovich, U. K., Abduvakhitovna, S. S., & Abdirasulovich, R. S. (2025). GELIOQURITGICHDAGI HARORATNI BA SHORAT QILISHDA SUN'IY NEYRON TARMOQLARNING QO 'LLANISHI. SCIENCE AND INNOVATIVE DEVELOPMENT, 8(1), 8-20.
13. S. Rastegar, R. Araújo, J. Sadati, and J. Mendes. (2017). "A novel robust control scheme for LTV systems using output integral discrete-time synergetic control theory," Eur. J. Control, vol. 34. doi: 10.1016/j.ejcon.2016.12.006.
14. Якубова, Н. С. (2024). Динамик объектларнинг бошқариш тизимларини квант алгоритмлари ёрдамида тадқиқ этиш. Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие, 7(1), 32-44.
15. Usmanov, K. I., Yakubova, N. S., Maksudova, A. I., Islomova, F. K., & Ungbayeva, D. U. (2024). Synthesis of dynamic object control systems based on quantum calculation methods. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 549, p. 08012). EDP Sciences.
16. Усманов, К. И., Исломова, Ф. К., & Якубова, Н. С. (2023). Разработка математической модели процесса гидроочистки дизельного топлива. *Universum: технические науки*, (2-2 (107)), 26-29.
17. Усманов, К. И., Исломова, Ф. К., & Якубова, Н. С. (2023). Разработка математической модели процесса гидроочистки дизельного топлива. *Universum: технические науки*, (2-2 (107)), 26-29.
18. Usmanov, R., Siddikov, I., Yakubova, N., & Rahmanov, A. (2018). Adaptive identification of the Neural system of Controlling nonlinear Dynamic Objects. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, *5*(2), 5195-5199.

ISSN 3030-3907

CO_2 KONVERSIYASI UCHUN TIO_2 ASOSIDA FOTOKATALITIK XOSSALI MODDALAR OLINISHI VA ULARNI XOSSALARINI O‘RGANISH.

A.A.Samiyev
Samarqand Davlat Universiteti
E-mail: ahtam.samiyev7101@gmail.com
A.M.Nasimov
Samarqand Davlat Universiteti
O.N.Ruzimuradov
Toshkent shaxridagi Turin Politexnika Universiteti

Annotatsiya. Global isish va atmosferadagi karbonat angidrid (CO_2) kontsentratsiyasining ortishi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. CO_2 ni kimyoviy yo‘l bilan foydali organik birikmalarga aylantirish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Bu borada, quyosh nurlari ta’sirida CO_2 ni konversiyalash imkonini beradigan yarim o‘tkazgichli fotokatalizatorlar alohida e'tiborni tortmoqda. Ayniqsa, nanotrubkali TiO_2 (titan dioksid) asosida modifikatsiyalangan materiallar samaradorligi yuqori bo‘lib, ular ekologik toza, barqaror va qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan tizimlar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Fotokatalitik CO_2 ni kamaytirish, TiO_2 nanotrubkalar, elektrokimyoviy anodlash, kuchlanishi, harorat va vaqt, La, fotokatalitik.

Abstract. The increase in global warming and the concentration of carbon dioxide (CO_2) in the atmosphere is leading to serious environmental issues. Chemically converting CO_2 into useful organic compounds holds not only environmental but also economic significance. In this regard, semiconductor photocatalysts that enable the conversion of CO_2 under sunlight have attracted considerable attention. In particular, modified materials based on TiO_2 (titanium dioxide) nanotubes demonstrate high efficiency and are considered environmentally friendly, stable, and recyclable systems.

Keywords: Photocatalytic reduction of CO_2, *TiO_2 nanotubes, TiO_2 nanotubes, Voltage,* Temperature, *Time,* La (Lanthanum), Photocatalytic.

Аннотация. Глобальное потепление и увеличение концентрации углекислого газа (COER) в атмосфере создают экологические проблемы. Химическое превращение COIK в полезные органические соединения имеет не только экологическое, но и экономическое значение. В этом отношении особое внимание привлекают полупроводниковые фотокатализаторы, которые позволяют преобразовывать COADA под действием солнечного света. В частности, модифицированные материалы на основе нанотрубок Tio Lab (диоксид титана) обладают высокой эффективностью и считаются

ISSN 3030-3907

экологически чистыми, устойчивыми и пригодными для вторичной переработки системами.


Ключевые слова: фотокаталитическое восстановление CO2, нанотрубки TiO2, электрохимическое анодирование, напряжение, температура и время, La, фотокаталитическое.

Kirish

So‘nggi o‘n yillikda iste'molning o‘sishi va qazib olinadigan yoqilg'iga to‘yib bo‘lmaydigan talab issiqxona effektini va yaqinlashib kelayotgan energiya inqirozini tezlashtirdi. Binobarin, qayta tiklanadigan va toza energiya manbalarini tadqiq qilish insoniyat jamiyatining barqaror rivojlanishi uchun zaruriy holga aylandi [1]. Quyosh energiyasi mo‘l-ko‘l va ekologik toza energiya manbaiga aylanganligi sababli, qimmatbaho quyosh yoqilg'ilarini ishlab chiqarish uchun keladigan quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha harakatlar sezilarli darajada o‘sdi [2]. Ko‘p mumkin bo‘lgan yo‘llar orasida CO_2 ning uglevodorod birikmalariga fotokatalitik konversiyasi o‘zining ulkan salohiyati tufayli katta e'tiborni tortdi, chunki u bir vaqtning o‘zida atmosferadagi CO_2 kontsentratsiyasini barqarorlashtirishi va qimmatbaho va barqaror quyosh yoqilg'isini ishlab chiqarishi mumkin. Fotokatalitik CO_2 konversiyasini rag'batlantirish sohasida bir qator potentsial fotokatalizatorlar, shu jumladan TiO_2, ZnO kabi taniqli nomzodlar keng ko‘lamda o‘rganildi. Ushbu sa'y-harakatlarga qaramay, fotokatalitik CO_2 konversiyasini amaliy qo‘llash hali ham uzoq istiqbol bo‘lib qolmoqda, Uglerod(IV)-oksid (CO_2)ni yoqilg‘iga boshqa kimyoviy moddaga o‘zgartirish ya`ni konversiya qilish fotokatalitik yo‘l bilan sun’iy fotosintez jarayoni – energiya inqirozi va CO_2 chiqindilari muammosiga qarshi kurashishning istiqbolli va ilg‘or usullaridan biridir. Fotokatalitik reaksiyalar uchun eng keng tarqalgan katalizator bu titan dioksid (TiO_2) bo‘lib, u o‘zining keng tarqalganligi, kimyoviy barqarorligi, arzonligi va korroziyaga chidamliligi bilan ajralib turadi[3]. Garchi TiO_2 fotokatalizatori keng tarmoqli oralig‘iga ega bo‘lgani uchun faqat ultrabinafsha nurlanish ostida faollashishi va elektron teshik juftliklarining tezda rekombinatsiyalanishi sababli cheklovlarga ega bo‘lsa-da, u baribir turli modifikatsiyalar orqali (masalan, metall, nometall, yarim o‘tkazgichlar bilan dopinglash) ko‘rinadigan yorug‘likda faollashuvchi materiallarni ishlab chiqishda asosiy boshlang‘ich modda sifatida xizmat qiladi. Ko‘rinadigan yorug‘likka sezgir TiO_2 asosidagi katalizatorlar yordamida CO_2 konversiyasi sezilarli darajada yaxshilangan[4]. CO_2 ning fotokatalitik reduktsiyasi natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotlar asosan katalizatorning tarmoqli oralig‘i (band gap) bog‘liq bo‘ladi. CO_2 ni qaytarish mexanizmini chuqur tushunish, maqsadli mahsulot olish uchun mos katalizator dizayn qilishda juda muhimdir. Ushbu

ISSN 3030-3907

maqolada CO_2 ni kamaytirish uchun TiO_2 asosidagi fotokatalizatorlarni ishlab chiqish va tadqiq qilish bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar umumlashtirib beriladi hamda fotokatalizatorning tarmoqli oralig‘ini moslashtirish (band gap engineering), zaryad tashilishini yaxshilash va CO_2 adsorbsiyasi yo‘nalishidagi takomillashtirishlarga e’tibor qaratiladi. Bundan tashqari, CO_2 ni fotokatalitik yo‘l bilan kamaytirish uchun modifikatsiyalangan TiO_2 ni ishlab chiqishdagi muammolar va kelajakdagi istiqbollar ham muhokama qilinadi[5].



1-Rasm: CO_2 ning TiO_2 nanotrubkalari asosidagi fotokatalitik qayta ishlanishimexanizmi va modifikatsiyalangan tuzilmasi.

Students, on the other hand, faced obstacles such as a lack of proficiency in general English, difficulty understanding complex subject-specific terminology, and confusion between General English (GE) and ESP. These issues were further exacerbated in large classrooms or when digital tools were not used effectively. Moreover, the over-reliance on translation tools and dictionaries was seen as a barrier to fluent and meaningful use of English.

Despite these challenges, the data confirmed that the strategic use of digital technologies in ESP significantly enhances learning outcomes. Online platforms allow for active learning, immediate feedback, and engagement through multimedia content. These advantages support the idea that ESP should be dynamic and adaptable, focused on preparing learners for real-world communication in their fields of study or work.

Overall, the results underscore the importance of technology-enhanced learning in ESP. They reveal that while traditional barriers exist, they can be mitigated through appropriate pedagogical strategies, needs-based content design, and continued professional development for teachers.

Conclusion

This study confirms that integrating modern educational platforms and digital tools significantly improves the teaching of English for Specific Purposes (ESP). These technologies make instruction more accessible, interactive, and aligned with learners' academic or professional goals.

ISSN 3030-3907

As a learner-centered and purpose-driven approach, ESP benefits greatly from digital solutions that support flexible course design, independent learning, and exposure to authentic materials. Nonetheless, effective implementation requires addressing key challenges such as limited teacher training, insufficient specialized resources, and varying student readiness.

Ultimately, ESP should be seen as a dynamic and evolving discipline—one that must adapt continuously to technological advancements and diverse learner needs. Ongoing research, innovation in course design, and interdisciplinary cooperation remain vital to its long-term success.

REFERENCES:

1. Anthony, L. (2018). *Introducing English for Specific Purposes*. Routledge.
2. Basturkmen, H. (2006). *Ideas and Options in English for Specific Purposes*. Lawrence Erlbaum Associates.
3. Belcher, D. (2009). *English for Specific Purposes in Theory and Practice*. University of Michigan Press.
4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge University Press.
5. Hans, A., & Hans, E. (2015). Need-based English Language Teaching (ELT) in India: Issues and Challenges. *International Journal on Studies in English Language and Literature*, 3(6), 35–38.
6. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*. Cambridge University Press.
7. Fitria, T. N. (2019). Teaching English for Specific Purposes (ESP): English for Law. *Edukasi: Jurnal Pendidikan dan Pengajaran*, 6(1), 11–20.
8. Belcher, D. (2006). English for Specific Purposes: Teaching to perceived needs and imagined futures in worlds of work, study, and everyday life. *TESOL Quarterly*, 40(1), 133–156.
9. Ramirez, A. M. (2015). A Short History of ESP. *ESP World*, 45(16), 1–8.
10. Bocanegra-Valle, A. (2010). Teaching Business English through Online Platforms. *ESP Today*, 1(1), 47–67.
11. Chen, Y. (2011). The Problems of Teaching English for Specific Purposes in Higher Education in China. *International Education Studies*, 4(1), 9–13.

ISSN 3030-3907

МАҲАЛЛИЙ КОРХОНАЛАРДА МАҲСУЛОТ СИФАТИНИ БОШҚАРИШ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Мадумаров Фаррухбек Толибжонович

Андижон давлат университети мустақил тадқиқотчиси:

Аннотация: Ушбу мақолада республика ҳудудида жойлашган маҳаллий корхоналарда ишлаб чиқариш жараёнининг Халқаро стандартлар асосида олиб борилиши ва ишлаб чиқариш жараёнида маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини такомиллаштириш борасида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Маҳаллий корхоналар, маҳсулот, халқаро стандарт, экспорт.

Аннотация: В данной статье речь идет о ведении производственного процесса на основе международных стандартов на местных предприятиях, расположенных на территории республики, и совершенствовании практики управления качеством продукции в производственном процессе.

Ключевые слова: Местные предприятия, продукция, международный стандарт, экспорт.

Abstract: This article discusses conducting the production process based on international standards at local enterprises located in the territory of the republic and improving the practice of product quality management in the production process.

Keywords: Local enterprises, products, international standards, export.

Кириш

Ҳукумат томонидан маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнларини глобал стандартлар тизимига мослаштиришни рағбатлантиришга қаратилган ислоҳотларга устуворлик қаратилиши, бугунги кунда маҳаллий корхоналарда ташкил этилган сифат бошқаруви амалиёти фақатгина анъанавий ташқи бозорларга маҳсулот экспорт қилиш ҳажмини ошириш имконини бераётганлиги билан изоҳланади. Шу сабабли ҳам Янги Ўзбекистон шароитида саноат жиҳатдан тараққий этган мамлакатлар бозорларига кириб бориш имкониятини берувчи халқаро стандартлар талаби даражасида маҳсулот сифатини бошқариш амалиётига эга бўлган корхоналар фаолиятини ривожлантириш устувор вазифа сифатида белгиланмоқда. Жумладан, сўнгги йилларда республика бўйича амалга оширилган инвестицион дастурларда ҳам маҳаллий ишлаб чиқариш корхоналарида халқаро стандартлар талабларига жавоб берадиган маҳсулотлар ишлаб чиқариш, жумладан, экспортер корхоналарни моддий-техник базаларини такомиллаштириш лойиҳалари турли ҳудудларнинг саноат салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш мақсадида ташкил этилган махсус ва кичик саноат зоналарида амалга оширилиб

ISSN 3030-3907

келинмоқда. Кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилишига қарамай, маҳаллий корхоналарда маҳсулот сифатини бошқариш жараёнлари анъанавий услуллар орқали ташкил этилиши ҳолатлари ҳали ҳануз кузатилмоқда.

Адабиётлар таҳлили: Маҳаллий корхоналарда маҳсулот сифатини бошқариш жараёнларида сифат назорати пунктларини жойлаштиришда кейинги босқичда қайта ишлаш имконияти мавжудлиги ҳолати аниқлашга, яъни орқалиқ маҳсулот таркибидаги кейинги босқичда қайта ишлаш имконияти мавжуд бўлганлирини кейинги босқичга ўтказилиб, қайта ишлаш имконияти бўлмаган (брак) лари эса ажратиб олишга асосланган ҳолда ўрнатилган. Бу турдаги сифат бошқаруви амалиётида маҳсулотни фақатгина қайта ишлаш имконияти бўйича сифат назорат пунктлари аамал қилиб, саноат жиҳаатдан тараққий этган мамлакатлар бозорларига кириш имконини берувчи халқаро стандартлар талабларига мос келмоқда. Шу сабабли ҳам маҳаллий корхоналарда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётида корхона томонидан ўзлаштирилган маҳсулот ишлаб чиқариш босқичлари ўртасида сифат назорати пунктиларини ўрнатилишини функционал жиҳаатдан такомиллаштириш талаб этилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, маҳаллий тўқимачилик-текстил корхоналарида маҳсулот сифатини бошқариш жараёнини таклмиллаштиришда сифат назорати пунктларини корхонада ўзлаштирилган маҳсулот ишлаб чиқаришнинг турли босқичларида уларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда жойлаштириш керак бўлади. Бунда жаҳон тўқимачилик-текстил санотида етакчи бўлган ишлаб чиқариш корхонлари, жумладан, “Toray Industries, Shenzhou International, Arvind Ltd., Nishat Mills Ltd., Eurojersey SpA” каби компаниялар фолиятида маҳсулот сифатини назорат қилиш пунктларини улардаги ишлаб чиқариш занжири бўйича жойлаштириш хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ташкил этиш керак бўлади. Таҳлилларга кўра, мазкур корхоналарда маҳсулот сифатини бошқариш самарадорлигини оширишда сифат назорати пунктлари қуйидаги вазифаларни ҳал этиш имконини беради:

Биринчи, маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур бўлган ҳом ашё (мато ёки газлама, ип), уни тўлдирувчи қисмлари (тугмалар, замок, турли нақшлар ва ҳ.к.) сифатини, жумладан, уларнинг ўзаро мутаносиблигини (яъни маҳсулот ишлаб чиқариш ҳом ашёси билан уни тўлдирувчи қисмларининг сифат жиҳатидан бир категорияга мансублиги) текшириш;

ISSN 3030-3907

Иккинчи, маҳсулот сифатини бошқаришда ишлаб чиқариш асбоб-ускунлари ва техникалари орқали ҳом ашёни қайта ишлашда сифат кўрсаткичига салбий таъсир кўрсатилмаслиги;

Учинчи, ишлаб чиқарилиши режалаштирилаётган маҳсулот учун керакли ҳом ашёдан самарали фойдаланиш асосида уни чуқур қайта ишлаш ва маҳсулот ишлаб чиқаришнинг миқдор ва сифат кўрсаткичларини такомиллааштириш;

Тўртинчи, маҳсулот ишлаб чиқариш учун сотиб олинган ҳом ашё ва ишлаб чиқарилган маҳсулотни сифатини бузмаган ҳолда қайта ишлаш, ташиш, ҳамда сақлаш учун тегишли шарт-шароитлар яратиш;

бешинчи, корхона персонали, жумладан, ишлаб чиқариш жараёнида бевосита иштирок этувчи ходимларнинг касбий тегишли даражадаги компетенлигини таъминлаш ва уни такомиллаштириб бориш асосида маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини такомиллаштириш.

Тадқиқот методологияси: Жаҳон амалиёти таҳлилига кўра, корхоналарда маҳсулот сифатини бошқаришнинг “P2Q” тизими “B2B / B2C / B2G” сратегиялари амал қилиши натижасида маҳсулот ишлаб чиқариш занжирининг турли босқичларида маҳсулот сифатини қатъий назорат қилишга асосланган ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар: “B2B (Business to Business)” бошқарув стратегияси бу маҳсулот ишлаб чиқариш занжирининг турли бўғинлари бўйича чуқур ихтисослашувга эга бўлган корхоналар ўртасида ўзаро ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш асосида тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнидаги ўзаро ҳамкорликда ўз аксини топади. Бунда маҳсулот ишлаб чиқариш занжирининг турли бўғинларида оралиқ маҳсулотни тегишли сифат даражасида ишлаб чиқариш асосида кейинги бўғинда ишлаб чиқаришни давом эттирадиган корхоналар учун аввалдан белгиланган маҳсулот сифати бўйича стандартга мос келадиган даражада маҳсулотни ишлаб чиқариш имконини бериши керак бўлади. Бу турдаги ҳамкорлик одатда кичик ва ўрта даражадаги корхоналар ўртасидаги ўзаро интеграцион-кооперацион муносабатларда ўз аксини топади.

“B2C (Business to Consumer)” стратегияси маҳсулот сифатини бошқариш жараёнида маркетинг ва менежмент дастурларидан бир вақтнинг ўзида фойдаланган ҳолда, истеъмолчиларнинг маҳсулот сифати бўйича мавжуд талабларига мос келадиган даражада ишлаб чиқаришни ташкил этиш ҳисобига шаклланган ҳисобланади. Бу турдаги стратегия одатда турли онлайн платформалар асосида корхонада ишлаб чиқарилган маҳсулот сифати бўйича истеъмолчиларнинг фикрларини ўрганиш асосида ташкил этиладиган

ISSN 3030-3907

сифат бошқаруви амалиёти учун хос ҳисобланади. Шу сабабли ҳам корхонада маҳсулот сифатини бошқариш амалиётида бошқарув қарорлари маркетинг тадқиқотлари натижасига асосланган ҳолда, мақсадли бозор сегментига йўналтирилганлиги ҳисобига юқори иқтисодий самарадорликка эришиш имконини беради.

“B2G (Business to Goverment)” стратегияси давлат харидлари ёки хорижий мамлакат бозорлари бўйича мавжуд маҳсулот стандартига мос келадиган маҳсулот ишлаб чиқаришга ихтисослашган сифат бошқаруви амалиётида ўз аксини топади. Масалан, ишлаб чиқарувчи корхона томонидан бошқа бир мамлакат бозорига кириб боришда дастлаб мамлакатда маҳсулотнинг сифати бўйича амалдаги стандартлар тизими таҳлил этилиб, унга корхонадаги маҳсулот сифатини бошқариш амалиёти мослаштирилади. Мазкур жараёнда маҳсулот сифатини бошқариш жараёнида вужудга келадиган ўзгаришлар “P2Q → B2G”, яъни миллий стандартлар тизимига йўналтирилган сифат бошқаруви тизимини шаклланишига олиб келади.

Хулоса: Халқаро бозорда маҳсулот экспортери ҳисобланган корхоналарда ташкил этилган маҳсулот сифатини бошқариш жараёнлари бир вақтнинг ўзида “B2B / B2C / B2G” сратегияларини қўлланилиши ҳисобига маҳсулот сифатини бошқаришнинг “P2Q” тизимини шаклланишига олиб келган. Ушбу тизимни амалиётда қўллашда ҳар бир корхона ўзининг нисбий рақобат устунликларидан фойдаланиш самарадорлигини таъминлашга устуворлик қаратиши билан аҳамиятли ҳисобланади. Жумладан, маҳаллий корхоналарда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётига “P2Q” тизимини жорий этилиши мамлакатнинг ташқи иқтисодий фаолиятида муҳим стратегик ҳамкор мамлакатлар қаторига кирувчи МДҲ давлатлари билан биргаликда, узоқ хориж мамлакатларида амал қиладиган маҳсулот сифати бўйича стандартларга мос келадиган сифат бошқарувини шакллантириш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Pathak B. Top Largest Textile Companies in the World. [Online Resource]. May. 28, 2024. URL: https://www.textilesresources.com/articles/top-largest-textile companies-in-the-world/

2. Методическое руководство по созданию и внедрению систем менеджмента качества на базе стандартов ISO серии 9000. Узбекское Агентство Стандартизации, метрологии и сертификации. [Электронный ресурс]. URL: https://new.standart.uz/upload/file/smq-tip-dok/metod_rukovodstvo_iso_9000ru.pdf

ISSN 3030-3907

3. Миллий сифат инфратузилмасини шакллантириш йўлида. 19.10.2020 й. Ўзбекистон Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги. https://www.standart.uz/cyrl/news/view?id=2457
4. Разумов В.А. Управление качеством. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 208 с; Герасимов Б.Н. Управление качеством. Практикум. – ИНФРА-М, 2015. – 208 с
5. Стандартга мувофиқлик тадбиркорга нима беради? 14.08.2023 й. Янги Ўзбекистон газетаси расмий сайти маълумотлари асосида. URL: https://yuz.uz/news/standartga-muvofiqlik-tadbirkorga-nima-beradi
6. Тебекин, А. В. Управление качеством: учебник для бакалавриата и магистратуры / А. В. Тебекин. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. : Издательство Юрайт, 2018. – 410 с;
7. Тўқимачилик саноатини ривожлнтиришнинг Андижон модели. “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси маълумотлари асосида URL: https://uzts.uz/toqimachilik-sanoatini-rivojlanishing-andijon-modeli/
8. “Ўзтшқимачиликсаноат” уюшмасида саноат ташкилотлари ичида энг биринчи бўлиб ISO 9001:2015 халқаро стандартларини жорий қилинди. URL: https://uzts.uz/oztoqimachiliksanoat-uyushmasida-sanoat-tashkilotlari-ichida-eng-birinchi-bolib-iso-9oo2o5-halqaro-standartartlarini-joriy-qildi/

ISSN 3030-3907

IKKILAMCHI CHIQINDILARNI MODIFIKATSIYALANGAN QURILISH GIPSNI TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Akmalov M.G.
Buxoro davlat texnika universiteti
S.N. Norov
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotasiya: Maqolada ikkilamchi chiqindilarni modifikatsiyalangan qurilish gipsni texnologik xususiyatlari tahlili bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Maqolada Fenol – formaldegid smolasi olish reaksiyasi keltirilgan bo'lib va bu orqali gips – chigit chiqindili polimer kompozitsiyalar ishlab chiqarish tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar : Gipsli kompozitsion qorishma, fenol – formaldegid smolosi, qurilish gips qorishma, modifikatsiyalangan gips, gips – chigit chiqindili polimer kompozitsiyalar

Аннотация: В статье представлены данные по анализу технологических свойств модифицированного строительного гипса из вторичных отходов. Представлена реакция получения фенолформальдегидной смолы и описан процесс производства полимерных композитов на основе гипса и щебня.

Ключевые слова: Гипсовая композиционная смесь, фенолформальдегидная смола, строительная гипсовая смесь, модифицированный гипс, полимерные композиты на основе гипса и с семенными отходами

Abstract: The article presents data on the analysis of the technological properties of modified building gypsum from secondary waste. The reaction for obtaining phenol-formaldehyde resin is presented and the process of producing polymer composites based on gypsum and crushed stone is described.

Keywords: Gypsum composite mixture, phenol-formaldehyde resin, building gypsum mixture, modified gypsum, polymer composites based on gypsum and with seed waste

Kirish

Jahonda kompleks xususiyati jihatidan barcha talablarga javob beradigan yangi strukturadagi modifikatsiyalangan gipsli kompozitsion qurilish materiallarini olish usullarini ishlab chiqish, ularni ishlab chiqarish uchun yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratish hamda gipsli va betonli qurilish materiallarini ichki va tashqi bozor talablariga javob beradigan kompozitsion quruq qorishmalar asosidagi mahsulotlarning yangi turlarini yaratish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, modifikatsiyalangan kompozitsion gipsli va betonli materiallarni tarkibini va olish texnologiyasini

ISSN 3030-3907

ishlab chiqish, kompozitsion quruq qorishmalarning strukturasini va mustahkamligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Gips va betonli materiallarni ishlab chiqarishda sanoat chiqindilaridan foydalanib kimyoviy gips va qishloq xo‘jaligi ashyolaridan foydalanish imkoniyatlarini va aqlli texnologiyalarni ishlab chiqishda katta hissa qo‘shgan olimlardan A. Atakuziev, P.V. Klassen, A.A. Novikov, V.A. Tersin, L.I. Sichev, X. Vetegrove, N.X. Talipov, T.G. Ivashenko, A.F. Buryanov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Mavjud ishlarni tahlil qilish asosida shuni ta’kidlash kerakki, turli xil qishloq xo‘jaligi va kimyoviy qo‘shimchalar bilan modifikatsiyalangan gipsli va gipsobeton bog‘lovchilar asosidagi qurilish materiallarida yuqori sifatli arzon ashyolarni qo‘llash, ulardagi turli xil miqdoriga qarab to‘ldiruvchilar hamda modifikatsiyalovchi qishloq xo‘jaligi va kimyoviy qo‘shimchalar qo‘shish orqali iqlimiy ta’sirga va suvga chidamli, tez qotadigan, sifatli modifikatsiyalangan gipsli va gipsobeton asosidagi kompozitsion qurilish materiallari haqida ma’lumot yo‘q. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash chiqindilaridan (bug‘doy somoni, chigit sheluxasi, qamish poyasi) qurilish materiallarini xususiyatlarini oshirishda va ularni tejamkorligini ta’minlash yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar olib borilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI Gipsli kompozitsion qorishma tayyorlash jarayonida somon va chigit chiqindisidan gips massasiga nisbatan 5 % qo‘shildi. Tayyorlangan qorishmalar asosida egilish va siqilishdagi mustahkamligini taqqoslash maqsadida 40x40x160 mm o‘lchamli namunalar tayyorlandi (1 – jadval).

1–jadval

Qurilish gipsiga qo‘yiladigan talablari (O‘z,R.ST 768-97)

Gips bog‘lovchi moddalar markalari	O‘lchamlari 40x40x160 mm bo‘lgan gips tayoqchaning 2 soat dan keyingi mustahkamlik chegarasi			
	Siqilishga		Egilishga	
	MPa	KgK/sm^2	MPa	KgK/sm^2

ISSN 3030-3907

G-2	2	20	1,2	12
G-3	3	30	1,8	18
G-4	4	40	2	20
G-5	5	50	2,5	25
G-6	6	60	3	30
G-7	7	70	3,5	35
G-10	10	100	4,5	45
G-13	13	130	5,5	55
G-16	16	160	6	60
G-19	19	190	6,5	65

Tayyorlangan namunalar 2 soat davomida ochiq havoda 25 – 30 °S haroratda quritildi. So‘ngra olingan namunalarning gipsning siqilishdagi va egilishdagi texnik talablari va suvning shimuvchanligi aniqlandi (2 – jadval).

2–jadval

Somon va chigit chiqindilari asosida olingan modifikatsiyalash uchun qurilish gips qorishmaning fizik – mexanik xossalarining o‘rtacha arifmetik qiymatlari


№	Namunalar	Namuna massasi	Egilishdagi mustahkam-ligi, kgk/sm^2	Siqilishdagi mustahkam-ligi, kgk/sm^2	Suv shimuvchanligi (1 sutkadan keyin), W %
1	Gips qorishmasining qotgandan keyingi xossalari	289	34(G 6)	64(G 6)	33
2	Somonli gips qorishmasining qotgandan keyingi xossalari	302	27(G 5)	46 (G 5)	27,5
3	Chigit chiqindili gips qorishmasining qotgandan	266	22(G 4)	37(G 4)	41

ISSN 3030-3907

	keyingi xossalari				

Jadvalda dastlabki sinov natijalariga ko‘ra modifikatsiyalangan qurilish gipsi uchun olingan namunalarning suv shimuvchanligi somon asosida olingan gips namunasida nisbatan past ko‘rsatgichni ko‘rsatib, 27,5 % ni tashkil qilgan. Egilish va siqilishdagi mustahkamligi etalon mustahkamligiga nisbatan kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida somon va chigit chiqindilarining o‘zaro bog‘lanmaganligi yoki g‘ovaklikning oshib ketganligi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida aralashma tarkibiga fenol – formaldegid smolosi qo‘shildi (1 – rasm).



1-rasm. Fenol – formaldegid smolasi olish reaksiyasi

Chunki, fenol – formaldegid polimerlari yog‘och, mato, qog‘oz, shisha va mineral tolalar bilan yaxshi yopishgani uchun ushbu materiallar kukuni va to‘ldirgichlari asosida kompozitsion pressmateriallar va issiqlik izolyatsiyasi mahsulotlari tayyorlanadi. Ular yog‘och – payraxali plitalar, qog‘oz qatlamli plastiklar, shishaplastiklar, mineral paxta yarim bikr plitalari, suvga chidamli fanera va opalubkalar, yelimlar, bakelit loklari hamda polimer mastikalar, qorishmalar va betonlar tayyorlashda bog‘lovchi sifatida ishlatiladi.

Dastlab somon va chigit sheluxasi chiqindilari fenol – formaldegid polimerlari bilan aralashtirildi. Olingan aralashmalar asosida gips – somon polimerli (GSP), gips – chigit chiqindili polimer (GChChP) kompozitsiyalar tayyorlandi. Kompozitsiya takibiga gips massasiga nisbatan 1% dan 3% gacha somon polimerli va chigit sheluxasi chiqindili polimer kiritildi va sinov ishlari olib borildi (3 – jadval).

3–jadval ma’lumotlariga asoslanib polimer kompozitsiyaning 2% da qo‘llanilishi optimal qiymat deb olindi va GSP qorishmada eng yuqori ko‘rsatgichni ko‘rsatdi.

ISSN 3030-3907

3 – jadval

GSP va GChChP asosida olingan modifikatsiyalangan gipsli qorishmaning fizik – mexanik xossalarining o‘rtacha arifmetik qiymatlari

№	Namunalar	Egilishdagi mustahkamligi, kgk/sm2	Siqilishdagi mustahkamligi, kgk/sm2
1	Gips qorishmasining qotgandan keyingi xossalari	34(G 6)	64(G 6)
2	GSP qorishmasining qotgandan keyingi xossalari 1 % li kompozitsiya 2 % li kompozitsiya 3 % li kompozitsiya	 34(G 6) 37(G 7) 30(G 6)	 62 (G 6) 72(G 7) 58(G 6)

Olingan namunalarda texnik talablarga muvofiq suv shimuvchanligi aniqlanganda ham 2 % li kompozitsiyada yuqori natijaga erishilganligini ko‘rishimiz mumkin (4 – jadval)

4 – jadval

Polimer kompozitsiyali 40x40x160 mm o‘lchamli modifikatsiyalangan gips namunalarining suv shimuvchanligi

№	Kompozitsiyaning turli konsentratsiyali namunalari	Quruq holatdagi tabiiy massasi (6 ta olingan namunadagi o‘rtachasi), gr	Suv shimuvchanligi (6 ta olingan namunadagi o‘rtachasi), gr	Suv shimuvchanligi (1 sutkadan keyin), W %
1	Gips namunasi	289	385	33
2	GSP asosidagi namuna 1 % li kompozitsiya 2 % li kompozitsiya 3 % li kompozitsiya	 269 263 252	 335 314 312	 24,6 19,3 23,8
3	GChChP asosidagi namuna 1 % li kompozitsiya 2 % li kompozitsiya 3 % li kompozitsiya	 300 330 309	 388 405 390	 29,3 22,7 26,2

Suv shimuvchanlik ko‘rsatgichi 3.4 – jadval natijalariga ko‘ra namunada GSP sarfi 2 % bo‘lganda yuqori natijani (19,3 %) ko‘rsatdi. Bu esa dastlabki

ISSN 3030-3907

namunaga nisbatan suv shimuvchanlik ko‘rsatgichi 13,7 % ga kamayishiga olib keldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR Modifikatsiyalangan gips kompozitsion suvoq aralashmalarini ishlab chiqarish sanoat sharoitida olingan namunalarni fizik – mexanik xossalari GOST talablari asosida “Gips bog‘lovchi asosidagi quruq qurilish gips aralashmalari” texnik xususiyatlari bo‘yicha suvoq va pardozlash maqsadlarida mavjud me’yoriy – texnik hujjatlar talablariga javob berishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Egamberdiyev Murod, To‘xtaeva Khabiba, Akmalov Muhiddin Current Trends in the Production of Concrete with Specified Properties. nternational Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. | e-ISSN: 2792-4025 | http://openaccessjournals.eu | Volume: 1 Issue: 5 -2021 pp-214-218.
2. Akmalov M.G., Egamberdiyev M. S., Majidov Q. X. Application of Local Wheat Straw forBuilding Material and Products with Gypsum Binders. Journal of Architectural Design Volume 17| April-2023. pp-4-8
3. Ахмедов В.Н., Ниязов Л.Н., Рахимов Ф.Ф., Паноев Н.Ш., Рузиева К.Э. Гидрофобизация в строительстве Монография Бухара, Дурдона 2018. С. 24-26
4. Рахимов Ф.Ф. Технология получение поливинилетинилтриэт оксисила на основе тетраэтоксисилана // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2021. 10(91). URL:
5. Рахимов Ф.Ф., Ахмедов В.Н., Аминов Ф.Ф., Способ получения гидрофобных композиций Universum: химия и биология журнал 4(70) Москва 2020 63-65 С.
6. ГОСТ 125-79 Вяжущие гипсовый ТУ.

ISSN 3030-3907

UZUM DANAGINI MAYDALASH UCHUN SAMARALI MAYDALAGICHNING KONSTRUKTIV VA TEXNOLOGIK HISOBI

Sharipov N.Z.
Buxoro davlat texnika universiteti
E-mail: nodirzhons@bk.ru
Qo‘ldosheva F.S.
Buxoro davlat texnika universiteti
E-mail: coolfiruza@mail.ru
Ibragimov R.R.
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada soatiga 500 kg samaradorlikka ega uzum danagini maydalash uchun mo‘ljallangan ikki valikli maydalagichning konstruktiv va texnologik hisob-kitoblari bayon etilgan. Qurilmaning asosiy konstruktiv elementlari — valiklarning diametri, uzunligi, aylanish tezligi va ularning materiallari aniqlangan. Maydalash jarayonida yuzaga keladigan kuchlar, egilish va burilish kuchlanishlari hisoblanib, butlovchi qismlarning ishonchliligi baholangan. Qurilma uzumdan moy olish texnologik tizimiga integratsiyalash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uni modernizatsiyalash natijasida umumiy samaradorlikni 15–20% oshirish imkoniyati ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoatida ikkalamchi moyli xomashyolarni qayta ishlash, xususan, uzum danagini maydalash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: uzum danagi, valli maydalagich, maydalash texnologiyasi, konstruktiv hisob, ishonchlilik tahlili, kinematik hisob, issiqlik va namlik ta’siri, uzum moy ishlab chiqarish, mexanik siqish

Аннотация: В данной статье описаны конструктивный и технологический расчеты двухвалковой дробилки производительностью 500 кг/час, предназначенной для измельчения виноградных косточек Определены основные конструктивные элементы устройства – диаметр, длина, скорость вращения валков и их материалы. Рассчитаны усилия, изгибающие и крутильные напряжения, возникающие в процессе дробления, а также дана оценка надежности узлов. Устройство предназначено для интеграции в технологическую систему извлечения масла из винограда, а его модернизация показывает возможность повышения общей эффективности на 15–20%. Результаты исследований послужат совершенствованию процесса переработки вторичного масличного сырья в пищевой промышленности, в частности, процесса измельчения виноградных косточек.

Ключевые слова: виноградные косточки, валковая дробилка, технология дробления, расчет конструкции, анализ надежности, кинематический расчет,

ISSN 3030-3907

воздействие тепла и влажности, производство виноградного масла, механическое сжатие.

Annotation: This article describes the design and technological calculations of a two-roll crusher with a capacity of 500 kg/hour, designed for crushing grape seeds. The main design elements of the device are determined - the diameter, length, speed of rotation of the rolls and their materials. The forces, bending and torsional stresses arising during the crushing process are calculated, and the reliability of the units is assessed. The device is designed for integration into the technological system for extracting oil from grapes, and its modernization shows the possibility of increasing the overall efficiency by 15-20%. The research results will serve to improve the process of processing secondary oilseed raw materials in the food industry, in particular, the process of crushing grape seeds.

Keywords: Grape Grain, valli grinder, crushing technology, constructive calculation, reliability analysis, kinematic calculation, heat and moisture effect, grape oil production, mechanical compression

Kirish

Dunyoda uzum yetishtirish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. 2023 yilda jahonda 72,5 million tonna uzum yetishtirilgan bo‘lib, uning 19% Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. Italiya va Fransiya ham yirik uzum yetishtiruvchi va uzumni qayta ishlovchi rivojlangan davlatlardan hisoblanadi. O‘zbekistonda esa ushbu davr mobaynida taxminan 1,7 million tonna uzum yetishtirilgan, shundan 639,200 tonnasi Samarqand viloyati hissasiga to‘g‘ri keladi.

Uzum danagi oziq-ovqat, farmasevtika va kosmetologiya sohalarida yuqori qiymatga ega bo‘lib, uning tarkibida linoley kislota, tokoferollar, flavonoidlar va polifenollar kabi biologik faol moddalar mavjud. Bu moddalar inson salomatligi uchun ahamiyatli bo‘lib, ularning moy tarkibida saqlanishi mahsulot sifatini belgilaydi.

Uzum danagidan moy olish texnologik jihatdan ko‘p bosqichli va murakkab jarayon bo‘lib, u mexanik, issiqlik, modda almashinish va kimyoviy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jarayon samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri — xom ashyoning maydalanish darajasi hisoblanadi. Shu bois, maydalagich qurilmaning konstruktiv va texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash, uni modernizatsiya qilish orqali maydalash jarayoni samaradorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishida 500 kg/soat unumdorlikka ega ikki valikli maydalagichning konstruktiv va texnologik parametrlari hisoblab chiqildi hamda uzum danagidan moy olish tizimiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

ISSN 3030-3907

Maydalash — bu qattiq materiallarni mayda zarrachalarga ajratish jarayoni bo‘lib, asosan mexanik kuchlar: siqish, zarba, ishqalanish yoki kesish ta’sirida amalga oshiriladi. Uzum danagi kabi moyli xomashyo qayta ishlashda eng maqbul usul — bu siqish orqali maydalashdir. Ushbu usulda yadro buzilmasdan, asosan po‘stloq yorilishi orqali zarrachalar ajraladi. Maydalash jarayoni natijasida zarrachalar sirtining oshishi, keyingi bosqichdagi moy ajratish jarayoni samaradorligini oshiradi.

Valiklar uchun material sifatida AISI 304 yoki 40X markali zanglamaydigan po‘latlar tavsiya etiladi. Ular yuqori mustahkamlik, ishqalanishga bardoshlilik va korroziyaga chidamlilik kabi mexanik va kimyoviy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qurilmaning ramka va karkas qismlari uchun 50x50x5 mm lik konstruktiv profil temirlar tavsiya etiladi.

Podshipniklar sifatida SKF yoki ZKL brendli, yuqori aniqlikdagi podshipniklar qo‘llaniladi. Ular termik ishlovdan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak, bu esa uzoq xizmat qilishni ta’minlaydi.

Agar uzum danagi qattiq bo‘lsa, val sirtiga maxsus tishlar o‘rnatish samaradorlikni oshiradi. Tishlar oralig‘i d = 3 mm, chuqurligi h = 1 mm bo‘lishi kerak. Tishli valiklar silliq valiklarga nisbatan kuchli tortish xususiyatiga ega. Ammo yadroni buzmaslik uchun oraliq bosqichda silliq valikdan foydalanish ham tavsiya etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maydagichni hisoblash uchun texnologik va ba’zi konstruktiv parametrlarni qabul qilib olinadi.

Maydalagich konstruktiv parametrlari:

- Qurilma turi: Ikki valikli maydalagich
- Unumdorlik: 500 kg/soat
- Val diametri (D): 250 mm
- Val uzunligi (L): 350 mm
- Aylanish tezligi (n): 120 ayl/min
- Bo‘shliq (δ): 3 mm
- Val materiali: AISI 304 zanglamaydigan po‘lat
- Ramka materiali: Ustun profillar (50x50x5 mm)

Valli maydalagichning konstruktiv hisobi:

Val yuzasining chiziqli tezligi quydagicha aniqlanadi.

$$v = \pi \times D \times n / 60 = 3.14 \times 0.25 \times 120/60 \approx 1.57 \text{ m/s}$$

Bu yerda:

π — doimiy (3.14)

D — val diametri (m) = 0.25 m

ISSN 3030-3907

n — aylanish tezligi (ayl/min) = 120

Uzum danagini maydalash zonasi kesimi aniqlash

Q = 500 kg/soat = 0.139 kg/s — massaviy sarf

ρ = 650 kg/m³ — danakning zichligi

A = Q / (ρ × v) = 0.139 / (650 × 1.57) ≈ 0.000135 m²

Val uzunligi quydagicha aniqlanadi. (L)

L = A / δ = 0.000135 / 0.003 = 0.045 m (amaliy qiymat: 0.35 m)

Val diametrining burilish kuchlanishiga ko‘ra hisobi

T = (P × 9550) / n = (0.75 × 9550) / 120 ≈ 60 Nm — aylanish momenti

P — dvigatel quvvati (kW)

τ — ruxsat etilgan burilish kuchlanish (MPa) = 40 MPa

d = (16 × T / (π × τ))^(1/3) ≈ 25–30 mm (amaliy qabul: 30 mm)

Valikka ta’sir etuvchi kuchlarning umumiy tahlili

Valik maydalanayotgan danaklardan kelayotgan qarshilik kuchlariga bardosh berishi lozim. Kuchlanishlar quyidagi tenglama asosida baholanadi:

$$F = P / v$$

bu yerda:

- F – valikka ta’sir etuvchi kuch, N (Nyuton),
- P – quvvat, Vt (Vatt),
- v – chiziqli tezlik, m/s.

P = 750 Vt, v = 1.57 m/s → F ≈ 478 N

Egilish momenti:

$$M = (F \times L) / 4$$

Berilgan: F = 478 N, L = 0.35 m → M ≈ 41.8 N·m

Egilish qarshilik momenti:

W = π·d³ / 32, d = 30 mm → W ≈ 7960 mm³

Normal kuchlanish:

σ = M / W = 41.8·10⁶ / 7960 ≈ 5.25 MPa (AISI 304 uchun xavfsiz).

Burilish momenti: Valik diametri d = 30 mm bo‘lsa, burilish momenti quyidagicha aniqlanadi:

$$T = (P \times 9550) / n = (0.75 \times 9550) / 120 = 60 \text{ N·m}$$

Burilish kuchlanishi:

$$\tau = 16 \cdot T / (\pi \cdot d^3) = 16 \cdot 60 / (3.14 \cdot 30^3) \approx 1.41 \text{ MPa (60 MPa dan past).}$$

Bu AISI 304 po‘lat uchun ruxsat etilgan kuchlanishdan (τ_ruxsat ≈ 60 MPa) 40 martaga past. Demak, val burilishga to‘liq bardoshli hisoblanadi. Egilish momenti bo‘yicha esa:

$$\sigma = M / W = 41.8 \cdot 10^6 / 7.96 \cdot 10^6 \approx 5.25 \text{ MP}$$

ISSN 3030-3907

Ishchi organlar ish jarayonida ishqalanish natijasida qizishi mumkin. Harorat oshishi metallning deformatsiyasi yoki moy sifatining yomonlashuviga olib keladi. Issiqlik quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$Q=\eta \cdot P$$

Bu yerda: $\eta=0.2 \rightarrow Q=0.2\times750=150$ Vt.

Xavfsizlik koeffitsenti k = σ_ruxsat / σ_real = 215 / 5.25 ≈ 41

Konstruktsiyaning ishonchliligini ta'minlash uchun xavfsizlik koeffitsienti (k) 2–3 oralig‘ida tanlanadi. Bu shuni anglatadiki, valik materialining maksimal ruxsat etilgan kuchlanishi real yuklama kuchlanishidan 2–3 baravar yuqori bo‘lishi kerak. AISI 304 uchun σ_ruxsat = 215 MPa, bizning hisobda esa σ_real ≈ 5.25 MPa: k = σ_ruxsat / σ_real ≈ 215 / 5.25 ≈ 41 (bu juda yuqori, ya'ni loyihalash xavfsiz).

Ramka (karkas) hisob-kitoblari

Karkas 50×50×5 mm burchak profildan yig‘iladi. Ramka konstruktsiyasi valiklarni ikki uchidan qo‘llab-quvvatlaydi va motor, uzatma tizimi og‘irligini ko‘taradi.

Ramka elementlariga ta’sir etuvchi egilish momenti konservativ baho bilan 200 Nm deb olinadi. Burchak profilning qarshilik momenti:

$W = (b\cdot h^3)/6 = (50\cdot 50^3)/6 = 104166$ mm³ $\sigma = M / W = 200\cdot 10^6 / 104166 \approx 1.92$ MPa, bu St3 po‘lat uchun xavfsiz (σ_ruxsat ≈ 240 MPa)

Podshipnik uyasi kuchlanishi

Valiklar SKF 6206 rulmanlarga o‘rnatiladi. Rulman o‘qi bo‘yicha radial kuch 500 N deb qabul qilinadi. Podshipnik uyasining yassi asosga bosim taqsimoti hisobida:

$$\sigma_p = F / A = 500 / (\pi\cdot d^2/4) \approx 0.71 \text{ MPa}$$

Bu quyma po‘lat korpuslar uchun ruxsat etilgan lokal bosimdan past bo‘lib, xavfsizlik kafolatlanadi.

Quvvat sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$P = T \times 2\pi n / 60$$

T — burilish momenti, n — aylanish soni.

P = 60 Nm × 2 × 3.14 × 120 / 60 ≈ 754 W

Shu sababli, 0.75–1.1 kW quvvatga ega elektromotor tanlanadi. Rejalashtirilgan 8 soatlik ish siklida sutkalik energiya sarfi:

$$E = P \times t = 0.75 \text{ kW} \times 8 \text{ soat} = 6 \text{ kWh}$$

Elektromotor va maydalagich valiklar orasida klin tasmasi yordamida harakat uzatiladi. Tasma turi: A-profildagi klinli tasma, uzunligi 900 mm, 2 dona. Taranglik kuchi 200–250 N oralig‘ida. Tasmalar shovqinsiz va vibratsiyasiz aylanishni ta'minlaydi.

ISSN 3030-3907

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tavsiya qilingan konstruksiya uzum danagini siqish asosida maydalash uchun juda mos keladi. Valiklar yadro buzilishini oldini olib, maydalash samaradorligini oshiradi. Qurilma quvvati va kinematik uzatma tizimi mukammal tanlangan, bu ishlab chiqarishni uzluksiz va samarali qiladi.

Ikki valikli maydalagichning konstruktiv parametrlari, material tanlovi va hisob-kitoblari konstruksiyaning ishonchliligini ta'minladi. Vallar yuqori kuchlanishlarga chidamli bo'lib, materialning maksimal ruhsat etilgan kuchlanishidan ancha past qiymatda ishlaydi. Qurilma 500 kg/soat unumdorlikda uzum danagini maydalash uchun mo'ljallangan.

Maydalagich moy ishlab chiqarish tizimida quyidagi tarzda integratsiyalanadi: xomashyo uzatgichdan maydalagichga beriladi, undan so'ng vintli transporter orqali keyingi uskunasiga o'tadi. Chiqindilar alohida yo'naltiriladi. Qurilma yukxalta qabul qilgich, bunker, maydalagich valiklar va chiqarish qismi bilan kompleksda ishlaydi. Moy ishlab chiqarish tizimini integratsiyalash mahsulot sifatini oshiradi va umumiy samaradorlikni ortishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sharipov Nodirzhon STUDY OF THE PHYSICAL PROPERTIES OF CHERRY PITS AND THE FORCE EXPENDED TO CRUSH IT // Universum: технические науки. 2024. №8 (125). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/study-of-the-physical-properties-of-cherry-pits-and-the-force-expended-to-crush-it (дата обращения: 15.07.2025).
2. K.H. Gafurov, & N.Z. Sharipov. (2023). ENGINEERING CALCULATION OF A SOY SEED SPRAYING DEVICE. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(11), 112–116. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/eijmrms/article/view/26876
3. Sharipov N. Z., Kuldosheva F. S., Jumaev J. Research of the Effect of Factors on the Process of Separation of Shadow Seeds from the Peel //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 7. – С. 86.
4. Кулдошева Ф. С., Шарипов Н. З. ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕПЛОВОЙ ОБРАБОТКИ ВИНОГРАДНЫХ КОСТОЧЕК ПОД ВОЗДЕЙСТВИЕМ ВЫСОКОЧАСТОТНОГО ПОЛЯ //Universum: технические науки. – 2023. – №. 5-5 (110). – С. 32-34.
5. Gafurov, K., Safarova, D., Akabirova, L., Sharipov, N., Kuldosheva, F., & Yamaletdinova, M. (2024). Heat treatment of crushed oil seeds sunflower before pressing. In E3S Web of Conferences (Vol. 548, p. 02009). EDP Sciences.

ISSN 3030-3907

6. Sharipov N. Z. Analysis of the process of preparing oilseeds for oil production //Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 2075.
7. Sharipov N. Z., Gafurov K. H. MS Mizomov. Soya seeds from the peel seperating of local growing //International Journal For Innovative Engineering and Management Research. – Т. 10. – С. 337.
8. Кулдошева Ф.С., Ибрагимов Р.Р. Тенденции переработки вторичного сырья (семян винограда) / Universum:Технические науки. 11(80). Ноябрь, 2020 г. С. 75-77.

ISSN 3030-3907

УДК 504.05

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕПЛА И ХОЛОДА В СИСТЕМАХ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ

Ш.П.Мансурова

Джизакский политехнический институт

Аннотация. Рассмотрены вопросы рационального использования тепловой энергии в системах отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха зданий. Представлены современные инженерные решения по утилизации теплоты вторичных энергетических ресурсов; конструкции, принципиальные схемы и термодинамические особенности использования утилизационного оборудования и теплонасосных установок на примерах из опыта отечественной и мировой практики.

Ключевые слова: тепловые аккумуляторы, теплоизоляция, энергия, теплоаккумулирующий материал, теплонасосные установки.

Annotatsiya. Maqolada binolarni isitish, shamollatish va havoni konditsiyalash tizimlarida issiqlik energiyasidan oqilona foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Ikkilamchi energiya manbalaridan issiqlikdan foydalanish uchun zamonaviy muhandislik yechimlari; mahalliy va xalqaro amaliyoti misollarda utilizatsiya uskunalari va issiqlik nasosi qurilmalarining konstruksiyalari, prinsipial sxemalari va ulardan foydalanishning termodinamik xususiyatlari taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: issiqlik akkumulyatorlari, issiqlik izolatsiyasi, energiya, issiqlikni akkumulyatsiyalovchi material, issiqlik nasos qurilmalari.

Annotation. The issues of rational use of thermal energy in heating, ventilation and air conditioning systems of buildings are considered. Modern engineering solutions for utilization of heat of secondary energy resources are presented; designs, basic schemes and thermodynamic features of use of utilization equipment and heat pump units on examples from experience of domestic and world practice.

Keywords: heat accumulators, thermal insulation, energy, heat-storing material, heat pump units.

Введение

В условиях прогнозируемого естественного сокращения запасов традиционного углеводородного сырья и соответствующего роста цен на традиционные энергоресурсы, обеспечение эффективного энергопотребления является важной задачей повышения конкурентоспособности экономики для всех стран. Учитывая, что объем расходуемой энергии в Узбекистане к 2030 году, с учетом роста населения, ВВП, ускорения процессов урбанизации, при прочих равных условиях, может увеличиться с 60 млн.т.н.э. до 150 млн. т.н.э, требуются комплексные

ISSN 3030-3907

меры по повышению энергоэффективности зданий.

Имея относительно высокий по сравнению с другими странами уровень энергоемкости экономики, Узбекистан имеет и большие резервы для радикального снижения энергопотребления и экономии энергоресурсов, и первую очередь в жилищной сфере и при эксплуатации зданий.

Повышение энергоэффективности зданий также может иметь значительные социальные эффекты. Внедрение энергоэффективных зданий будет способствовать созданию продуктивной занятости как в рамках секторов строительства, производства теплоизоляционной продукции и энергоэффективного оборудования, так и в смежных отраслях.

Экономия и снижение затрат населения на коммунальные услуги по отоплению и обеспечению электроэнергией на 25-30%, могут способствовать направлению сэкономленных средств на дальнейшее улучшение энергоэффективности жилищ, удовлетворение других потребностей населения, на развитие предпринимательской деятельности. Переоборудование домов и использование надлежащих технологий жилищного строительства значительно улучшают тепло-, влаго– и шумоизоляцию внутренних помещений, обеспечивают более высокую комфортность и увеличивают сроки их эксплуатации без ремонта. Комплексные программы могут также способствовать улучшению эстетического облика зданий.

Использование тепловых аккумуляторов в системах теплоснабжения, отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха зданий и сооружений обусловлено несовпадением периодов поступления от источников бросовой теплоты или теплоты возобновляемых источников и ее потреблением. Кроме того, аккумулирование позволяет эффективно использовать теплоту, которая может быть потеряна или использована частично.

К техническим и экономическим предпосылкам применения аккумуляторов теплоты относятся:

- покрытие кратковременных пиковых потребностей, например, в теплоснабжении при очень низких наружных температурах воздуха;
- упрощение регулирования систем отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха;
- исключение необходимости в эксплуатации систем отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха с неполной нагрузкой, приводящей к потерям;
- использование ночного тарифа на электроэнергию;

ISSN 3030-3907

• снижение мощности электроподключения и, следовательно, потребления электроэнергии.

Включение тепловых аккумуляторов в системы отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха ведет к повышению капиталовложений, которые должны покрываться прежде всего за счет снижения эксплуатационных затрат. Тепловые аккумуляторы экономичны тогда, когда годовые суммарные затраты на установках с аккумуляторами ниже, чем у таких же установок без аккумуляторов. Поскольку сравниваемые варианты включают также обычные системы отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха, требования к экономичности теплоаккумуляторов очень велики. Поэтому стремятся, чтобы:

•удельная экономия энергии, отнесенная к массе или объему теплоаккумулирующего материала, была наиболее высокой;

•энергия аккумулировалась с возможно меньшими ее потерями, т.е. температуры на входе и выходе аккумулятора были близки;

•применялись дешевые, широко распространенные аккумулирующие материалы;

•обеспечивался требуемый режим работы с минимальным количеством дополнительного оборудования (насосов, арматуры и т.д.).

Аккумулирование теплоты может быть долгосрочным, в основном предназначенным для годового или сезонного ее хранения, и краткосрочным, при котором теплота хранится от нескольких часов до нескольких дней или недель. Например, осуществление в течение суток пикового потребления теплоты в системах отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха лучше обеспечивать с использованием аккумуляторов первой группы. Сохранять энергию для последующего использования в течение недели, месяца или нескольких месяцев можно в аккумуляторах всех трех групп. Системы аккумулирования теплоты подразделяются на централизованные для обслуживания крупных потребителей или группы мелких потребителей и децентрализованные для индивидуальных потребителей.

Система аккумулирования теплоты эксплуатируется во взаимодействии с источником энергии и ее потребителем и включает следующие компоненты:

•сосуд или резервуар для теплоаккумулирующего материала с теплоизоляцией;

•теплоаккумулирующий материал, в котором накапливается и хранится теплота;

ISSN 3030-3907

• теплообменное оборудование, предназначенное для передачи теплоты от источника энергии к теплоаккумулирующему материалу при зарядке аккумулятора и от теплоаккумулирующего материала к потребителю при разрядке аккумулятора.

Сосуды или резервуары тепловых аккумуляторов должны иметь хорошую теплоизоляцию, что особенно важно для сезонных установок, поскольку длительный период должен сохраняться достаточно высокий температурный уровень. Толщину теплоизоляции рассчитывают в краткосрочных аккумуляторах по такому же алгоритму, как и для труб. В долгосрочных аккумуляторах критерием служит учет минимального требуемого уровня температуры в конце периода аккумулирования.

Краткосрочные аккумуляторы не требуют больших капиталовложений, и их используют для покрытия временных потребностей в тепловой мощности распределительной сети систем отопления, вентиляции и кондиционирования воздуха.

Ведущую роль в разработке систем аккумулирования теплоты занимают Швеция, США, Дания, Германия. В этих странах проводятся наиболее интенсивные научно-исследовательские и экспериментальные работы по использованию тепловых аккумуляторов для теплоснабжения зданий или отдельных населенных пунктов.

В инженерной практике наиболее востребованными являются аккумуляторы физической (явной) теплоты, а среди них - водяные теплоаккумуляторы. Вода - наиболее дешевый и повсеместно распространенный теплоаккумулирующий материал с высокой удельной теплоемкостью, равной 4,19 кДж/(кг · °С), что почти вдвое выше, чем удельная теплоемкость камня.

Для сезонного хранения теплоты перспективно использование водоемов, водоносных слоев, баков, грунта, скальных пород и т.д.

Водяные баки-аккумуляторы из металла или железобетона применяются для создания надземных или заглубленных в землю хранилищ. При проектировании баков-аккумуляторов особое внимание уделяется стабильному положению слоев воды с более высокой температурой над слоями с меньшей температурой. В зависимости от скорости поступления воды в аккумулятор, разности температур между прямой и обратной линиями, размеров резервуара возникает зона смешивания, которая приводит к снижению мощности аккумулятора. Поддерживать стратификацию жидкости можно конструктивными решениями и ограничением скоростей на

ISSN 3030-3907

вводе воды в аккумулятор до v<0,1 м/с. Для вертикально стоящих аккумуляторов рекомендуется отношение высоты к диаметру больше 2,5.

Не допускать перемешивания воды и создавать переходные зоны можно с помощью разделительных мембран, перфорированных плит или других устройств, уменьшающих конвективный перенос теплоты.

